Motivatsion komponent (anglaydi): ta'lim oluvchilar kompetentligini rivojlantirishda fanning o'rmi va ahamiyati. Bilishga oid (biladi): asosiy tushunchalar va bazaviy vazifalarni yechishning usullari; ta'lim oluvchilar kompetentligini rivojlantirishning usullari; bilimlarni kasbiy muammolarni hal qilish jarayonida qo'llash.

Faoliyatli (qila oladi): faoliyatning asosiy harakatlarini bajarishda tizim ichidagi va tizimlararo bilimlarni yangi vaziyatga o'tkazish, qonuniyatlarini, obyektning xususiyatlarini ochish; an'anaviy vaziyatdagi yangi muammoni ajratib ko'rsatish; nostandart masalalarni yechishda kreativ usullarni qo'llash; pedagogik vaziyatlarda modellashtirish bosqichlarini amalga oshirish. Refleksiv (doimiy dinamiklik asosida amalga oshiradi): shaxs xususiyatlarini rivojlantirish qonuniyatlari asosida o'z-o'zini baholash; faoliyatni amalga oshirish jarayonida guruhdagi o'z faoliyatini tahlil qilish; olingan natijalarni taqqoslash va baholash mezonlarini tanlash; xulosalarni shakllantirish; kasbiy pedagogik faoliyatini amalga oshirishda o'z harakatlarini – o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirishda maxsus topshiriqlar – pedagogik faoliyatga yo'naltiruvchi topshiriqlar kompleksidan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga yo'naltiruvchi topshiriqlar tipologiyasini tavsiflash uchun qator tadqiqotlar tahlil qilindi (B.To'xliyev [2], A.A.Shxonin [3], L.V.Shkerina [4] va boshq.). Pedagogik faoliyatga yo'naltiruvchi topshiriqlar tushunchasini aniqlash uchun «vazifa», «o'quv vazifalari», «topshiriq», «o'quv topshiriqlari», tushunchasini ko'rib chiqamiz. Pedagogik ensiklopediyada o'quv vazifasining quyidagi ta'rifi beriladi: «1) kuzatish, tajribalar, adabiyotlarni o'rganish va kognitiv faoliyatning boshqa turlarida hal qilinishi kerak bo'lgan muammoni shakllantirish; 2) talabalar auditoriyada, laboratoriyada yoki boshqa sharoitlarda mustaqil bajarishlari kerak bo'lgan har qanday masalani o'rganish uchun o'qituvchi tomonidan belgilangan ish hajmi; butun o'quv guruhi uchun, uning bir qismi yoki individual mo'ljallangan bo'lishi mumkin» [5]. L.M.Fridman fikriga ko'ra, «vazifa» – bu ma'lum bir shartga nisbatan ba'zi bir aniq yoki bilvosita ko'rsatilgan harakatlar ketma-ketligini bajarish uchun ba'zi bir tilda (tabiiy yoki sun'iy) bildirilgan talab [6]. Topshiriq tushunchasini tahlil qilish davomida tushunchaning ta'riflarida umumiy jihat ko'zga tashlandi. Bu ularning yo'naltiruvchi xarakterga ega ekanligidir. Masalan, pedagogika izohli lug'atlarida qayd etilishicha, topshiriq – o'quvchilarni ijobiy xatti-harakatga yo'naltiruvchi ta'lim-

tarbiya metodi [7]. Kompetentlikka yo'naltirilgan vazifalar deganda standart yoki nostandart, hayot va kasbiy vaziyatlarni modellashtiradigan va mustaqil bilim faoliyatini amalga oshirishni talab qiladigan vazifalarni, shuningdek, bunday faoliyatga tayyorlikni belgilaydigan shaxsiy fazilatlar tushuniladi [8]. Pedagogik faoliyatga yo'naltiruvchi topshiriqlar sifatida standart va nostandart kasbiy vaziyatlarga taqlid qiluvchi, imitatsion kasbiy faoliyatni amalga oshirishni nazarda tutuvchi, pedagogik masalalarni hal qilishda turli usullardan foydalanish talablarini aniq yoki bilvosita o'z ichiga olgan vazifalar tushuniladi.

Turli mualliflarning kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan vazifalarni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlari tahliliga ko'ra hamda bo'lajak o'qituvchilarning didaktik tayyorgarligini takomillashtirish uchun yuqoridagi shartlarni hisobga olgan holda pedagogik faoliyatga yo'naltiruvchi topshiriqlarni ishlab chiqish tamoyillarini ko'rib chiqamiz: 1) Ilmiylik. Topshiriqlardagi ma'lum muammolar yechimining ilmiy asoslarga ega bo'lishi shuningdek, ta'lim oluvchilarning o'quv va hayotiy faoliyat elementlarini amalga oshirishiga asoslanish lozim. 2) Moslanuvchanlik. Topshiriqni bajarishning maqsadi talabalar tomonidan yangi bilimlarni olish va pedagogik muammolarni hal qilishda pedagogik faoliyatni ongli ravishda amalga oshirish tajribasini egallashdan iborat bo'lishi kerak. 3) Interpretatsiya. Topshiriqni bajarishda talabaga topshiriqni bajarish usuli to'liq ma'lum emas yoki unga ma'lum bo'lgan usullarning kombinatsiyasidan iborat bo'lishi. Talabalar axborotlarni tushunish, interpretatsiya (lot. «interpretatio» – tushuntirish, izohlab, berish [9; 169-b.]) qilish, ya'ni, axborotning ma'nosini, tub mohiyatini ochib berish, tushuntirishga jalb qilinadi: 1) Obyektivlik. Vazifadagi ma'lumotlar ortiqcha, etishmayotgan yoki nomuvofiq bo'lishi (obyektiv bo'lmasligi) mumkin. Talaba muammoni hal qilish uchun obyektiv ma'lumotlarni tanlashi kerak yoki yetarli bo'lmagan taqdirda qo'shimcha obyektiv ma'lumotlarni qidirishi kerak. Vazifadagi ma'lumotlar turli shakllarda taqdim etilishi mumkin: rasm, jadval, diagramma, diagramma, grafik, matn, video va boshqa ko'rinishlarda. 2) Amaliyot bilan bog'liqlik. Topshiriqni ishlab chiqishda talim oluvchilarning hayotiy tajribasidan foydalanish.

Pedagogik faoliyatga yo'naltiruvchi topshiriqlarni bajarish jarayonida muhim jihatlarni quyidagicha ifodalash mumkin: pedagogik faoliyatga yo'naltiruvchi nostandart topshiriqni yechishda ilmiy-nazariy materialga tayanishning ahamiyatini tushunish; yo'naltiruvchi ta'limiy faoliyatni amalga oshirish va rivojlantirib borish zarurati; pedagogik faoliyatga yo'naltiruvchi nostandart topshiriqlarni yechish texnikasini rivojlantirib borishda talabalarning bilimlarni yangi vaziyatga o'tkazish, obyektning muhim xususiyatlarini aniqlash ko'nikmalarini shakllantirib borish; o'quv profili yoki pedagogik faoliyat mavzusiga aloqador bo'lmagan muammo syujetini tahlil qilish; modellashtirish usullaridan ijodiy foydalanish: berilgan chizma bo'yicha yangi syujetlarni taklif qilish: topshiriq uchun mualliflik syujetini tuzishda g'oyalarni shakllantirish, xulosalarni shakllantirish; ma'lumotlarni qayta ishlash asosida ularni tizim ichidagi va tizimlararo yangi vaziyatga o'tkazish; nostandart yondashuvni o'z ichiga olgan yechim taklif etish, mavjud matn ma'lumotlari asosida chizma (diagramma jadval) chizish; amaliyotga yo'naltirilgan muammolarni hal qilishda bilimlardan foydalanish imkoniyatlarini anglash; intuitiv idrok va ehtimollik nazariyasi o'rtasidagi ziddiyatning mavjudligini baholash asosida tasodifiy hodisalar ehtimolini bashoratlash.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishda pedagogik faoliyatga yo'naltiruvchi topshiriqlar jamoaviy ish ko'rinishlarida ham qo'llanilishi mumkin.

Pedagogik faoliyatga yo'naltiruvchi topshiriqlarni quyidagi mavzular doirasida umumlashtirish mumkin: 1) Pedagogik faoliyatga doir me'yoriy ta'lim hujjatlari tahlili: Me'yoriy ta'lim hujjatlariga muvofiq o'qituvchi qanday vakolatlarga ega bo'lishi lozim? Ta'limga oid

tushunchalar mazmuni qanday aniqlashtiriladi? Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishda pedagogik faoliyatga yo'naltiruvchi topshiriqlarni bajarish jarayonini tashkil etish uchun refleksiv usullar – muayyan ta'lim maqsadlariga erishishni va uning semantik ma'nolarini tahlil qilish asosida introspeksiya, mustaqil faoliyat qobiliyatini oshirishni ta'minlovchi o'qituvchi va ta'lim oluvchining o'zaro bog'liq faoliyati usullari qo'llaniladi [10]. 2) Pedagogik jarayonni modellashtirishga oid: «Pedagogik jarayonni modellashtirish» atamasini qanday tushunasiz? Pedagogik jarayonni modellashtirish jarayoni qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi? Modellashtirish yordamida yechish mumkin bo'lgan pedagogik vaziyatlarga qanday misollar keltira olasiz? Bu talabalarda o'z-o'zini tahlil qilish, maqsadlarni to'g'rilash va pedagogik faoliyati yo'nalishini loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi: fxborotni qayta ishlashga oid. Ta'lim natijalarini diagnostika qilishni meyorlashtiruvchi qanday hujjatlarni bilasiz? Axborotni qayta ishlashga ta'lim oluvchiga muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan ortiqcha yoki yetarli bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim etishga asoslanadi. Yetishmayotgan ma'lumotlar bilan bog'liq masalani yechishda talabalardan ushbu ma'lumotni aniqlashni va keyin yetishmayotgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi obyektga misol keltirish foydali. Bu uslub obyektning tuzilishi va funksiyalari to'g'risida chuqur tasavvurni shakllantirish, tafakkurni umumlashtirish va ko'p qirrali yo'naltirish, shuningdek, bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda uyg'unlashtirish va yangi vaziyatga o'tkazish uchun muhim.

Pedagogik faoliyatga yo'naltiruvchi topshiriqlarning quyidagi darajalarini ajratib ko'rsatish mumkin. Kognitiv darajali topshiriqlar: axborotni o'zlashtirish va ma'lum algoritmlar asosida qo'llashga doir topshiriqlar. Odatda bunday topshiriqlarni o'quv materiallarini o'zlashtirishning dastlabki bosqichlarida qo'llash maqsadga muvofiq. Bunda o'qituvchi topshiriqlar maqsadini belgilashga alohida e'tibor berishi kerak: pedagogik faoliyatda axborotni qayta ishlash imkoniyatlari haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish va tizimlashtirish; aqliy faoliyatning analitik va sintetik qobiliyatlarini rivojlantirish; turli o'lchamdagi va turdagi ma'lumotlar, o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish. Rekonstruktiv darajali topshiriqlar: fikrlash faoliyatini namoyon qilish, yashirin muammoni aniqlash va yechim topish, o'xshashliklarni va farqli jihatlarni tasniflash, zarur nazariy material qidiruvini amalga oshirish va uni amaliy vazifa bilan solishtirish kabilarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Amaliy ish turlari sifatida axborotni tizimlashtirish va uning jadval va grafik shakllarda taqdim etish, taqdimotlar, referat va tayanch tushunchalar bo'yicha eslatmalar tayyorlash kabilarni bajariladi. Rekonstruktiv darajali topshiriqlarni bajarishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari qo'llaniladi: muammoli texnologiyalar, loyiha texnologiyasi va boshqalar. Konstruktiv darajali topshiriqlarni bajarishda fanga oid bilimlarni to'liq mustaqil darajada qo'llay olish ko'zda tutiladi. Belgilangan maqsadlarga erishilganlik turli aks ettiruvchi natijalar yordamida baholanadi: yechimning tahlil qismi to'g'riligi; yechim mantig'ining o'ziga xosligi; natijalarni taqdim etishda kreativlik; o'zlashtirilgan bilimlar va pedagogik faoliyat tajribasining rolini tushunish. Konstruktiv darajali topshiriqlarni bajarishda o'qituvchi talabalar harakatlarining muvofiqashtiruvchisi sifatida ishlaydi: talabalar uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqadi; pedagogik muammo (ta'dqiqot, loyiha va boshq.) mavzularini aniqlashga yordam beradi, loyiha faoliyatining bosqichlarini tushuntiradi, taqdimotlar uchun muhokamalar tashkil etadi va h.k.

Xulosa. Demak, aytilish mumkinki, pedagogik faoliyatga yo'naltiruvchi topshiriqlar sifatida standart va nostandart kasbiy vaziyatlarga taqlid qiluvchi, imitatsion kasbiy faoliyatni amalga oshirishni nazarda tutuvchi, pedagogik masalalarni hal qilishda turli usullardan foydalanish talabalarini aniq yoki bilvosita o'z ichiga olgan vazifalar tushunilib, bo'lajak o'qituvchilarning didaktik tayyorgarligini takomillashtirishda pedagogik faoliyatga yo'naltiruvchi topshiriqlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. - 2003. - № 5. - С. 34-42.
2. То'хлиев В., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi: O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. - 192 b.
3. Шехонин А.А. и др. Компетентностно-ориентированные задания в системе высшего образования. - СПб.: НИУ ИТМО, 2014. - 98 с.
4. Шкерина, Л.В. Измерение и оценивание уровня сформированности профессиональных компетенций студентов - будущих учителей математики: Учебное пособие. - Красноярск: КГПУ, 2014. - 136 с.
5. Педагогический словарь: <http://enc-dic.com/pedagogics/Исследовательский-Метод-Обучения-710>
6. Шершнева В.А., Перехожева Е.В. Педагогическая модель развития компетентности выпускника вуза // Высшее образование в России. - М., 2008. - № 1. - С. 152-154.
7. Pedagogik atamalar lug'ati / Djo'rayev R.X. va boshq. - T.: Fan, 2008. - 198 b.
8. Бекешева И.С. Формирование креативной компетентности будущих бакалавров-учителей в процессе обучения математике на основе специального комплекса заданий: Дис. ... канд. пед. наук. - Абакан, 2017. - 250 с.
9. Falsafa qomusiy lug'at. - T.: Sharq, 2004. - 496 b.
10. Ниязбаева Н.Н. Рефлексивные методы обучения в высшей школе: http://www.rusnauka.com/12_KPSN_2013/Psihologija/8_133984.doc.htm

«IJTIMOIY DAVLAT» TAMOYILI ASOSIDA IJTIMOIY VA HUQUQIY XATAR GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARI

Hasanov Tohir Abdurashidovich, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori v.b., i.f.d., dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy-huquqiy xavf guruhidagi yoshlarni «Favdo davlat» tamoyili asosida qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: qo‘llab-quvvatlash, mexanizm, yoshlar, xavf guruhi, «farovonlik davlati» tamoyili.

МЕХАНИЗМЫ ПОДДЕРЖКИ МОЛОДЕЖИ В ГРУППЕ СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВОГО РИСКА НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПА «СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА»

Хасанов Тохир Абдурашидович, и.о.профессора Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан, д.э.н., доцент

Аннотация. В данной статье раскрыты механизмы поддержки молодежи в группе социально-правового риска на основе принципа «социального государства».

Ключевые слова: поддержка, механизм, молодёжь, группа риска, принцип «социального государства».

SUPPORT MECHANISMS FOR YOUNG PEOPLE IN THE SOCIAL AND LEGAL RISK GROUP ON THE BASIS OF THE "SOCIAL STATE" PRINCIPLE

Hasanov Tohir Abdurashidovich, associate professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, d.e.s.

Abstract. This article reveals mechanisms for supporting youth in the social and legal risk group based on the principle of a «welfare state».

Key words: support, mechanism, youth, risk group, principle of the «welfare state».

Kirish. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida «ijtimoiy davlat» g‘oyasini ilgari surgan holda, ijtimoiy davlatni barpo etishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Jumladan, bu borada alohida to‘xtalib, «Biz Yangi O‘zbekistonni «ijtimoiy davlat» tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak», deya ta’kidladi.

Asosiy qism. «Ijtimoiy davlat» tushunchasining tub negizida, avvalo, inson qadrini ulug‘lash, aholiga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam. Ijtimoiy davlat har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratib beradi. U ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo‘yicha samarali siyosat olib boradigan davlat modelidir.

Ijtimoiy davlatning o‘ziga xos funksiyalari mavjud bo‘lib, ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash; korrupsiya, qashshoqlik va ishsizlikka qarshi kurash; yosh tadbirkorlarga yordam; aholi bandligi va daromadlari doimiy o‘shishini ta‘minlash; jamiyatning barcha a‘zolarini ijtimoiy sug‘urta bilan ta‘minlash; ta‘lim, sog‘liqni saqlash va ma‘naviy-madaniy rivojlanishning qulayligini ta‘minlash; ehtiyojmand shaxslarni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy

himoya qilish; ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, imtiyozlarni qayta taqsimlash orqali munosib turmush sharoitlari yaratish; ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish.

Umuman olganda, ijtimoiy davlatda mehnatga layoqatli har bir insonning bandligi ta'minlanadi. Uning munosib hayot kechirishi uchun yetarli miqdordagi ish haqi belgilanadi, ishchi uchun xavfsiz mehnat sharoitlari yaratiladi, ishsizlikdan himoyalanih, sifatli ta'lim, malakali tibbiy xizmat olish huquqlari real amalga oshiriladi. Bolalar, ayollar, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, migrantlar va ularning oila a'zolari har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi. Ta'kidlash joizki, 2023-yil 26-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish, «mahalla yettiligi» faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda bir qator vazifalar belgilangan edi. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash uchun mahalla boshqaruv tizimini takomillashtirish va «mahalla yettiligi» faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha Prezidentimizning 2023 yil 21 dekabrda PF-209-son «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi. Albatta, bu kabi maqsad va vazifalar o'z natijasini beradi. Shu boisdan ham xalqimizga yanada ko'proq xizmat qilish uchun mahalla xodimlari soni endilikda «beshlik» emas, «yettilik» tizimiga o'tkazildi.

Ta'kidlash lozimki, yangidan tashkil qilinayotgan bu tizimdagi ijtimoiy xodimning vazifasi og'ir ahvolga tushib qolgan yoki shu ahvolga tushish ehtimoli bo'lgan fuqarolar hamda oilalar bilan ishlaydi, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularga kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmat ko'rsatishni, ko'maklashishni tashkil qiladi. Yana bir ahamiyatli jihati, «mahalla yettiligi» tomonidan mahallaning ichki resurslarini aniqlash hamda ularni ijtimoiy xizmatlar va yordam ko'rsatish uchun safarbar etishda ko'maklashiladi. Mahallalardagi muammolarning o'z vaqtida va samarali yechilishida davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillari sa'y-harakatlari birlashtiriladi. Yoshlarni ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlash maqsadida har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida «Yoshlar daftari» tizimi joriy etildi. Shuningdek, «mahallabay» o'rganishlar asosida yoshlar duch kelayotgan muammolarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida barcha tuman (shahar)larda «Yoshlar dasturi» ishlab chiqish va amalga oshirish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi «Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori PQ-92-sonli qarori qabul qilindi va unga ko'ra Yoshlar yetakchisining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi: «Yoshlar balansi»ni shakllantirish, yoshlar to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni «Yoshlar daftari» va «Yoshlar portal» elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish; mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o'yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish; yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'mini topishlariga ko'maklashish; yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash; huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan yoshlar bilan tizimli ishlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod

qilingan, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko'maklashish.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning aksariyati ijtimoiy sohaga yo'naltirilganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ularga davlat tomonidan kafolatlar tizimi orqali yordam ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Ishsizlikdan himoyalani, kafolatlangan sifatli ta'lim berish, malakali tibbiy yordam ko'rsatish, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo'lgan shaxslarni, migrantlar va ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlatimizning doimiy diqqat markazida. Davlat budjetining asosiy qismi aynan shu kabi masalalarga yo'naltirilayotgani ham fikrimizning amaliy tasdig'idir. Alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan oilalar, ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun respublika miqyosida joriy etilgan «Temir daftar», «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» va «mahallabay» ishlash tizimi ham ijtimoiy davlatning mohiyatini va hayotiy ko'rinishini namoyon etmoqda. Shu o'rinda mamlakatimizda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning ijobiy natijalari ham diqqatga sazovor. Chunonchi, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 27% dan

70 foizga oshib, 2 millionga yaqin bolaning bog'cha bilan qamrab olingani xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari 2,5 barobarga oshishi, ya'ni ularning soni 198 taga yetishi, o'z navbatida, oliy ta'limga qamrov darajasi 9% dan 38% ga oshishiga zamin yaratdi. Shu qatorda, 40 dan ziyod oliygohga akademik va moliyaviy mustaqillik berilishi ulardagi ta'lim sharoiti va sifati sezilarli darajada yuksalganiga hissa qo'shganini qayd etib o'tish ham adolatdan bo'ladi. Shuningdek, aholining ehtiyojmand qatlamlarini uy-joy bilan ta'minlash ijtimoiy davlatning muhim vazifalaridan biridir.

Ta'kidlash o'rinliki, so'nggi olti yilda mamlakatimizda 500 mingga yaqin yangi uy-joy qurilib, foydalanishga topshirildi. Uy-joyga bo'lgan ehtiyojni qondirish bo'yicha birinchi marta ayollar va yoshlarga, ehtiyojmand oilalarga subsidiyalar ajratish tizimi yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni ish bilan ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Yoshlar bandligini ta'minlashda ilg'or zamonaviy usullardan foydalangan holda, yigit-qizlardan 5,2 mingga «Future Skills Uzbekistan» va «Bir million dasturchi» loyihalari doirasida IT kasblariga, 6,4 mingga «Yoshlar 1+1» va «Tadbirkor ayol» loyihalari doirasida tadbirkorlik ko'nikmalari va xorijiy tillar bo'yicha o'qitildi. Yoshlar va xotin-qizlarda zamonaviy kasb, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida «Ishga marhamat», band bo'lmagan aholiga xizmat ko'rsatuvchi «Monomarkaz», tuman va shahar kasb-hunarga o'qitish markazlari, mahallalarda kasb-hunarga o'qitish maskanlari faoliyat yuritmoqda.

Taraqqiyot strategiyasining maqsadlariga erishishda Prezidentimiz asosiy e'tiborni birinchi galda Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya hisoblangan ta'limni rivojlantirishga qaratish kerakligini ta'kidladi. Jumladan, joriy yilda 70 ta yangi maktab qurilishi, 460 ta maktab kengaytirilishi, xususi investitsiyalar ishtirokida 100 ta maktab qurish loyihasi boshlanishi, kelgusi besh yilda ularning sonini mingtaga yetkazish belgilab olingani ham bejiz emas. Endilikda mamlakatimizda nafaqat maktab qurilishi va sifatli ta'limga, shu bilan birga, sifatli ta'lim negizini yaratuvchi «sog'lom turmush tarzi hamda sog'lom va sifatli ovqat bilan ta'minlash»ga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur tajriba 2022 yildan boshlab Qoraqalpog'iston va Xorazmda yo'lga qo'yilib, 285 ming boshlang'ich

sinf o'quvchisi uchun bepul ovqatlanish yo'lga qo'yilgan edi. Uzluksiz ta'limning bir qismi bo'lgan oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash yuzasidan joriy yilda imtiyozli ta'lim kreditlariga resurslar 2 barobar ko'paytirilib, 1,7 trillion so'm, ilm-fan va innovatsiyalarga esa 1,8 trillion so'm ajratilmoqda.

Xulosa. Umuman olganda, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lami islohotlar «Inson qadri uchun» tamoyili asosida aholi turmush darajasini yaxshilash, ularning farovon hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoit hamda qulayliklarni yaratishga qaratilgan. Bu yilgi davlat dasturida nazarda tutilgan har bir band va uni maqsadli amalga oshirish mexanizmlari ham fikrimizning yaqqol dalilidir. Bu xayrli ishlar «Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat», degan ezgu g'oyani ro'yobga chiqarish, xalqimizni rozi qilish, erkin va farovon jamiyat barpo etishda muhim omil bo'ladi.

OLIV TA'LIMDA MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Maxmudova Darmonjon Bozorboevna, O'zPFITI doktoranti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning o'z-o'zini mustaqil rivojlantirishda ma'suliyantni oshirish, mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil qilishda alohida yondashuvni amalga oshirish, shaxsiy yondashuv to'g'risida so'z boradi. Talabalar o'z-o'zini mustaqil rivojlantirish, o'zlarining mustaqil ta'lim olishlari uchun maqsadlarni belgilash, o'z bilimlari va imkoniyatlarini aniqlash hamda kengaytirish qobiliyatini rivojlantirish imkonini berishi izohlanadi.

Tayanch so'zlar: oliy ta'lim, mustaqil ta'lim, talaba, o'z-o'zini mustaqil rivojlantirish, mustaqil faoliyat, mustaqil ish.

ВАЖНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Махмудова Дармонжон Бозорбоевна, докторант УзНИИПН, PhD

Аннотация. В данной статье речь идет о развитии самооценки учащихся, реализации особого подхода к организации самостоятельной учебной деятельности, личностного подхода. Обозначена возможность для развития у студентов стремления к самостоятельному развитию, умению ставить цели для своего самостоятельного образования, определению своих знаний и способностей, а также расширению способностей.

Ключевые слова: высшее образование, самостоятельное образование, студент, самостоятельное развитие, самостоятельная деятельность, самостоятельная работа.

THE IMPORTANCE OF ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION IN HIGHER EDUCATION

Makhmudova Darmonjon Bozorboevna, doctoral student of the UzSRIPS, PhD

Abstract. This article will focus on the development of students' self-esteem, the implementation of a special approach to the organization of independent learning activities, and a personal approach. We strive to ensure that students can develop independently, set goals for their independent education, determine their knowledge and abilities, and develop the ability to expand.

Key words: higher education; Independent education; Student; Independent development; independent activity; independent.

Kirish. Zamonaviy ta'limda oliy ta'lim muassasalarining nufuzi, professor o'qituvchilarning ilmiy salohiyati, xalqaro ilmiy hamjamiyatda munosib o'ringa ega bo'lishi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu muammo echimi ta'lim jarayoniga xalqaro tajribalarni joriy qilish, dunyoda tan olingan fan arboblari, yuqori malakali professor-o'qituvchilarni jalb etish, ilm-fanni rivojlantirish, loyiha va tadqiqotlarni ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish, ilmiy faoliyat amaliyot bilan bog'lash, natijadorligini oshirish, iqtidorli talabalar ilmiy izlanishlar olib borishi uchun zarur sharoitlar yaratilishini taqazo qiladi.

Asosiy qism. Globallashuv sharoitida jadallik bilan rivojlanayotgan bir paytda oliy ta'lim tizimi taraqqiyotning asosiy zanjiri hisoblanadi. Respublikamizda ta'lim jarayonining zamon bilan hamnafas bo'layotganiga qaramasdan mehnat bozorida tarkibiy o'zgarishlarga javob beradigan, yoshlarimizga kasb-hunar o'rgatadigan, ularda tashabbuskorlik, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantiradigan tizimning takomillashtirish echimiini kutayotgan bugungi kunning dolzarb masalalardan biri sifatida kayd etilmoqda.

Oliy ta'limning o'z oldiga qo'yan asosiy maqsad va vazifasi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisi talablariga javob bera oladigan, tanlagan kasbi sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan, erkin

va mustaqil fikrlay oladigan, yuksak ma'naviyat-ma'rifatga ega bo'lgan yuqori salohiyatli hamda ijodiy qobiliyati iqtidori shakllangan, faoliyati davomida o'zini rivojlantira oladigan, kreativ yondashadigan, o'zini-o'zi boshqarish va innovatsion faoliyatga ixtisoslashgan raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat [1].

Inson faoliyatida ta'lim har doim o'z-o'zini tarbiyalashdir, bu esa, muayyan yoshdan boshlab, insonning ruhiyati, e'tiqodi va doimiy mashqlari asosida amalga oshirilib boriladi. Shu o'rinda fikrimizni talabalarga yo'naltirsak. Bugungi kun kechagi kun emas, ustoz aytib talaba yodlaydigan zamon o'tdi. Shuning ishonch bilan aytilish mumkinki, talaba mustaqil ishlashni o'rganmasa, tanlagan sohasini chuqur egallay olmaydi. Ularni ta'lim olishlari uchun yaratilgan shart-sharoit kitoblar, darsliklar bir vosita, xolos. Uning kelajakdagi o'zi tanlagan sohani faqat kitob yoki o'qituvchidan o'rganish orqali amalga oshirib bo'lmaydi. Buning uchun o'zi qiziqqan va tanlagan sohadagi muammolarga echimlarni qidirish ustida mustaqil izlanish va qiziqish, harakat talab etiladi. Bu masala echimi talabalarning oliy ta'lim jarayonidagi mustaqil ta'lim soat sonini oshirish orqali emas, balki, talabalarning mustaqil ta'limining rolini mustahkamlash hamda o'quv jarayonini tashkil etishda talabalarni fanlarni o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish, olingan bilimlarni integratsiyalashgan innovatsion ijodiy faoliyatga tatbiq etish, ijtimoiy hayotga moslashish uchun mo'ljallangan bo'lishi bilan izohlanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni yo'lga qo'yish jarayonida nafaqat talablarni muayyan fan bo'yicha bilim ko'nikma va malakalarini oshirish, ularda erkin fikrlash, mustaqil dunyoqarashni shakllantirish, intellektual ijodiy va ilmiy tafakkurni rivojlantirish vazifasi turaradi. Buning uchun ta'lim jarayonidagi ijodiy yondashuv talabadan aniq, tezkor fikrlashni va faol haraktni talab qiladi. Sababi talabadagi izlanuvchilik, faollik ijodiy faoliyatga aylangan taqdiridagina mehnatni ilmiy tashkil qilish, vaqtdan unumli foydalanish amalga oshadi. Ana shunda talaba qiziqishlar asosida o'zining diqqatini muayyan obyektga qarata oladi. Aslida ijodiy faoliyat shunchaki oson kechadigan jarayon hisoblanmaydi. Bu jarayonda shaxsning sezgisi, idroki uning xotirasi hamda mantiqiy tafakkuri bir-biri bilan bog'liq holda ishlaydi. Ijodiy faoliyatda talabadagi bilim innovatsion ko'nikma va malakalar bilan yanada takomillashib boradi [2].

Oliy ta'lim muassasasida talabalar mustaqil faoliyatining rivojlanishida raqamli o'quv resurslari etakchi o'rinda turadi, jumladan, o'quv-metodik qo'llab-quvvatlaydi. Hozirgi kunda muassasalarning platformalarga joylanishi ham talabalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan ma'lumotni olindan tanishish va tayyorgarlik ko'rib tushunchalar shakllantirish uchun imkon yaratadi [3]. Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda o'quv jarayonida ta'lim resurslaridan foydalanish asosan pedagogning shaxsiy tashabbusi va g'ayratiga bog'liq. Bunda yakka yoki birgalikda internet portalida ishtirok etish orqali ortiqcha vaqt hamda energiya sarflashni oldi olinadi. Ushbu resurslar bazasida materiallar mustaqil ish uchun savollar va vazifalar, topshiriqlarni o'z ichigida jamlaydi. Taklif qilinadigan ro'yxatga ma'ruzalar hamda amaliy mashg'ulotlardagi barcha vazifalar va nazorat savollar materiallari, shuningdek, fanning har bir predmeti uchun test topshirig'ini ham kiritilishi tavsiya etiladi.

Natijada talabalarga darslarga tayyorgarlik ko'rishda kam vaqt va kam kuch sarflash, shuningdek, sifatli o'quv materiallarini ishlab chiqishga imkon beradi. Yana shuni ta'kidlash mumkin ochiq savollar va topshiriqlar orqali talabalarning o'quv jarayonidagi muammolarini bartaraf etish va auditoriyada mulohazalarni amalga oshirishda hayajonni kamaytirishga erishiladi.

Talabalarning bilim va ko'nikmalar sifatini ko'p jihatdan mustaqil ish topshiriqlarni tuzilishi hamda joriy nazoratning doimiy o'tkazilishiga bog'liq. Xo'sh joriy nazoratning doimiy o'tkazilishini qanday amalga oshirish mumkin? – degan savol tugilishi tabiiy. Shu sababli doimiy talabalarni topshiriqni qanday bajarganligi hisobotni amalga oshirish uchun har bir dars boshida oldingi darsdagi materiallari yoki raqamli o'quv resurslaridan foydalangan holda o'zlashtirgan mavzu bo'yicha qilgan ishlari, olingan natija, chiqarilgan xulosalar

yuzasidan qisqa ma'lumot prezentatsiya, video yo'llanma yoki fanidan kelib chiqib yozma sinov o'tkazish tavsiya etiladi.

Qisqa muddatli (10-15 daqiqalik) sinov (topshiriq bajarilishi yuzasidan), multimediyali proektor yoki elektron doska yordamida taqdimot ko'rinishida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Yoki bo'lmasa, video rolik tayyorlash orqali natijalar, xulosalar to'g'risida ma'lumotlar tayyorlansa, talabalarda asosiy muammolardan biri bo'lgan muomala va nutq madaniyati masalasini qisman echimini topgan bo'lardik [4].

Sinov natijalariga ko'ra, talabalar baholanadilar, ball oladilar hamda kredit to'plab borishadi. Bunday ishlar talabalarni doimiy o'quv materiallari bilan mustaqil ravishda ishlashga va darslarga tayyorgarlik ko'rishda mas'uliyatli bo'lishga undaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning o'z-o'zini mustaqil rivojlantirishda, mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil qilishda alohida yondashuvni amalga oshirish muhim omillardan biri hisoblanadi.

Pedagog tomonidan talabalarga shaxsiy yondashuv, ko'pincha, taklif etilgan vazifalar mazmuni orqali amalga oshiriladi. Ularni bajarish vazifalarni qiyinchilik darajasiga qarab har xil usullarda (alohida-alohida (individual), juftliklar, guruhlar yoki jamoada birgalikda) amalga oshirilishi taklif qilinadi.

Talabalar mustaqil ishni pedagog tomonidan tavsiya etilgan vazifalardan mustaqil ravishda tanlanishadi. Tanlovni amalga oshirishda talabalar o'zlarining ta'lim olishlari uchun maqsadlarni belgilash, o'z bilimlari va imkoniyat chegaralarini aniqlash hamda kengaytirish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Raqamli o'quv resurslaridan foydalangan holda mustaqil ta'lim reja-dasturini (topshiriqlarni) bosqichli hamda ketma-ket murakkablashtirib borish lozim.

Demak, talabalarni o'z-o'zlarini mustaqil rivojlantirishlari uchun, eng avvalo, talabalar-ning mustaqil ishini rejalashtirishdan boshlash lozim. Chunki rejasiz har qanday faoliyat natijaga erishmaydi.

Xulosa. Talabalar uchun mustaqil ta'lim jarayonida mashg'ulotlarda taqdim etilgan topshiriqlar, materiallar o'z-o'zidan o'qish paytida hamda keyingi kurslarda (ayniqsa, sirtqi ta'lim talabalari uchun) foydalaniladigan asarlari to'plamini to'ldiradi. Natijada, yangicha yondashuv o'quv jarayonini kuchaytiradi, semestr davomida talabalarning o'z-o'zini mustaqil rivojlantirishda ma'suliyanti oshiradi, mustaqil ishini jadallashtiradi hamda talab darajasida baholashlarning ehtimolini oshiradi. Oliy ta'lim muassalari o'quv jarayoniga raqamli ta'lim resurslarini joriy etilganligi va undagi imkoniyatlar fanning o'quv-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi ta'limini rivojlantirishga, talabalarni mustaqil yo'naltirishga imkoniyat yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot uchun zamonaviy kadrlar kerak: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-oktabr kuni oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi: president.uz/uz/lists/view/2107.

2. Makhmudova D.B. Motivation of psychology of students' educational activity // *Academia an International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal)* ISSN: 2249-7137 Vol. 12 Issue 04, April 2022 Impact Factor: SJIF 2022 = 8.252. DOI: 10.5958/2249-7137.2022.00256.7

3. Xusainov R.R. Oliy ta'limda fanlarni o'qitish sifatini oshirishda mustaqil ta'limning roli // *Zamonaviy ta'lim. - T., 2016. - 4-son.*

4. Makhmudova D.B. Design activity as a means of developing creative and aesthetic skills of preschool children // *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 9, 2020. ISSN 2056-5852. EJRRRES. Vol. 8 No. 9, 2020.*

IJTIMOY XATAR GURUHIDAGI YOSHLARDA PSIXOLOGIK TASHXIS MUAMMOLARI

Berdiev Ganji, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Tarbiyada oiladagi psixologik muhitning ahamiyati katta. Mamlakatimizda yoshlarning ma'naviy, ruhiy va axloqiy barkamol o'sishi va strategik vazifa hisoblanadi. Globalashuv davrida millati, madaniyatimizga yot bo'lgan g'oyalar, odatlar kirib kelishi kuchaydi. Jinoyatchilikning, jinoyatga moyillikning o'smirlar va yoshlar orasida oshishi jamiyat va davlatning taraqqiyotiga salbiy ta'sir yetishi mumkin. Shu sababli ijtimoiy xatar guruhiga kiruvchilar psixologik diagnostikasi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tayanch so'zlar: oila, oiladagi psixologik muhit, dunyoqarash, ruhiy salomatlik, yoshlar tarbiyasi – strategik vazifa, «Ommaviy madaniyat», jinoyatga moyillik, xatar guruhi, axloqiy buzuqlik, psixologik diagnostika.

ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ У МОЛОДЕЖИ ГРУППЫ СОЦИАЛЬНОГО РИСКА

Бердиев Ганжи, кандидат психологических наук, доцент

Аннотация. Психологическая среда в семье имеет большое значение в воспитании. В нашей стране моральное, духовно-этическое развитие молодежи является стратегической задачей. В эпоху глобализации возросло внедрение чуждых нашей нации и культуре идей и обычаев. Рост преступности и криминальных тенденций среди подростков и молодежи может оказать негативное влияние на развитие общества и государства. Поэтому психологическая диагностика группы социального риска является актуальной задачей.

Ключевые слова: семья, психологическая обстановка в семье, мировоззрение, душевное здоровье, образование молодежи является стратегической задачей, «Популярная культура», склонность к преступлению, группа риска, развращенность, психологический диагноз.

AMONG THE YOUTH IN THE SOCIAL RISK GROUP PROBLEMS OF PSYCHOLOGICAL DIAGNOSIS

Berdiev Ganji, candidate of psychology, associate professor

Abstract. The psychological environment in the family is of great importance in upbringing. In our country, the moral, spiritual and ethical development of young people is a strategic task. In the era of globalization, the introduction of ideas and customs alien to our nation and culture has increased. The increase in criminality and criminal tendencies among teenagers and young people can have a negative impact on the development of society and the state. Therefore, psychological diagnosis of the social risk group is an urgent task.

Key words: family, psychological environment in the family, worldview, mental health, youth education is a strategic task, «Popular culture», propensity for crime, risk group, moral turpitude, psychological diagnosis.

Kirish. Donishmandlar: «Sen menga do'stlaringni, oilangni ko'rsat men sening kimgingni aytaman», deganlar. Rostdan ham insonning yetuk shaxs sifatida rivojlanishida oilaning, uning atrofidagi psixologik muhitning ahamiyati katta. Chunki, yetuk fazilatlar yoki jinoy xulq-atvor ko'p hollarda oilada shakllanadi. Ota-onaning o'zaro hurmati, mehr-muhabbati; o'dob-axloqi bolaning dunyoqarashiga ruhiy ma'naviy salomatligiga; yetuk inson bo'lishiga zamin tayyorlaydi. Shu sababli keyin vaqtlarda mamlakatimizda oila, maktab va mahalla tizimida ta'lim va tarbiya masalasi strategik vazifa sifatida belgilandi.

Asosiy qism. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2016-yilda: «Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatiga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohaga bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuchi va imkoniyatlarini safarbar etamiz», – deb bu sohadagi islohotlarga turtki bergan edi. Davlat rahbarining yoshlar siyosatiga katta e'tiboriga sabab yuritishimizga, millatimizga yot bo'lgan turli oqimlar «ommaviy madaniyat», globallashuv davrida xatarli axloqiy buzuvchiliklarning kirib kelishi kuchaydi. Yurt boshimizning keltirgan raqamlari hech kimni befarq qoldirmaydi: yoshlar tarbiyasiga yetarli e'tibor qaratilmagani oqibatida 2016-yili 18-dan 30-yoshgacha bo'lgan fuqarolar tomonidan jami 31 ming 933 ta jinoyat sodir etilgan [1]. Afsuski, bunday holat yer yuzidagi ko'p davlatlarga xos, ayniqsa, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda agressiya; terrorizm; turli xavotirlanish; zo'ravonlik rahmsizlik va impulsiv ravishda qilingan jinoyatlar soni bir necha barobar oshdi.

Jinoyatchilik va xulqi og'ishganlarning o'smirlar va yoshlar orasida o'sish an'anasi jamiyat va davlat taraqqiyotiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Shu sababli psixologlar, kriminalistlar, pedagoglar va boshqa mutaxassislar bu sohada keng izlanishlar olib bormoqdalar. Birinchi navbatda, ijtimoiy va huquqiy xatar guruhiga kiruvchilar aniqlab olish kerak toifaga quyidagilar kiradi: ijtimoiy muhitdan begonalashganlar; anomiya (ijtimoiy, ahloqiy va boshqa normalardan chetga chiqqanlar); hayotdan qoniqmaganlar; hayotning mazmun va ma'nosini yo'qotganlar; hayotdan qoniqmaganlar, hayotga befarqlar; doimiy hayotdan zerikuvchilar; hayotning qadrini yo'qotganlar; ekzistensial nevroz; neogen nevroz; falsafiy nevroz; kelajakka ishonchning yo'qolishi, befarqlik; qadriyatlarining yo'qligi; ma'naviy qadriyatlar yo'qligi oqibatida yuzaga kelgan kasalliklar va inqirozlar; aksiologik depressiya; o'ziga o'lim tilash; taqdirga tan berish; o'zini hayotda keraksizdek his etuvchilar; orzu-havaslarining yo'qligi, apatiya, yengilish, qiyinchiliklarni uddalash hissinging yo'qligi (koping strategiyasi); o'zini o'z his etish, irodasi sustlar; hamma narsadan gumon, hayotda ahamiyatli, qadrli narsa yo'q, deb hisoblovchilar; qiyinchilik, azob; hayotda hursandchilik yo'q, deb hisoblovchilar; sinizm. Hech narsaga ishonmaydi. Hayotda ulug' qadriyatlar yo'q, deb hisoblovchilar; hayotdan shikoyatlarining ko'payib ketishi; hamma joyda faqat yomonlikni ko'rish; maqsadsiz buzish, buzg'unchilik, g'azab, vandalizm; kattalardan, yaqinlardan (ota-ona va boshqalardan) jamoa va jamiyatdan begonalashuv [2, 338-339-b.]. Bu ro'yxatga additiv sindrom, ijtimoiy (antisotsial) qarshi xulq-atvor, suitsid xulq-atvor, konform xulq-atvor, narsiss, fanatik va autistik xulq-atvorlarni ham kiritish mumkin.

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan ro'yxat (A.Maslov tomonidan kiritilgan)dagi simptom (yoki sindrom) mavjud shaxslardagi bu nuqsonga psixologik tashhis qilishda ozgina chalkashlik bor. Ro'yxatdagi xulq-atvor ilmiy adabiyotlarda «deviant xulq-atvor» yoki «xulqi og'ishgan xulq-atvor» deb nomlangan. B.S.Bratus, Yu.M.Antonyan, V.V.Guldan va boshq. o'z asarlarida bu psixik nuqsонlarni «Shaxs anomaliyasi» yoki «Shaxs patologiyasi», – deb ta'riflashadi. Aslida fikrimizcha, bu tushunchalar orasida ularning ma'nosidagi farq katta. Shaxs anomaliyasini chuqur o'rgangan rus olimi B.S.Bratus o'zining «Anomalii lichnosti» kitobida [3, 50-51-b.] quyidagicha yozadi. «Bizning fikrimizcha, anomaliyaning oxirgi (og'ir) variantlari yorqin patologik holatlarga o'tadi». «Anomaliya – bu odamiylik normasidan chetga chiqish, ya'ni insonni o'zining insonlik aslidan, avlod ajdodlarga xos mohiyatidan ajratuvchi holat. B.S.Bratus anomaliyaga ta'rif berib, bunday shaxslarda: «Egotsentrizm kuchli, o'zini birovga bag'ishlash va sevisga qobiliyatsizlik, tashqi vaziyatlarga beriluvchan, erkinlikka ehtiyoj juda kam yoki umuman yo'q, o'z fikrini yorqin bemalol ifoda etishga noloyiq (ifoda eta olmaydi), o'z kelajagini loyihalashga aqli yetmaydi, o'z imkoniyatlariga ishonmaydi, o'zi oldida va boshqalar uchun ma'suliyatni his etmaydi (kelajakdagi avlodlar uchun javobgarlik ham yo'q), eng muhimi o'zining asl hayot mazmuni bo'lishiga intilmaydi (yoki mutlaqo xohishi yo'q)».

Shaxs patologiyasi – inson xususiyatlarining kuchli buzilishlari hisoblanib, psixoz, shizofreniya, oligofreniya, bosh miyaning organik kasalliklari, miya jarohati va boshqa og'ir psixik kasalliklarga aytiladi.

Xulqi og'ishgan shaxslarni ijtimoiy va huquqiy xatar guruhiga kiritilishini yoqlab D.A.Leontev ham quyidagilarni ta'kidlaydi: «Ijtimoiy va huquqiy xatar guruhiga kirishiga quyidagi omillar sabab bo'ladi: shaxsning ichki dunyosida qonunlarni buzishga to'sqinlik qiluvchi kuchlarning kuchsizligi yoki yo'qligi, qonun bilan konfliktning mavjudligi, shuningdek, boshqa juda ko'p omillarning mavjudligi». Ijtimoiy va huquqiy xatar guruhiga kiruvchilarni psixologik, tibbiy jihatdan shaxs anomaliyasi, deb atash har tomonlama to'g'ri bo'ladi. Bu oldimzdagi birinchi vazifa edi. Ikkinchi vazifa esa, xulqi og'ishganlar, ya'ni deviant xulq-atvorli shaxslarning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini aniqlash. Bu belgilar quyidagicha namoyon bo'ladi: birinchidan, xulqi og'ishganlik bu – shu jamiyatda, shu zamonda qabul qilingan ijtimoiy normalardan chetga chiqish bilan xarakterlanadi. Bu shu jamiyatda qabul qilingan qonun, tartib-intizom, odob-axloq, ijtimoiy yo'riqnomalardir; ikkinchidan, xulqi og'ishgan xulq-atvorli shaxs o'ziga yoki yonidagi kishilarga zarar keltirishi mumkin. Boshqalarga moddiy yoki axloqiy zarar keltirish, jismoniy zo'ravonlik yoki salomatlikka zarar keltirish shundan iborat; uchinchidan, tamaki chekish, spirtli ichimlik ichish shaxsning shaxsiy ishi, ammo, qachonki spirtli ichimlik ichgan shaxs jamoatchilik tartibini buzsa bu deviant xulq-atvor hisoblanadi; to'rtinchidan, xulqi og'ishgan shaxs tibbiy jihatdan sog'lom, uni psixik kasallik yoki patologik holatlar bilan adashtirmaslik kerak, ammo, xulqi og'ishganlik ba'zan patologiya bilan qo'shilib kelishini ham unutmashimiz kerak. Masalan, tobek holati og'ir kasallik holatiga o'tishi, alkogolizm, narkomaniyani keltirib chiqaradi. Klinik psixolog yoki tibbiyot xodimi ayrim holatlarda xulqi og'ishganlikni: sog'lomlik – kasallikdan oldingi holat – kasallik kelib chiqishini e'tibordan chetga chiqarish kerak; beshinchidan, xulqi og'ishganlik ko'p hollarda turli ijtimoiy dezodapsiya bilan qo'shilib keladi. Ijtimoiy dezodapsiya, o'z navbatida, xulqi og'ishganlikka sabab bo'lishi ham mumkin; oltinchidan, xulqi og'ishganlik har bir shaxsning xarakteriga, temperamentiga, boshqa individual xususiyatlariga qarab turlicha kechishi mumkin. Demak, xulqi og'ishganlik har shaxsda turlicha ko'rinishda yuz beradi. Xulqi og'ishganlik birovda yengil (e'tibor berishga arzimaydigan darajada) bo'lsa, birovda esa, og'ir ko'rinishda shaxsning hayot faoliyatini izdan chiqaradigan darajada kuchli kechadi.

Xulqi og'ishgan – deviant shaxslarga psixologik ta'rifni 1997-yil B.S.Bratusning quyidagi fikrlari bilan yakunlash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Agar zamonaviy jamiyatdagi an'analar haqida gapiradigan bo'lsak, shuni tan olishimiz kerakki, ko'pchilik odamlar uchun aynan o'ziga xos tashxis diagnoz quyidagicha: psixik sog'lom – ammo shaxsiy jihatdan kasal (majruh) [4, 77-b.]. Xulqi og'ishganlar va kriminal psixopatologiyada izlanish olib borgan olimlarning (V.V.Korolev, Yu.M.Antonyan, V.V.Guldan) ta'kidlashlaricha, xulqi og'ishganlarning katta qismida «axloqiy deformatsiya, vijdon deformatsiyasi, ahloqiy-ma'naviy buzulq mavjud».

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, xulqi og'ishganlarning 67% da estetik qiziqishlar, dunyoqarashlar past darajada bo'lar ekan. Hayot mazmunining yadrosini, mag'zini shaxsning ma'naviy-ahloqiy jihatlari; vijdon butunligi (soffigi); dunyoqarash va e'tiqodning yuqoriligi tashkil etsa, xulqi og'ishgan-deviant shaxsning – yoshlarning hayot mazmuni o'rganishda yuqoridagi ma'lumotlar asos bo'lib xizmat qiladi. Fikrimizning yana bir isboti sifatida: deviant shaxs o'zining insoniylik vazifasini bajarishga yengil qarovchi, hayot mazmuni haqidagi fikrlari sayoz, moddiy qiziqishlar yuqori, ma'naviy qiziqishlar kam, empatik va refleksiv qobiliyati sust, hayot va faoliyatning mazmunini tushunib yetmagan shaxsdir (A.Maslou). !Insoniyligi sustlashgan! odam, deb ta'riflaganda juda haq edi. Patopsixolog olim B.V.Zaygarnik va uning shogirdlari tomonidan shaxs patologiyasini o'rganishga katta e'tibor berildi. Olim yozadi: «Shaxs patologiyasi haqida qachonki gapiramiz, qachonki kishida turli kasalliklar (turli ta'sirlar natijasida) hayotiy qiziqishlari

kundan-kunga kamayib boradi, extiyojlari maydalashadi, oldin uni hayajonlantirgan narsalarga u endi e'tiborsiz bo'lib qoladi. Kishining xatti-harakatlari maqsadsiz, xulq-atvori o'ylamasdan amalga oshiriladi, xulq-atvorini boshqara olmasdan qoladi, o'z imkoniyatlarini ham to'g'ri baholay olmaydi. Natijada, insonning o'ziga va boshqalarga munosabati o'zgaradi. Munosabatlarning bunday o'zgarishi esa, shaxs o'zgarishining indikatorini hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan va bayon etilgan shaxslardagi patologik o'zgarishlar birinchi navbatda, mazmun jabhasini buzadi. Zaygarnik yuqorida ayrim kasalliklar oqibatida yuzaga keladigan shaxs o'zgarishlarini yozadi. Lekin, bizning o'rganish obyektimiz jismonan sog'lom shaxslar tomonidan qiladigan jinoyatlar va jinoyatchilar haqida ijtimoiy va huquqiy xatar guruhiga kiruvchi yoshlarni o'rgangan izlanuvchilarning fikricha, bu yerda ahloqiy buzilish yetakchi rol o'ynaydi. Patopsixologiya va kriminal psixologiyada axloqiy buzilishlar, ularni keltirib chiqaruvchi yetakchi omillar, axloqiy buzilishning dinamikasi, psixologik kartinasi (jinoyatchining shakllanishi), uning psixologik diagnostikasi kam o'rganilgan [5]. Axloqiy fazilatlar shaxs hayot mazmunining asosini tashkil etadi, deb faraz qilishga haqlimiz. Bu fikrimizning isboti sifatida izlanuvchi olim M.K.Hoshimovning quyidagi fikrlarini keltiramiz: «Axloqiy rivojlanishni insonparvarlik, adolat, muhabbat, ezgu niyat yo'nalishida olib borish axloqiy tarbiyaning bosh masalasi, hisoblanadi. Bu axloqiy kategoriyalar turli hayotiy vaziyatlarda to'g'ri yo'lni topa olishga yordam beradi. Fojiali va o'ta murakkab hayotiy vaziyatlarda aynan shunday yuksak axloq egalari yagona, konstruktiv va axloqiy jihatdan yetuk yechimni topishlari mumkin» [6, 13-b.].

Xulosa. Bundan kelib chiqadiki, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik imkoniyatlari integrallashgan, verbal-kasbiy rivojlanish va diagnostik qayd etish «Xorijiy til» fan modullari orqali o'z fikrini adekvat ifodalash kompetensiyalari verbal, noverbal va paraverbal vositalarni modellashtirish, texnologik, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni ijobiy moslashtirish asosida takomillashtirish kerakligi; verbal-kasbiy kompetensiyani rivojlantirish modeli mantiqiy tuzilmalar va ilmiy abstraksiyalarni optimallashtirish hamda selektiv, ogohlik, samaradorlik, ijodiy tabiiy sezish mezonlarini validligi adekvatligini ta'minlash asosida aniqlash; og'zaki muloqot vositalari orqali kasbiy kompetensiyani oshirish mezonlari og'zaki muloqot vositalarining pedagogik salohiyatidan foydalanish jarayonida ta'lim darajasiga mos kelishi va kognitiv, operatsion va shaxsiy-ijodiy mezonlarni o'z ichiga olishi kerak degan xulosaga keldik.

Adabiyotlar:

1. Адольф В.А. Теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителя: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. - М., 1998. - 48 с.
2. Ashurov A. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi va uning mazmun-mohiyati // Foreign Languages in Uzbekistan. - T., 2020. - № 1(30). - С. 76-83.
3. Рискулова К.Ж. Бўлажак инглиз тили ўқитувчиси социолингвистик компетенциясини шакллантириш тизими: Дис. ... канд. пед. наук. - Т., 2017.
4. Пулатова Д.Р. Интенсив таълим технологиялари асосида нофилологик таълим йўналиши талабаларини коммуникатив компетенцияларини такомиллаштириш: Пед. фанл. бўйича фанл. д-ри (PhD) ... Дис. - Т., 2021.
5. Химматалиев Д.О. Бо'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mexanizmi // Zamonaviy ta'lim. - Т., 2020. - 7 (92)-son.
6. Ne'matova G.A. Jurayev T.A. Pedagogical conditions for the formation of socio-cultural competence of students // Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi. - U., 2022. - 2-son.

TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATI KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Qalandarov Habib Kamilovich, UrDU Ta'lim sifatini nazorat qilish
bo'limi bosh mutaxassisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quv jarayonida talabalarning mustaqil faoliyati, mustaqil ishning kommunikativ, ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlarga erishishga qaratilganligi, ijodiy faoliyati jarayonida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning o'ziga xos usullari, u bo'yicha bir qancha olimlar, tadqiqotchilarning nazariy yondashuvlari yuzasidan bildirigan fikrlari va ularga tanqidiy yondashuvlar tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: *mustaqil ta'lim, mustaqil ish, ta'lim tizimi, ko'nikma, ilmiy-ijodiy faoliyat, o'quv-biluv jarayoni, ijodiy qobiliyat, ijodiy faoliyat, takomillashtirish, didaktik ta'minot.*

СВОЕОБРАЗНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

*Каландаров Хабиб Камилевич, главный специалист отдела
управления качеством образования УрГУ*

Аннотация. В данной статье рассмотрена самостоятельная деятельность студентов в учебном процессе, цели самостоятельной работы, направленные на достижение коммуникативных, учебно-воспитательных целей, своеобразные методы организации самостоятельной работы студентов в процессе творческой деятельности, теоретические подходы. Проанализированы мнения ряда ученых и исследователей и критические подходы к ним.

Ключевые слова: *самостоятельное образование, самостоятельная работа, система образования, умения, научная и творческая деятельность, учебный процесс, творческие способности, творческая деятельность, совершенствование, дидактическое обеспечение.*

STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING SKILLS DURING THE EDUCATIONAL PROCESS FEATURES OF FORMATION

*Kalandarov Khabib Kamilovich, chief specialist of the Department of educational
quality control of UrSU*

Abstract. This article examines the independent activity of students in the educational process, the goals of independent work aimed at achieving communicative, educational goals, unique methods of organizing independent work of students in the process of creative activity, theoretical approaches. The opinions of a number of scientists and researchers and critical approaches to them are analyzed.

Key words: *independent education, independent work, education system, skills, scientific and creative activities, educational process, creative abilities, creative activity, improvement, didactic support.*

Kirish. XXI asrda jahon miqyosida ta'lim jarayoni barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida «sifatli ta'lim olish va ijodiy qobiliyatni rag'batlantirish» dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu esa, ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil, ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish,

ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirishning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish, ixtirochilik ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy didaktik parametrlarini aniqlash-tirishni taqozo etadi. O'quv jarayoni, undagi o'zgarishlar, uning ko'p faoliyatli didaktik maydonga aylanishi talaba shaxsiga nisbatan yangicha zamonaviy munosabatni qaror toptirishni taqozo qiladi.

Asosiy qism. Bugungi kunda zamonaviy o'quv jarayoni barcha ta'lim muassasasida fundamental bilimlarni shakllantirish bilan birga talabalarning mustaqilligi va faol harakatchanligini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatli hisoblanib, bunda intellektual rivojlantirish o'quv jarayonining ustivor maqsadidir. O'quv jarayoni subyektlariga nisbatan qadriyatli munosabat pedagogik madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim jarayonining demokrativlashuvi o'quvchi shaxsiga nisbatan qadriyatli munosabatning shakllanishiga asos bo'lmoqda.

Nazariy manbalarning tahlili shuni ko'rsatdiki, talabalarning kommunikativ, tarbiyaviy maqsadlarni o'zida mujassam qilgan mustaqil ishlash sohasida bir qator xorijiy davlatlarda katta pedagogik tajriba to'plangan. Bular: AQSh, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Germaniya, Fransiya, Avstriya kabi mamlakatlarda talabalarni mustaqil ta'limi tushunchasi, o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'lim mazmunida o'z aksini topadi hamda unga qaratilgan davlat miqyosidagi dasturlar va rejalar mavjud. Bu mamlakatlarning tajribalaridan shu narsa ayonki, ularda ta'lim jarayonida talabalarning mustaqilligini tashqi hamda ichki omillar ta'sirida faollashishi uchun qulay pedagogik muhit yaratilgan. O'qituvchilar har bir talabani individual xususiyatlarini biladilar. Shunga ko'ra, ular mustaqil ijodiy ishlash jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishga ham ko'maklashadilar va har bir talabani o'z-o'zini faollik sifatida ko'rish yo'nalishlarini belgilaydilar.

Har bir shaxsning mustaqil ijodiy faoliyat bo'yicha o'z ustida ishlash istagi va imkoniyatlarini, uning shaxsiy sifatleri o'zgarishi bilan bog'liq. Bunda insonning shaxsiy, ichki, erkin, ixtiyoriy, nuqtai nazari muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Talabalarning mustaqil faoliyatiga yo'naltirilgan ta'lim muhiti yuqorida ta'kidlanganidek, ichki va tashqi pedagogik ta'sirlar bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashadigan tashqi – pedagogik ta'sirlar qanchalik ko'p bo'lsa, uning tarkibiy qismlari ham shunchalik izchil bo'ladi. Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, talabalarning mustaqil faoliyat ko'nikmalari to'g'ri, izchil, maqsadga muvofiq tarzda rivojlantirishni ta'minlash uchun, uning tashqi ta'sirlarga nisbatan mustaqilligini oshirish zarur, ichki manbalari mohiyatining ortib borishi natijasida, ularning mustaqil fikrlash darajalari ortadi hamda intellektual qiyofasi o'zgaradi. Bu jarayonda talabalarning fikriy barqarorligi va atrof-dagi o'zgarishlarga nisbatan bir xildagi o'ziga xos munosabati qaror topadi.

Taniqli ruhshunos A.Maslouning ta'kidlashicha, ta'lim oluvchining ongli faoliyatiga asoslangan mustaqilligi katta ozodlik va erkinlik imkoniyatiga ega. Shunga ko'ra, shaxsining mustaqilligini uning ozodligi va erkinligi sifatida baholanishi kerak. D.A.Leontev, V.V.Zaysevlar shaxsning erkinligi va ozodligini istagan paytda boshqa yo'nalishga burish mumkin bo'lgan faol harakat sifatida talqin qiladilar. Shunga ko'ra, ta'lim jarayonida talabalarga mustaqil faoliyatni yondashuvni ta'minlash orqali ularni intellektual rivojlantirishga xizmat qiladigan izchil didaktik tizimni vujudga keltirish lozim. Har bir shaxsning ichki mustaqil emasligi unga ta'sir qiluvchi tashqi hamda ichki kuchlarni tushunmasligiga olib keladi. Bunday talabalar o'z oldilariga aniq maqsadlar qo'ya olmaydilar, chunonchi, har bir talabani mustaqil fikrlash faoliyatlarini ta'minlash orqali, ularning faolliklari va intellektual rivojlanishlarini ta'minlash mumkin.

N.N.Poddyakov ta'lim oluvchi taraqqiyotida aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ijodiy rivojlanish kabi yo'nalishlar muhimligini ta'kidlaydi [1]. E.V.Ilenkov esa, talabalarni mustaqil faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish natijasida, ularda sodir bo'ladigan o'zgaradigan jihatlari: o'zaro aloqadorlik asosida fikrlash imkonini beradigan madaniy tafakkur asoslarini egallash imkoniyatlari kengayishi; yuqori darajadagi hissiyotlarga asoslangan tasavvur etish layoqatlari rivojlanishi; moddiy olamni ma'naviy-axloqiy jihatdan idrok etish imkoniyatini beradigan axloqiy madaniyat ko'rinishlarini egallashlari; jismoniy salomatliklari va bergienalarini rivojlantirish imkonini beradigan jismoniy madaniyat asoslarini ongli tarzda o'zlashtirishish jihatlari shakllanishini izohlaydi.

I.Kanningem, J.Xsu, K.Hamilton, J.Vang, S.Virtanen kabi tadqiqotchilar mustaqil ishni tashkil etishning shakl va usullari, uning mazmuni, tuzilishini tanlash, mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari aniq oydinlashtirilmaganligini ta'kidlash bilan birgalikda, mustaqil ta'lim o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'lim ekanligini izohlaydilar. Taniqli ruhshunoslar G.A.Sukerman, B.M.Masterov, E.G'oziev, Z.Nishonovalar mustaqil ta'lim faoliyati ko'nikmalarini shakllantirishning eng muhim manbai hamda yo'nalishi intellektual rivojlantirish orqali ta'lim oluvchilarning o'z faoliyatlarini ongli va tabiiy tarzda amalga oshirish hamda takomillashtirishga bo'lgan intilishlarini tushunadilar.

Talabalarning mustaqillik darajasini o'rganish natijalarining nazariy yondashuvlarga tayanilgan holda shuni aytish mumkinki, ularning bilimlarni mustaqil egallash va amaliyotda qo'llashning real imkoniyatlari maxsus izlanish hamda maqsadli ishlab chiqishni talab qiladi. Bu jarayonda har bir shaxs o'z faoliyatlari mohiyatini anglamasdan turib, uni izchil tarzda amalga oshira olmaydi.

Ta'lim jarayonida talabalarning o'quv-biluv faoliyati, mustaqilligi, ularning o'ziga xosliklari, ehtiyojlari va mayllarini hisobga olgan holda tashkil etish muhim didaktik qimmatga egaligi aniqlandi. O'quv jarayonida har bir talabani mustaqil tarzda ongi va faoliyati har doim o'zaro aloqadorlikda rivojlanadi hamda bir-birini taqozo qiladi. Bundan xulosa sifatida aytish joizki, ta'lim oluvchilarni mustaqil ishlarini tashkil etishning o'ziga xos usullari natijasi xalqning ijtimoiy tajribasi, dunyoviy va milliy madaniyat hamda fan-texnika yutuqlarini ongli o'zlashtirilishini vujudga keltiradi. Chunki talabalarning bunday tajribalar va bilimlarni o'zlashtirishlari o'quv faoliyati davomida amalga oshiriladi, natijada, ularda mustaqil o'quv, intellektual hamda ijodiy ko'nikmalar hosil bo'ladi. Shuningdek, bunday mustaqil faoliyat tajribasi talabalarning guruhdoshlari, o'qituvchilari, ota-onalari va atrofdagilar bilan o'zaro muloqotlari davomida muntazam bo'yib boradi. Shu tariqa mustaqil rivojlanishining ichki – pedagogik va tashqi – ijtimoiy jihatlari o'zaro uyg'unlashib boradi.

Talabalarning mustaqil bilim faolligini shakllantirish o'quv jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ta'lim oluvchilarni ruhiy va aqliy jihatdan rivojlantirish imkoniyatiga ega. Bunday jarayonda ularning mustaqil faoliyatlarini shakllanishi natijasi kundalik o'quv hamda mehnat harakatlari davomida unga amal qilishlari ta'minlanadi. Talabalarning mustaqil faoliyatlarini tarkibiga kiruvchi muhim layoqatlardan biri, turli murakkab, ierarxik strukturalarni loyihalashtirish, qurish layoqati hisoblanadi. Bu o'rinda ularning o'zlashtirgan bilimlari, mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko'nikmalari muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Ularning mustaqil ish faoliyatlarini murakkablashtirish orqali, ularni intellektual qobiliyatlari (o'rganilayotgan hodisalarni solishtirish, umumlashtirish, tasniflash)ni rivojlantirishga ko'maklashish mumkin.

Ta'lim oluvchilarning muayyan turdagi qobiliyatlari rivojlanar ekan, bu, o'z navbatida, o'zaro aloqador bo'lgan qobiliyatlarning taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Individuallashtirilgan

ta'limning muhim omillari sifatida faoliyat turlarining ko'pqirraliligi va turli-tumanlilikini ko'rsatish mumkinki, o'ta qobiliyatli talabalar xuddi mana shunday faoliyatni amalga oshiradilar. Bu esa, shaxsni mustaqil ishlash, mustaqil fikrlash hamda ijodiy izlanish imkoniyatlari sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar o'quv jarayonida bunday yondashuvni barcha ta'lim muassalarning o'quv jarayoniga keng tatbiq etish lozimligini ko'rsatadi. Natijada, ta'lim oluvchilarning intellektual taraqqiyotlari ta'minlanib, mustaqil fikrlash va ijodkorlik faoliyatlari kengayadi. Bu ulardagi qiziqishlar doirasining kengayishida namoyon bo'ladi, natijada, ular tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar moddiy olamni anglashlariga ko'maklashadi. Bu esa, o'z navbatida, mustaqil va ijodiy fikrlash jarayonlarini rivojlantirish uchun nihoyatda muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Поддьяков Н.Н. Творчество и саморазвитие детей дошкольного возраста: Концептуальный аспект. - Волгоград: Перемена, 1994. - 48 с.
2. Abdurazakov A.A., Nazyrov E.P. Mutaxassislarni shakllantirishda talabalarning mustaqil ishlarining ahamiyati: O'quv qo'llanma. - T., 1976.
3. Куликова Л.М., Куликов Л.М. Самостоятельная работа студентов на производственной практике как фактор развития профессиональной компетентности // Теория и практика физической культуры. - М., 2013. - № 8. - С. 39-43.
4. Киселева А.В. Самостоятельная работа студентов: традиции и новые подходы // Современная высшая школа: инновационный аспект. - М., 2016. - Т. 8. - № 3. - С. 92-101.
5. Мардахаев Л.В., Никитина Н.И. Современные педагогические парадигмы непрерывного профессионального образования специалистов социальной сферы в вузовском комплексе // Вестник Сибирской государственной автомобильно-дорожной академии. - 2012. - № 2 (24). - С. 146-152.

O'QITUVCHI NUTQ MADANIYATINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Isaeya Mu'abbat Ra'monaliyeva, O'R QK Akademiyasi dotsenti

Annotatsiya. Har bir kishining yoshiga, bilimiga, umumiy izlanish saviyasiga qarab, uning nutqi o'ziga xos hususiyatlarga ega bo'ladi. Har bir avlod o'zidan oldin o'tgan avlodlar ishlab chiqqan tilga duch keladi va shu tilni egallab oladi, ya'ni o'zining nutq orqali qiladigan muomalasida shu tildan foydalanadi. Nutq - ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ta'sir ko'rsatish – biz nutqimizni kimga qaratayotgan bo'lsak, shu kishida biz istagan hislar, intilishlar va harakatlarni tug'dirish, ularning fikrini biz istagan tomonga burish, ularni o'zimiz hohlaganimizcha o'ylashga majbur etish, ularni ishonirish demakdir.

Tayanch so'zlar: *nutq, muloqot, muomala, og'zaki nutq, yozma nutq.*

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Исаева Мухаббат Рахмоналиевна, доцент Академии ВС РУз

Аннотация. В данной статье освещены вопросы отличия речи и языка, в тоже время показана их неделимость, взаимосвязь речи и языка, их существование в единстве. В соответствии с возрастом, знаний, уровня общего стремления речь человека приобретает свои особенности. Каждое поколение встречается с языком, сформированным старшими поколениями и усваивает его, то есть при общении посредством речи пользуется этим языком.

Ключевые слова: *речь, устная речь, письменная речь, общение.*

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL BASIS OF TEACHER SPEECH CULTURE

Isaeya Muhabbat Rahmonaliyeva, assistant professor of the Academy of AF of RUz

Abstract. This article highlights the differences between speech and language, at the same time showing their indivisibility, the relationship between speech and language, their existence in unity. In accordance with age, knowledge, and the level of general aspiration, a person's speech acquires its own characteristics. Each generation encounters a language formed by older generations and assimilates it, that is, when communicating through speech, it uses this language.

Key words: *speech, oral speech, written speech, communication.*

Kirish. Yangi O'zbekistonda keyingi yillarda ta'lim-tarbiya ishlari va kadrlar tayyorlash ustivor vazifa sifatida yangi bosqichga ko'tarilib, yuqori ma'naviyatli, bilimdon, zamonaviy innovatsion g'oyalari va vatanparvarlik ruhiyati bilan toblangan harbiy kadrlarni tayyorlashda ham dunyo ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalar asosida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi hamda 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-sonli «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish

to'g'risida» gi Qarorlariga muvofiq harbiy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarning samaradorligini oshirish va professor-o'qituvchilar ish faoliyatini tashkillashtirishni yanada takomillashtirish borasida juda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Asosiy qism. Davr talabi darajasida zamonvaiv harbiy kadrlar, birinchi navbatda, chuqur bilimga ega bo'lgan va zamonaviy fikrlaydigan, intellektual salohiyatli yetuk ofitserlarni, shuningdek, bugungi kunda armiyamizning o'zagini tashkil etayotgan yuksak professional malakali kichik komandir-serjantlarga ta'lim berish va tarbiyalash tizimini tubdan yaxshilash ham Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Qurolli Kuchlardagi har qanday islohotning samarasi ko'p jihatdan ofitser kadrlarning intellektual salohiyatini, bilim va ko'nikmalarini, o'z kasbiga, Vataniga sodiqlik, har qanday vaziyatda eng maqbul qaror qabul qila olishga qodir ekanligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayoni oldida turgan vazifalarni muvaf-faqiyatli hal etish uchun o'qituvchi chuqur nazariy bilimlar va puxta shakllangan amaliy ko'nikmalarga ega bo'libgina qolmay, ushbu bilim-tajribalarini tinglovchilarga mohirona etkaza olish qobiliyatiga ham ega bo'lmog'i lozim. Har bir kishining yoshiga, bilimiga, umumiy izlanish saviyasiga qarab, uning nutqi o'ziga xos hususiyatlarga ega bo'ladi. Har bir avlod o'zidan oldin o'tgan avlodlar ishlab chiqqan tilga duch keladi va shu tilni egallab oladi, ya'ni o'zining nutq orqali qiladigan muomalasida shu tildan foydalanadi.

Nutq bilan til bir-biridan farq qiladi, lekin ayni vaqtda ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi; nutq ham, til ham bir-biriga bog'langan, ular birlikda mavjuddir. Bu birlik shundan iboratki, har bir til tarixiy taraqqiyot davomida odamlarning nutq vositasi bilan aloqa bog'lash jarayonida vujudga kelgan va o'sib borgan. Nutqda bizning fikrlarimiz bilan birlikda tuyg'u-hislarimiz ham ifodalanadi. Og'zaki nutqda hissiyotlarimiz (emotsanal kechinmalarimiz) so'z yordami bilan qilingan tasvirlarda, ohangda, qofiyada, xitob va savollarda, gaplashish vaqtidagi pao'zalarda va ayniqsa intonatsiyalarda namoyon bo'ladi. Chunonchi, biz biron kishining ismini ataganimizda, shu kishiga bo'lgan turli hislarimizni va munosabatlarimizni o'zimizdagi mehrni, g'azabni, g'ururni, muhabbatni, hurmatni, nafratni, mensimaslikni va boshqa shu kabilarni atayin yoki beixtiyor namoyon qilishimiz mumkin.

Shu bilan birga, gapiruvchining intonatsiyasida uning holati ham, charchaganligi, umuman hayajoni, o'ziga bo'lgan ishonchi yoki ishonchsizligi va shu kabilarni ham ifodalanadi. Nutqda bizning irodamiz maqsad muddaomiz, istagimiz, niyatimiz, qarorimiz ham, shuningdek, iroda jarayonlarining ayrim sifatleri – qat'iyat va qat'iyatsizlik, dadillik, kishining o'zini tuta bilishi, kishidagi qunt va boshqa shu kabilarni ham namoyon bo'ladi. Odamning nutqida uning fikrlari va xilma-xil ichki holati – emotsional kechinmalari va irodasigina ifodalanib qolmasdan, shu bilan birga hamisha biror obyektiv narsa ham bildiriladi. Sayrash va qichqirish tarzidagi xilma-xil tovush birikmalari hayvonlarda ham bo'ladi, lekin bu tovush birikmalari faqat tug'ma reaksiyalardir – tashqi yoki ichki ta'sir sababli tug'iladigan shartsiz reflekslardir.

Nutq – ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ta'sir ko'rsatish – biz nutqimizni kimga qaratayotgan bo'lsak, shu kishida biz istagan hislar, intilishlar va harakatlarni tug'dirish, ularning fikrini biz istagan tomonga burish, ularni o'zimiz hohlaganimizcha o'ylashga majbur etish, ularni ishontrish demakdir. Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi va talabalarning bevosita o'zaro munosabatini ma'lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo'naltiruvchi kuchdir. Zamonaviy o'qituvchi uchun talabalarga to'g'ri, omilkor axborot uzatish va unga suhbatdoshini ishontrira olishi kasbiy zaruriyat hisoblanadi. Bunda o'qituvchining muloqot madaniyati, ma'naviy olamining kengligi muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchi muloqot asosida o'z talabalariga ma'lum bir maqsadga qaratilgan axborotlar tizimini ma'lum qiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan yo'l qo'yiladigan arzimas bir xatolik, adolatsizlik, qo'pollik talabalar bilan o'zaro muloqotning buzilishiga sabab bo'ladi va og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin muloqot asosida shaxslararo ichki hissiyoti bilan ular harakatlarining uyg'unlashuvi nihoyatda zarur. Ushbu o'zaro uyg'unlashuvni yuzaga keltiradigan muloqotning asosiy bog'lovchisi so'zdir. So'z – mazmunan o'qituvchining nutqida, ma'ruzasida, dialog, monologlarida o'z ifodasini topadi. Ajdodlarimiz madaniy va ma'naviy merosi, ular yaratgan so'z, xalq tilining tuganmas boyligi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Xisrav Dehlaviy, Abu Hamid G'azzoliy, Kaykovus, Shayx Sa'diy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa Sharq va g'arb donishmandlarining boy meroslarida tarbiyada so'zdan kuchliroq va qudratliroq narsa yo'qligini, tilga e'tibor – elga e'tibor ekanligini, so'z sehri mo'jizalar yaratishini ta'kidlab kelganlar.

O'qituvchi «so'z aytishdan avval, har daqiqada so'z ortidan keladigan oqibatlarni o'yla»shi (I.P.Pavlov) kerak. Alisher Navoiy adabiy meroslarida muomala madaniyati, xushmuomalalik, tilning ahamiyati to'g'risida, shirinso'zlik haqida noyob fikrlarni bayon qilgan. Bygungi kunda ham bu fikrlar o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. «Til shirinligi – ko'ngilga yoqimlidir, muloyimligi esa, foydali. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun asal kabi totlidir», – deydi Alisher Navoiy.

Pedagogik-psixologik muloqot – bu o'qituvchining talabalar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda eng qulay psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir.

O'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni talabalar bilan birgalikda tashkil etadi. Bunda guruhning faol talabalari hamda norasmiy liderlari bilan o'zaro muloqotning adolatlilik bo'lishi muhim ahamiyatga ega: talabalarni tarbiyaning turli elementlarini ongli ravishda mustaqil bajarishga jalb etish, bunda talabalarga tashkilotchilik va ijro etish rollarini bajarishga imkoniyat yaratib berish lozim. Muloqot turli rollar orqali shaxs faoliyati uchun ijtimoiy maydon yaratadi, shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiradi. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida o'zining shaxsiy tashabbuskor va rahbarlik rolini namoyish etadi. Dars jarayonida esa, o'qituvchi talabalarni tashkilotchi va ijrochi rollarida bo'lishga imkoniyat yaratishi kerak. Muloqot asosida shaxs o'zligini tanishni o'rganadi. O'qituvchi dars mashg'ulotini rejalashtirar ekan, faqat o'rganilayotgan dars mashg'uloti mavzusi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida talabalarni axborot ko'lamiga jalb etishni o'ylamasligi kerak, balki o'qituvchining yordamiga muhtoj bo'lgan talabalarni topishi, ularga yordam berish uchun sharoit yaratishi, har bir talabaning qiziqishini ta'minlovchi sharoitlarni ko'ra olishi va o'zaro hamkorlikni ta'minlashi lozim.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot asosida talabalar bilan yaxshi munosabatni tashkil eta olishi, demokratik talablarni qo'llashi va birgalikda ijodiy faoliyat olib borishi kerak. Pedagogik muloqot esa, bu o'qituvchi kasbiy faolligining bir ko'rinishi bo'lib, bunda ta'lim va tarbiya muammolari o'qituvchi hamda o'quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir vositasi bilan hal qilinadi. Muloqotning har uchala tomonini yaxlit olib qaraganda o'zaro hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usullari va unda ishtirok etuvchilarning munosabatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Pedagogik-psixologik muloqot muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun, o'qituvchi talabalar bilan hamkorlik faoliyatiga chuqur kirishib keta olishi, shaxsni har tomonlama shakllantirishning maqsad va vazifalarini chuqur anglab, faoliyat olib borishi lozim. Odatda so'z boyligi qashshoq bo'lgan o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatlarida talabalar bilan tez-tez ziddiyatlarga duch keladilar. O'qituvchining

jonli muloqoti har qanday tarbiyaviy tadbirning mazmun va mohiyatini talabaga tabiiy holda etkazadi, shu jarayonning obyekti va subyekti o'rtasida muloqot uchun mustahkam ko'prik yaratadi va ichki hissiyot bilan harakatlarning uyg'unlashuvini ta'minlaydi.

Jonli muloqot – o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta'lim-tarbiyaviy tadbir mohiyatini og'zaki so'z bilan talabalarga etkazadigan, o'qituvchini ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo'lgan faoliyatdir. Pedagogika va psixologiyada jonli muloqotning muhim jihatlardan biri uning vositalaridir. Vositalar tashkilotchilik qobiliyati, baho beruvchi, intizomga undovchi bo'lishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda o'qituvchi o'z ishining mohir ustasi bo'lishi uchun tashkilotchilik qobiliyati asosida ta'sir ko'rsatishga ko'proq yondashishi lozimligi ta'kidlanadi. O'qituvchining talabalar bilan muloqoti samarali bo'lishi uchun suhbatdoshni o'ziga moyil qilib olish zarur. O'zaro moyillikka erishish uchun amalda qo'llanilib kelinadigan bir qator murakkab bo'lmagan pedagogik ta'sir etuvchi usullardan foydalaniladi. Ularning eng muhimlari talabaishonchini qozonish hamda ta'sir etish va ma'qullash usullaridir. Ishonchini qozonish usuli talabalar bilan muloqot asosida ta'sir ko'rsatishning yuqori samara beradigan usulidir. U talaba ongiga qaratilgan bo'lib, idrok qilish orqali talabalar ishonchini qozonishni va ularning roziligini nazarda tutadi. Ishonchini qozonish dalillash, isbotlash orqali olib boriladi. Ishonchini qozonish usuli muloqot dasturi sifatida dars mashg'ulotidan tashqari jarayonlarda, talaba bilan yakka holda suhbatlarda, ma'naviy-tarbiyaviy soatlarda qo'llaniladi. Ishonchini qozonish usuli yordamida o'qituvchi talabalarning dunyoqarashini shakllantiradi, ularda o'z-o'zini tarbiyalashga nisbatan javobgarlik hissini oshiradi. Ishonchini qozonish usuli nafaqat o'qituvchi bilan muloqot jarayonida, balki ta'lim-tarbiyaviy faoliyatdan tashqari holatlarda ham talabaga ta'sir qiladi. Talaba ishonchini qozonish ijobiy yoki salbiy natijalar paydo qilishi ham mumkin. O'qituvchi ishonitirish bilan talabada ijobiy hislatlarni uyg'otishi uchun tarbiyaviy metodlarni o'z o'rnida qo'llashi shart. Tarbiya jarayonida har bir talabaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi zarur

O'qituvchi talabalar jamoasi bilan pedagogik-psixologik muloqotni har tomonlama mukammal tashkil etish va ko'zlangan maqsadga erishishi uchun tarbiyaviy jarayonning jamiyat talabalariga mos keluvchi etakchi tamoyillaridan o'rinli foydalanishi lozim. Odamlarni bir-biriga intilishiga nima majbur qiladi? Nima uchun inson o'ziga mos bo'lgan muhitni zo'r berib qidiradi? Nima uchun u yuragidagi dardi va hissiyotlarini kimgadir to'lib-toshib gapirib bergisi keladi? Shaxs o'zining fikrlari, taassurotlari, eng achinarli va alamli hamda qiziqarli kechinmalarini kimdir dildan tinglashini istaydi. Nima uchun inson o'zining «Men»i haqidagi sir-asrorlarini, ruhiy dunyosini ochib tashlashni yaqqol namoyon qiladi? Nima uchun biz muloqotli do'st, o'rtoq va suhbatdosh izlaymiz yoki nima uchun biz boshqalar bilan muloqotga muhtojmiz?

«Odam – odam bilan tirik» degan gap ota-bobolarimizdan qolgan ko'hna haqiqatdir. Ammo har bir odam o'zi bir olam bo'lib yaralgan va hech kim hech qachon birovga aynan o'xshamaydi. Biz birovlariga o'xshamaganimiz uchun ham xohish-istaklarimiz, yaxshi va yomon fikrlarimiz turlichadir. Shaxsdagi eng chuqur joylashgan psixologik qatlamlar muloqot orqali shakllanadi. Muloqot muomalaning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham shunday muhim rol o'ynaydi. Muomala muvaffaqiyatining negizi shaxsning ruhiy dunyosi, ehtiyojlari, motivatsiyasi, xarakter xislatlari, individual-tipologik xususiyatlari, e'tiqodi va aql-zakovatining rivojlanishi hisoblanadi. Muomala ko'p qirrali to'zilikka ega bo'lib, uning mohiyati odob-axloq, odatlar, ko'nikma va malakalar, hamkorlik faoliyati, obyektiv va subyektiv munosabatlar (rahbarlik, tobelik) hamda subyektiv munosabatlar – simpatiya (ichdan yoqtirish), antipatiya (ichdan

yoqtirmaslik), empatiya (hamdardlik, odamlar o'rniga o'zini qo'ya bilish), eyfariya (o'ta quvonch, armon, negizida shaxslar aro munosabatlar o'rnatila, axborot almashinadi va o'zaro ta'sir vujudga keladi. Psixologik ta'sir – bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, xissiyotlari va xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir.

Xulosa. Nutqning mohiyati uning madaniyligi, ommaviyligi va ijtimoiy qimmati bilan belgilanadi. «Madaniy nutq», «nutq madaniyati», «notiqlik» degan iboralar bor. Nutqning xarakteri anashularning mohiyatini bilish bilan izohlanadi. Ularning lingvistik birlik sifatida o'z xususiyatlari mavjud bo'lib, ular insonlarning o'zaro fikr almashishdagi nutqiy jarayonning bosqichli shakllari deyish mumkin. Ana shu shakllar to'g'ri nutq, nutq madaniyati – notiqlikdir. Nutqiy malakaga, ko'nikmaga ega bo'lmagan ofitser yoki kursant tilimizning sofligini ham, boyligini ham namoyish eta olmaydi. Chinakam notiq nutq texnikasi – ovoz, nafas, to'xtalish, oxang kabi nutqning ifoda vositalari, mashqiy jarayon bilan chegaralanib qolmasdan balki nutqiy mahorat nutqiy faoliyat qirralarini egallashga intilishi, nazariy ma'lumot va amaliy mashg'ulotni uyg'unlashtira olishi zarur. Ifodali o'qish matn mazmunini yetkazishga daxldor texnik va nazariy vositalarni bilish va unga amal qilish har doim ahamiyatlidir. Nutqning to'g'riligi, uning adabiy til me'yorlariga mos kelishi tushuniladi. Busiz boshqa aloqaviy sifatlar bo'lishi mumkin emas. Til, nutq hamda yozuv o'zaro bir butunlikni hosil etibgina qolmay, og'zaki va yozma nutqning asosiy manbai hamdir. Nutq madaniyatini egallashda eshituvchining ko'z o'ngida tasviriy manzara hosil qila olish, obrazli fikr yuritish, o'z so'ziga ishonтира olish, qiziqtirish, nutqning ravn bo'lishi va ta'sir darajasi oshib borishiga kafolat bo'ladi. Nutq madaniyatini o'rganish orqali ofitser va kursantlar muomala va muloqot jarayonida so'zning qudratini chuqur anglash, ommani bunyodkor g'oya va yuksak maqsad sari safarbar qilish, chiroyli va ravn, jozibali va jo'shqin so'zning qudratini anglash, notiqlik va nutq so'zlashning mas'uliyatini xis etish, o'zining mustaqil fikrini erkin bayon etishga qodir bo'ladilar. Yoshlarning o'z so'zini bayon etishga bo'lgan munosabati o'zgaradi, kursantlar har bir g'oya va fikrni, dunyoqarash va maqsadni, so'z va gapni, jumla va iborani chuqur o'ylashga, uni keng mushohada qilishga o'rganadilar.

Adabiyotlar:

1. Pedagogika darslik / M. Toxtaxodjayevarning umumiy tahriri ostida. - T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi: Darslik. - T.: A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2001.
3. G'oziev E.G'. Psixologiya. - 1-2 t. - T.: Fan, 2020.

TURKISTON MAKTAB VA MADRASA MAKTABLARINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI: USULI QADIM VA USULI JADID

Nazarov Alisher Abdisamadovich, O'zDJTU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Turkiston maktab va madrasa maktablari faoliyati tarixiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Milliy va xorij manbalar asosida an'anaviy va jadid maktablarining faoliyati va pedagogik xususiyatlari tahlil qilingan. XX asr boshlarida zamon talablariga javob bermay qolgan usuli qadim maktablarini isloh qilish va usuli jadid maktablarining yoyilish sabablari yoritib berilgan. Maqolada yana «qadimchilik» va «jadidchilik» o'rtasidagi tafovut sabablari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: *xalq ta'limi, usuli qadim, usuli jadid, an'anaviy maktablar, masjid va madrasa, otin oyi, xalq ta'limi, sharif, islohotchilik, maktabi ibtidoiy.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ШКОЛ ТУРКЕСТАНА И ШКОЛ МЕДРЕСЕ: ДРЕВНИЙ МЕТОД И МЕТОД ДЖАДИДОВ

Назаров Алишер Абдисамадович, базовый докторант УзГУМЯ

Аннотация. В статье представлены сведения об истории деятельности школ и школ-медресе в Туркестане. На основе национальных и зарубежных источников проанализирована деятельность и педагогические характеристики традиционных и джадидских школ. Раскрыты причины реформирования традиционных методических школ, не отвечающих требованиям того времени. В статье также раскрываются причины различия учебного процесса между «традиционным обучением» и «джадидизмом».

Ключевые слова: *народное образование, древний метод (усули кадим), современный метод (усули джадид), традиционные школы, мечеть и медресе, отин айи, реформизм, первобытная школа.*

PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF TURKISH SCHOOLS AND MADRAS SCHOOLS: ANCIENT METHOD AND MODERN METHOD

Nazarov Alisher Abdisamadovich, PhD student of UzSWLU

Abstract. The article provides information on the history of the activities of schools and madrasa schools in Turkestan. Based on national and foreign sources, the activities and pedagogical characteristics of traditional and modern schools were analyzed. The reasons for the reformation of ancient method schools that did not meet the requirements of the times at the beginning of the 20 th century and the spread of modern method schools are explained. The article also reveals the reasons for the difference between «qadimizm» and «jadidism».

Key words: *public education, traditional method, new method, traditional schools, mosque and madrasa, otin oyi, public education, reformism, primitive school.*

Kirish. Markaziy Osiyo asrlar davomida islom ilmi va mumtoz ta'limotining beshigi bo'lib kelgan. X asrdan keyin hududlarda maktablar va madrasalar paydo bo'la boshladi. Madrasalar qadimdan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida alohida nufuzga ega o'quv maskani sifatida katta obro' e'tibor qozongan. Buxoro, Xiva, Samarqand, Qo'qon madrasalarida Muhammad ibn Ismoil Abu Forobiy, Al Xorazmiy, Umar Nasafiy, Beruniy, Ibn Sino kabi mashhur allomalar tahsil oldi. Temuriylar sulolasining hukmdori bo'lgan Mirzo Ulug'beg XIV asrda Sharqda birinchi rasadxona tashkil etdi. Samarqand

madrasalarida dars bergan Mirzo Ulug'bek va uning shogirdi Ali Qushchi astrologik matematikada yangi formulalar, yulduzlar ilmi bilan shug'ullandilar.

Asosiy qism. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib Turkiston va xonliklarda maorif masalasida kamchiliklar ko'rina boshladi. Mavjud madrasalar va maktablar Temuriylar davrida qurilgan, aksari o'z faoliyatini deyarli tugatgan edi. Shu tufayli XIX asrga kelib bu ta'lim dargohlari ta'lim tizimi va gigienik holatlari ma'rifatparparlar tomonidan tanqid qilina boshlandi. Shunga qaramay, o'lka madrasalarida XX asr ma'rifatparvarlari Ahmad Donish, Muqimiy, Furqat, Maxmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashitxonov, Sadriddin Ayniy, Abdulla Avloniy, Usmon Xo'ja o'g'li, Fayzulloh Xo'ja o'g'li, Abdurauf Fitrat va boshqa ko'zga ko'ringan siymolar yetishib chiqdi. Sadriddin Ayniyning ta'klidlashicha, Buxoro madrasalarining islom olamidagi nufuzi juda yuqori bo'lib, ularda ta'lim olgan ulamolarning diniy masaladagi islohotlari Misr va Hijozda o'qiganlarning so'zlaridan ko'ra mo'tabarroq hisoblangan [1]. XX asr boshlarida Buxoro, Samarqand madrasalari Turkiston, Kavkaz orti, Tatariston, Ozarbayjon va Boshqirdiston hududlari uchun islom dini markazlaridan biri sifatida muhim o'rin egallagan. Ingliz sayyohi A.Byorns esa, Buxoro madrasalarida Erondan tashqari barcha mamlakatlardan kelgan talabalarni uchratish mumkinligi, ular yetti yoki sakkiz yillik o'quv kursini tugatib, o'z vatanlariga bilim zaxirasi bilan qaytishlarini qayd etadi [2, 8-b.]. XIX asrning 20-yillariga oid ma'lumotlarga ko'ra, Buxoroda Rossiya fuqarolari bo'lgan uch mingga yaqin tatarlar yashagan bo'lib, ularning uch yuz nafari madrasada ta'lim olish maqsadida kelgan. XX asr boshlarida Buxoro Markaziy Osiyo, Kavkaz orti, hozirgi Tatariston va Boshqirdiston hududlari uchun islomiy ta'lim markazlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etganini tadqiqotchilar izlanishlarida ko'rishimiz mumkin. Bu Turkiston general gubernatorining 1899-yil yakuni bo'yicha podshoga yozgan xatida ham qayd etilgan. Xat orqali Rossiyada 14 million atrofida musulmonlar yashayotgani, qadimdan Buxoro musulmonlar dunyosida ma'rifat o'choqlaridan biri sifatida tan olinib kelinayotgani va hozirda ham bu boradagi ahamiyatini yo'qotmagani to'g'risida xabar berilgan [3]. Buxoroga XIX asrda safar qilgan Ye.K.Meyendorf esa, Buxoroning islom olamida tutgan o'rnini quyidagicha ta'riflaydi: «Buxoro o'zining ko'plab maktablari, olimlari hamda muqaddas qadamjolari sababli musulmonlarning ziyoratgohiga aylangan. Ehtimol shuning uchun u «sharif» nomiga sazovor bo'lgandir» [4, 93-b.]. Amerikalik tarixchi olim J.Kunits ham Buxoroni «arab-eron madaniyatining qal'asi», Markaziy Osiyoning yuz yillik tarixidagi 2 Islomning yuragi», masjid va madrasalar markazi deya atagan» [5, 23-b.].

Mirzo Ulug'bek madrasalarning asosiy daromadi vaqf mulklaridan bo'lgani uchun yaxshi hosil olinmagan yillari qiynalgan talabalar va mudarrislar muammosini hal qilish maqsadida madrasalarni davlat hisobiga kiritgan. Madrasalarda nafaqat boylar, balki kambag'allarning bolalari ham o'qish huquqiga ega bo'lgan va nafaqa, kiyim-bosh bilan ta'minlangan. O'quv yili sakkiz yilga qisqargan va haftada besh kun ta'lim berilgan. Mirzo Ulug'bek davrida yangi o'quv qo'llanmalar yaratilib, mashg'ulotlarni yakka tartibda olib borishni man etib, «jamo» guruhlariga bo'lib o'qitish uslubini joriy qilgan. Ma'ruzalar 70 kishidan iborat katta guruhlariga, amaliyotlar esa, 10-15 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'lib olib borilgan. Bu uslub keyingi asrlarda ham saqlanib qolganini arxiv ma'lumotlari ham tasdiqlaydi [6].

Madrasa o'quv dasturining umumiy jihatlari X-XII asrlarda ishlab chiqilib, keyinchalik takomillashib borgan. XIX asrga kelib madrasalarda ta'lim tizmi ikki yonalishda tashkil etilgan bo'lib, birinchisi maktabi ibtidoiy (boshlang'ich va o'rta maktab), ikkinchisi madrasa

ta'limi (oliy ma'lumot beruvchi). Markaziy Osiyo maktablari va madrasalari soni haqida gapirganda turli tarixiy hujjatlar turli raqamlarni ko'rsatadi. Ularninig soni manbalarda har xil ko'rsatilgan. Sibiryali Olimxon o'zining «Sirat ul mustaqim» asarida Buxoroda 300 ta maktab va 200 ta madrasa borligini aytadi [7, 111-112-b.]. Vamberining aytishicha, Buxoroda 365 ta madrasa mavjud bo'lgan, ammo uning o'ylashicha haqiqatda 80 dan oshmagan [8]. Tatar sayohatchisi Abdurashid Ibrohim takidlashicha 200 ta madrasada 27000 nafar talaba tahsil olgan [9, 16-b.]. Maqola umumqabul qilingan tarixiy-etnologik metoddan keng foydalangan holda yoritildi. Bunday metod orqali tarixiy manbalarni pedagogik tahlil qilish, ta'lim-tarbiya tizimini aniqlash, mutafakkir olim va adablarning asarlarini qiyosiy-pedagogik tahlil etish kabi vazifalar bajarildi. Bu kabi metodlar tadqiq etilayotgan mavzuni yoritishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Maktab o'quvchini, asosan, savodxolikka tayyorlashga qaratilgan. Kundalik hayotda hisob-kitob va diniy marosimlarda ishlatiladigan bilim berish bilan kifoyalangan. Madrasa talabalarini islomiy matnlar va uslublar bilan o'qitish yoki tanishtirishni maqsad qilgan. Ikkala tizim ham diniy bilimdan ko'proq narsani o'rgatish uchun mo'ljallangan edi. Bola 5-6 yoshida mahalla maktabida o'qiy boshlaydi. Maktabda o'qish 5 yildan 7 yilgacha davom etdi, shundan 5 tasi majburiy edi. Maktabga yuborilmagan o'g'il bolalar rais tomonidan olib kelinib, ota-onalariga jarima solingan. Usuli qadim maktablari odatda masjidlarda, imomning uyida yoki viloyatning badavlat kishilarining uylarida faoliyat yuritgan. Ba'zan maktablar madrasa majmuasi ichida joylashgan. Umumiy dars mashg'ulotlari namoz vaqtlarida tashqari masjidlardan foydalanishar edi. Maktablarda o'quvchilarga imom yoki uning yo'qligida mullar tomonidan dars o'tilgan. Imomga shogirdlar orasidan saylangan muovin yoki xalfa yordam bergan. Ularning vazifasi sinfda tartib-intizomni saqlash va bolalar bir kun oldin o'qitiladigan oyatlarni yoddan o'rganishlariga ishonch hosil qilish edi. Muazzin na shogird, na ustoz bo'lganligi sababli bu ikkisi o'rtasida muhim o'rin tutgan. U o'quvchilarga Qur'on va boshqa matnlarni to'g'ri o'qishga yordam bergan. Muazzin uchta asosiy vazifani ado etadi: namozxonlarni to'playdi, imomni chaqiradi va namoz boshlanganligini e'lon qiladi. Ushbu uch majburiyat vaqt o'tishi bilan ma'lum o'zgarishlarga uchragan. Muazzin vazifasini tahorsiz, mast, aqli noraso kishilar va ayollar bajarishi mumkin emas. Minoralar paydo bo'lishi bilan nazariy jihatdan Muazzinni balandlikdan turib masjid atrofidagi uylarning haramiga va ichkari qismiga ko'z tashlamasligi uchun ko'zi ko'r bo'lishi afzal deb bilingan. Muazzinlar maosh oladigan bo'lishgan. Na imom, na xalifa ota-onadan muntazam maosh olgan. Biroq, ular o'quvchilarning oilalari tomonidan sovg'alar bilan qo'llab-quvvatlantirilib turilgan. Odatda oziq-ovqat va vaqti-vaqti bilan har payshanba kuni pul Payshanbalik berilar edi. Ba'zi suralarni va, albatta, Qur'onni yodlashning tugallanishi imomga sovg'a qilish uchun yana bir alohida lahzaga bo'lgan. Agar maktab vaqf tuzilmasi bilan bog'langan bo'lsa, imomlar vaqfdan ma'lum darajada yordam olar edilar. Ota-onalar, shuningdek, Iyd al Fitr va Iyd al Adhada farzandlarining imomiga sovg'alar olishgan.

Qizlar maktablarini odatda imomning xotini yoki boshqa savodli ayol bo'lgan bibi xotin yoki otinoyi boshqarar edi. Otinoyi maktablari imomning uyida joylashgan edi. Bibi xotinga yordam berish uchun talabalar orasidan bibi xalfa saylangan. Qizlar uchun maktablar ota-onalarning sovg'alari hisobidan moliyalashtirildi. Ba'zan bu qizlar bibi xotinga uy ishlarini yuritishda yordam berishgan. Ba'zida qizlar ham, o'g'il bolalar ham otinoyi tomonidan o'qitilishi mumkin edi. Maktablarda balog'at yoshidan oldin jinsga qarab ajratish majburiy bo'lmagan. Hattoki Sadriddin Ayniyning otasi madrasada tahsil olgan va islomga

ko'ra har qanday nomaqbul narsaga juda sezgir bo'lib, o'g'il bolalar maktabida imomning noloyiqiligi tufayli qizlar maktabida o'qigan [10, 20-b.]. Shahar joylarda qiz bolalar maktablari anchagina bo'lib, ular umumiy maktablarning hattoki to'rtidan birini (bu yerda o'g'il bolalar maktablari sinflarida 20-30 nafar tinglovchi bo'lgan bo'lsa, qiz bolalar maktablari sinflarida odatda 10-15 nafar tinglovchi bo'lganligini unutmazlik lozim) tashkil etgan. Qishloq joylarda esa, qiz bolalar maktablari juda kam bo'lib, yuzta o'g'il bolalar maktablariga bir yoki ikkita qiz bolalar maktabi to'g'ri kelganligi manbalarda qayd etiladi [11, 22-b.]. Madrasa maktablarida ta'lim olish 12-14 yoshdan boshlanib, 19 yoshgacha davom etgan. Madrasa maktablarida ta'lim olish majburiy emas edi va o'qituvchi uch bosqichning har birining oxirida ketishi mumkin edi. O'qish uch bosqichada bo'lib, adna (boshlang'ich), auwsat (o'rta), a'lo (eng yuqori). Maktab ta'limi 19 yillik bo'lganligi uchun ta'limni kamchilik talabalar tugatib, qozi kalon, muftiy, mudarris va oqsoqol bo'lishlari mumkin edi. Madrasalarda ikki guruh xodimlar bo'lgan. Birinchi guruhga o'qituvchi mudarrilar kirgan. Madrasalarda mudarris oliy unvon hisoblangan. Mudarris to'g'ridan-to'g'ri dars bergan va Yevropa ta'lim tizimi bo'yicha professor unvoniga tenglashtirilgan. Madrasada mudarris muftu yoki qozi kabi boshqa unvonlarga ham ega bo'lgan. Madrasalar va maktablarda xalifa mudarrislarga yordam berib darsni o'tishda yordam bergan [12, 23-b.]. Madrasalarda yana bir lavozim bo'lib, u mukarrir deb nomlangan, uning vazifasi kunduzi mudarrislardan tomonidan taqdim etilgan vazifalarni kechasi ko'rib chiqish edi. Madrasa mudarrislari vaqf mulki hisobidan ta'minlangan. Biroq XX asr boshlarida ular ham talabalardan xatmona nomi bilan sovg'alar ola boshladilar. Bu vaqf tizimining korruptsiya tufayli tanazzulga uchrashi natijasi edi. Buxoro madrasalarida dars majburiy bo'lmaganligi sababli, mullalar o'qish uchun olinadigan haqni o'zlari belgilashlari kerak edi. Buxoro madrasalarida xatmona mudarrisga, talaba darsni tamomlaganda beriladigan «sovg'a» degan ma'noni anglatgan. Vamberining aytichisha, beshta mudarrisga yiliga 150 tiyin to'langan. Bu kishi boshiga ikkita tangadan to'g'ri kelgan. 1870-yillarda bitta tanga taxminan 5 kilogramm bug'doy sotib olishga yetgan. Ammo shuni ham unutmazlik kerakki, mudarris ko'pincha egallab turgan lavozimidan maosh olgan. Ikkinchi guruhga xizmatlar va ma'muriyatni ta'minlovchi shaxslar kirgan. Bularga madrasa joylashgan masjid imomi, muazzin, xizmatkorlar, sartarosh va boshqalar kirgan. Vamberi Xivada joylashgan Madaminxon madrasasi 1842 yilda fors arxitektori tomonidan fors karvonsaroyiga o'xshatib qurilganligini aytadi. Madrasada 130 ta hujra, 260 nafar talabani sig'dira olgan. Madrasadan 12000 Xiva botmonida bug'doy va 5000 tilla daromadi bergan. Vamberi madrasa lavozimlarida quyidagicha maosh olganligini ta'kidlaydi [13, 333-b.]: madrasalarda talabalar uchga bo'linib: tolib, mullabacha, va shogird deb atala boshlangan. Talabalarga ta'limdan tashqari turar joy va pul ham kerak edi. XIV-XV asrlarda hujralar vaqf mulki bo'lganligi sababli talabalar ta'lim olish uchun tekin hujra topish imkoniga ega bo'lganlar. Biroq, madrasalarda XVIII-XIX asrlarda xonalar shaxsiy mulkka aylandi. Buxoro madrasasida ta'lim olish uchun turar joy shart bo'lganligi sababli ko'pgina talabalar oilalari madrasada hujra sotib olish yoki ijaraga olish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar. Buxorodagi ayrim madrasalarda vaqf mulklari hisobidan talabalar uchun stipendiyalar va hujralar ajratgan. Grantlar miqdori bir muassasadan boshqasiga o'zgarib turdi, lekin XIX asr o'rtalarida odatda yiliga 1 tiyindan 4 tiyingacha bo'lgan. Talaba olishi mumkin bo'lgan stipendiya miqdorini belgilovchi muhim omil uning o'qish bosqichi edi. Umuman, Buxoro, Xiva, Turkiston maktab va madrasalarida ta'lim, islomiy ta'lim va ilm-fan haqidagi tasavvurlaridan kelib chiqqan. Darhaqiqat, islom madrasalaridagi o'quv dasturlarining aksariyati shu tamoyil asosida tuzilgan. Shunday

qilib, maktab va madrasa ta'lim tizimi, ba'zi tadqiqotchilar o'z tadqiqotlarida ko'rsatib o'tilganidek, faqat islomiy qarashlar bilan kifoyalanmagan. Ilohiy va ilohiy bo'lmagan ta'limni bir-biridan ajratish zamonaviy nuqtai nazar bo'lib, uni an'anaviy maktab va madrasalariga yuklamaslik kerak. Islomiy ilm tushunchasidan tashqari, axloq tusunchasi maktab va madrasa o'quv dasturlarining muhim mavzusi hisoblangan. Odob nafaqat o'zini tutish, balki islomga ko'ra fikrlash usulidir.

Maktab ta'limining asosiy talablariga savodxonlik va din tushunchalari doim ustunlik qilgan. Maktab ta'limi davrida birinchi qadam o'quvchilarga fors tilida yozish va o'qishni o'rgatish edi. Keyin o'quvchilar quyida keltirilgan kitoblarni o'qiy boshladilar: «Chor kitob» (To'rt kitob) to'rtta asosiy kitobdan iborat: 1) Sharofiddin Buxoriyning «Nomi haq» kitobiga asoslanib bunda kunlik namozni o'qish uchun poklikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan tahorat va cho'milish bilan bog'liq islom qoidalari, namozlarni aniq va to'g'ri o'qish qoidalari va talablari, Ramazon oyida ro'za tutish qoidalari o'rgatilgan. Kitob nazm shaklida yozilgan bo'lib, hijriy 703 yilga (taxminan milodiy 1303 yilga) tegishli, a) «Kulliyot – Chor Fasl» kitobi o'quvchini iymon, ahkom (amr) va arkan kabi islom terminologiyasi bilan tanishtirishga qaratilgan. Islomning ustunlari, kitob to'rt bobdan iborat: iymon ilmi haqida; yulduzlarning baxtsiz kunlarda insoniyat ishlariga ta'sirini bilish; sunniy mahzab diniy e'tiqodlari; Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v.ning diniy va dunyoviy qarashlari va Abu Bakr, Usmon, Alining diniy e'tiqodlari. 2) «Muhimmatul-muslimin» – («Musulmonlarni jiddiy tashvishga soladigan ishlar») nomli kitobida Munkar va Nakir (Jahannam va jannat) farishtalarning ta'rifi keltirilgan. Unda Qur'on oyatlari va Muhammad payg'ambarimizning ba'zi hadislar mavjud. 2) «Pandnomai Attor», Shayx Farididdin Muhammad Abu Bakr ibn Ibrohim (vaf. 1230 yil), mashhur so'fiy, shoir. Unda hamd – Allohga salovot, tana Payg'ambar alayhissalomni madh etish, nafs – insonning nafslari, tavozu – hayo-tavoz, ilm, yomon suhbatlarni inkor etish, suhbat-i johilan – johillar bilan muloqot qilishdan qochmoq, adl – adolat, zulm – nohaqlik – zulm, sabr – qanoat, hirs – nafs, toat va ibodat – itoat va ibodat. Alloh, shayton, shukr – ollohga shukr qilish, sabr, kizb yolg'on kabi mavzular she'riy tarzda yoritilgan [14, 147-b.]. Bu kitobda islom ta'limining bir qismi sifatida gigiena, salavat, tahorat masalalari ham kiritilgan.

Keyingi darslik «Haftiyak», so'zma-so'z «yettidan biri» talabalarga Qur'on o'qishni o'rgatish uchun birinchi darslik sifatida ishlatilgan. U, asosan, kundalik namozlarda o'qilishi shart bo'lgan Fil, Quraysh, Ma'un, Kavsar, Kofirun, Nasr, Lahab, Ixlos, Falak, Nas kabi qisqa suralarni o'z ichiga olgan. Yana bir darslik «Axloqnoma» deb nomlanib jamiyatdagi odob va axloq masalalari bilan shug'ullangan. Bu kitob bizgacha yetib kelmaganligi sababli uning mazmuni haqida ma'lumotlarni tarixiy manbalardan topish mumkin. «Devoni Hofiz» ba'zi manbalarda «Devoni Hofiz» darslik sifatida foydalanilgani haqida xabar berilgan. Biroq, nafaqat Hofizning she'rlari, balki So'fi Oллоh Yor, Fuzuliy, Bedil, Navoiy, Fariduddin Attorning she'riy asarlari ham darsliklar sifatida foydalanilgan.

Xulosa. Taxminan 1910 yilda ma'rifatparvarlar tomonidan gazetalarining ko'payishi va Turkiston xalqi orasida matbuotning paydo bo'lishi bilan rivojlanish tendentsiyasi kuzatilgan. «Jadidlar» va «qadimiylar» o'rtasidagi ziddiyatning soddalashishi va kuchayishida matbuot muhim rol o'ynagan ko'rinadi. Xalq ommasiga o'z fikr-mulohazalarini etkazish uchun matbuot kerak edi. Misol uchun, eng konservativ jurnallar, Orenburgning «Din va maslahat» jurnali ko'pincha jadidlarning ta'limiy qarashlari va jadid gazetalarining maktabning barcha jihatlarini hech qanday tanqidsiz qabul qiladigan odamlarni o'zlarining do'stlari deb bilishga moyilligi kuchayganligini ko'rsatib bergan. Fanda «jadidchilar» va

«qadimchilar» o'rtasidagi g'oyaviy bahslarni g'oyalar tavsifini berish bilan kifoyalanmaslik kerak. Bunday uslubiy burilish bizga marafatparvarlar asarlarinig tahlilini, asarlardaki har bir qahramon va uning mantig'ini aniqlashga hamda tomonlarning ta'limiy qarashlarida ma'lum chegarani belgilab beradi. Afsuski, o'lkada xalq ta'limini tashkil etishga mas'ul bo'lgan amaldorlar o'z hududi aholisining savodxonligi bilan yetalicha qiziqmadi. Ular o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda xalq ta'limi tizimini isloh qilishga har tomonlama qarshilik ko'rsatdilar. Lekin ular savodsiz xalqni zabt etish osonroq va bosqinchilar manfaati yo'lida foydalanish osonroq ekanini anglamas edilar [14]. Mazkur siyosat natijasida Turkiston o'lkasi xonliklari butun davlatidan ayrilib, mustamlakaga aylandi. Tarixdan saboq olib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, nafaqat XIX-asr oxiri va XX-asrning birinchi o'n yilligida, balki har doim ham ta'lim rivoji jamiyat barqarorligi va kuchli davlatning garovidir, chunki ta'lim har qanday jamiyatning ajralmas qismi, madaniyatining ko'rsatkichi va taraqqiyot asosidir. U bog'lovchi bo'g'in sifatida ijtimoiy tajriba, ma'naviy-axloqiy va madaniy an'analarning birligi va uzluksizligini, jamiyatning izchil rivojlanishini ta'minlaydi. Shunday ekan, bugun har qachongidan ham ko'proq ta'lim davlat taqdiri uchun mas'uliyat yuklaydi.

Adabiyotlar:

1. Bobojonova F. Buxoro amirligida ta'lim tizimi (XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida). - T.: Adib, 2014. - 128 b.
2. Асророва Л.Қ. Бухоро мадрасалари тарихидан. - Т., 2016.
3. ЎзР МДА. И-5-жамғарма, 09-рўйхат, 098-йиғма жилд, 59 varaқ.
4. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. - М., 1975.
5. Kunits J. Dawnover Samarkand. The rebirth of Central Asia. - New York, 1935.
6. O'zR MDA, I-29-fond, 999 A-ish
7. Sibiryali Alimcan. «Buhara'da Tahsil», Sirat-i Mustakim, 8 Shevval 1327, Vol. 3, No. 59.
8. Arminius Vamberry. Travels in Central Asia, New York: Harper & Brothers, publishers, 1865, p. 414.
9. Abdurresid Ibrahim, Alem-i Islam ve Japonya'da Intisar-i Islamiyet, Cild 1, Istanbul: Ahmed Saki Bey Matbaasi, 1328.
10. Sadridin Ayniy. Qisqacha tarjimai holim. Asarlar, 1 Jild. - T.: UZSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1963.
11. Джураев Д.У. Туркистон анъанавий мактаблари фаолияти тарихидан (XIX АСР иккинчи Ярми) // Современное образование. - Т., 2017. - № 7.
12. Zeki Velidi Togan, Hatiralalar Turkistan ve diger Musلمان Dogu Turklerinin Milli Varlik ve Kultur Mucadeleleri, Istanbul: Tan Matbaasi, 1969.
13. Vambery, Arminius. Travels in Central Asia. London. 1864. John Murray.
14. Джураев Д.У. Из истории становления народного образования в Туркестане (конец XIX - начало XX века) // Современное образование. - Т., 2017. - № 1.

MAKTABDA KO'P DARS QOLDIRGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI

*Norkulova Nargiza Tashpulatovna, PhD, TAFU dotsenti,
Buranova Sevara Sa'dullaevna, Xalqaro Nordik universiteti magistranti*

Annotatsiya. Maqolada maktab o'quvchilarini hozirgi kunda ko'p dars qoldirish sabablari ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil etilgan. Ushbu muammoni hal etishda o'qituvchi shaxsining tutgan o'rni hamda ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. O'quvchilarni darslarga jalb etish omili sifatida affiliatsiya motivatsiyasini rivojlantirish mexanizmlari keltirilgan.

Tayanch so'zlar: o'quvchi, o'qituvchi, ko'p dars qoldirish, ijtimoiy-psixologik mexanizm, bullying, affiliatsiya motivatsiyasi.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАБОТЫ С УЧЕНИКАМИ, ПРОПУСКАЮЩИМИ МНОГО УРОКОВ В ШКОЛЕ

Норкулова Наргиза Ташпулатовна, PhD, доцент ТУПН, Буранова Севара Садуллаевна, магистрант Международного университета Нордик

Аннотация. В статье проанализированы социально-психологические причины школь-ников, пропускающих много уроков в школах. Особое значение в разрешении данной про-блемы отведено роли учителя и его личности. В качестве фактора привлечения учащихся к занятиям предусмотрены механизмы развития мотивации аффилиации учеников.

Ключевые слова: ученик, учитель, пропуск уроков, социально- психологический механизм, буллинг, мотив аффилиации.

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF WORKING WITH STUDENTS WHO MISS A LOT OF LESSONS AT SCHOOL

*Norkulova Nargiza Tashpulatovna, PhD, associate professor of TUAS,
Buranova Sevara Sadullaevna, master's student at Nordic International University*

Abstract. The article analyzes the socio-psychological reasons for schoolchildren missing many lessons in schools. Particular importance in resolving this problem is given to the role of the teacher and her personality. As a factor in attracting students to classes, mechanisms for developing student affiliation motivation are provided.

Key words: pupil, teacher, skipping lessons, socio-psychological mechanism, bullying, motive of affiliation.

Kirish. Dars qoldirmasdan maktabga borish – ta'lim jarayonining eng muhim shartlaridan biridir. Darslarni qoldirmasdan maktab fanlarini yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilar odatda ta'limda yaxshi ko'rsatkichlarga erishadilar, zero, ularda qoldirilgan darslarni o'zlashtira olmaslik muammolari paydo bo'lmaydi. O'zbekistonda bolalarning ta'lim-tarbiya olishi, har tomonlama komil inson bo'lib yetishishi, Vatan ravnaqiga munosib hissa qo'shishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan bo'lsa-da, ko'pchilik ota-onalar o'z zimmalariga yuklatilgan mas'uliyatni ado etmayotganliklari, farzandlarining maktabga borishiga jiddiy e'tibor qaratmayotganliklari tobora jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois, davlatimiz rahbari boshchiligidagi 2024 yilning 5 fevral kuni o'tkazilgan ijtimoiy sohadagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilishda maktablardagi o'quvchilar davomatini yaxshilash maqsadida, maktablardagi inspektor-psixologlar shtati Ichki ishlar vazirligidan Milliy gvardiya tizimiga o'tkazilganligi aytib o'tildi.

Asosiy qism. Inspektor-psixologlarning asosiy vazifasi – o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda maktab jamoalariga yaqindan ko'maklashish, muntazam dars qoldiruvchi o'quvchilarning ota-onalari bilan ishlashdan iborat. Shu maqsadda darslarga muntazam (uch o'quv kuni va undan ortiq) sababsiz qatnashmayotgan o'quvchilarning

yashash manzillariga tezkor ravishda «Ogohlantirish xati» yuborilmoqda. Unda o'quvchilarning ota-onalar yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslarga O'zbekiston Respublikasi MJTKning (O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeks) 47-moddasi mazmun-mohiyati tushuntirib o'tilgan. Davomat.uz E-maktab ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda (jami o'quvchilarning 99% qamrab olingan) maktablardagi o'rtacha davomat 83,6%i tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga (98,8% qamrab olingan) kelib 82,5% tushgan [1]. Ushbu so'rovnomada respublikaning 14 ta hududida o'tkazilgan bo'lib, 2000 nafar ota-onani qamrab olgan. So'rovda qatnashgan ota-onalarning 8,5% farzandi nima sababdan dars qoldirganini bilmasligini aytgan. Ota-onalarning 76,9% farzandi so'nggi bir oy davomida umuman dars qoldirmaganini bildirgan, 15,6% 1-2 kun, 7,4% 3-4 kun dars qoldirganini aytgan. Aytib o'tish joizki, davomatning eng past ko'rsatkichlari yuqori sinf o'quvchilari orasida (10-11 sinflar) kuzatilgan bo'lib, 78,4% tashkil etgan. Bu 2022 yildagiga nisbatan 2,1% punktiga yuqori. Buning asosiy sabablaridan biri ularning oliy o'quv yurtiga tayyorlanish jarayonida qo'shimcha darslarga qatnashi bo'lishi mumkin. MHTI tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, 16-17 yoshli farzandi bo'lgan ota-onalarning 87% farzandi qo'shimcha darslarga qatnashini bildirgan [1]. O'quvchilarni dars qoldirish sabablarini o'rganish tahlillari, ota-onalar orasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, betob bo'lib qolishi (75,4%), ota-onasiga ishlarda yordam berishi (8,9%), ota-onasi ishga chiqishi kerakligi, 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga qaraydigan boshqa odam yo'qligi (3,1%), xususiy o'qituvchi/repetitor bilan o'qishi (1,7%), maktabga borishi uchun qo'shimcha xarajatlarga mablag' yetishmasligi (1,1%) o'quvchilarning dars qoldirishidagi asosiy sabab sifatida ko'rsatilgan.

Rossiyalik tarix o'qituvchisi Yu.A.Sivoded ta'kidlashicha [2], bolalarda ta'limga nisbatan qiziqishning paydo bo'lishi nafaqat o'quvchilarga, balki o'z kasbi, qilayotgan ishidan qanoatlanishi, zavq olishi uchun o'qituvchining o'ziga ham juda muhimdir. Ko'p dars qoldirgan o'quvchilar motivatsiyasini tahlil etishda o'qituvchi (sinf rahbari, direktor, direktor o'rinbosari, psixolog) harakatlari algoritmini ishlab chiqishni biz g'oyat muhim ish deb hisoblagan holda, quyidagi harakatlar ketma-ketligini taklif etdik: 1-bosqich. Ta'lim oluvchilarning dars qoldirish sabablari tiplarini aniqlash. 2-bosqich. Dars qoldirgan o'quvchi bilan ishlash. 3-bosqich. Dars qoldirgan o'quvchining ota-onasi bilan ish olib borish. 4-bosqich. Administrativ harakat yoki choralar ko'rish. Amaliyotda odatda dars qoldirishning ikki turi farqlanadi: sababli va besabab. Sababli hamмага ma'lum, shuning uchun biz asosan besabab turida to'xtalib o'tamiz. Dars qoldirishga qarshi choralarini ko'rishdan avval, uning sabablarini aniqlash muhimdir. Odatda, darslarni qoldirishga ham tashqi, ham ichki omillar sabab bo'ladi [2]. Shulardan bugungi kunda eng dolzarblarini keltirib o'tamiz:

O'quv fani yoki materialiga qiziqishning yo'qligi. Bir tomondan, bola o'quv materialini yaxshi bilishi va darsga borishdan maqsad yo'qligini his etishi. Ikkinchi tomondan, murakkab o'quv yuklamasi unga og'irlik qilishi va bu yuklamani uddalay olmalikdan qo'rqishi. Agar o'quvchi bir fanni qoldirsa, balki ushbu fanni yaxshi tushunmasligi va sinfdoshlari tomonidan mazax bo'lishdan qo'rqishi tufaylidir. Undan tashqari, ushbu fan o'qituvchisi bilan konflikt bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Agar o'quvchida juda ko'p darslar va undan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlar bo'lsa. Shu sababli u o'zi uchun keraksiz deb hisoblagan fanlarga qatnashmasligi mumkin. Bu yana bola o'ta bandligi, xolsizlanishi va hamma fanlarni bir xilda olib bora olmasligidan ham kelib chiqishi mumkin. Bulling yoki sinfdoshlari tomonidan mazax qilinishi, nafsoniyatiga teginishi ham ba'zi o'quvchilarda maktab darslariga bormaslikka sabab bo'lishi mumkin. Bunda bolalar maktab muhitida o'zlarini va o'z manfaatlarini himoya qila olmasliklarini his etadilar, bu esa, ularda xavotirlanish va turli stressli holatlarni keltirib chiqaradi. Ularni negativ kayfiyat va salbiy emotsiyalarni boshdan kechirishlariga sabab bo'luvchi hammani oldida kulgi bo'lishdan qochish maqsadida darslarni qoldiradilar. Ba'zi bir ijtimoiy muammolar, masalan, ota-onalar o'rtasidagi tarang, konfliktli munosabatlar. Bola uydagi notinch psixologik muhit tufayli darslarga o'z diqqat e'tiborini

qaratolmaydi va shuning uchun darslarni qoldirishga boshlaydi. Ba'zi hollarda esa, u ataylab, ota-ona mojarolarida «chalg'ituvchi omil» bo'lish uchun maktabga bormaydi. Balog'at inqirozi – dars qoldirishning yana bir sababi. Ba'zilari, maktabni qoldirib, o'zlariga diqqat e'tiborni jalb etishni istashadi. Boshqalari esa, yomon kompaniyalarga, zararli qiziqishlarga (qiziqishlarni kordinal o'zgarishi) o'ralashib qolish bilan belgilanishi mumkin.

Maktab o'quvchilarini muhim dars qoldirish sabablarini tahlil etgan holda, quyida sababsiz dars qoldirishni yo'qotishga qaratilgan choralarni o'rganib chiqsak. Albatta, hech bir besabab qoldirilgan dars e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Darslarni muntazam qoldiruvchi o'quvchilarni qattiq nazorat qilish va bunday xulq atvorni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni o'rganish darkor. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, agar bunga jiddiy e'tibor qaratilmasa, o'quvchilar o'zlarini jazolanmasliklarini his etishlari va shu yo'sinda yashashni davom ettirishlari mumkin. Oxir oqibat bu ularning doimiy, surunkali dars qoldiruvchilar, keyinchalik o'z vaqtlarini ko'cha-kuyda bekor o'tkazuvchi, jinoiy guruhlariga kirib qoluvchi deviant xulq-atvor egalariга aylanishlariga olib kelishi mumkin. Bunday bo'lmasligi uchun bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar bilan birgalikda biz tomonimizdan keltirib o'tiladigan takliflarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Ba'zi fanlar o'quvchiga tushunarsiz, shu sababdan o'zlashtirish ko'rsatkichlari past, fanga qiziqishi yo'q bo'lgan holatlarda bunday o'quvchilarga fan o'qituvchilari, ota-onalar hamkorligida yordam qo'lini cho'zish muhimdir. Bunda o'qituvchi bola bilan qo'shimcha ishlashi, yangi materialni qaytadan tushuntirib berishi va topshiriqlar belgilashi muhimdir. Shu orqali o'qishdagi qiyinchiliklarni yengib o'tib, bolada o'qishga nisbatan qiziqishni saqlab qolish imkoniyati paydo bo'ladi. O'quvchilarda dars qoldirishlarni yo'qotish uchun sinfdagi ijtimoiy-psixologik iqlimni yaxshilash darkordir. Sinf jamoasi ahil, jipslashgan va har bir o'quvchi o'zini ushbu jamoaning a'zosi sifatida his etishi uchun bizga affiliatsiya motivatsiyasi [3-4] (ing. to affiliate – birlashmoq, birlashtirmoq, insonni boshqa odamlar davrasida bo'lishga intilishi ma'nosida) yordamga keladi.

Birgalikdagi faoliyatga urg'u berishimizdan maqsad, aynan birlashish, muayyan shaxsning boshqalar davrasida bo'lishga intilish ehtiyoji, buni sof ijtimoiy-psixologik tilda affiliatsiya motivatsiyasi fenomeni deb ataymiz, unda havotirlanish darajasining pasayishiga, bu esa, to'g'ridan-to'g'ri psixologik stress holatining oldini olishga yoki yumshatishga olib keladi. Affiliatsiya motivatsiyasining qondirilmasligi esa, insonni yolg'izlik, begonalashish, bu esa, tushkunlik va depressiyaning kelib chiqishiga sabab bo'ladi [5-6]. Shuning uchun ham dunyo amaliyotchi psixologlari insonlarni ko'proq muloqotda bo'lishga, o'z hissiy kechinmalari bilan o'rtoqlashib turishga chorlashadi [7-9]. Bola xulq atvorining sabablarini tushuntirib berish uchun motivatsiya muammosiga diqqat-e'tiborni qaratish g'oyat muhim. Ijtimoiy psixologiya rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olim Yu.Platonov yozishicha [10], «... insonga ta'sir eta bilish, samarali boshqarish uchun, eng avvalo, uning xulq-atvorini va faoliyatini boshqarib turuvchi motivatsiya mexanizmlarini tushunish, anglash orqali amalga oshadi. Faqatgina insonni nima, qanday kuch harakatga undashini bilish orqaligina, uning xulq-atvorini boshqaruvchi samarali shakl va usullarni ishlab chiqish mumkin».

Tadqiqotimiz davomida 443 nafar maktab o'quvchilari qamrab olinib, mamlakatimiz yoshlarida affiliatsiya motivatsiyasining nechog'lik rivojlanganlik darajasini o'rganishga qaratilgan A.Megrabyan va M.Magomed-Eminovlar tomonidan ishlab chiqilib, ko'plab o'quvchilarda sinovdan o'tkazilgan «Affiliatsiya motivatsiyasi» so'rovnomasidan [3-4] foydalanildi. Test ikki shkaladan: «qabul qilinishga intilish (QI) va rad etilishdan qo'rqish (RQ) motivlarini aniqlashga yordam berdi» [6]. Ushbu metodikada affiliatsiyani ijobiy xodisa sifatida tahlil etsak, u - «odamlarga intilish», salbiy ko'rinishda esa, «odamlardan qo'rqish» yoki «odamlar tomonidan rad etilishdan qo'rqish» motivi sifatida namoyon bo'ladi. So'rovnomaning har ikkala qismi bir biri bilan o'zaro korrelyatsiya qilmaydi. Undan tashqari,

tadqiqotlar davomida shaxs affiliativ xulq atvoriga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish bo'yicha Ye.V.Zalyubovskayaning «Individ tomonidan guruhni idrok etishni o'rganish» so'rovnomasidan [10; 12] foydalanildi. Ushbu uslub, bizga respondentda individualistik, ya'ni, faqat o'z manfaatini o'ylab yashash, jamoaviylik – ya'ni, o'zi mansub bo'lgan jamoa manfaatlarini himoya qilishga hozirlik yoki pragmatik – vaziyatga qarab ish ko'rish kabi xulq modellaridan qay birini afzal ko'rishini aniqlashga yordam berdi.

Taniqli reportyor N.Makarenkaning «Amerika ishlaydi» – loyihasi doirasida yozgan maqolasida: «Amerikalik o'quvchilar bajonidil maktabga borishlari, maktab ularning ikkinchi uylaridek talqin etilishi, maktablarda bolalar orasidagi bullying muammosi deyarli yo'qotilganligi haqida fikr mulohazalar bildiradi. Ushbu tahlillardan shunday xulosa kelib chiqadiki, hozirgi kun maktablarimizga aynan shu narsalar yetishmaydi, ya'ni ularni hayotga, bizni jamiyatimizda sodir bo'layotgan jarayonlarni tushunish va boshqarishga o'rgatilmaydi. Fikrimizcha, bizni maktablarimizga hozirgi kunda aynan mana shu yetishmaydi. Ya'ni, maktab har kunlik hayotiy ko'nikma va malakalarni orttirishga yordam beruvchi maskanga aylanishi ayni muddaodir. Ko'chada pista chaqish yaramaydi, daraxt va gazonlarni asrash, pora berish uyat kabi muhim masalalar nafaqat oila institutlariga, balki maktab tomonidan ham qiziqarli darajada olib borilishi muhimdir. Ushbu muammoni hal etish borasida xorij tajribasini tahlil etadigan bo'lsak, Virjiniya shtati, Arlington shahrida joylashgan Long Branch Elementary School nomli boshlang'ich sinf maktabining mudiri Felisiya Russo: «Amerika maktablarida bolalikdan davlatimiz qonunlariga bo'lgan hurmatni o'rgatish eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Maktabdagi o'qituvchilarga bo'lgan munosabatga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bizning bosh g'oyamiz o'qituvchi o'qitish uchun kerak va qog'ozbozlik bilan bog'liq byurokratik ishlarni biz tashkilotchi va boshqaruvchilar o'z zimmasizlik bilan bog'liq bo'lgan ishlarni, ya'ni o'qitish jarayonini olib borolmaymiz. Maktab eshiklari ortida Amerika kelajagi o'tirganini hisobga olgan holda, eng birinchi bosh maqsadimiz bolalarga maktabni xuddi ikkinchi uylaridek his etishlari, ya'ni hafsiz muhitni ta'minlash; ikkinchi vazifamiz, bolalikdan qo'qunlarga bo'lgan hurmatni o'rgatish, uchinchi vazifamiz nafaqat bilim berish, balki hayotga moslashishga kerak bo'lgan, jamiyatimizning rasmiy hamda norasmiy qonun-qoidalarini bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qildirishdan iboratdir».

Xulosa. Ushbu dunyo tajribasidagi misollarni tahlil etgan holda, maktablarda ko'p dars qoldirgan o'quvchilar bilan ijtimoiy-psixologik ish olib borish bo'yicha quyidagi tavsiyalarimizni berib o'tamiz: 1) Ta'lim jarayonida bevosita o'qituvchi tomonidan o'quvchilarda affliatsiya motivatsiyasini shakllantirib borish uchun, ta'limning interaktiv usul va shakllari, maxsus vaziyatli topshiriqlar, guruhviy topshiriqlarni, o'quvchilarni jamoa bo'lib ishlash malakasini ta'minlab beruvchi ijtimoiy-psixologik treninglarni, o'quvchi muvaffaqiyatining individual xaritasi kabi o'z ichiga multimedia, attraktsiya va boshqa texnik usullarni qamrab oluvchi kompleks ijtimoiy-psixologik, pedagogik vositalardan faol foydalanishni tavsiya etamiz. 2) Ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'qishga jalb etish, ulardagi hamkorlik, uyushganlik muhitini yaratish maqsadida turli loyihaviy ishlarga jalb etish. Bunda o'quvchilar muammolarni aniqlash, maqsadlarni qo'ya bilish, axborot izlash, harakatlarni to'g'ri rejalashtirish, tahlil etish hamda xulosalash kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Shuningdek, loyihaviy ishlar odatda o'quvchilarda jamoada ishlay bilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. 3) O'quvchilarda affliatsiya motivining dastlabki shakllanish manbai oila va undagi munosabatlar bo'lganligi sababali, ota va onalar ilk «motivatorlar» sifatida o'z farzandining ehtiyoj va motivlari tarbiyasiga alohida e'tibor qaramog'i, uning istiqbolda jamiyatdagi turli insoniy munosabatlarda o'zini qanday tutishiga oid tarbiyaviy malaka va ko'nikmalarni o'zida shakllantirmog'i lozim, farzandini o'zгалar bilan hamkorlikda ishlash, ular bilan birlashmoq, tushunmoq malakalarini turli yo'llar bilan ongiga singdirishlari zarur. 4) O'quvchilarda maktablarda o'qitish motivatsiyalari bilan birgalikda affliatsiya va muvaffaqiyatga erishish motivatsiyalarining uyg'unlikda olib borilishi ijtimoiy xulq mustahkamlanishiga erishish orqali kommunikativ jihatdan bilimdon (kompetent)

shaxs yetishtirib berishga asos bo'lib xizmat qiladi. 5) O'qituvchi tomonidan turfa xil metodikalar, energjayzerlar, rollik o'yinlar, interaktiv usullardan foydalanish orqali o'quvchilarni darslarga qiziqtirish, eng avvalo, darslarni yaxshi o'zlashtirish, shuning bilan birgalikda maktabga kelish ishtiyoqini uyg'otishga xizmat qiladi. Buning uchun o'qituvchi ko'proq o'z ustida ishlab, doimiy izlanishda bo'lmog'i zarur. O'quvchilarni maktabga kelishlarini ta'minlovchi yana bir mexanizm bu – o'zaro do'stona, ishonchli muhit sharoitini yaratishdir. Zero, xalqaro tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy munosabatlar juda ko'p ko'rsatkichlarga: maktabda o'quvchilarda xavfsizlik hissini ta'minlashda, tengdoshlari bilan muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda, o'z-o'ziga bahoni ko'tarishda hamda akademik muvaffaqiyat ko'rsatkichlarini oshirishda ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Shunday ekan, maktabga o'quvchilarni borishini ta'minlashda o'quvchilarda affiliatsiya motivatsiyasini rivojlantirish o'ta dolzarb ahamiyatga molik masaladir. 6) O'quvchilarni maktabga borishini ta'minlovchi yana bir muhim omil bu – hayotiy muhim ko'nikma va malakalarni dars davomida berishdir. Musiqa darsida ulami sevimli musiqasini eshitib ko'rish, chiqindilarni saralashni o'rgatish yoki oddiy etiket qoidalari, ko'pchilik orasida o'zini tutish madaniyatidan saboqlar berish va hok. Hayotiy dolzarb muammolar odatda kitoblarda berilgan misollardan ko'ra o'quvchilarga ancha qiziqarliroq bo'ladi. 7) Sinfdan yaxshi, ijobiy «mikromuhit» yaratish, darslarda va tanaffuslarda o'quvchilarga dam olishni ta'minlash odatda zo'riqishlarni oldini olishni ta'minlaydi. Turli faollashtiruvchi o'yinlar orqali chalg'itish, misol usun 5 daqiqali fizzlyadkalar bajarish ham o'quvchilarni darslarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirishga, shu bilan birga darslarga qiziqish uyg'otishga xizmat qiladi.

Адабиётлар:

1. Davomat.uz
2. Сиводед Ю.А. Поэтапная работа с родителями учащихся, пропускающих уроки по неуважительным причинам, для привлечения их к ответственности за неисполнение родительских обязанностей: Методическая разработка. - М., 2015.
3. Шапарь В.Б. и др. Новейший психологический словарь. - 3-изд. - Ростов/н/Д.: Феникс, 2007.
4. Buunk В. Affiliation and helping interactions within organizations: a critical analysis of the role social support with regard to occupation stress // European review of social psychology. - Chichester: John Wiley, 1990, 1. - P. 293-322.
5. Как-Калик В.А. Основы профессионально-педагогического общения. - Грозный, 1979.
6. Карпенко Л.А. Краткий психологический словарь / Под общ. ред. А.В.Петровского, М.Г.Ярошевского. - М., 1985.
7. Кузнецова И.В. Мотив аффилиации в межличностных отношениях: Дис. ... канд. психол. наук. - СПб., 2006. - 200 с.
8. Маркова А.К., Матис Т.А., Орлов А.Б. Формирование мотивации учения. - М., 1990.
9. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. - Т. 1. - СПб.: Питер, 2003.
10. Норкулова Н.Т. Ёшлар маънавиятида аффилиация мотивацияси психологияси. - Т.: Fan va texnologiya, 2015.
11. Немов Р.С., Алтунина И.Р. Социальная психология: Учебное пособие. - СПб.: Питер, 2010.
12. Гребенюк О.С., Гребенюк Т.Б. Основы педагогики индивидуальности. - Калининград: Янтарный сказ, 2000.

PSIXIK BUZILISHLAR – O‘SMIRLIK DAVRI MUAMMOSI SIFATIDA

Djumabayeva Manzura Bagibekovna, TAFU dotsent v.b.

Annotatsiya. O‘smirlik davrida ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolarni hal qilmaslik balog‘at yoshida tuzatilishi uzoq davom etadigan oqibatlariga olib keladi, bunday jarayonlar o‘smirning ham jismoniy, ham ruhiy salomatligiga salbiy ta‘sir qiladi va katta yosh davrida hayoti uchun imkoniyatlarni cheklaydi.

Tayanch so‘zlar: *o‘smirlik davri, psixik salomatlik, psixik buzishlar, paranoid, shizoid, depressiya, xavotir, anoreksiya, bulimiya.*

ПСИХИЧЕСКИЕ РАССТРОЙСТВА - КАК ПРОБЛЕМА ПОДРОСТКОВОГО ПЕРИОДА

Джумабаева Манзура Багибековна, Ташкентский университет прикладных наук, кафедра «Психология» и.о. доцент

Аннотация. Непринятие мер борьбы с нарушениями психического здоровья в подростковом периоде чревато последствиями, которые распространяются и на взрослый возраст, негативно влияя как на физическое, так и на психическое здоровье и ограничивая возможности для полноценной взрослой жизни.

Ключевые слова: *подростковый возраст, психическое здоровье, психические расстройства, параноик, шизоид, невротик, депрессия, тревога, анорексия, булимия.*

MENTAL DISORDERS AS A PROBLEM OF ADOLESCENCE

Dzhumabaeva Manzura Bagibekovna, assistant professor of TUAS

Abstract. Failure to address mental health problems during adolescence has consequences that extend into adulthood, negatively impacting both physical and mental health and limiting opportunities for a fulfilling adult life.

Key words: *o‘smirlik davri, psychic salomatlik, psychic buzilishlar, paranoid, schizoid, neurotic, depression, havotir, anorexia, bulimia.*

Kirish. Bugungi kunda jamiyatimizda har tomonlama sog‘lom avlodni shakllantirishga har doimgidan ham jiddiy ahamiyat berilmoqda. O‘shib ulg‘ayayotgan yosh avlodni nafaqat aqlan va jismonan, balki psixologik baquvvat, psixik jihatdan sog‘lom qilib tarbiyalash hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Zero, shaxs taraqqiyotida psixologik rivojlanish muhim hisoblanadi, bunday jarayon, ayniqsa, o‘tish davridagi o‘smir farzandlarimiz tarbiyasida juda muhimdir. Shaxsning rivojlanishiga esa, turli hil omillar ta‘sir ko‘rsatadi. O‘smirlik davrida xulq-atvor va tashqi ko‘rinishda doimo sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bunga gormonlar darajasining ko‘tarilishi va o‘zgarishi, rol o‘zgarishi, madaniy va ijtimoiy kutuvlar, ommaviy axborot vositalarining ta‘siri, tarbiya, uydagi muayyan vaziyatlar va tengdoshlar bilan muloqot kabi omillar ta‘sir qiladi. Agar bola bolaligida oilada qandaydir qiyinchiliklarga duch kelgan bo‘lsa, o‘smirlik davrida ular kuchayishi mumkin. Disfunktsiyali oilalarda o‘smirlar jinsiy xulq-atvor, ruhiy qaramlikni keltirib chiqaradigan moddalarni iste‘mol qilish, qochib ketish va his-tuyg‘ular bilan bog‘liq muammolarga duch kelishi mumkin. Boshqa tomondan, agar oilaviy munosabatlar yaxshi bo‘lsa, odatda o‘smirning xatti-harakatlarida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘lmaydi.

Psixik buzilishlar dunyo bo‘ylab 10-19 yoshgacha bo‘lgan har etti kishidan biriga ta‘sir qiladi; ular ushbu yosh guruhidagi kasalliklarning global yukining 13% ni tashkil qiladi. Depressiya, xavotir va xulq-atvorning buzilishi o‘smirlar orasida kasallik va

nogironlikning asosiy sabablaridan biridir. 2018-yilda fuqarolarning psixonevrologiya dispanserlari va psixiatriya shifoxonalariga murojaatlarini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, 14 yoshgacha bo'lgan 3679 nafar bolada ilk bor psixiatrik tashxis qo'yilgan. Shu bilan birga, ulush shizofreniya spektrining buzilishidan farqli o'laroq, yanada malakali va aniq psixiatrik tashxisni talab qiladigan chegaraviy ruhiy kasalliklar (nevrotik reaksiyalar, depressiya, ovqatlanish buzilishi va boshqalar) ulushiga to'g'ri keladi. O'smirlik davridagi ruhiy kasalliklarni erta tashxislash va davolashning ustuvor ahamiyati, birinchi navbatda, epidemiologik tadqiqotlar ma'lumotlari bilan tasdiqlangan. Xususan, JSSTning joriy ko'rsatkichlariga ko'ra, 10-19 yoshli odamlarda ruhiy salomatlik buzilishlari global kasallik va ko'ra, balog'at yoshidagi ruhiy patologiyaning o'sish sur'atlari ortib borayotgani nuqtai nazaridan, butun dunyo bo'ylab voyaga etmaganlar o'rtasida kasallanish va jarohatlar yukining 16 foizini tashkil qiladi. JSSTning joriy statistik ma'lumotlariga nogironlikning asosiy sabablaridan biri bo'lgan o'smirlik depressiyasini o'z vaqtida aniqlash va davolash alohida ahamiyatga ega. Tugallangan o'z joniga qasd qilish, og'ir depressiyaning natijasi sifatida, 15-19 yoshdagilarni o'lim sabablari orasida uchinchi o'rinda turadi.

Asosiy qism. O'smirlardagi ruhiy kasalliklarning turlari. Birinchi navbatda, psixolog yordamini talab qiladigan o'smir ruhiy patologiyasi spektri quyidagi nozologik birliklarni o'z ichiga oladi: shaxsiyatning buzilishi; psixosomatik va affektiv buzilishlar; xulq-atvorning o'ziga xos buzilishlari; anoreksiya va bulimiya.

Bolalik va o'smirlik davrida paydo bo'ladigan va balog'atga yetgunga qadar davom etadigan shaxsiyatning doimiy buzilishlari ijtimoiy yoki tarbiyaviy moslashuv bilan birga keladigan shaxsning xarakteri va xulq-atvoridagi jiddiy buzilishlardir. Shaxsiyatning buzilishi bo'yicha mutaxassis bilan bog'lanishning sababi, qoida tariqasida, ijtimoiy va ta'limga moslashish buzilishidan kelib chiqadigan polimorf xavotir, depressiv va astenik reaksiyalardir. Zamonaviy DSM-V diagnostika qo'llanmasiga ko'ra, shaxsiyatning buzilishi xarakterologik buzilishlarning dominant turiga ko'ra 3 ta asosiy klasterga bo'linadi – A, B, C. A klasteri (paranoid, shizoid, shizotip) introversiya, hissiy sovuqlik, ijtimoiy izolyatsiya yoki fikrlashning o'ziga xosligi, xatti-harakatlar va sevimli mashg'ulotlarning eksentrikligi (ba'zi hollarda aniq eksentriklik) ustunligi bilan xarakterli bo'lgan doimiy buzilishlar bilan tavsiflanadi. B klasteri (chegaraviy, isterik, narsistik) tan olish, namoyishkorlik, hissiy beqarorlik, mas'uliyatsizlik va xulq-atvorni ixtiyoriy nazorat qilmaslik (ehtiyotsizlik, infantillik va egotsentrizm) ustunligi bilan. C klasteri (qochuvchi, qaram, obsesif-kompulsiv) og'riqli tashvish, tortinchoqlik, qobiliyatsizlik, qarindoshlarning nazorati va g'amxo'rlikiga bog'liq bo'lgan hayotda minimal qiyinchiliklardan qochish tendentsiyasi yoki patologik perfektsionizm kabi doimiy xarakterli buzilishlar bilan belgilanadi. Qo'rquv va qo'rquv qulayligi bilan tavsiflanadi [1].

Klinik amaliyotda shaxsiyatning buzilishi tashxisini qo'yish uchun zamonaviy diagnostika qo'llanmalarida ko'rsatilgan klinik mezonlar qo'llaniladi, xususan: 1. Moslashuvning yo'qligi doimiy, qattiq va barqarordir. 2. Noto'g'ri xatti-harakatlar natijasida sezilarli qiyinchilik yoki faoliyatning buzilishi. 3. Nisbiy barqarorlik va noto'g'ri xatti-harakatlarning erta boshlanishi. 4. Psixosomatik buzilishlar (somatoform/somatizatsiyalangan va gipoxondriakal buzilishlar) [5].

Affektiv patologiya. O'smirlik davridagi affektiv patologiyaning eng keng tarqalgan turi depressiv kasalliklarni o'z ichiga oladi. Erta tashxis qo'yish va ixtisoslashtirilgan davolanishga shoshilinch ehtiyoj ushbu guruh bemorlarining o'z joniga qasd qilish xavfi bilan belgilanadi. Zamonaviy klinik amaliyotda depressiv buzilish hayotning pasayishi, apatiya, charchoq, uyqu va ishtahaning buzilishi bilan kechadigan ruhiy tushkunlikning surunkali holati sifatida tavsiflanadi.

Bemorlarning ruhiy holatida ruhiy tushkunlik, ko'krak qafasidagi og'irlik hissi bilan melanxolik, apatiya va tashvish birinchi o'ringa chiqadi. Kayfiyatni pasaytirish variantining

o'ziga xosligi depressiv buzilishning klinik ko'rinishi (tashvishli, apatik va boshqalar) depressiya bilan belgilanadi. Bemorlar avvalgi hayotiyligini yo'qotadilar, charchashadi, himoyasiz bo'lishadi va minimal hissiy qo'zg'alishlarga moyil bo'lishadi – ularning ta'lim samaradorligi pasayadi, ilgari o'ziga xos bo'lmagan ko'z yoshlari, izolyatsiya va og'riqli o'zini o'zi to'ldirish tendentsiyasi va o'zlarining layoqatsizligi va hech narsaga arzimasligi haqidagi g'oyalar paydo bo'ladi. Uyqusizlik va uyg'onish qiyinligi kabi uyqu buzilishi qayd etiladi. Ishtaha pasayadi yoki tashvishli depressiya holatida majburiy ortiqcha ovqatlanish turiga o'zgaradi. Shuni hisobga olish kerakki, depressiya rasman ruhiy kasallik sifatida tan olingan, uning etiologiyasi neyrotransmitter buzilishlari va shuning uchun o'z vaqtida dori-darmonlarni davolashni talab qiladi. Depressiv kasalliklarni davolashda psixoterapevtik tuzatish muhim, ammo, asosan, yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi va psixofarmakoterapiyaning ekvivalenti bo'la olmaydi. Ixtisoslashgan dori-darmonlarni qabul qilish zaruratini e'tiborsiz qoldirish depressiya belgilarining kuchayishi va o'z joniga qasd qilish xavfining oshishi bilan tavsiflanadi [4].

Xulq-atvor buzilishlari. O'smirlik davridagi xulq-atvor buzilishlari o'ziga xos o'zgaruvchanlik va ko'rinishlarning polimorfizmi bilan tavsiflanadi. Xulq-atvor buzilishlarining eng keng tarqalgan varianti, ayniqsa, ijtimoiy va maktabdagi o'smirlar uchun mos kelmaydigan, bu balog'at yoshiga xos bo'lgan shaxsiyatning hissiy-irodaviy xususiyatlarining og'riqli keskinlashishi va buzilishi bilan tavsiflangan geboid sindromidir (balog'atning patologik inqirozi).

Geboid sindromining klinik ko'rinishi o'spirinning tug'ma xarakteriga mos kelmaydigan xulq-atvorning qo'pol buzilishi bilan belgilanadi, qo'pollik, dushmanlik, murosasizlik, asotsial va antisotsial xulq-atvoriga moyillik, aniq orqada qolishi va sodda qiziqishlarning buzilishi (erkin jinsiy munosabatlar, alkoholizm, giyohvandlik va boshqalar), eng yuqori axloqiy tamoyillarni yo'qotish yoki zaiflashtirish (tabularni yo'qotish, ijtimoiy masofa, yaxshilik va yomonlik chegaralarini tushunishning buzilishi). Geboid sindromi, birinchi navbatda, shizofreniya va shizofreniya spektrining buzilishining dastlabki yoki namoyon bo'lgan davrlarida yuzaga keladi, buning natijasida u psixiatr tomonidan majburiy kuzatuv va davolanishni talab qiladi [5].

Anoreksiya nevrozi va bulimiya nevrozi. Bu masalalar ovqatlanishni buzilishi chegaralarida ko'rib chiqiladi. Shunga qaramay, dismorfofobiya fenomeni – o'zining xunukligiga patologik ishonch, obyektiv baholash uchun tanqidiylilni yetishmasligi bilan o'z tashqi ko'rinishidan doimiy norozilik sifatida namoyon bo'ladi.

Anoreksiya nevrozi ozg'inlikka bo'lgan haddan tashqari intilish, semizlikning og'riqli davri, belgilangan me'yorga nisbatan oziq-ovqatning etarli darajada cheklanishi bilan tavsiflanadi. Bemorlar vazn muammolari bilan shug'ullanadilar, dietaning og'riqli oqibatlarini (amenoreya, alopesiya va boshqalar), ota-onalarning e'tiborlari va shifokorlarning tavsiyalarini e'tiborsiz qoldiradilar [2]. Bulimiya nevrozi ko'pincha haddan tashqari ochlik paydo bo'lish bosqichida anoreksiya dinamikasi sifatida ishlaydi. Mustaqil buzilish sifatida bulimiya nevrozi majburiy haddan tashqari ko'p ovqatlanish epizodlari bilan, keyin oshqozon-ichak traktini tozalash muolajalari (qo'zg'atilgan qusish, laksatiflar va diuretiklarni suiiste'mol qilish) bilan belgilanadi. Bemorlar muntazam ravishda ko'p miqdorda yuqori kaloriyalı ovqat iste'mol qiladilar, og'riqli hislar paydo bo'lgunga qadar to'xtib qololmaydilar va o'zlarini jazolaydilar. Majburiy ortiqcha ovqatlanish og'irlikning obsesif qo'rquvi, o'zini kamsitish g'oyalari bilan patologik aybdorlik hissi bilan almashtiriladi. Ovqatlanishning buzilishi o'smirlarning ruhiy salomatligini buzadigan yana bir muammodir. Ko'pincha, ovqatlanish buzilishining qo'zg'atuvchisi ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda go'zallik standartlari talabidir. Ayniqsa, qizlar ovqatlanish buzilishidan aziyat chekmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ovqatlanish buzilishi va ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o'tkazish o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Ovqatlanishning buzilishi o'smiring o'z vazni va ko'rinishi

haqida juda qayg'urishida namoyon bo'ladi va anoreksiya nevrozi, bulimiya yoki kompulsiv ortiqcha ovqatlanish shaklida yuzaga keladi. Kaloriya iste'molini cheklash yoki nazoratsiz oziq-ovqat iste'mol qilish bilan tavsiflanadi. Ko'pincha depressiya, xavotirlanish kasalliklari yoki giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish bilan birga keladi. Ovqatlanishning buzilishi o'ziga xos bo'lmagan sindromli shakllanishdir va shuning uchun ruhiy kasalliklarning butun spektri-shaxsiyatning buzilishi, depressiya, shizofreniya spektrining buzilishi tarkibiga kirishi mumkin. Ovqatlanish buzilishini davolashda shuni hisobga olish kerakki, psixoterapiya (birinchi navbatda, oilaviy terapiya), shuningdek, maxsus parhez va ovqatlanish qoidalarini joriy etish psixokorreksiyaning asosiy usullaridan biridir [3].

Anoreksiya nevrozi va bulimiya nevrozida kognitiv terapiya ham tavsiya etilishi mumkin. Kognitiv terapiya quyidagi maqsadlarga ega: bemor o'z fikrlarini ro'yxatga olishni va ularni aniqroq tushunishni o'rganishi kerak. U ma'lum disfunktsional fikrlar o'rtasidagi munosabatni bilishi kerak, noto'g'ri xatti-harakatlar va his-tuyg'ular; ularning e'tiqodlarini tahlil qilish va ularning to'g'riligini tekshirish, real va adekvat talqinlarni shakllantirish va noto'g'ri tushunchalarni bosqichma-bosqich o'zgartirish. Terapiya, ayniqsa, kasallikning surunkali kursiga nisbatan sezilarli moyillik bo'lgan hollarda samarali bo'ladi; tashqi ko'rinish, ovqatlanish va vazn haqida disfunktsional g'oyalarga e'tibor qaratish kerak [6].

Xulosa. Psixik salomatligi bilan bog'liq muammolari bo'lgan o'smirlar, ayniqsa, ijtimoiy izolyatsiya, kamsitish, stigma (bu ularning yordam so'rash istagini cheklaydi), maktab dasturini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar, xavfli xatti-harakatlar, jismoniy sog'liq va huquqlarining buzilishiga imkonlidir. Bolaning xulq-atvoridan qat'i nazar, u bilan aloqada bo'lish kerak. Vaziyatni axloqiy va tahqirlash bilan og'irlashtirmang, bolaning xatti-harakatlarini kichik maktab yoshidagi holatiga qaytarishga urinmang. Birinchidan, bu rivojlanishni sekinlashtiradi, ikkinchidan, u kuchliroq rad etishni keltirib chiqaradi. Agar ota-onalar muammoni o'zlari mustaqil ravishda bartaraf eta olmasligini tushunsalar, darhol mutaxassislar-psixologlar murojaat qilishlari kerak. Aks holda, inqirozdan muvaffaqiyatsiz chiqish xavfi ortib ketadi va o'smirda deviant va jinoiy xatti-harakatlar, o'z joniga qasd qilish, klinik depressiya kabilar ro'y berishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Антропов Ю.Ф. Невротическая депрессия у детей и подростков (клиника, типология, динамика и дифференцированная терапия). - М.: Медпрактика, 2001.
2. Келина М.Ю., Маренова Е.В., Мешкова Т.А. Неудовлетворенность телом и влияние родителей и сверстников как факторы риска нарушений пищевого поведения среди девушек подросткового и юношеского возраста // Психологическая наука и образование. - М, 2011. - Т. 16. - № 5. - С. 44-51.
3. Нардонэ Дж., Вербиц Т., Миланезе Р. В плену у еды: краткосрочная стратегическая терапия при нарушениях пищевого поведения: булимия, анорексия, vomiting (вызванная рвота). - М., 2010.
4. Практическая психология образования: Учебное пособие / Под ред. И.В.-Дубровиной. - СПб.: Питер, 2004
5. Прихожан А.М. Проблема подросткового кризиса // Психологическая наука и образование. - М., 1997.
6. Askarova N.A., Boymurodova X.R. Psychological factors influencing the formation of anorexia nervosa // British Journal of global ecology and sustainable Development, 2022. 10, 155.

НАСТАВНИЧЕСТВО КАК ЭФФЕКТИВНЫЙ СПОСОБ СТАНОВЛЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛИЗМА МОЛОДОГО ПЕДАГОГА

Тошматова Турсуной Тошмаматовна, заведующая кафедрой гуманитарных дисциплин и физического воспитания филиала Национального исследовательского ядерного университета МИФИ в городе Ташкенте

Аннотация. Статья посвящена проблеме наставничества, где описывается совокупность структурных компонентов, технологий и механизмов, обеспечивающих эффективную реализацию процесса наставничества и достижения планируемых результатов.

Ключевые слова: наставничество, интеграция, традиционные методы, инновационные подходы, организация, воспитание, обучение, развитие.

MURABBIYLIK YOSH PEDAGOGNING PROFESSIONALLIKKA ERISHISHDAGI SAMARALI USULI

Toshmatova Tursunoy Toshmamatovna, MMFI Milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent shahar filiali ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasini mudiri

Аннотация. Ushbu maqola murabbiylik muammosiga bag'ishlangan bo'lib, unda murabbiylik jarayonini samarali amalga oshirish va rejalashtirilgan natijalarga erishishni ta'minlaydigan tarkibiy qismlar, texnologiyalar va mexanizmlar jamlanmasi tasvirlangan.

Tayanch so'zlar: murabbiylik, integratsiya, an'anaviy usullar, innovatsion yondashuvlar, tashkil etish, ta'lim, tarbiya, rivojlanish.

MENTORING AS AN EFFECTIVE WAY TO DEVELOP PROFESSIONALISM OF A YOUNG TEACHER

Toshmatova Tursunoy Toshmamatovna, head of the department of humanitarian and physical education, branch of the National research nuclear university «MEPHI» in Tashkent

Abstract. This article is devoted to the problem of mentoring, which describes a set of structural components, technologies and mechanisms that ensure the effective implementation of the mentoring process and the achievement of planned results.

Key words: mentoring, integration, traditional methods, innovative approaches, organization, education, training, development.

Введение. Наставничество в своём лучшем проявлении связано с компетентностью, опытом и чётким определением ролей. Эффективное раскрытие потенциала личности молодого педагога, необходимого для его успешной личной и профессиональной самореализации в современных условиях – основная цель наставничества в образовательном процессе. Формирование открытого и эффективного сотрудничества «наставник – молодой педагог», создание условий для развития и повышения квалификации молодого специалиста, раскрытие личностного, творческого и профессионального потенциала каждого молодого педагога, поддержка его индивидуальной деятельности, подготовка молодого педагога к самостоятельной продуктивной деятельности – вот те главные задачи, которые должен ставить и решать наставник.

Основная часть. Система наставничества представляет собой совокупность структурных компонентов, технологий и механизмов, обеспечивающих эффективную реализацию процесса наставничества и достижения планируемых результатов.

Наставник в отношениях с молодыми коллегами является наставником, экс-

пертом, предметником, тьютором, организатором, консультантом, помощником, управленцем, тренером, проблематизатором.

Педагог-наставник должен быть открытым новому опыту, быть интересным, активным, общительным, добрым, умным, креативным, позитивным, честным, справедливым, надёжным и ответственным человеком. При этом он ещё и интересный собеседник; всегда готов выслушать и поддержать; быть внимательным к проблемам молодого коллеги; знать, как выходить из спорных и трудных ситуаций, на него можно положиться; всегда стремится выполнять свои обещания; поделиться своим опытом; быть успешным и состоявшимся в какой-либо области; иметь интересных друзей и знакомых из различных сфер жизни.

В числе распространённых форм наставничества можно выделить: «классный руководитель – учащиеся», «куратор – студенты», «наставник – наставляемый», «тьютор – студенты», «работодатель – студент» и др.

Мы уделили основное внимание связке «наставник – молодой педагог», целью такой формы наставничества является поддержка молодого учителя, помощь в адаптации к новым условиям, взаимодействие наставника с наставляемым; помощь в развитии личного потенциала, развитие гибких навыков и метакомпетенций, создание комфортных условий и др.

Среди основных задач взаимодействия наставника с наставляемым, следующие: способствовать формированию потребности заниматься анализом результатов своей профессиональной деятельности; развивать интерес к методике построения и организации результативного учебного процесса; ориентировать начинающего учителя на творческое использование передового педагогического опыта в своей деятельности; прививать молодому специалисту интерес к педагогической деятельности в целях закрепления его в общей средней школе; ускорить процесс профессионального становления молодого учителя; усиление уверенности в своих силах.

Молодые учителя, в свою очередь, получают необходимые для данного периода профессиональные советы и рекомендации, а также стимулы и ресурсы для комфортного становления и развития внутри общей средней школы. В таком процессе происходит: а) повышение уровня удовлетворённости собственной работой и улучшения психоэмоционального состояния; б) желание продолжить свою работу в качестве учителя в данном коллективе; в) качественный рост успеваемости учащихся; г) сокращение числа конфликтов с педагогическим и родительским коллективом; д) рост числа собственных профессиональных работ: статей, исследований и методических разработок.

В этой связи молодому специалисту следует: систематически знакомиться с опытом своих коллег, посещать их занятия, прислушиваться к их советам, учиться у них методике преподавания учебного предмета, методике воздействия на учащихся с целью пробуждения у них интереса к знаниям; систематически изучать методическую и научную литературу, следить за педагогическими находками и поисками педагогов-новаторов, посещая библиотеки, составляя картотеку работ по изучаемой педагогической проблеме. Каждый раз следует пересматривать свои записи и заметки, тщательно анализируя тенденции развития общей средней школы для внесения коррективов в свою педагогическую деятельность; совершенствовать свои знания и умения по преподаваемой учебной дисциплине: принимать участие в научно-практических конференциях, выступать с докладами об опыте своей работы, обсуждать в педагогическом коллективе возникшие проблемы учебно-воспитательной работы, организовывать встречи с коллегами других образовательных учреждений и обмениваться опытом работы.

С целью качественного осуществления обязанностей наставника и успешной профессиональной адаптации начинающего учителя был разработан ряд мероприятий, который включает: составление плана работы наставника с молодым специали-

том на учебный год; индивидуальный образовательный маршрут молодого специалиста; карта индивидуального образовательного маршрута молодого педагога; подборка комплекта диагностических материалов для выявления профессиональных затруднений молодого специалиста; разработка методических рекомендаций для организации работы; анализ результатов работы и обзор опыта работы по наставничеству и др.

На первом этапе координатор осуществляет непосредственное руководство и контроль. На втором этапе особое значение имеет установление доверительного, продуктивного общения между наставником и его подшефным, которое может строиться по моделям: общение – поддержка, общение – коррекция, общение – обучение, общение – снятие барьеров, общение – сопровождение и др. На третьем этапе могут реализовываться различные направления наставника: адаптационная работа; психологическая и методическая поддержка; профессиональная коммуникация; мотивация и стимулирование саморазвития и самообразования и др. На последнем этапе проводится анализ и оценка достигнутых результатов, а также определение дальнейшего профессионального роста молодого учителя.

Можно выделить дополнительные этапы наставничества в образовательной организации: планирование и внедрение; отбор наставников; подготовка наставников; обучение; оценка результата изменения процедуры наставничества, поощрение лучших наставников.

Для эффективной реализации этапов наставничества в образовательном учреждении необходимо применить: 1) основные компетенции, необходимые современному наставнику (блок психолого-педагогических компетенций; блок методических компетенций; блок коуч – компетенций); 2) «Школа наставничества» (можно на основе сетевого взаимодействия); 3) оценку эффективности наставничества (модель Дональда Кирпатрика); 4) нормативные основы наставничества; 5) Типовое положение о наставничестве; 6) анкеты для молодых учителей; 7) анкеты для обратной связи для наставников. В процессе наставнической деятельности особое внимание уделяется формам, типам и технике.

Вывод. Любая из указанных форм наставничества может реализовываться по одному или нескольким типам, которые также могут быть классифицированы по различным основаниям. Очевидно, что в реальности формы и типы наставничества могут сочетаться в различных вариантах, выполняя при этом основные функции. На современном этапе наставничество является стратегически значимым элементом системы развития кадров.

Литература:

1. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» от 23 сентября 2020 года.
2. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года: <https://lex.uz/docs/3171587>
3. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5313 «О мерах по коренному совершенствованию системы общего, среднего специального и профессионального образования» от 25 января 2018 года.
4. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 394 «О мерах по совершенствованию системы профессиональной подготовки квалифицированных кадров, востребованных на рынке труда» от 13 мая 2019 года.
5. Абдуллаева Ш.А. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. - СПб., 2019. - С. 4-10.

PEDAGOGIK TADQIQOTLARDA INNOVATSION KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Mannopova Robiya Baxtiyor qizi, Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti,
Begimkulov Uzokboy Shoimkulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

- qo'shinlarni zamonaviy qurol-aslaha, harbiy va maxsus texnika hamda jihozlar bilan ta'minlash.

Ma'lumki, ko'pchilik bolalikdan uchuvchi bo'lishni orzu qiladi. Bu sharaflı kasb egasi bo'lish uchun ham uzoq vaqt tayyorgarlik talab etiladi. Samolyot uchuvchisi yoki aviator – samolyotning parvozini boshqaradigan shaxs hisoblanadi. Navigatorlar yoki bort muhandislari kabi boshqa havo ekipaji a'zolari ham aviatorlar hisoblanadilar, chunki ular samolyotning navigatsiya va dvigatel tizimlarini boshqarishda ishtirok etadilar. Aviator (fransuzcha, «aviateur») atamasi asosi «avis» so'zi lotincha bo'lib, «qush» degan ma'noni anglatgan.

Shu o'rında ta'kidlash lozimki, harbiy uchuvchilar hukumat yoki davlatning Qurolli Kuchlari hisoblanib, ularning vazifalari jangovar va jangovar bo'lmagan operatsiyalarni amalga oshirish, shu jumladan, to'g'ridan to'g'ri dushman harakatlar va qo'llab-quvvatlash operatsiyalarini o'z ichiga oladi. Harbiy uchuvchilarga qiruvchi uchuvchilar, bombardimonchi uchuvchilar, transport uchuvchilari, sinov uchuvchilari va kosmonavtlar kiradi [2].

Mamlakatimizda harbiy uchuvchilarni tayyorlash bo'yicha 1994-yilda asos solingan Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti 2019-yilda Qarshi shahrida qayta tashkil etildi. Qarshi serjantlar tayyorlash maktabi negizida Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti tashkil etilib, ajratilgan 73 milliard so'm evaziga o'quv korpusi va yordamchi binolar zamonaviy ko'rinishga keltirilib, yangi trenajyorlar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan.

Hozirda bu bilim yurti O'zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya instituti sifatida qayta tashkil etilib, o'quv jarayonini tashkil etish uchun qo'shimcha yangi zamonaviy o'quv binolari, o'quv laboratoriya va trenajyor majmualari barpo etilgan. Kursantlar tarkibi uchun barcha maishiy sharoitlarga ega bo'lgan yotoqxona va oshxona foydalanishga topshirilgan.

Institut O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar uchun yuqori malakali aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash vazifalarni amalga oshirib kelmoqda.

Institutda to'rt yillik bakalavr va ikki yillik magistratura hamda bir yillik doktorantura bo'lib, quyidagi mutaxassislar tayyorlanmoqda [3]:

I. 4 yillik bakalavr:

- samolyot aviatsiyasi taktik qo'mondon-uchuvchiligi (samolyot uchuvchisi);
- vertolyot aviatsiyasi taktik qo'mondon-uchuvchiligi (vertolyot uchuvchisi);
- havodagi harakatlarni boshqarish mutaxassisligi;
- uchish apparatlari va dvigatellariga xizmat ko'rsatish bo'yicha aviatsiya muhandisligi;

– uchish apparatlarining aviatsiya quollariga xizmat ko'rsatish bo'yicha aviatsiya muhandisligi;

– uchish apparatlarining aviatsiya jihozlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha aviatsiya muhandisligi;

– uchish apparatlarining radioelektron jihozlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha aviatsiya muhandisligi.

– uchuvchisiz uchish apparatlari operatori-uchuvchi (taktik qo'mondon-uchuvchiligi).

II. 2 yillik magistratura:

– havodagi harakatni boshqarish operativ-taktik shtab qo'mondonligi (muhandis-dispatcher);

– uchish apparatlari ekpluatatsiyasi operativ-taktik shtab qo'mondonligi (uchish apparatlari va dvigatellariga xizmat ko'rsatish);

– uchish apparatlari ekpluatatsiyasi operativ-taktik shtab qo'mondonligi (uchish apparatlarining aviatsiya quollariga xizmat ko'rsatish);

– uchish apparatlari ekpluatatsiyasi operativ-taktik shtab qo'mondonligi (uchish apparatlarining aviatsiya jihozlariga xizmat ko'rsatish);

– uchish apparatlari ekpluatatsiyasi operativ-taktik shtab qo'mondonligi (uchish apparatlarining radioelektron jihozlariga xizmat ko'rsatish).

Muhandislik yo'nalishlari uchun 1 yillik doktorantura mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Qarshi shahridagi Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti faoliyati bilan tanishish jarayonida yoshlar bilan suhbatda o'z mutaxassisligiga qo'shimcha xorijiy tillar va zamonaviy texnologiyalarni puxta o'rganishning ahamiyati haqida gapirib, «Har bir davlatning mudofaasi uning qudratini ko'rsatadi. Mudofaani esa sizga o'xshagan bilimli, aqlli, irodali harbiylar, muhandis va uchuvchilar ta'minlaydi. Bunga munosib bo'lish uchun doim o'qib-o'rganib, o'z ustingizda ishlab, har tomonlama barkamol bo'lib yetishishingiz kerak», – deya ta'kidladilar.

Haqiqatdan ham, O'zbekiston havo sarhadlarini qo'riqlaydigan bo'lajak mutaxassislarni yuksak darajadagi malakali kadrlar sifatida tayyorlash juda muhim. Uchuvchi birinchi o'rinda sog'lom bo'lishi kerak. Shuningdek, tez fikrlashi, favqulodda qarorlar qabul qila olishi zarur. Samolyot qancha tez uchsa, uchuvchi ham shunday tez fikrlashi kerak bo'ladi. Uchuvchilar har qanday vaziyatga tayyor bo'lishi kerak.

Uchuvchilar tarkibini tibbiy ko'rikdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligida, shuningdek, tashkiliy-shtat tuzilmalarida uchuvchilar tarkibi bo'lgan boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarda o'tkaziladi.

Tibbiy ko'rik quyidagilarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi:

– uchuvchilar tarkibini sog'lig'ining holatiga ko'ra uchuvchilik ishiga, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining boshqaruv organlari, Qurolli Kuchlar aviatsiyasi harbiy qism (muassasa)larida uchuvchilik harbiy-hisob ixtisosligi bo'yicha xizmatga (ishga, o'qishga) yaroqliligini aniqlash;

– ular sog'lig'ining holatiga ko'ra Qurolli Kuchlar aviatsiyasi turlari va uchuvchilik harbiy-hisob ixtisosligi bo'yicha fuqarolarni to'g'ri taqsimlashga ko'rsatmalar berish;

– uchuvchilar tarkibi tomonidan ular harbiy xizmatni (harbiy yig'inlarni) o'tash davrida orttirilgan kasallik, shikastlanish, yaradorlik, jarohatlarning sababiy bog'liqligini aniqlash;

– uchuvchilar tarkibiga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatilishini va ularga reabilitatsiyaning amalga oshirilishining muddati, hajmi va turlarini belgilash [4] va hok.

Harbiy uchuvchilar harbiy instruktorlar tomonidan olib boriladigan fuqarolik uchuvchilardan farqli o'laroq, o'quv dasturi bilan tayyorlanadi. Bu turli xil samolyotlar, parvoz maqsadlari, parvoz holatlari va javobgarlik zanjirlari bilan bog'liq hisoblanadi. Ko'pgina harbiy uchuvchilar harbiy xizmatni tark etgandan so'ng fuqarolik-uchuvchi malakasiga o'tadilar, shundan so'ng odatda ularning harbiy tajribasi fuqarolik uchuvchisi litsenziyasi uchun asos bo'ladi [2].

Hozirgi paytda dunyoda kuzatilayotgan xavf-xatarlardan kelib chiqib, havo mudofaasini yangi pog'onaga ko'tarish, tajriba tariqasida uchuvchisiz qurilmalar yig'ishni yo'lga qo'yish, aviatsiya mutaxassislarini tayyorlashni takomillashtirish, xorijiy muassasalar bilan qo'shma ta'lim dasturlarni amalga oshirish borasida ishlar olib borilmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, harbiy aviatsiya mutaxassislarini tayyorlashda harbiy-tarixiy fanlarni ham o'qitish, harbiy-siyosiy ish va tarbiyani takomillashtirish, shaxsiy tarkibni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ahamiyat qaratish [5], harbiy uchuvchilarning ruhiy tayyorgarligini hisobga olish ham bu jarayondagi dolzarb vazifalardandir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.

2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Samolyot_uchuvchisi.

3. <https://mudofaa.uz/39058/>

4. <https://kun.uz/news/2019/10/30/qurolli-kuchlar-aviatsiyasi-uchuvchilar-tarkibini-tibbiy-korikdan-otkazish-tartibi-elon-qilindi>

5. Лантухов С.С. Деятельность органов государственной власти и военного управления по строительству военно-воздушных сил РККА во втором периоде Великой отечественной войны (19 ноября 1942-1943 годы): Дис. ... канд. истор. наук. – М., 2022.

OLIJ HARBIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARIDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

*Sattorov Najmiddin Po'latovich, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Akademiyasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning psixologik mexanizmlari va shaxsning ilmiy dunyoqarashga ega bo'lishi, shaxsda mustaqil fikrlash qobiliyati, yoshlarni tarbiyalashda, ularni axloq-odobli, tartib-intizomli qilishda ilmiy dunyoqarashning ijtimoiy-psixologik ahamiyati yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: dunyoqarash, odob, axloq, kursant, pedagogika, psixologiya, jamiyat.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ У КАДЕТОВ ВЫСШИХ ВОЕННЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

*Сатторов Нажмиддин Пулатович, старший преподаватель
Академии Вооружённых Сил Республики Узбекистан*

Аннотация. В данной статье рассмотрены педагогические и психологические условия формирования научного мировоззрения у курсантов высших военных образовательных учреждений, психологические механизмы формирования научного мировоззрения и приобретения личностью научного мировоззрения, воспитанию у молодежи умения самостоятельно мыслить, быть нравственными и порядочными, подчеркивается социально-психологическая значимость научного мировоззрения.

Ключевые слова: мировоззрение, манера, нрав, курсант, педагогика, психология, общество.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF A SCIENTIFIC WORLDVIEW IN CADETS OF HIGHER MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

*Sattorov Nazhmiddin Pulatovich, senior lecturer at the Academy of the Armed
Forces of the Republic of Uzbekistan*

Abstract. In this article, the pedagogical and psychological conditions of formation of a scientific worldview in cadets of higher military educational institutions, psychological mechanisms of formation of a scientific worldview and the acquisition of a scientific worldview by a person, the ability to think independently, in the education of young people, to make them ethical, orderly. The socio-psychological importance of the scientific worldview is highlighted in the discipline.

Key words: worldview, manners, cadet, pedagogy, psychology, society.

Kirish. Harbiy xizmatchidagi axloqiy-siyosiy, intellektual, huquqiy va estetik hissiyotlar uning dunyoqarashi hamda e'tiqodi bilan bog'liq. Chunki, uning atrof- muhitga, voqelikka, harbiy burchiga, mehnatga va o'zga kishilarga munosabati dunyoqarashi va e'tiqodida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham ularda onglilikni shakllantirish axloqiy-siyosiy, huquqiy, intellektual va estetik hissiyotlarga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo, harbiy xizmatchilarga siyosiy, axloqiy, tarixiy va boshqa bilimlarni berish bilangina

ularda hissiyotni tarbiyalab bo'lmaydi. Bilimlar nisbatan tez o'sadi, hissiyot esa, sekin shakllanadi. Bilimlar va hissiyot o'rtasidagi bunday nomuvofiqlikni tugatishning yo'llaridan biri – bilimlarni ishonarli qilib, obrazli-emotsional shaklda berishdan iborat. Harbiy xizmatchilarga amaliy faoliyatda yetarlicha mustaqillik berish muhim ahamiyatga ega. Ular olgan bilimlarini qo'llash jarayonida aqliy va irodaviy faollik ko'rsatib, huquqiy jihatdan mustaqil qarorlar qabul qiladilar.

Asosiy qism. Shaxsning ilmiy dunyoqarashga ega bo'lishi, ilmiy bilimlarni o'zlashtirib borishi katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan inson tabiat, jamiyatda ro'y berayotgan voqea, hodisalar mohiyatini to'g'ri talqin eta oladi, hech qachon dalillar bilan isbotlanmagan voqilik hodisalarni haqiqat sifatida qabul qilmaydi. Shuningdek, ilmiy dunyoqarashga egalik shaxsda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, zamonaviy sharoitda inson ongini boshqarish ilinjida yurgan turli oqimlar, mistik g'oyalarga berilmaydi, shaxsning hayotida, shuningdek, ijtimoiy jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarning muayyan qonuniyatlarga asoslanishiga ishonadi va ularni tabiiy qabul qiladi. U o'zining va jamiyatda sodir bo'layotgan salbiy hodisalarni o'tkinchi sifatida qabul qiladi, kelajakka ishonch bilan qaraydi.

Axloqiy-siyosiy hissiyotlarga Vatanga muhabbat, dushmanlarga nafrat, harbiy burch, baynalminallik, jamoaviylik, mehnatga nisbatan ijobiy-emotsional munosabat, or-nom g'urur, uyat va vijdoniylik kabilar kiradi. Ushbu hissiyotlar askardagi dunyoqarash, siyosiy va axloqiy qadriyatlar, e'tiqod bilan bog'liq bo'ladi. Axloqiy-siyosiy hissiyotlar jang sharoitida harbiy xizmatchilarning xulq-atvorlarini belgilovchi muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Harbiy xizmatchilarni urush holatidagi jangovar harakatlarga nisbatan axloqiy-ruhiy tayyorgarligi ularning rivojlanish darajasiga bog'liqlik bo'ladi. Bundan tashqari, turli xil huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinadigan va xatti-harakatlar hamda ishlarga nisbatan shaxsning kechinmalarida namoyon bo'ladigan huquqiy hissiyotlar ham inson hayotida muhim o'rin tutadi. Yuksak darajada rivojlangan huquqiy hissiyotlar harbiy xizmatchilarni tartibbuzarlik va jinoiy harakatlardan saqlovchi asosiy mezonlar bo'lib xizmat qiladi.

Huquqiy hissiyotlarga quyidagilar kiradi: qonunlarni, harbiy nizomlarni bajarishga nisbatan mas'uliyat hissi, jamoat tartibiga hurmat va hokazo. Shuning uchun ham huquqiy tarbiya tadbirlari o'tkazishda harbiy xizmatchilarga nafaqat huquqiy bilimlar berishga, balki, ularda huquqiy hissiyotlarni rivojlantirishga ham harakat qilish lozim.

Ayni paytda Qurolli Kuchlarni isloh qilish ishi shiddat bilan olib borilmoqda. Bu shaxsiy tarkibning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi masalasini birinchi o'ringa olib chiqmoqda. Shunday ekan ma'naviy-axloqiy tarbiya, eng avvalo, harbiy xizmatchilarning mavjud haqiqatga bo'lgan munosabatiga asoslanadi.

Bu munosabat: birinchidan, harbiy xizmatchilarning dunyoqarashi darajasi, madaniyati bilan hamohangdir.

Ikkinchidan, harbiy xizmatchi O'zbekiston mustaqilligini yanada mustahkamlashda harbiy ta'lim zaruriyatini qay darajada idrok etishga bog'liq.

Uchinchidan, har bir harbiy xizmatchiga jamiyatimiz har qaysi fuqarosiga o'zligini namoyon etish uchun keng imkoniyatlar berayotgan va bu orqali mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yuqori darajaga ko'tarishga erishish mumkinligini to'g'ri anglatishi zarur.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyasi jarayoniga alohida e'tibor qaratilayotgan ayni paytda yangicha dunyoqarashni shakllantirish zaruriyatiga aylandi. Tarbiya masalalarini hal etishda bugun biz buyuk ajdodlarimizning ma'naviy merosiga, xalqimizning qahramonona an'analariga yangicha o'quv-tarbiya bazasiga tayanishimiz kerak.

Jamiyatimizda Qurolli Kuchlarda vatanparvarlik, harbiy va ma'naviy tarbiya yo'nalishlari bo'yicha shaxsiy tarkibni tarbiyalashning qat'iy tizimi yuzaga keldi va hozirda u yanada takomillashtirmoqda. Boshqa mamlakatlarni tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim-tarbiyaning yangi tizimiga o'tishning shartlaridan biri tarbiyaviy ishlar mexanizmlarini

tubdan o'zgartirish, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning o'ziga xos ustuvor yo'nalishlarini belgilash, shaxsiy tarkibga oid masalalarni aniq va ravshan tushuntirish maqsadiga muvofiqdir.

Bizga ma'lumki, iqtisodiyot va ma'naviyat jamiyat hayoti va taraqqiyotining o'zaro ajralmas ikki muhim tamonlaridir. Ular bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini quvvatlab o'zaro ta'sir asosida rivojlanib va takomillashib boradi. Shunday qilib, bilish, ilmiy dunyoqarash jonli kuzatishdan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga o'tish orqali amalga oshadi. Ilmiy dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida doim vorislik asosida rivojlanadi. O'tmish dunyoqarashlari yangi davr dunyoqarashining ildizini tashkil etib, uni kerakli hayotbaxsh ozuqa bilan ta'minlab turadi. Har bir tarixiy davrning dunyoqarashi o'ziga xos bo'lib, mavjud tarixiy davrda u yoki bu ta'limotni nima uchun hukmron bo'lganligini bilish uchun oldingi davr dunyoqarashini, tarixini, rivojlanishini va uning o'sha ta'limot qanday qilib shu holatga kelib qolganligini o'rganmoq zarur. Demak, jamiyatda yangicha tafakkur yuritmoq yangicha dunyoqarash, fikrlash uchun albatta o'tmishni bilish zarur, chunki yangicha tafakkur osmondan emas, balki ajdodlardan meros qolgan vorislik asosida vujudga keladi.

Yoshlarni tarbiyalashda, ularni axloq-odobli, tartib-intizomli qilishga, ota-onaga mehribon bo'lishlarida, matonatli, chidamli, mehnatsevar, vatanparvar, insonparvar bo'lib shakllanishida mas'uldir. Dunyoqarashning shakllanishida har bir ota-ona ularni yoshlik chog'idan sabr-toqatli, bardoshli, quntli, qanoatli bo'lishga o'rgatmoqlari shartdir. Kishining dunyoqarashini, fe'l-atvorini mavjud muhit belgilar ekan, demak, yaxshi odamni kutish uchun shu muhitni yaxshi odam shakllanadigan yaxshi muhitga aylantirish kerak. Ilmiy dunyoqarash xususida gap borganda, avvalo, yoshlar, unga zid, qarama-qarshi turgan diniy, fantastik, mifologik, ateistik va boshqa g'ayri ilmiy dunyoqarashlar borligi uchun ham ilmiy dunyoqarashni shakllantirish zarurligini tushunmoqlari, bu haqda to'g'ri fikr yuritishni o'rganmoqlari kerak.

Dunyoqarash dunyoni bilish orqaligina shakllanadigan juda murakkab dialektik jarayondir. Bilish dunyoning turli tomonlari haqidagi turli fanlar bergan ishlar orqali amalga oshadi. Shuning uchun ilmsiz kishilarda dunyo to'g'risida ilmiy dunyoqarash bo'lmaydi. Dunyoqarash kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy tasavvurlarning yig'indisidan iboratdir. Dunyoqarash ayrim kishilarning, ijtimoiy guruhning, sinf yoki umuman jamiyatning faoliyati yo'nalishini va voqelikka munosabatini belgilaydi. Ilmiy bilimlar dunyoqarash tarkibiga qo'shilgach, insonning yoki guruhning tevarak atrofidagi ijtimoiy va tabiiy borliqqa bevosita amaliy yo'l tutish maqsadiga xizmat qiladi. Dunyoqarash ijtimoiy borliqning in'ikosidir. Unda ijtimoiy turmush aks etadi va u muayyan tarixiy davrda insonyat erishgan bilimlar darajasiga hamda ijtimoiy tuzumga bog'liq bo'ladi. Dunyoqarashning har bir turi o'ziga xos hususiyatga egadir. Mifologiya qadimgi jamiyatda keng avj olgan xalq og'zaki ijodi-naql va afsonalarda gavdalantirilgan voqelikning fantastik in'ikosidir. U kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlari haqida bir butun yaxlit ma'lumot berib, mifologiyadan farqli ravishda insonni qurshab olgan moddiy olamni hech kim tomonidan yaratilmaganligini, abadiyligini, insoniyat jamiyati taraqqiyoti sabablari va mohiyatini, o'ziga xos hususiyatlarini va qonuniyatlarini to'g'ri, ilmiy asosda tushuntirib beradi.

Ilmiy dunyoqarashni hamma vaqt bir zaylda, o'zgarmay turaveradigan bilimlar deb qaramay, bilimlar to'la bo'lmagan bilimlardan to'la bilimlarga qarab borishligini unutmashlik zarur. Masalan, istiqlol munosabati bilan dunyo o'zgardi, oldingi tushunchalar ham o'zgardi. Yangi tarkib topayotgan jamiyatdagi hamma yangiliklar ham, qabul qilinayotgan qaror va farmonlar ham o'zgarmas emas. Shu bois ilmiy dunyoqarash bu hodisa va voqealarning hammasiga kishilar oddiy tomoshabin bo'lib turaverishi kerak emasligini, bu o'zgarishlarning faol ishtirokchilari bo'lishlik, tahlil yo'li bilan umumlashtira bilishni talab qiladi.

Madomiki, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ikki yo'l: tajriba va mantiq (aql) yo'li bilan bo'lar ekan. Demak, kishi hayot to'g'risidagi, o'tmishdagi mutafakkirlarning dono fikrlariga va o'zi to'plagan shaxsiy hayot tajribasiga, bilimiga tayanmog'i kerak. Kishilarning ongi ularning borligini emas, aksincha, moddiy hayot sharoitlari, ya'ni borligi ularning ongini belgilashligi shundan dalolat beradi. Shu bois ilmiy dunyoqarash hammaga ham nasib qilaveradigan oddiy hodisa bo'lmay, kishining nazariy va amaliy bilim darajasiga bog'liqdir.

Biroq, aqliy jihatdan sog'lom odam agar kam bilsa ham ko'p o'qishi, o'rganishi natijasida o'z bilimini oshirishi, bilimlilarga etib olishi va ma'lum darajada ilmiy dunyoqarashni shakllantira olishi mumkin. Aql va bilim tajriba orqali qo'lga kiradi. Demak, bilimli odam aqli, mulohazali ham bo'ladi.

Biroq, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda irsiyatning, yani, genning ham juda ahamiyati katta. Oldingi yevropalashtirilgan ta'lim va tarbiya uslubimizda qilingan xotolardan eng buyugi, bizningcha, zotga e'tibor bermaslik bo'lib, biz ta'lim oluvchining qobiliyatiga, uning zotiga e'tibor berib o'tirmay, agar yetarli bilimni bersak kutilgan shaxs shakllanaveradi, deb o'ylashimiz kerak edi.

Tabiat, jamiyat va tafakkur sohasidagi fanning barcha jabhalarida insoniyat tomonidan ming yillar davomida yaratilgan va to'plangan bilimlardan hech bo'lmaganda boshlang'ich ma'lumotlarga ega bo'lmay turib, chinakam ilmiy dunyoqarash to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas. Kishi dunyoni qay darajadagi bilim asosida bilsa, dunyoqarashining chuqur va sayozligi ham shu darajada bo'ladi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda badiiy adabiyotning, xalq og'zaki ijodining, ertaklarning, hikoya va qissalarning ahamiyati katta: Masalan: «Hadis»larda, «Kalila va Dimna», «Qobusnoma» va boshqalarda hissiy va mantiqiy bilishga tegishli matallar, ertaklar, hikoyalar, baytlar ko'p bo'lib, yoshlarni ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Xulosa. Kelajagi buyuk davlatni barpo qiluvchi mamlakatning butun aholisi faqat tijorat, din, qiroat, oldi-sotdi bilangina shug'ullanavermasdan eng avvalo ishlab chiqarishni, ilm-fanni rivojlantirishi, dunyo tillarini bilishi, umuman ma'rifatga birinchi darajali e'tibor berish tufayligina ko'tarilish mumkinligini tushunish ham dunyoqarashni shakllantirishga kiradi. Ilmiy dunyoqarashni amalga oshirishda kishi narsa va buyumlarning, voqea va hodisalarning ko'rinib turgan ifodasiga, shakliga qarab emas, balki ularning ichki mohiyatiga, mazmuniga qarab baho berish kerak. Shunday qilib, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish bir, ikki, uch kishi yoki bir necha guruh tomonidan bo'lmay, balki ko'pchilik, ijtimoiy fikr tomonidan bajariladigan ijtimoiy-tarixiy harakterdagi hodisadir. Demak, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish kishidan ko'p mehnat, malaka talab qiladigan murakkab, sermashaqqat faoliyat sohasidir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T., 2023.
2. Методические рекомендации по организации правовой работы Вооружённых Сил Республики Узбекистан. - T., 1997.
3. Повышение эффективности воспитательной работы: Учебно-методическое пособие. - T., 2000.
4. Nasriddinov Ch.R. Harbiy psixologiya. - T., 2004.
5. Sotiboldiev A., Karimjonov A. Harbiy pedagogika. - T., 2005.
6. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy Nizomlari. - T., 1996.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yili 170-sonli qarori. - T., 2004.

YIG'ILISH, MITING VA NAMOYISHLARNING JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA FUQAROLARNI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA TA'SIRI

Voxobov Nuriddin G'ofurjon o'g'li, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada miting, yig'ilish va namoyishlar tushunchasi va tasnifi atroflicha o'rganilgan. Xorijiy davlatlar qonunchiligi va ilmiy adabiyotlarda mavjud miting, yig'ilish va namoyishlar tushunchalari hamda olimlarning qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar: *yig'ilish o'tkazish erkinligi, miting, yig'ilish, namoyish, ko'cha yurishi, piket, fleshmob.*

ВЛИЯНИЕ СБОРА, МИТИНГА И ДЕМОНСТРАЦИИ НА ОБЩЕСТВЕННЫЙ ПОРЯДОК И БЕЗОПАСНОСТЬ ГРАЖДАН

Вохобов Нуриддин Гофурджон угли, старший преподаватель Академии Вооружённых Сил Республики Узбекистан

Аннотация. В статье подробно изучены понятие и классификация сборов, митингов и демонстраций. Проведен сравнительный анализ понятий митингов, собраний и демонстраций в законодательстве зарубежных стран и научной литературе, а также приведены взгляды ученых и даны авторские определения.

Ключевые слова: *свобода собраний, митинг, собрание, демонстрация, уличное шествие, пикет, флешмоб.*

IMPACT OF ASSEMBLY, RALLY AND DEMONSTRATION ON PUBLIC ORDER AND CITIZENS SECURITY

Vokhobov Nuriddin Gofurjon son, senior teacher of the Armed forces academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. In the article, the concept and classification of rallies, meetings and demonstrations were studied in detail. Concepts of rallies, gatherings and demonstrations in the legislation of foreign countries and scientific literature, as well as the views of scientists were comparatively analyzed, and author's definitions were developed.

Key words: *freedom of assembly, rally, assembly, demonstration, street march, picket, flash mob.*

Kirish. Har qanday mamlakatning (jamiyatning) taraqqiyoti ham, tanazzuli ham fuqarolar faoliyatiga bog'liq. Mamlakatda bo'layotgan siyosiy voqealarda, iqtisodiy jarayonlarda, xalqaro masalalarda fuqarolar kuzatuvchi sifatida emas, shu jarayonlarning ishtirokchisi sifatida o'z o'mini topsa, jamiyat rivojlanadi va bu rivojlanish fuqarolar taqdiriga ijobiy ta'sir qiladi. Demak, fuqarolarning siyosiy faollik asosida jamiyat hayotida ishtirok etishi zaruratdir. Fuqarolarning siyosiy faolligi ularga konstitutsiya va qonunlar asosida beriladigan va kafolatlangan siyosiy huquqlar orqali ta'minlanadi. Fuqarolarning siyosiy faolligi ularga berilgan ayrim huquqlar orqali amalga oshiriladi. Jahon mamlakatlari tajribasida fuqarolarning jamiyat va davlat taraqqiyotiga ta'siri turli shakllarda amalga oshiriladi. Fuqarolar voqea-hodisalarga ta'sir etuvchi vositalarga erishish uchun uzoq vaqt kurash olib borishgan, natijada ularga miting, namoyish, yig'ilish o'tkazish huquqi berilgan.

Demokratik jamiyatda yig'inlar tashkil etish huquqi fuqarolarning asosiy siyosiy huquqlaridan biri bo'lib, fuqarolarning demokratik boshqaruvda ishtirok etishining muhim kafolati hisoblanadi. Fuqarolar yig'inlar tashkil etish orqali o'z fikrlarini erkin namoyon etadilar. Shuningdek, ular mamlakat siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotining turli masalalari bo'yicha talab va takliflarni ilgari surishlari mumkin. Bunday holda savol tug'iladi: ilmiy va huquqiy adabiyotlarda yig'inlar tashkil etish erkinligi qanday izohlanadi va uning qanday shakllari mavjud? O'rganilgan ma'lumotlarni tizimli tahlil qilgan holda har bir tushunchaga to'xtalib o'tamiz.

Asosiy qism. Yig'inlar o'tkazish insonning asosiy huquqlaridan biri bo'lib, yakka yoki bir guruh shaxslar, birlashmalar va tashkilotlar ishtirokida amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Shu o'rinda, yig'inlar bir qator maqsadlarga, jumladan, ozchilikning fikri yoki noroziligini bildirishga, madaniyatni saqlab qolish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Yig'inlar bir guruh insonlarning mushtarak manfaatlarini namoyon etish vositasi hisoblanadi.

Miting, yig'ilish va namoyishlar – bu fuqarolarning siyosiy-ijtimoiy yoki iqtisodiy muammolarini hal etish uchun qilingan bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Uni o'tkazish madaniyati har bir xalqning milliy, diniy dunyoqarashi va ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlari bilan bog'liq bo'lib, tarixiy davlatchilik tajribasini namoyon etadi. Bunda millatning dini, urf-odatlar, siyosiy ongi, davlatning rivojlanish bosqichi muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, yig'inlar o'tkazishga bir qator ta'riflar keltirilgan.

YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi tomonidan ishlab chiqilgan «Tinch yig'inlar o'tkazish bo'yicha ustuvor tamoyillar» qo'llanmasida «yig'inlar» atamasi umumiy manfaatlarni ifoda etish maqsadida bir guruh shaxslarning jamoat joyida ma'lum vaqtga yig'ilishi deb sharhlangan.

Unga ko'ra, yig'inlarda (piketdan tashqari) kamida ikki nafar shaxsning ishtirok etishi lozimligi to'g'risida aytib o'tilgan bo'lib, ular o'tkazilishiga ko'ra ikkiga, ya'ni: 1) bir joyda o'tkaziladigan – yig'ilish, fleshmob, miting, namoyish, piket; 2) yig'in ishtirokchilarining harakatlanishi bilan bog'liq – ko'cha yurishlari kabi turlarga ajratilishi mumkinligiga urg'u berilgan.

Quyida har bir yig'in turlari yuzasidan to'xtalib o'tamiz.

Miting - biror muhim voqeaga, ko'pincha siyosiy masalalarni muhokama etishga bag'ishlab o'tkaziladigan ommaviy yig'ilish. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida keltirilgan ta'rifga ko'ra, miting inglizcha ibora bo'lib, o'zbekchada biror bir muhim voqea, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish uchun o'tkaziladigan yig'ilishdir. Miting deyilganda, odatda, bayramona kayfiyatda yoki davlat hokimiyati organlaridan norozi bo'lgan ma'lum bir siyosiy guruhning yoki ommaviy harakat yoxud ishlab chiqarish tashkilotlari, birlashmalarining shahar markazlariga chiqib, o'z fikr va talablarini bildirishi tushuniladi. Ammo biror-bir shaxs yoki tashkilotning ijtimoiy-siyosiy jihatdan muhim masalalar bo'yicha harakati bo'lmagan taqdirda ham, ya'ni yuzaga kelgan obyektiv muammolar bo'yicha miting harakatlari amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin.

Berilgan ta'riflarni tahlil qilar ekanmiz, fikrimizcha, mitingga beriladigan ta'rif quyidagicha bo'lishi lozim, ya'ni miting – ovoz kuchaytiruvchi texnik vositalar va targ'ibot materiallaridan (plakat, transparant, varaqa va boshqalar) foydalangan holda ijtimoiy ahamiyati dolzarb masalalar yuzasidan yoki biror-bir shaxs va tashkilotning harakati (harakatsizligi)ga xayrixohlik (qo'llab-quvvatlash) yoxud norozilik bildirish maqsadida jamoatchilik fikrini ifodalash uchun fuqarolarning belgilangan joydagi ommaviy ishtiroki.

Yig'ilish – biror masala yuzasidan tegishli shaxslarning to'planishi. O'zbek olimlaridan M.X.Rustamboev bergan ta'rifga ko'ra, yig'ilish - bu yopiq imoratda yoki biror xonada

o'tkaziladigan, ma'lum yig'ilgan shaxslarning majlisidir. Majlis shaklidagi yig'ilishlar majlis tashkilotchilari tomonidan ishtirokchilar sonini chegaralash uchun tanlanishi mumkin, lekin bu yig'ilishning asosiy mohiyatini belgilamaydi.

Yuqoridagi ta'riflar tahlilidan kelib chiqib, yig'ilish tushunchasi quyidagicha ta'riflanishi lozim, ya'ni yig'ilish – jamoatchilik, hududiy hokimiyat idoralari va davlat organlarining e'tiborini jalb qilish maqsadida, maxsus ajratilgan va jihozlangan joyda, tashviqot materiallaridan foydalanmagan holda, ijtimoiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni, shuningdek, shaxslar, idoralar va tashkilotlarning harakat yoki harakatsizligini muhokama qilish maqsadida fuqarolarning birgalikdagi ishtiroki.

Namoyish – biror maqsad bilan uyushtiriladigan ommaviy harakat. Rus olimlaridan S.I.Ojegov, N.Y.Shvedova va D.N.Ushakovlar bergan ta'rifga ko'ra, namoyish – ijtimoiy-siyosiy norozilikning ochiq ko'rinishi bulib, namoyishchilarning u yoki bu masalaga nisbatan ommaviy tarzidagi ochiq munosabatlaridir. Ko'cha yurishi, piket yoki fleshmobdan farqli o'laroq, namoyishlar boshqa shakllarda ham o'tkazilishi mumkinligi inobatga olinmagan. YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi tomonidan ishlab chiqilgan «Tinch yig'inlarni tashkil etish erkinligini monitoring qilish bo'yicha qo'llanma»da o'zida siyosiy norozi munosabatni ifoda etgan dafn marosimlari ko'rinishidagi namoyishlar, fuqarolarning transport vositalari, jumladan, velosipedlarda kolonna bo'lib harakatlanishlari orqali noroziliklarini bildirishlari ko'rinishidagi namoyishlar yoki Qozog'iston Respublikasining 1995-yildagi «Tinch yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari, piketlar va namoyishlar tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida»gi qonunida norozilik ifodasi sifatida jamoat joylarida ochlik e'lon qilish, o'tov va palatkalar qurish shaklidagi namoyishlar shular jumlasidan.

Shuningdek, O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida, bir kishi plakat ko'tarib bino yonida turishi, odamlarning bino eshigi yonida yoki biror bir hududga kiraverishda emas, balki, obyektga yaqin bo'lgan joyda turishi, ochlik e'lon qilgan kishilarning bino eshigiga yaqin joyda joylashib olishi yig'ilish va namoyishlar huquqini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi qonun hujjatlarida batafsil bayon etilishi kerakligi qayd etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, namoyish tushunchasi quyidagicha ta'riflanishi lozim, ya'ni namoyish bir guruh fuqarolar tomonidan targ'ibot materiallaridan foydalangan holda jamoatchilik kayfiyatini ifodalash orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy faollikning uyushgan shakli hisoblanadi. Namoyish ko'cha yurishi, piket yoki fleshmob yoxud boshqa shaklda o'tkazilishi mumkin.

Shuningdek, miting, yig'ilish va namoyishlarni o'tkazishda foydalaniladigan ko'rgazmali vositalar turlari to'liq yoritilmagan bo'lib, asosiy tushunchalar qismida ularga ta'rif berib o'tish hamda ularning turlarini belgilash maqsadga muvofiq.

Shunga ko'ra, ko'rgazmali vositalar – miting, yig'ilish va namoyishlarning ta'sirchanligi va aktualligini oshirishga qo'shimcha ravishda xizmat qiladigan plakat, varaqa, transparant, banner, lozing, surat va boshqa vositalardir.

Bundan tashqari, ruxsat etilmagan miting, yig'ilish va namoyishlarni o'tkazish uchun qonunda belgilangan javobgarlik belgilangan bo'lib, qanday holatda o'tkaziladigan miting, yig'ilish va namoyishlar noqonuniy bo'lishi to'g'risida tushuncha kiritish maqsadga muvofiq. Ya'ni, ruxsat etilmagan miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazish – bu mahalliy ijro organlari xabardor qilinmagan yoki tadbiri o'tkazish ta'qiqlanganligiga qaramasdan o'tkazilgan miting, yig'ilish va namoyishlardir.

So'nggi yillarda o'tkazilayotgan miting, yig'ilish va namoyishlarda transformatsiya jarayonini kuzatishimiz mumkin. Ya'ni o'tkazilayotgan miting, yig'ilish va namoyishlar

onlayn platformaga ko'chmoqda. Covid-19 pandemiyasi davrida o'rnatilgan ijtimoiy masofaning saqlanishi, jamoat joylarida ommaviy to'planishning ta'qiqlanishi, ommaviy tadbirlarni o'tkazilishiga qo'yilgan ta'qiqar kabi karantin qoidalarini sababli an'anaviy (oflayn) tarzda o'tkaziladigan tadbirlarni, shu jumladan, miting, yig'ilish va namoyishlarni virtual olamda amalga oshirilishiga turtki bo'ldi. Ammo fuqarolarning miting, yig'ilish va namoyishlarni virtual olamda, ya'ni ommaviy axborot vositalari, xususan, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda onlayn tarzda ishtirok etish tartibi qonun hujjatlarida belgilanmagan. Xususan, internet ijtimoiy tarmoqlarida axborotlarning stixiyali tarzda tarqalishini inobatga olgan holda, virtual tarzda o'tkaziladigan miting, yig'ilish va namoyishlar ham jamoat tartibi va xavfsizligiga sezilarli tahdid keltirib chiqarishi mumkinligini qayd etish lozim.

Xulosa. Miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazish fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal etish, muhim masalalar yuzasidan o'z pozitsiyasini bildirish, biror bir shaxs, tashkilot yoki davlat organlarining harakatlarini (harakatsizligini) qo'llab-quvvatlash yoki ularga nisbatan noroziligini namoyon qilish yuzasidan asosiy siyosiy huquqlardan biri bo'lib qoladi. Shunday ekan, miting, yig'ilish va namoyishlarni to'g'ri tashkil etishda ularni bir-biridan farqlash, shuningdek, har bir tadbiri o'ziga xos jihatlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. A.X.Saidov. - T.: TDYI nashriyoti, 2005.
2. Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy huquqi: Darslik / Mas'ul muharrir: prof. A.A.Azizxo'jayev. - T.: TDYI, 2010. - 610 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish: Bakalavriyatning noyuridik yunalishlari uchun o'quv qo'llanma. - T.: Uzbekiston, 2001. - 463 b.
4. Rustamboev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh. [Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashr. 2016-yil 1 noyabrgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan] maxsus qism. - T.: Adolat, 2016. - 960 b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati / A. Madvaliyev tahriri ostida. - T., 2006-2008.
6. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashr uchun mas'ul R.A.Muhitdinov va boshq.; mas'ul muharrir N.Toychiyev. - T.: Adolat, 2009. - 704 b.

ИГРЫ, СБЛИЖАЮЩИЕ МАЛЫШЕЙ ДРУГ С ДРУГОМ И С ВОСПИТАТЕЛЕМ

Мирзорохимов Ойбек Кахрамонович, старший преподаватель ЧГПУ

Аннотация. В статье дана информация о роли игры в жизни ребенка, о переменах в жизни ребёнка с поступлением в детский сад, более строгом распорядке дня, незнакомых взрослых и детях, непривычных требованиях, о разлуках с мамой и тревожности малыша при нахождении в детском саду. Главная задача воспитателя - позабавить ребят, развеселить их, поскорее отвлечь от всего, что омрачает их пребывание среди незнакомых людей, что можно осуществить с помощью совместных подвижных игр.

Ключевые слова: *игра, воспитатель, ребёнок, сад, отношения, разлука, мама, желания, жизнь, совместно, надежда, уютный интерьер, отвлечь, хороводы, игры-забавы, движения, веселье, увлеченность, характер, интересно, доверие, послушание.*

BOLALARNI BIR-BIRIGA VA TARBYACHIGA YAQINLASHTIRADIGAN OYINLAR

Mirzaraximov Oybek Qahramonovich, ChDPU katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada o'yinning bola hayotidagi o'rni, bolalar bog'chasiga kirishda bolaning hayotidagi o'zgarishlar, yanada qat'iy kundalik tartib, notanish kattalar va bolalar, g'ayrioddiy talablar, onadan ajralish va bolalar bog'chasida bolaning tashvishi haqida ma'lumot berilgan. O'qituvchining asosiy vazifasi – bolalarni xursand qilish, ularni xursand qilish va begonalar orasida qolishlariga soya soladigan barcha narsalardan tezda chalg'itish, bu birgalikda ochiq o'yinlar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Tayanch so'zlar: *oyin, o'qituvchi, bola, bolalar bog'chasi, munosabatlar, ajralish, ona, istaklar, khayot, birlashish, umid, kulay ichki makon, chalg'itish, dumalok raqslar, kizikarli o'yinlar, harakatlar, qizikarli, ehtiros, character, qizikarli, ishonch, itoatkorlik.*

GAMES THAT BRING KIDS CLOSER TO EACH OTHER AND TO THE CAREGIVER

Mirzarakhimov Oybek Kakhramonovich, senior teacher of ChSPU

Abstract. The article provides information about the role of play in a child's life, changes in a child's life upon entering kindergarten, a more strict daily routine, unfamiliar adults and children, unusual demands, separation from mother and the baby's anxiety when in kindergarten. The main task of the teacher is to amuse the children, cheer them up, and quickly distract them from everything that overshadows their stay among strangers, which can be done with the help of joint outdoor games.

Key words: *came, teacher, child, kindergarten, relationships, separation, games, movements, fun, passion, character, interesting, trust, obedience.*

Введение. С поступлением в детский сад в жизни ребёнка происходят большие перемены, которые далеко не всегда для него бывают радостными и желанными.

Основная часть. В детском саду все не так, как дома: более строгий распорядок дня, незнакомые взрослые и дети, и даже есть тревожность. Такой неблагоприятный эмоциональный фон отрицательно сказывается на первых впечатлениях ребенка о детском саде, затрудняет привыкание к нему. Многие дети сопротивляются подобным переменам в жизни, не хотят приходить в группу. Как облегчить

детям привыкание к новым условиям жизни? Самое лучшее, что может предпринять воспитатель: позабавить ребят, развеселить их, поскорее отвлечь от всего, что омрачает их пребывание среди незнакомых людей. Сделать это можно с помощью совместных подвижных игр.

Многие считают, что, если в первое время предоставлять ребенку больше свободы, он быстрее привыкнет к новым условиям, так как они приближены к домашним. Поэтому нередко при подготовке к приёму новых детей все усилия педагогов сосредоточены главным образом на создании уютного интерьера и подборе достаточного количества привлекательных игрушек. Большие надежды возлагаются при этом на то, что игрушки будут радовать детей, помогут занять и организовать их. Однако очень часто вместо радости игрушки приносят малышам огорчения и слезы. Многие дети отбирают их друг у друга, дерутся из-за них, вырывают из рук. Уговоры и объяснения взрослого, что игрушки общие, что им надо пользоваться сообща или по очереди, обычно не помогают, так как вступают в явное противоречие с привычным для детей опытом игры у себя дома, где они являются полновластными обладателями всех игрушек. Отсутствие у ребенка опыта игрового общения и совместной игры со сверстником приводит к тому, что в другом ребенке он видит главным образом претендента на привлекательную игрушку, а не интересного партнера. Вот почему с первых дней посещения детского сада неопределимое значение для жизнерадостного настроения малышей и их хорошего отношения друг к другу имеют совместные игры. Они помогут воспитателю сблизить детей, объединить их общей, интересной для всех деятельностью. Регулярное проведение подобных совместных игр не только обогатит малышей впечатлениями, но даст им новый социальный опыт, который так важен для развития личности ребенка.

Предлагаемые игры строятся на отношениях игрового партнерства при добровольном участии каждого ребенка в том, что принято всеми. Соперничество друг с другом недопустимо. Содержание и правила игр исключают поводы для конфликтов и взаимного отталкивания. По своему характеру это игры-забавы и хороводы. Они созданы по образцу народных игр и несут в себе элементы фольклора и народной культуры. Такие игры удовлетворяют потребность малышей в движении, в общении и в образном поэтическом слове. Сочетание движений со словом помогает ребенку осознать содержание игры, что, в свою очередь, облегчает выполнение действий. Воспитателю эти игры помогут завоевать симпатии детей, их доверие и разумное послушание. Ведь они делают ребенка открытым для общения. Такая открытость создает важные предпосылки для формирования личности ребенка и является его основой. Игры предлагаются в порядке возрастания требований к поведению ребенка в группе. Первыми и самыми простыми являются те забавы и хороводы, в которых воспитанники действуют одновременно и одинаково.

Игры-забавы и хороводы имеют своеобразный характер действий. В играх-забавах все движения знакомы детям из повседневного опыта (бег, ходьба, прыжки и пр.). Новым является лишь переход от одного движения к другому. Подражание взрослому облегчает такие переходы. Постепенно, при неоднократном проведении игры дети начинают выполнять движения самостоятельно, подражают друг другу. Ни в коем случае нельзя превращать игру-забаву в упражнение по отработке последовательности движений. Повторное участие в игре обеспечивает ребенку возможность естественно, без специальной тренировки овладеть необходимыми движениями.

Хороводные игры отличаются от забав необычностью движений: они пластичны, выразительны, подчинены ритму текста и сопровождающей его мелодии. Движения как бы драматизируют содержание игры. Все это будит воображение детей, развивает музыкальные способности и художественный вкус. Яркое и выразительное ведение хоровода становится своеобразной формой эстетического воспитания. Одним из главных условий проведения всех предлагаемых игр является добровольность участия детей. Не беда, если не все сразу включатся в игру. Можно начинать ее и с небольшой группой желающих, которые откликнулись на приглашение воспитателя.

Игра «Времена года»

Воспитатель: – В гостях, у какого времени года мы побывали? (у зимы). А теперь перенесёмся в следующее время года.

Тает снежок,

Ожил лужок,

День прибывает,

Когда это бывает? (весной).

Я раскрываю почки, в зелёные листочки

Деревья одеваю, посевы поливаю,

Движения полна, зовут меня... (весна).

Воспитатель: – Ребята, назовите весенние месяцы (март, апрель, май).

– А теперь подберите картинки, которые подходят к весне? (дети подбирают картинки – символы, объясняют свой выбор и вставляют в окошечки соответствующие картинки).

Приметы: больше светит солнце, на деревьях появляются почки, листочки, трава, первые цветы (подснежники), тает снег, прилетают птицы, идут дожди, люди надевают куртки и плащи.

– Как вы думаете, в какое время года мы теперь попадаем? За весной следует... (лето).

Ярко солнце светит

В воздухе тепло.

И куда не глянешь

Все кругом светло.

– Ребята, назовите летние месяцы (июнь, июль, август).

– А теперь подберите картинки, что бывает летом? (дети подбирают картинки - символы, объясняют свой выбор и вставляют в окошечки соответствующие картинки).

Приметы: солнце ярко светит, деревья зеленые, летают насекомые, расцветают цветы. Растут грибы, ягоды, можно купаться, загорать и т.д.

Лето – это праздник красок. Лето – это солнце, речка, пляж, ягоды, грибы, фрукты, пение птиц, жужжание пчёл. А что ещё? (ответы учащихся).

Задание: исключить лишнее слово.

1. Ромашка, василёк, подснежник, колокольчик.

2. Цветение, радуга, купание, ледоход.

3. Коньки, скакалка, теннис, бадминтон.

Игра «Сколько и какие?»

Цель: закреплять знания детей о графическом виде букв.

Педагог обращается к детям:

– Воробей и скворец решили научиться читать, но не знали, как это сделать. Взяли они сухие прутики и начали составлять буквы. У воробья было три прутика, а у скворца - два. Сколько букв и какие получились у птиц?

Группа делится на две команды. Команда «воробьев» составляет буквы из трех палочек (А, П, Н, Ч, И, К, С), команда «скворцов» – из двух (Г, Т, Х, Л, У). Побеждает команда, которая быстро и правильно составит все возможные буквы.

В каждой игре необходимо опираться на то, что ребенок уже умеет и что он любит делать сам. Педагогу важно знать и понимать, что умеют и любят делать его воспитанники независимо от их возраста, и на этой основе вводить новые действия и новые задачи. Кроме того, на каждом возрастном этапе между детьми существуют значительные индивидуальные различия, их тоже необходимо учитывать при проведении игр.

Игра «Сказочные плоды»

Цель: развитие фонематического слуха, речевого внимания, речевого слуха и дикции детей.

Послушай, какие плоды растут в сказочном королевстве. Объясни - из каких знакомых слов составлены их названия.

огурбузы – огурцы и арбузы

помидыни – помидоры и дыни

баклачок – баклажан и кабачок

укрушка – укроп и петрушка

грумидоры – груши и помидоры

чеслук – чеснок и лук

слижовник – слива и крыжовник

моркофель – морковь и картофель

вишбрикос – вишня и абрикос.

Вывод. Таким образом, разные дети требуют разного подхода и нуждаются в различных воспитательных воздействиях. Ни в коем случае нельзя насильно (запретами, угрозами, наказаниями) заставлять ребенка делать то, чего он не хочет, к чему он еще не готов. Доброжелательность, сюрпризность, разного рода неожиданности значительно более эффективными средствами в работе с детьми. И эти средства всегда в ваших руках. Нужно уметь вовремя удивиться или огорчиться, заинтериговать детей какой-то неожиданностью, выразить восхищение, показать мимикой, интонацией, движением свою заинтересованность игрой и успехами в ней ребенка. Конечно, все это требует от воспитателя артистизма. Только радость от успеха, увлеченность, заинтересованность ведут к формированию личности человека.

Литература:

1. Колягина В.Г. Арт - терапия и арт - педагогика для дошкольников. - М., 2016.
2. Малышева Л. Игра словом. - М.: Знание, 1985.
3. Сеницына Е. Умные слова. - М.: Лист, 1997.
4. Смекалка для малышей. - М.: Омега, 1994.
5. Федин С. Лучшие игры со словом. - М.: Айрис Пресс, 1994.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHISINI O'Z-O'ZINI IJODIY RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

*Shodmonova Abera Shodiyevna, Fan va texnologiyalar universiteti
katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchisini o'z-o'zini ijodiy rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari xususida fikr boradi. Unda tarixiy, falsafiy pedagogik, psixologik tadqiqotlarda shaxsning ijodiy salohiyatini o'rganishga yo'naltirilgan bir necha yondashuvlar mavjudligi aniqlandi. Falsafa, psixologiya va pedagogikada olimlarning «ijodkorlik» tushunchasiga bergan ta'riflari o'rganildi, «ijodkorlik» tushunchasi «rivojlanish» kategoriyasi bilan uzviy bog'liqligi aniqlandi. Didaktik jarayonda o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv tufayli o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi samarali bo'lishi yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.

Tayanch so'zlar: *boshlang'ich sinf o'quvchisi, o'z-o'zini ijodiy rivojlantirish, ijodiy salohiyat, falsafa, psixologiya, pedagogik tadqiqotlar, ijodkorlik, rivojlanish.*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ САМОТВОРЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Шодмонова Abera Шодиевна, старший преподаватель
Университета науки и технологий*

Аннотация. В статье рассмотрены научно-теоретические основы творческого саморазвития учащихся младших классов. Установлено, что в исторических, философских, педагогических и психологических исследованиях существует несколько подходов к изучению творческого потенциала человека. Изучены определения, данные учеными понятию «творчество» в философии, психологии и педагогике, и установлено, что понятие «творчество» неразрывно связано с категорией «развитие». Благодаря личностно-ориентированному подходу в дидактическом процессе разработаны предложения по эффективному творческому развитию студентов.

Ключевые слова: *учащийся младших классов, самотворческое развитие, творческий потенциал, философия, психология, педагогические исследования, творчество, развитие.*

SCIENTIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS OF SELF-CREATIVE DEVELOPMENT OF ELEMENTARY SCHOOL PUPILS

*Shodmonova Abera Shodiyevna, senior teacher of University
of science and technology*

Abstract. The article discusses the scientific and theoretical foundations of creative self-development of elementary school students. It was found that there are several approaches to studying the creative potential of a person in historical, philosophical, pedagogical, and psychological research. The definitions given by scientists to the concept of «creativity» in philosophy, psychology and pedagogy were studied, and it was found that the concept of «creativity» is inextricably linked with the category of «development». Due to the student-oriented approach in the didactic process, proposals were developed for effective creative development of students.

Key words: *elementary school student, self-creative development, creative potential, philosophy, psychology, pedagogical research, creativity, development.*

Kirish. Pedagogika fani rivojlanishining hozirgi bosqichida o'quvchini mustaqil hayotga tayyorlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tadqiqot paradigmasi dolzarb bo'lib, o'quv amaliyotida keng tatbiq etilmoqda.

Asosiy qism. Jamiyatda quyidagi shaxsiy fazilatlar talab qilinadi: qat'iyatlilik, mustaqillik, ijodkorlik, o'z-o'zini takomillashtirish, rivojlanish qobiliyati, kollaboratsiya - jamoa

bo'lib hamkorlikda ishlash, tanqidiy fikrlash, atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 35-moddasida: «Umumta'lim fanlarining o'quv dasturlari shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, ta'lim oluvchilarda bilim, malaka, ko'nikmalarni, saviyani shakllantirishga va ularning qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak». Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tizimlarida o'quv dasturlarining uzviylikini ta'minlash konsepsiyalarida o'quv faoliyatini olib borishda o'quvchilarda evristik (yo'naltiruvchi savollar berish yo'li bilan ta'lim berish yani topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'quv-izlanish) kreativ (tadqiqot xarakteriga ega bo'lib, o'quvchilarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantirish), inversion (axborotlarni turli tomondan o'rganish, o'rmini almashtirib tafakkur tizimini rivojlantirish), integrativ (axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz, ko'p, kichik, qismlarning o'zaro ajralmas bog'liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to'g'ri xulosani aniqlash) kabi pedagogik texnologiyalar asosida bilim berilishi kabilar nazarga tutilgan. Bu, albatta, umumiy o'rta ta'limning ilk bosqichi boshlang'ich ta'lim jarayonidan boshlab o'quvchilarni ijodiy o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini tanlash, didaktik ta'minotning yangicha mexanizmlarini ishlab chiqish talabini qo'ymoqda. Bu esa, o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi umumta'lim maktabining maqsadiga aylanadi.

Tarixiy va falsafiy merosni o'rganish ijodiy rivojlanish g'oyasi qadimgi faylasuflar: Geraklit, Platon, Sokrat va boshqalarning asarlarida ko'rib chiqilganligini aniqlashga imkon berdi. Pedagogika fani darg'alaridan Ya.A.Komenskiy, I.G.Pestalossi, K.D.Ushinskiy, P.P.Blonskiylar o'quvchining ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish g'oyasini ilgari surgan. Psixologik va pedagogik tadqiqotlarda shaxsning ijodiy salohiyatini o'rganishga yo'naltirilgan bir necha yondashuvlar mavjud. Chunonchi, Altshuller, V.A.Molyako, V.G.Ryndaklarning asarlarida ijodkorlik ijodiy faoliyatni tashkil etish, uning mahsuli yoki natijasi nuqtai nazaridan qaraladi. V.G.Ryndak ijodiy potentsialni yangi sharoitlarga mos ravishda harakat usullarini optimal tarzda o'zgartirish imkonini beruvchi shaxsiy qobiliyatlar tizimi (tasavvur, ongning tanqidiyligi, zukkolik va boshqalar) hamda faoliyat natijalarini belgilovchi bilim, ko'nikma, e'tiqodlar majmui sifatida belgilaydi. Faoliyat esa, shaxsni ijodiy o'zini o'zi anglash va o'zini rivojlantirishga undaydi. V.V.Davidov, D.B.Elkonin, E.G'oziev, V.Karimovlar ijodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor qaratganlar. Ijodiy potentsial malaka va ko'nikmalarning ma'lum bir holatidan kelib chiqqan holda rivojlantirish uchun real imkoniyatlar majmuasi orqali amalga oshirilishini ta'kidlaydi. Mualliflar shaxsning haqiqiy va potentsial rivojlanish zonalarini aniqlagan. P.F.Kravchuk, Yu.N.Kulyutkin, A.M.Matyushkinlar esa, shaxsning ijodiy imkoniyatlarini integrativ yondashuv nuqtai nazaridan o'rganadilar. Ijodiy salohiyat – bu insonning ajralmas xususiyati, tizimli dinamik ta'lim orqali shaxsda rivojlanadi. Uning tuzilishi shaxsning barcha xususiyatlarini o'z ichiga oladi: fikrlash, xotira, idrok, bilim, e'tiqod va boshqalar.

Ijodiy potentsial shaxsning sifati deb belgilanadi: uning muhim kuchlarini haqiqiy transformatsion amaliyotda amalga oshirish imkoniyatlari ko'lamini aks ettiradi (P.F.Kravchuk); shaxsning ijodga munosabatini (mavqeini, munosabatini, yo'nalishini) ifodalaydi (A.M.Matyushkin); inson faoliyati quriladigan va tartibga solinadigan bilim va e'tiqodlar tizimini, rivojlangan yangilik hissini, faoliyatning yangi sharoitlariga muvofiq harakat usullarini tezda o'zgartirish qobiliyatini ifodalaydi. Ijodiy salohiyatni o'rganishga yondashuvlarni tahlil qilish mualliflar pozitsiyalarining o'zgaruvchanligini to'xtatmaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda shaxsning ijodiy salohiyati – bu shaxsning unga potentsial sifatida berilgan, ma'lum sharoitlarda rivojlanishi mumkin bo'lgan muhim xususiyatdir.

Yuqorida keltirilgan tushanchalar: «ijodkorlik», «ijodiy faoliyat», «ijodiy salohiyat»ning «rivojlanish» faoliyati bilan bog'liqligi aniqlangan. «Rivojlanish – tashqi va ichki omillar ta'sirida vujudga kelgan, psixika, intellektual va ma'naviy sohadagi miqdor va sifat o'zgarishlari» [1]. Biz esa, rivojlanish – bu bir holatdan boshqasiga, mukammalroq holatga o'tish jarayoni, eski holatdan yangi sifat holatiga, oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga o'tish, ya'ni, moddiy va ideal obyektlarning qaytarilmas, yo'naltirilgan, tabiiy o'zgarishi; rivojlanish natijasida obyektning yangi sifat holati yuzaga keladi, bu uning tarkibi yoki tuzilishining o'zgarishi sifatida amalga oshiriladi; «rivojlanish» deganda o'quv jarayonida o'quvchilarning maqsadli sifat o'zgarishlarini tushunamiz.

Tadqiqotchilar D.B.Bogoyavlenskaya, A.N.Luk, Y.A.Ponomarevlar «har qanday rivojlanish jarayonini ijodkorlik, ijodiy jarayon deb hisoblash mumkin, albatta, buni psixologik ma'noda ijodiy faoliyat bilan birlashtirish kerak emas» deb hisoblaydilar. Bizningcha, ijodkorlik – bu fikrlash, idrok etish, his-tuyg'ular, muloqot qilish, muayyan faoliyat turlari va boshqalarda namoyon bo'ladigan shaxsiy xususiyatdir. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarning ijodiy rivojlanishining maqsadini aniqlash, ularning ijodiy salohiyatini ochib berish va rivojlantirishdir.

«O'quvchilarning ijodiy rivojlanishi» deganda, biz, o'quv jarayonida o'quvchilarda kognitiv, affektiv va psixomotor sohalarida sodir bo'ladigan maqsadli sifat o'zgarishlarini tushunamiz, ya'ni, ushbu jarayonni shaxsga yo'naltirilgan didaktik qo'llab-quvvatlash natijasida maktab o'quvchilari tomonidan ta'lim faoliyatida erishilgan yangi natijalarga erishuvdir. B.Blumning ta'lim maqsadlari taksonomiyasining yondashuvlari asosida o'quvchilarning bilim sohasidagi umumiy ijodiy rivojlanishi quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'rganilayotgan mavzu bo'yicha yangi bilimlar; idrok va tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilim; o'quv ma'lumotlarini tahlil qilish, sintez qilish, sharhlash, tizimlashtirish ko'nikmalari; hukm va xulosalarning mustaqilligi; tadqiqot qobiliyatlari.

Affektiv sohada – tasvirni badiiy ko'rish; qahramonga va umuman asarga hissiy, shaxsiy va adabiy baho berish qobiliyati; ijodiy tasavvurni rivojlantirish; badiiy idrokni takomillashtirish; tilni hissiy jihatdan boyitish; o'z-o'zini rivojlantirish istagi.

Psixomotor sohada – yozma va og'zaki nutq qobiliyatlarini rivojlantirish. B.Blum taksonomiyasi – o'qituvchining badiiy idrok etishning har xil turlariga ega bo'lgan o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi maqsadlarini belgilash, ularning tartibini aniqlash, ustuvor vazifalarni belgilash, ish istiqbollari belgilash uchun instrumental imkoniyatdir, ya'ni kuchlarni asosiy narsaga jamlash imkoniyati. XX-asr boshlarida ijodkorlik muammosi bo'yicha empirik materiallarni tizimlashtirishga urinishlar mavjud bo'lgan. Bir qator tadqiqotchilar ijodkorlikka o'rgatib bo'lmaydi, ijodiy faoliyatning obyektiv psixologik qonuniyatlarining mavjudligi dargumon degan xulosaga kelgan [2]. Ijodkorlikni rivojlantiruvchi shart-sharoitlar mavjud, degan g'oyani ilgari surilib, shaxsning ijodiy qobiliyatini bilvosita rag'batlantirish zarurati g'oyasi e'tirof etildi va rivojlandi va nafaqat sharoitlarni kuzatish, balki ularni ijodiy o'zini-o'zi maqsadli rivojlantirishning pedagogik tamoyiliga aylandi. B.N.Teplov, A.M.Matyushkin, Ya.L.Ponomarev ijodiy rivojlanish o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi degan xulosaga keldi. O'quvchi ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish va ijodkorlikni namoyon etishga alohida tayyorlanishi kerak [3-4]. Ijodkorlik shaxsning qobiliyati, motivlari, bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishini nazarda tutadi, buning natijasida yangi mahsulot yaratiladi. Qobiliyatlar odatda shaxsning har qanday ijtimoiy qimmatli faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini bildiradi. Qobiliyatlar faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun subyektiv shartlar bo'lgan individual shaxsiy xususiyatlar sifatida

tavsiflanadi. Qobiliyatlar tezkorlik, chuqur uylash, faoliyat uslublari va usullarini o'zlashtirishning kuchliligida, shaxsning ijodiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Bizningcha, ijodkorlikni rag'batlantirishda o'z-o'zini yuqori baholash va boshqalar tomonidan tan olinishi zarurati muhim ahamiyatga ega. Ijodkorlikning oxirgi bosqichida maqsad refleksi va ishning oraliq natijasi bilan bog'liq his-tuyg'ular muhim ahamiyatga ega. Faoliyat nazariyasi kontekstida ijodiy fikrlashni rivojlantirish masalasini A.M.Matyushkin, M.I.Maxmutovning tadqiqotlarida ko'ramiz. Ular ijodiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida muammoli o'qitish metodini asoslab berdilar. Ijodiy shaxs kontseptsiyasida A.M.Matyushkina tabiiy iste'dod har qanday kasbda, fan va san'atda ijodkorlikning umumiy sharti ekanligiga e'tibor qaratadi, ijodkorlik esa, shaxsiy xususiyat sifatida nafaqat yangi narsa yaratish, balki o'zini o'zi kashf qilish qobiliyatini ham belgilaydi [3-4]. Shunday qilib, ijodiy fikrlash shaxsning xarakteristik, hissiy va irodaviy tarkibiy qismlari bilan bog'liq. Turli odamlarning ijodiy fikrlash jarayoni uchun ham barqaror, umumiy, ham o'ziga xos, o'zgaruvchan, individuallikni o'rganish muhimdir. J.Gilford shaxsning ma'lum intellektual sifatlarini o'zida mujassamlashtirgan, ularni o'lchash uchun testlar yaratgan va turli kishilarning fikrlash jarayonlaridagi umumiy xususiyatlarni aks ettiruvchi tushunchalarni kiritgan: konvergent fikrlash – mantiqiy, ketma-ket, chiziqli; divergent fikrlash – yaxlit, intuitiv, relyatsion [5].

Divergent fikrlash quyidagilar bilan shakllanadi: muammolarni izlashda hushyorlik, nutqning ravonligi, g'oyalarni shakllantirishning qulayligi, moslashuvchanlik, uzoq va birlashmalarning o'ziga xosligi.

Moslashuvchanlik qobiliyati, masalan, quyidagi ko'nikmalarning kombinatsiyasi bilan belgilanadi: vaziyatni to'g'ri baholash, doimiy ravishda hozirgi kunni ko'rib chiqish, to'siqlarni engib o'tishdan zavqlanish va boshqalarning xato qilish huquqini tan olish. E.Torrens metodi ijodiy fikrlashni rivojlantirishning bosqichma-bosqich tizimini o'z ichiga oladi. Fikrlash tashqaridan o'rnatilgan cheklovlardan, inson o'ylaydigan me'yorlardan ozod bo'lishi kerak va shaxs noan'anaviy va ijodiy fikrlashni boshlaydi [6]. Shunday qilib, 80-yillarning o'rtalariga kelib, psixologiya fanining rivojlanishi ijodiy shaxsni rivojlantirish muammosini o'rganishning yangi bosqichga ko'tardi. Ijodkorlik qobiliyati individual shaxs darajasida intellektual xususiyat sifatida emas, balki umumiy shaxsiy mulk sifatida ko'rib chiqila boshlandi. R.A.Glifton, Melik-Pashaev, Molyako, Chudnovskiy, Yakovleva va boshqalar ijodiy shaxsning fazilatlarini o'rgandilar.

Ijodkorlikka xos bo'lgan shaxs xususiyatlari borligi aniqlangan: narsa va hodisalarga noodatiy qarash, yangi o'xshashliklarni topish, erkin improvizatsiya kabilar. R.A.Glifton shaxsning ijodiy namoyon bo'lishining uchta omilini belgilaydi: o'ziga xoslik (noodatiy fikrlash tarzini taklif qilish qobiliyati); sezgirlik; integratsiya (bir vaqtning o'zida bir nechta qarama-qarshi shartlarni, shartlarni, printsiplarni hisobga olish qobiliyati) [7]. G.Noyner quyidagi xususiyatlarni ijodkorlikning zaruriy sharti deb hisoblaydi: fikrlashning moslashuvchanligi, qat'iyatlilik va izchillik, bilim, yangi narsani ko'rish va ziddiyatlarni aniqlash, kuchli motivatsiya, ishonch va hissiy barqarorlik, intensiv mehnatga tayyorlik [4]. Ijodiy shaxsning aniqlangan xususiyatlari o'quvchilarning umumiy ijodiy rivojlanishi uchun muhim bo'lgan intellektual harakatlar doirasini kengaytirish zarurligi to'g'risida pedagogik xulosa chiqarishga asos bo'ldi.

«Ijodiy maydon» usuli intellektual faoliyatni bo'lib, uning uchta darajasini mavjud. Agar subyektlar dastlab topilgan harakat usuli doirasida qolsa, muallif o'zining intellektual faoliyatini rag'batlantiruvchi – ishlab chiqaruvchi, passiv daraja. Evristik daraja tashabbusning namoyon bo'lishidir. Ijodiy daraja eng yuqori darajadir.

Xulosa. Olib borilgan tahlillar quyidagi xulosalarga olib keldi: 1. Falsafa, psixologiya va pedagogikada olimlar «ijodkorlik» tushunchasiga ko'plab ta'riflar beradilar. Tadqiqot kontekstida, biz, «ijodkorlik»ni o'quvchilarning nazariy va amaliy faoliyati sifatida ko'rib chiqamiz, unda subyektiv ahamiyatga ega bo'lgan yangi natijalar paydo bo'ladi: bilimlar, qarorlar, harakat usullari, moddiy mahsulotlar, fikrlash, idrok etish va natijada, o'quvchilarning ijodiy rivojlanish darajasi o'zgaradi. 2. «Ijodkorlik» tushunchasi «rivojlanish» kategoriyasi bilan uzviy bog'liqligi aniqlandi. «Rivojlanish» – bir sifat holatidan boshqasiga, yanada mukammalroq holatga o'tish jarayonidir. Ya'ni, moddiy va ideal obyektning qaytarilmas, yo'naltirilgan, tabiiy o'zgarishi. Rivojlanish natijasida obyektning yangi sifat holati yuzaga keladi, bu uning tarkibi yoki tuzilishining o'zgarishi sifatida amalga oshiriladi. 3. «Ijodiy rivojlanish» tushunchasi spetsifikatsiyani talab qiladi. «O'quvchilarning ijodiy rivojlanishi» deganda, biz o'quv jarayonida o'quvchilarda kognitiv, affektiv va psixomotor sohalarida sodir bo'ladigan maqsadli o'zgarishlarni tushunamiz, ya'ni, maktab o'quvchilari tomonidan o'quvchilarga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan ta'lim faoliyatida erishilgan yangi natijalar. 4. Psixologik adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida aniqlangan ijodiy shaxsning xususiyatlari umumiy ijodiy qobiliyatlarga kiradigan komponentlarni takomillashtirish zarurligi haqida pedagogik xulosani keltirib chiqardi. Kognitiv komponentga quyidagilar kiradi: yangi bilim; o'quv ma'lumotlarini tahlil qilish, sintez qilish, sharhlash ko'nikmalari va boshqalar. Affektiv komponent – bu hissiy va shaxsiy baho berish qobiliyati, ijodiy tasavvurni rivojlantirish, badiiy idrok etishni yaxshilash, tilni hissiy jihatdan boyitish. Shaxsiy komponent sizga quyidagi fazilatlarini rivojlantirishga imkon beradi: mustaqillik, tashabbuskorlik, o'z-o'zini rivojlantirish istagi. Didaktik jarayonda o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv tufayli o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi samarali bo'lishini taklif qilaylik.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda va pedagogik tajribada o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi muammosini muhokama qilish o'rtasidagi bir qator qarama-qarshiliklar aniqlandi: o'quvchining ijodiy shaxsini tayyorlashda maktab uchun jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi va bu maqsadni o'quv jarayonida amalga oshirish uchun shaxsiga yo'naltirilgan didaktik yordamning yo'qligi; maktab o'quvchilarini ijodiy rivojlantirish uchun maqsadli ta'lim dasturlari mavjudligi va ularni amalga oshirish uchun pedagogik shart-sharoitlarning ishlab chiqilmaganligi; ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy rivojlanishida individual xususiyatlarni hisobga olish zarurati va bu jarayonni didaktik ta'minlash texnologiyasining etishmasligi.

Adabiyotlar:

1. Богдавленская, Д.Б. Интеллектуальная активность как проблема творчества. - Ростов: РГУ, 1983. - 176 с.
2. Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения. - М.: Педагогика, 1982. - Т. 2. - 457 с.
3. Махмутов М.И. Об индивидуализации обучения // Народное образование. - М., 1965. - № 2. - С. 24-31.
4. Резерв успеха - творчество / Под ред. Г.Нойнера. - М.: Просвещение, 1989. - 120 с.
5. Грузенберг С.О. Гений и творчество. - М., 1924. - 128 с.
6. Torrance, E.P. Your style of learning and thinking, Forms B and C-Athens, GA: University of Georgia, 1980. - 38 p.
7. Clifton R.A., Covert J. The effects of an experimental programmed on the motivation and self-concept of student teachers // Canadian Journal of education. - 1977. - № 2. - P. 23-31.

TALABALARNING MEDIASAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA VEB TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Muxiyatdinova Aynura Muratdinovna, TDPU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur ishda o'quvchilarda mediasavodxonlikni shakllantirish va rivojlantirishda veb-texnologiyalarning ahamiyatini o'rganadi. Maqolada veb-texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiyalash usullari, shuningdek, ularning o'quvchilarning media savodxonligi darajasiga ta'siri muhokama qilinadi. Media-savodxonlikni o'rgatishda veb-texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va muammolari tahlil qilinib, ushbu vositalardan o'quv amaliyotida samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Tayanch so'zlar: *veb-texnologiyalar, mediasavodxonlik, ta'lim resurslari, onlayn trening, media ta'lim, interaktiv platformalar, ta'lim texnologiyasi, raqamli ko'nikmalar.*

ЗНАЧЕНИЕ ВЕБ-ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ МЕДИАГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Мухиятдинова Айнура Муратдиновна, базовый докторант ТГПУ

ἰννξῶφ□. В дῶννξῶ πῶαξε πῶρρμξςπενξ ηνῦχενθε βεα-ςευνελγθἰ β τξπμθπξβῦ-νθ θ πῶηβθςθθ μεδθῦγπῦμξςνξρςθ σ ρςθδενςξβ. В ρςῦςῶε πῦρκπῦςῦ οςςθ θνςεγπῦφθθ βεα-ςευнελγθἰ β σχεανῦἰ οπξφερρ, ῦ ςῦκζε οξκῦηῦνξ θυ βλθ□νθε νῦ σπξβενῶ μεδθῦγπῦμξς-νξρςθ ρςθδενςξβ. Οπξῦνῦλθηθπξβῦνῦ οπθεμσωερςβῦ θ οπξαλεμῦ θροξλῶξβῦνθ□ βεα-ςευнελγθἰ β ξασχενθθ μεδθῦγπῦμξςνξρςθ, ῦ ςῦκζε δῦνῦ πεκξμενδῦφθθ οξ ῦπτεκςθβ-νξμσ θροξλῶξβῦνθῶ ῦςθυ θνρςσμενςξβ β ξαπῦηξβῦςελῶνξἰ οπῦκςθκε.

Κλῶχεβῦε ρλξβῦ: *βεα-ςευнελγθῶ, μεδθῦγπῦμξςνξρςῶ, ξαπῦηξβῦςελῶνῦε πε-ρσπρῦ, ξνλῦἰν-ξασχενθε, μεδθῦξαπῦηξβῦνθε, θνςεπῦκςθβῦνῦε ολῦςτξπμῦ, ξαπῦηξ-βῦςελῶνῦε ςευнελγθῶ, φθππξβῦε νῦβῦκθ.*

THE IMPORTANCE OF WEB TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MEDIA LITERACY

Mukhiyatdinova Aynura Muratdinovna, PhD student of TSPU

Abstract. This work examines the importance of web technologies in the formation and development of media literacy in students. The article discusses ways of integrating web technologies into the educational process, as well as their impact on the level of media literacy of students. The advantages and problems of using web technologies in teaching media literacy are analyzed, and recommendations are made for the effective use of these tools in educational practice.

Key words: *web-technologies, media literacy, educational resources, online training, media education, interactive platforms, educational technology, digital skills.*

Kirish. Veb-texnologiyalar zamonaviy ta'lim muhitida asosiy o'rin tutib, o'quvchilarning mediasavodxonligini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi va kengayib borishi sharoitida veb-resurslardan samarali foydalanish va axborotni tanqidiy baholash qobiliyati ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Mediasavodxonlik turli xil raqamli media va platformalar yordamida ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Bu talabalarga raqamli dunyoda ko'proq bilimdon, tanqidiy fikrlaydigan va

axborotdan mas'uliyatli foydalanuvchi bo'lishga yordam beradi. Veb-texnologiyalarning joriy etilishi bilan ta'lim muassasalari o'quvchilarning mediasavodxonligini rivojlantirish uchun keng ko'lamli vositalar va resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunga ta'lim platformalari, onlayn kutubxonalar, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, podkastlar va boshqa raqamli resurslardan foydalanish kiradi. Veb-texnologiyalar interaktiv va multimediali o'quv materiallarini yaratishga imkon beradi, ular o'quv jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi va uni yanada qiziqarli va qulayroq qiladi. Veb-texnologiyalar axborotga kirishni ta'minlash va muhim media ko'nikmalarini o'rgatishda muhim rol o'ynaydi.

Asosiy qism. Elektron ta'lim tizimining rivojlanishi ta'lim jarayoniga uning samarali tadbiriq etilishi amaliyotini yanada kengaytirib, hozirgi zamon ta'lim paradigmasining rivojlanishida asosiy vektorlarni belgilab beruvchi zamonaviy tendensiyalar va mavjud jahon tajribasiga diqqat bilan nazar solishni talab etmoqda. Zamonaviy dunyoda veb-texnologiyalar ta'lim jarayonlarida tobora muhim rol o'ynamoqda. Ularning ta'siri ta'limning barcha bosqichlarida maktabdan to oliy o'quv yurtigacha sezilarli.

Veb-texnologiyalarning ta'lim jarayonlariga qanday integratsiyalashganini va ular qanday afzalliklarni taqdim etishini ko'rib chiqaylik:

1. Axborotga kirish: veb-texnologiyalar talabalarga katta hajmdagi axborot va ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu ularga mustaqil ravishda yangi ma'lumotlarni qidirish va topish imkonini beradi, bu esa, mustaqil ta'lim va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Interfaol o'quv materiallari: veb-texnologiyalar video, audio, animatsiya va simulyatsiyalarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan interfaol o'quv materiallarini yaratishga imkon beradi. Bu esa, o'quv jarayonini yanada qiziqarli va qiziqarli qiladi, o'quvchilarga tushuncha va mavzularni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi.

3. Ijtimoiy media va hamkorlik: ijtimoiy media va onlayn platformalar talabalar o'rtasida hamkorlik va bilim almashishni rag'batlantiradi. Ular bir-birlari bilan muloqot qilishlari, fikr almashishlari va o'quv materiallarini muhokama qilishlari mumkin, bu esa, muloqot va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Axborotni baholash va tahlil qilish: veb-texnologiyalar axborotni tahlil qilish va baholash uchun vositalarni taqdim etadi. Talabalar media savodxonligining muhim jihati bo'lgan axborotning ishonchlilik va ishonchlilikini tanqidiy baholashni o'rganadilar.

5. Kontent yaratish: veb-texnologiyalar talabalarga bloglar, videolar, podkastlar va taqdimotlarni o'z ichiga olgan shaxsiy tarkibni yaratishga imkon beradi. Bu turli xil media formatlaridan foydalangan holda ijodiy qobiliyatlarini va fikr va g'oyalarni ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Bugun butun dunyoda millionlab kishilar qariyb barcha sohalar: huquq, muhandislik, dasturlash, til o'rganish va boshqa yo'nalishlarda masofadan ta'lim olmoqda. Onlayn ta'lim bepulligi, hammabopligi va qulayligi bilan tobora keng yoyilmoqda. Bular orasida so'nggi yillarda elektron ta'lim rivojlanishining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri – ommaviy ochiq onlayn kurslarlarning shakllanishi bo'ldi, ularning asosida esa, ommaviy va barchaga teng imkoniyatlar mavjud bo'lgan ta'lim g'oyasi yotadi.

Ommaviy ochiq onlayn kurslar bo'yicha butun dunyodagi xohlagan kishida ushbu kursda bepul ta'lim olish imkoniyati mavjud. Ommaviy ochiq onlayn kurs (OOC)lar jahonning ko'plab universitetlari tomonidan Yer sharining istalgan nuqtasida bo'lgan har qanday insonga masofaviy texnologiyalar yordamida professor-o'qituvchilar va yuz minglab talabalar (kurs tinglovchilari)ga erkin muloqotni tashkil qilish imkoniyatini beruvchi

akademik kurslarni taqdim etadi. Bugungi kunda OOOK imkoniyatidan foydalanganlar soni bir necha million nafarni tashkil etmoqda. Dunyoning boshqa yetakchi universitetlari, ta'lim markazlari ham onlayn ta'limga katta urg'u qaratmoqda. Onlayn muhitda qimmat darsliklarni bepul o'qish imkoniyati ham mavjud. Hozirda internetda ma'lum bir guruhlar bo'lib ishlash imkoniyati bor. Ta'limda ham bu muhim ahamiyatga ega. Guruh bo'lib ishlagan ma'lumotlarni onlayn saqlab qolish imkoniyatiga ega. Ulardan keyingi yilgi tinglovchilar ham foydalanishi mumkin. An'anaviy ta'limda esa, bu imkoniyat cheklangan.

OOOK atamasi 2008-yilda AQShda paydo bo'lib, ammo hozirgi ta'lim OOOK yo'nalishiga 2012-yilda Stenford shahrida yaratilgan Coursera asos solgan va u dastlab AQShning uchta yirik universitetlarning ochiq resurslarini birlashtirdi, eng yaxshi ta'lim sayti bo'lgan. Coursera asoschilari Endryu Ng va Dafna Koller o'z loyihaxini ommaviy onlayn o'qitish g'oyasida («bir dunyodan bir kurs») shakllantirib, barcha xohlovchilarga jahonning yetakchi universitetlari ma'ruzalarini tinglash imkoniyatini berdi.

Ommaviy ochiq onlayn kurslarning yana bir afzallik tomoni unda o'qish muddatini tinglovchining o'zi belgilaydi, ya'ni talaba ixtiyoriy paytda o'qishni boshlaydi, materiallarni o'qituvchi nazoratida o'zlashtiradi. O'zlashtirish topshiriqlarni, testlarni bajarishiga qarab aniqlanadi. Tinglovchi berilgan programmani qanchalik tez o'zlashtirsa, shunchalik tez o'qishni tugatadi va guvohnoma oladi. Programmani o'zlashtira olmasa, unga mustaqil ishlab, o'qishni davom ettirishga imkoniyat beriladi.

OOOKning asosiy xususiyatlari ta'limning uzluksizlik va shaxsga yo'naltirilgan tamoyillarini amalga oshirish, tushunish uchun qulay bo'lgan shaklga keltirib, zamonaviy ilmiy g'oyalarni keng targ'ib etish kabi vazifalar bilan bog'liq: 1) ommaviylik, ya'ni kurs tinglovchilari soni cheksizligi; 2) ochiqlik, ya'ni istagan kishiga, unga qulay joyda va vaqtda bilimlarni bepul berishi; 3) kurslarning yaxlitligi, ya'ni kurslar nafaqat o'quv material parchalari, balki amaliy mashg'ulotlar, kommunikatsiya, olingan bilimlarni nazorat qiluvchi materiallarni o'z ichiga oladi; 4) kurs muvaffaqiyatli o'zlashtirilganda sertifikat olish imkoniyati.

Ommaviy ochiq onlayn kurslarda ξ'qitish ξ'qituvchi bilan ξ'quvchi ma'lum bir masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimidir. Bunda ξ'qituvchini dars jarayonida kompyuterlar, sun'iy yξ'ldosh aloqasi, kabelli televideniye kabi vositalar asosida tashkil qilishini talab qiladi.

Ommaviy ochiq onlayn o'qitish: ochiq ta'limning zamonaviy shaklidan iborat; kompyuterli ta'limni foydalanishga qaratilgan; ξ'qituvchilar va boshqa talaba (ξ'quvchi)lar bilan faol muloqat qilish uchun zamonaviy kommunikatsiya texnologiyasidan foydalaniladi.

Xuddi shunday ommaviy ochiq onlayn kurslarga quyidagilar kiradi:

Coursera <https://www.coursera.org/> - 2012-yilda Stenford universitetining kompyuter fanlari professorlari Endryu Ng va Dafne Koller tomonidan asos solingan yirik ochiq onlayn kurs provayderidir. Coursera turli fanlar bo'yicha onlayn kurslar, sertifikatlar va darajalarni taklif qilib, universitetlar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlaydi. 2021-yilda 150 ga yaqin universitet Coursera orqali 4000 dan ortiq kurslarni taklif qilgani taxmin qilinadi.

Udemy <https://www.udemy.com/> – Global ta'lim bozori hisoblangan Udemy 30 million o'rganuvchi, 50 tilda taqdim etilayotgan 100 000 ta kurs, 42 000 ta o'qituvchi va 22 million daqiqalik videodarslar jamlanmasidir. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan boshqariladigan boshqa onlayn ta'lim platformalaridan farqli o'laroq, Udemy kontent yaratuvchilarga o'z kurslarini nazorat qilish va onlayn dars berish imkonini beradi.

Edx <https://www.edx.org/> – bu bir nechta nufuzli universitetlar tomonidan ko'plab mavzular bo'yicha onlayn kurslarni taklif qiladigan va ularni talabga binoan va butun dunyo bo'ylab taqdim etadigan dastur.

Khan Academy <https://khanacademy.org/> – platformasi boshqa MOOClardan farqli ravishda ta'limga interfaollik va o'yin texnologiyalarini olib kirgan va o'z davrida birinchilardan bo'lgan mashhur loyiha. Bugungi kunga kelib platforma 36 dan ortiq tilda (o'zbek tili ham mavjud) 10 mingdan ortiq kichik video darslar yaratgan. Platformada 100 mingdan ziyod interfaol misol va topshiriqlar joy olgan. Khan Academy darslari 190 dan ortiq mamlakatda o'tiladi va hozirgi kunda 74 milliondan ortiq o'quvchi platformadan foydalanadi.

Udacity <https://www.udacity.com/> – bu bepul va pullik kurslarni taklif qiluvchi 2011-yilda tashkil qilingan onlayn o'quv platformasi.

Codecademy <https://www.codecademy.com/> – bu turli xil dasturlash tillarini o'rgatuvchi interfaol platformadir. Ko'pgina bepul kurslarni 11 soatdan kam vaqtda tugatish mumkin. Codecademy veb dasturlash, dasturlash, informatika va ma'lumotlar bilan ishlash kabi mavzularda 45 milliondan ortiq talabalarni tayyorlashga yordam berdi. Codecademy bitiruvchilari Google, Facebook, IBM, Bloomberg va boshqa yetakchi kompaniyalarda faoliyat olib borishadi. Shuningdek, Codecademy oylik to'lov uchun imtiyozlar ham taklif etadi.

Stanford Online <https://online.stanford.edu/> – Stanford universitetidagi onlayn ta'lim bilan bir qatorda professional sertifikatlar, ilmiy darajalar va biznesga oid ta'lim kurslarini taklif qiladi. Stanford Online Stanford universiteti, Stanford yuridik maktabi, Stanford biznes maktabi va Stanford tibbiyot maktabining bakalavr va magistrlik darajasi kurslarini taklif etadi.

Ta'lim sifatini oshirish yo'llarini izlashda zamonaviy integratsiyalashgan veb-texnologiyalardan tizimli va samarali foydalangan holda zamonaviy ta'limning eng yaxshilarini birlashtiradigan muvofiqlashtirilgan aralash ta'lim modelini yaratish muammosi paydo bo'ladi. Uzoq muddatli xalqaro va mahalliy tajriba shuni ko'rsatib turibdiki, an'anaviy ta'lim jarayoniga integratsiyalashgan veb-texnologiyalarni joriy etish, qoida tariqasida, o'quv jarayonini tashkil etish metodikasini tubdan o'zgartirishni va har xil yo'naltirilgan yangi shakllarni joriy etishni talab qiladi. Natijada, ta'lim jarayonini amalga oshirishning an'anaviy shakllari integratsiyalashgan veb-texnologiyalarga eng moslashgan o'zgartirilgan shaklida taqdim etilishi mumkin.

Hozirgi vaqtda integratsiyalashgan veb-texnologiyalarni amalga oshirishda katta tajriba to'plangan va pedagogik amaliyotda uning uchta modeli ajratilgan bo'lib, ular darslar orasidagi vaqt va ish hajmining taqsimlanish nisbati elektron komponentlar, o'qitish strategiyasi bilan ajralib turadi: veb-texnologiyalar yordamida olib boriladigan dars mashg'ulotlar – darsni o'zlashtirish vaqtining 30% ga qadar talabalarning elektron muhitda mustaqil ishlashiga, onlayn konsultatsiyalar, joriy va oraliq nazorat va boshqalarga bag'ishlangan model; aralash ta'lim – an'anaviy va veb-texnologiyalarning integratsiyasi va o'zaro to'ldirilishi asosida qurilgan model (vaqtning 80% gacha), bu an'anaviy o'quv mashg'ulotlarining bir qismini elektron muhitda ta'limning o'zaro ta'sirining har xil turlariga almashtirishni nazarda tutadi; masofaviy ta'lim (onlayn ta'lim) - ta'lim jarayonining 90-100% elektron muhitda amalga oshiriladigan model.

Shu bilan birga, masofaviy ta'limdan foydalanish ko'pincha talabalarni o'qitish sifatini yomonlashtiradi, chunki tadqiqotchilar buni bir qator: mashg'ulotning boshqa ishtirokchilari bilan ijtimoiy aloqaning yo'qligi, tinglovchilar nazariy materialni noto'g'ri talqin qilish xavfi, talabalarning yuqori darajadagi o'z-o'zini o'rganishiga bo'lgan ehtiyoji kabi kamchiliklari bilan izohlashadi.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar yordamida o'qituvchilar ta'lim oluvchilarga masofadan turgan holda bilim olishlariga imkon yaratadilar. O'quv muassasalari uchun

yaratilgan saytlar ayniqsa o'qitish joylariga qatnashi qiyin bo'lgan ta'lim oluvchilarga qulaydir. Bulardan tashqari, ta'lim oluvchilar axborot texnologiyalari bilan ishlash madaniyati, ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan dars jarayonida foydalanish juda katta imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa. Ushbu maqolada talabalarning media savodxonligini rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun veb-texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning o'ziga xos usullari va strategiyalari muhokama qilindi. Bunga onlayn ta'lim resurslarini yaratish, onlayn munozaralar va loyihalarni tashkil etish, interaktiv o'quv platformalaridan foydalanish va boshqalar kiradi. Shuningdek, maqolada veb-texnologiyalarning o'quvchilarning mediasavodxonligiga ta'sirining asosiy jihatlari muhokama qilindi va ularning bugungi axborot jamiyatida zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rni yoritildi.

Adabiyotlar:

1. Βύπςύνξβύ Ε.Λ. Μεδθύ θ θντζπμϕθξννύ ρ γπύμξςνξρςó: μεζδσνύπξδνύ ξοϋς θ πξρρθιρκθς οεπροεκςθβύ. - Μ.: ίρροεκς Οπερρ, 2013.
2. Ζσκξβύ Ν.Θ., Ψθλξβύ Ξ.Ν. Βεα-ςευνξλξγθθ β ξαπύηξβύςελόνξμ οπξφερρε: Σχεανξε οξρξαθε. - Μ.: ήπύις, 2014.
3. Κύηύκξβ ί.Β. (2018). Βλθϐνθε θντζπμϕθξννύς ςευνξλξγθθ νύ πύηβθςθε μεδθύγπύμξςνξρςθ ρςοδενςξβ // Βερςνθκ ϐξμρκξγξ γξρσδύπρςβεννξγξ σνθβεπρθςεϋ. - Τ., 2018. - Ή 428. - Ρ. 90-97.
4. Κσηνεφξβ ί.Ο. Βεα 2.0: Νξβύε βξημξζνξρςθ δλϐ ξαπύηξβύςελόνξγξ οπξφερρϋ // Ξαπύηξβύνθε θ θντζπμϕθξννύε ςευνξλξγθθ. - Μ., 2015. - Ή 20(2). - Ρ. 120-130.
5. Υθλόκξ Ε.Ο. Μεδθύγπύμξςνξρςó κϋκ κξμοξνενς θντζπμϕθξννύς κολόςσπύ ασδσωεγξ ροεφθύλθρςϋ // Νύςχνύι ζσπνύλ ΚσαΓίΣ. - 2016. - Ή 122(8). - Ρ. 105-117.
6. ίκξβλεβύ ϐ.Β. Βεα-ςευνξλξγθθ θ θυ πξλό β πύηβθςθθ μεδθύγπύμξςνξρςθ σχϋωθυρϐ // Θντζπμϕθξννύε ςευνξλξγθθ β ξαπύηξβύνθθ. - Μ., 2019. - Ή 27(4). - Ρ. 15-23.

TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHDA ISLOHOTLAR VA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

Jumayeva Muxlisa Shokir qizi, TDPU doktoranti

Annotatsiya. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, yangilash, boyitish muhim va ustuvor vazifa sifatida baholanmoqda. Har bir jarayon bir-biri bilan bog'liq ekanligini hisobga olgan holda, ta'lim tizimining har bir bo'ginini zamonaviy bilimlar, raqobatbardosh mutaxassislar bilan ta'minlash hozirda har bir rivojlanayotgan davlatlarning ta'lim dasturlarida o'z aksini topmoqda. Maqolada ta'lim tizimini modernizatsiyalashda islohotlar va rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanishning ahamiyati, ta'lim beruvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyatini mazmunli va sifatli tashkil etish, o'qituvchilarning bilim va dunyoqarashini muntazam oshirib borish uchun rivojlangan xorijiy davlatlar metodlaridan samarali foydalanishga o'rgatishning zaruriy jihatlari yoritilgan. Pedagoglar intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlay olishi, har tomonlama raqobatbardosh mutaxassis bo'lishlarida ta'lim tizimini modernizatsiyalashning roli yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: *pedagog, modernizatsiya, xalqaro tajriba, ta'limiy islohot, rivojlantirish, oliy ta'lim muassasasi, kompetensiya, o'quvchi bilimi, zamonaviy texnologiya, intellekt, ma'naviy salohiyat.*

РЕФОРМЫ В МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА

Жумаева Мухлиса Шокировна, докторант ТГПУ

Аннотация. В современный бурно развивающийся период организация, обновление и обогащение всех ступеней системы образования на основе современных требований считается важной и приоритетной задачей. Учитывая, что каждый процесс взаимосвязан друг с другом, обеспечивая каждое звено образовательной системы современными знаниями, конкурентоспособность специалистов в настоящее время находит свое отражение в образовательных программах каждой развивающейся страны. Важно использовать опыт развитых зарубежных стран в модернизации системы образования, осмысленной и качественной организации профессионально-педагогической деятельности педагогов. Выделены необходимые аспекты преподавания для эффективного использования методов развитых зарубежных стран для регулярного повышения знаний и мировоззрения учителей. Выделена роль модернизации системы образования в способности педагогов подготовить новое поколение кадров с высоким интеллектуальным и духовным потенциалом, чтобы стать конкурентоспособными специалистами во всех аспектах.

Ключевые слова: *педагог, модернизация, международный опыт, образовательная реформа, развитие, высшее образовательное учреждение, компетентность, знания студентов, современные технологии, интеллект, духовный потенциал.*

REFORMS IN THE MODERNIZATION OF THE EDUCATIONAL SYSTEM AND USE OF INTERNATIONAL EXPERIENCES

Jumayeva Mukhlisa Shokirovna, doctoral student of TSPU

Abstract. In today's rapidly developing period, organizing, updating and enriching all stages of the education system based on modern requirements is considered an important and priority task. Taking into account that each process is related to each other, providing each link of the educational system with modern knowledge, competitive specialists is currently reflected in the educational programs of each developing country. The importance of reforms and the use of the experience of developed foreign countries in the modernization of the education system, the meaningful and qualitative organization of the professional and pedagogical activities of educators. The necessary aspects of teaching to effectively use the methods of developed foreign countries to regularly improve

the knowledge and worldview of teachers are highlighted. The role of modernization of the educational system in the ability of pedagogues to train a new generation of personnel with high intellectual and spiritual potential, to become competitive specialists in all aspects is highlighted.

Key words: pedagogue, modernization, international experience, educational reform, development, higher educational institution, competence, students' knowledge, modern technologies, intelligence, spiritual potential.

Kirish. Bugungi kunda deyarli har bir soha o'z o'rnini, ahamiyatini saqlab qolishi uchun doimiy ravishda modernizatsiyalash zarur. Modernizatsiya – lotincha («modeme – eng yangi») so'zdan olingan bo'lib, takomillashtirilgan, boyitilgan, so'nggi talablarga javob bera oladigan degan ma'nolarni anglatadi. Ta'lim – bu odamlarning ma'lum maqsadlarga erishish uchun o'z qobiliyatlarini oshirishga qodir bo'lishlari uchun mashq qilish va o'rganish jarayoni. Globallashuv ta'lim olamida taraqqiyotga olib keladi [1]. Ta'limni modernizatsiyalash shaxsga ta'lim va tarbiya berish jarayonida ushbu jarayonga doir eng yaxshi an'analarni saqlab qolgan holda, uni yanada boyitish, yaxshilash, jahon andozalariga mos xususiyatlarni tarkib toptirish hisoblanadi. Bundan tashqari, ta'lim mazmunini zamon talablariga moslashtirishni va ta'lim mazmunini o'zlashtirishda pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishni taqozo etadi [2]. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan «O'zbekiston – 2030» [3] strategiyasida ham ta'lim tizimi sifatini oshirishga qaratilgan bir qator vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, 2024-yilda amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturi to'g'risidagi farmonga ko'ra, prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning baholash tizimi qo'shimcha 1000 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy qilinishi ham ko'zda tutilgan.

Asosiy qism. Har bir rivojlangan mamlakat ta'lim sohasini modernizatsiyalash uchun bir nechta bosqichlarni amalga oshiradi. Quyida ta'limni yangilash, isloh qilish uchun amalga oshirish zarur bo'lgan bir nechta vazifalar yoritilgan.

1. Ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy axborot va o'qitish texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini oshirish. Ta'lim beruvchi va oluvchilar uchun eng yaxshi ta'lim muhitini yaratish zamonaviy, ta'lim samaradorligini oshiruvchi vositalar yordamida tashkil etishni nazarda tutadi. Chunki, yangi tushuncha, bilim va ko'nikmalar turli vositalar yordamida tushuntirilganda, ushbu bilimlar deyarli to'liq va vaqtni tejalgan holda o'zlashtirilishi fanga ma'lum. Bunda ta'lim tizimining quyi bo'g'inidan boshlab o'quvchi va pedagoglarda mazkur tushunchalarni shakllantirib borish maqsadga muvofiq. Pedagoglarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ularni davriy ravishda tegishli kurslarga yuborish, turli AKT kurslari tashkil etish lozim. Bosqichma-bosqich tarzda jahon ilm-fanida o'z o'rnini topayotgan sun'iy intellekt, biotexnologiya, robototexnika kabilarni ham ta'lim jarayonida samarali qo'llash usullarini o'rganish lozim.

2. Karyera bilan bog'liq o'quv dasturlarini ishlab chiqish. Ma'lumki, talaba, o'quvchilar o'qish, ona tili, matematika bilan bog'liq bo'lgan birlamchi fanlarni o'rganishlari juda ahamiyatlidir. Inson faoliyatining barcha sohalarida, jumladan, ishlab chiqarish, madaniyat, san'at yoki ilmiy-pedagogik faoliyat, umuman, qanday soha bo'lishidan qat'iy nazar, «ijodiy faoliyat» yuqori baholanadi va rag'batlantiriladi. Chunki u har qanday faoliyat samaradorligining ortishiga olib keladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning «Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarib, ta'lim sifati ham, mazmuni ham o'zgarib qolmaydi» degan so'zlari bugungi kunda nihoyatda ahamiyatli. Xo'sh, maktabda o'qitish metodikasi o'zgarishi uchun tizimda qanday islohatlar olib borish lozim? Albatta, bu maqsadga erishish uchun bajariladigan vazifalardan biri fan dasturlarini talabalar an'anaviy fanlarni o'zlarini qiziqadigan kasbiy sohalar bilan bog'lab o'rganishlari uchun imkoniyat yaratishdir. Masalan, talabalar tadbirkorlik, ishlab chiqarish va muhandislik sohalarini negizida matematika, informatika kabi bir qator fanlarni o'rganishlari mumkin. Ijtimoiy fanlar, iqtisod, texnologiya fanlari talabalar uchun huquqshunoslik sohalarini bilan uzviy ravishda tashkil etilishi mumkin. Misol tariqasida, yuqorida keltirib o'tilgan «O'zbekiston – 2030» strategiyasida ham fanlardagi amaliy mashg'ulotlar ulushini 60 foizgacha oshirish va 7,5 ming yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitishni ta'minlash vazifasi belgilangan.

3. Eski ta'lim muassasalarini modernizatsiya qilish. Bugungi kun ta'lim tizimida ta'lim jarayonini o'quvchilar uchun yanada qiziqarli va noodatiy qilishning eng oddiy yo'li eski maktab binolarini yangilash, ta'mirlash va qayta qurishdan iborat. Maktabning «jismoniy» holati o'quvchilarning ta'lim muhiti va pedagoglarning ruhiy holatiga ta'sir qiladi. Ta'lim muassasalarni faqatgina davriy ta'lim olish uchun mo'ljallangan joy sifatida emas, balki keng qamrovli o'quv muhiti sifatida ko'rib chiqish lozim. Zamonaviy va yangilangan o'quv muhitiga ega bo'lish o'quvchi, talabalarga o'z ta'lim maydoniga egalik tuyg'usini berishi va, albatta, jarayondagi faollik va ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda bir qancha rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimini modernizatsiyalash uchun turli dasturlarni amalga oshirmoqdalar. Butun yer yuzida juda ko'plab ta'lim tizimlari mavjud. Jumladan, AQSh ta'lim tizimi talabalarga haqiqiy hayotga tayyorlashga qaratilgan amaliy va asl bilimlarni berish mazmunida tuzilgan. «Discovery Works Science» kabi dasturlar barcha talabalarni virtual sayohatlar, videolar, podcastlar, matnlar, interaktivlar va boshqalar orqali jalb qilishga mo'ljallangan bo'lib, bu o'quvchilarning dars haqidagi tushunchalarini shunchaki fakt va raqamlardan tashqari chuqushlashtiradi. Ushbu xususiyat ta'lim tizimining samarasini yanada oshirishi shubhasiz. O'quv dasturi talabalarga har bir yosh va bosqichda olingan bilim va ko'nikmalarni, ya'ni: yetakchilik, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, ommaviy nutq, ma'lumotlarni tahlil qilish; muammolarni hal qilish kabi hayotiy muhim ko'nikmalarni namoyish etish imkonini beradi. Bundan tashqari, haqiqiy vazifalarga e'tibor qaratiladi, bunda talabalar o'rgangan narsalarini maishiy yoki hayotdagi muayyan muammolarni hal qilishda qo'llaydilar [4]. Albatta, ushbu dastur san'at, musiqa va sport elementlari bilan uyg'unlashgan.

Namunali va eng yaxshi ta'lim tizimlaridan yana biri Buyuk Britaniya ta'lim tizimidir. Asosiy xususiyatlari:

- 1. Bepul boshlang'ich ta'lim.** 3-4 yoshli bolalar yiliga 38 hafta davomida 15 soatlik bepul ta'lim olish huquqiga ega. **Maqsad:** bog'chagaborish imkoniyatiga ega bo'lmagan bolalarni sinfdosh va sinflarga moslashtirish orqali kunduzgi ta'limga tayyorlash.
2. Britaniya maktablari **milliy o'quv dasturiga** amal qiladi. Bu dastur zamonaviy bilimlarni milliy xususiyatlar bilan uyg'unlashgan tarzda o'qitilishini ta'minlaydi.
- 3. Bolalarda mustaqillik rivojlanadi.** O'rta maktabni boshlagan bolalar ko'pincha avtobusda, velosipedda yoki piyoda ravishda mustaqil maktab sayohatini amalga oshiradilar.
- 4. Talabalar keyingi ta'lim olish uchun rag'batlantiriladi.** Barcha bolalar keyingi ta'limni olishga da'vat etiladi. Agar talaba bunday qilishni xohlamasa, maktabni tark etishdan oldin unga boshqa mos variantlar haqida maslahat beriladi. Hech bir ta'lim hujjati e'tibordan chetda qolmaydi.
- 5. Britaniya maktablari 3 qismli rejaga amal qiladi.** Sentabrdan dekabrgacha, yanvardan martgacha va apreldan iyulgacha. Bolalar qisqa muddatlarda yaxshiroq o'rganishlari va qisqa vaqt davomida dam olishga ruxsat berilganida, yaxshiroq ishlashlari isbotlangan.

Xulosa. Zamonaviy ta'lim tizimi modernizatsiya bosqichida. Ma'lumki, har qanday kasbda faoliyat samaradorligi va muvaffaqiyatli kasb sohiblarining tayyorgarligi, mahorati, o'z qobiliyatlarini takomillashtirish ustida nechog'lik qunt va izchillik bilan ishlashiga bog'liq. O'qituvchilik kasbida esa, o'z bilimdonligi, zukkoligi, kasb mahoratini takomillashtirish ustida umr bo'yi muntazam ishlamay turib, el ardoqlagan, obro'-e'tiborli pedagog bo'lish mumkin emas. Bugungi kunda barchamiz uchun eng muhim vazifaga aylanayotgan bir masala borki, biz amalga oshirayotgan barcha islohotlarni aynan shu masalani qanday hal etishimizga bog'liq. Bu jarayonda esa, samarali islohatlar o'tkazishimiz, rivojlangan chet davlatlar tajribalarini milliyligimiz bilan uyg'unlashtira olishimiz zarur.

Adabiyotlar:

1. Jennifer Monies. Three steps to modernize educational system. - Oklahoma, 2021.
2. Aristi Rahma Magistra. The impact of modernization in education. - Indonesia, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risidagi farmoni. - T., 2023.
4. www.booklikes.com

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING HUQUQIY SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI VA UNGA KOMPLEKS YONDASHISH

Jumayeva Feruza Faxriddinovna, BuxDPI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyatning o'mi, boshlang'ich sinf o'quvchilarda huquqiy savodxonlik, huquqiy ongni shakllantirishga oid ilmiy qarashlar tahlil etilgan hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarni huquqiy savodxonligini shakllantirishga kompleks yondashgan holda rivojlantirishga doir metodika va uning ahamiyati tadqiqotlarda izohlangan.

Tayanch so'zlar: fuqarolik jamiyati, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy savodxonlik, qonun, pedagogik jarayon, o'quv faoliyati, ta'lim mazmuni, ta'lim metodi, tajriba-sinov jarayoni.

СОДЕРЖАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ И КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К НЕЙ

Жумаева Феруза Фахриддиновна, базовый докторант БухГПИ

Аннотация. В данной статье проанализирована роль правовой культуры в гражданском обществе, правовой грамотности учащихся начальных классов, научные взгляды на формирование правосознания, а также методика и объяснено в исследовании ее значение для развития у учащихся начальных классов комплексного подхода к формированию правовой грамотности.

Ключевые слова: гражданское общество, правовая культура, правосознание, правовая грамотность, право, педагогический процесс, образовательная деятельность, содержание образования, метод обучения, экспериментально-апробационный процесс.

THE CONTENT OF FORMING LEGAL LITERACY OF PRIMARY CLASS STUDENTS AND A COMPLEX APPROACH TO IT

Jumayeva Feruza Fakhriddinovna, doctoral student of BuxDPI

Abstract. In this article, the role of legal culture in civil society, legal literacy in elementary school students, scientific views on the formation of legal consciousness are analyzed, and the methodology and its importance for the development of elementary school students with a comprehensive approach to the formation of legal literacy are explained in research. .

Key words: civil society, legal culture, legal consciousness, legal literacy, law, pedagogical process, educational activity, educational content, educational method, experimental-testing process.

Kirish. Fuqarolarda huquqiy madaniyatni shakllantirish, ularni huquqiy tarbiyalash masalasining dolzarligi, avvalo, O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatiga asoslangan, qonun ustuvorligi ta'minlangan, huquqiy demokratik davlatni qurish sari keyingi islohotlari va huquqiy ta'limot nazariy asoslarini ishlab chiqish hamda yangilash jarayoni bilan belgilanadi. Ma'lum bir davlat fuqarolarining huquqiy madaniyati ushbu jamiyatdagi huquq tizimi, davlat institutlari va, umuman, inson hayotining barcha sohalarida rivojlanishining asosiy negizidir. Shuning uchun ham, shaxslarda huquqiy madaniyatini rivojlantirish jarayonining ilk bosqichi huquqiy ongni shakllantirish muayyan tizim va tamoyillarga bo'ysunuvchi, tegishli huquqiy, siyosiy, mafkuraviy va boshqa vositalarga asoslangan tizimli va maqsadli dasturlar asosida bo'lishi kerak.

Asosiy qism. Ta'lim tizimini, jumladan, huquqiy fanlarni rivojlantirish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda maktabda yosh o'quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirish

strategiyasini tadqiq etish va aniqlashning ahamiyati, inson huquqlarini ta'minlash va qadrlashni tushunishda, huquqiy ta'lim konseptual asoslarini ishlab chiqish, huquqshunoslikning yangi uslub va dasturlarini yaratish, huquqiy ongni shakllantirishda yangicha uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati o'zini namoyon etmoqda. Huquqiy madaniyat, huquqiy ong va huquqiy savodxonlikni shakllantirish masalalari va uni yuksaltirish muammolari mamlakatimiz ilm-fanida juda chuqur tahlil qilinadigan mavzuga aylandi. Respublikamizda aholining, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning huquqiy ongini rivojlantirib borish hamisha davlatimiz siyosatining bosh masalasi bo'lib kelgan. Bu haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 7-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi «Konstitutsiya va qonun ustuvorligi-huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir» nomli ma'ruzasida shunday deb ta'kidlagan edi: «Biz qanchalik mukammal qonunlar yaratmaylik, qanday islohotlar o'tkazmaylik, agar fuqarolarimizning huquqiy bilimi, ongi va madaniyati yetarli bo'lmasa, kutilgan natijalarga erishish mushkul bo'ladi. Huquqshunos olimlarning bundan bir necha asr avval «Huquqni anglash mas'uliyat hissini rivojlantiradi», – deb aytgan hikmatli so'zlari hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Boshqacha aytganda, Konstitutsiya va qonunlarga hurmat, huquqiy ong va madaniyat har bir fuqaroning, har bir mansabdor shaxsning hayot va faoliyat tarziga aylanmog'i kerak». Ushbu fikrlarning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi [1].

Ilmiy izlanishlar sohasida ham respublikamizda huquqiy ta'lim-tarbiya, huquqiy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha H.B.Boboyev, Z.M.Islomov, U.Tojixonov, A.Saidov, O.Karimova, A.Rafiqov, H.To'ychiyeva, O.Nasriddinova kabi huquqshunos va faylasuf olimlar, o'quvchilarning huquqiy tarbiyasi, huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari yuzasidan M.Usmonboyeva, T.Kudaybergenova, N.Sayidalixodjayeva, A.Xoliqov, A.Kadrekovalar, huquqiy ongning psixologik xususiyatlari bo'yicha M.G.Davletshin, Sh.Do'stmuhammedov, M.Mavlonov, S.To'ychiyevalar tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Respublikamiz ilmiy tadqiqotchilarining izlanishlarida, huquqning shaxs va uning huquqiy ongini, huquqiy savodxonligini, huquqiy madaniyatini shakllantirish vositasi sifatidagi roli ma'lum tamoyillar majmuasiga, tegishli subyektlarning o'zaro ta'siriga asoslangan yagona strategiyani yaratish kontekstida ko'rib chiqilmaydi, shuningdek, pedagogik tamoyillar va vositalar tizimi yetarli darajada emas.

Aholining huquqiy madaniyatni rivojlantirish uchun yosh avlodning huquqiy savodxonligini shakllantirishga oid muammolariga rasmiy hujjatlarda ham to'xtalib o'tilgan bo'lib, davlat siyosati darajasida ma'lum bir chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo muammo shundaki, maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilarning shaxsiyatining huquqiy madaniyatini shakllantirishning yagona strategiyasini shakllantirish masalalari alohida ilmiy tahlil etilmagan. Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining huquqiy madaniyatini shakllantirish strategiyasi muammosi, uning maqsad va yo'nalishlari mamlakatimiz adabiyotida mustaqil har tomonlama ilmiy tadqiqot mavzusiga aylangani yo'q. Fuqarolik jamiyatining mohiyati va asosiy tamoyillarini iqtisodiy erkinlik, mulkchilik shakllarining xilma-xilligi, bozor munosabatlarida inson va fuqaroning tabiiy huquqlarini so'zsiz tan olish va himoya qilinishi, siyosiy hokimiyatning qonuniyligi va demokratik xususiyati esa aynan jamiyatning barcha a'zolarining qonun va adolat oldida tengligi, shaxsning ishonchli

huquqiy himoyasi, siyosiy va mafkuraviy plyuralizm, huquqiy muxolifatning mavjudligi, fikr, soʻz va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi, davlatning fuqarolarning shaxsiy hayotiga, ularning oʻzaro majburiyatlariga va munosabatlariga aralashmasligi, milliy totuvlik va nihoyat odamlarning munosib turmush darajasini taʼminlaydigan samarali ijtimoiy siyosatda namoyon boʻladi. Shu jihatdan dunyo davlatlari fuqarolik jamiyati sari odimlar ekan, birinchi navbatda aholining, ayniqsa, yosh avlodning huquqiy tarbiyasiga ijtimoiy, siyosiy sohada toʻgʻri yondashuvni tanlay olishi lozim. Shu jihatdan huquqiy tarbiyada kompleks yondashuv samarali jihatlarini namoyon eta oladi. Ushbu fikrimizni ilmiy isbotini quyida keltirilgan ilmiy qarashlardan ham bilib olsa boʻladi. Sababi taʼlim-tarbiyaga kompleks yondashuv taʼlimiy-tarbiyaviy vazifalarning birligini, tarbiyaviy taʼsir va oʻzaro taʼsirining mazmuni, usullari va shakllarining birgalikdagi faoliyatini nazarda tutadi.

Anʼanaviy taʼlim nazariyasida ham, maktablarning taʼlim-tarbiya ishlari amaliyotini uning tuzilishini tashkil etuvchi alohida jarayonlarning yigʻindisi sifatida izohlanadi. Masalan, rus olimlari A.V.Malko, V.V.Kozarev, N.I.Matuzov kabi olimlar oʻz asarlarida aholiga huquqiy ongini, huquqiy savodxonlikni shakllantirishda quyidagi jihatlarni alohida inobatga olish kerak deb hisoblaydi. Bular: huquqiy tarbiya jarayonida har bir fuqaroda huquqning jamiyat hayotidagi oʻrni, qadriyati va zarurligi toʻgʻrisida toʻgʻri tushunchani shakllantirish; oʻz-oʻzini qadrlash, toʻgʻrilik, xavfsizlik hissi va shu bilan birga oʻz va boshqalarning huquqlari uchun kurashish istagini rivojlantirish [2]. Bu borada XIX-asrning mashhur nemis huquqshunosi R.Leringning dunyoning koʻplab mamlakatlarida oʻnlab nashrlardan oʻtib, klassikaga aylangan «Huquq uchun kurash» asaridagi ilmiy dalillarni qiziqarli fakt sifatida izohlanadi. «Qonunning maqsadi – tinchlik, unga olib boruvchi yoʻl – kurashdir. Inson toki toʻgʻri yoʻldan boʻladigan xavfga duchor boʻlar ekan, u vaqtgacha oʻz haq-huquqi uchun kurashdan qutulolmaydi. Dunyodagi barcha huquqlar kurash bilan qoʻlga kiritilgan. Har bir muhim huquqiy pozitsiya, xoh xalqning, xoh shaxsning har bir huquqi, oʻzini himoya qilishga doimo tayyor boʻlishni nazarda tutadi. Shuning uchun ham adolat maʼbudasi adolatni tortish uchun bir qoʻlida tarozi tutgan boʻlsa, ikkinchi qoʻliga qilich tutib, uni himoya qiladi. Tarozisiz qilich yalangʻoch kuch, qilichsiz tarozi qonunning oʻjizligi boʻladi... Qayerda amaldagi qonun oʻz ildizi bilan manfaatlarni chigallashgan boʻlsa, u erda yangi qonun kurash orqali oʻz yoʻlini egallashi kerak» [3]. Olima H.Tuychiyeva oʻz ilmiy tadqiqotida huquqiy taʼlim jarayoniga sistemali yondashuvni ilgari surgan holda huquqiy taʼlim-tarbiya jarayonini oʻzaro bogʻlangan ikki tizim sifatida amal qilishini taʼkidlaydi [4]. Birinchi tizim – oʻquv jarayonida oʻqitishning maqsadi, oʻqitish va oʻquv faoliyati, taʼlim mazmuni, oʻqitish vositalaridan iborat murakkab tizim. Ikkinchi tizim – oʻquv jarayoniga nisbatan yirik boʻlgan pedagogik jarayonning alohida tizimidir. Bu tizimda taʼlim jarayoni qonuniyliklariga bevosita taʼsir koʻrsatuvchi ijtimoiy jarayonlar va talablar tizimi ham mavjud [5].

Aynan boshlangʻich sinf davrida oʻquvchilar koʻchada va taʼlim muassasasi ichkarisida sodir boʻlayotgan voqealarni solishtirish va farqlashni boshlaydilar. Oʻqituvchilar ham, ota-onalar ham oʻquvchilar uchun ayni shu davrda ibrat namunasini koʻrsata olishi lozim. Hozirgi globallashuv jarayonida shunchaki oʻquvchilarning bilim olishga qiziqishini uygʻotish uchun faningizni yaxshi oʻrgatishning oʻzi yetarli emas, ularga oʻrnak boʻlish, oʻz shaxsiyligini, mustaqilligini koʻrsatish imkoniyatini berish kerak boladi. Shu oʻrinda nafaqat oʻqituvchi, balki ota-ona, oʻquvchilar mansub boʻlgan har qanday jamoa tashkilotlari aʼzolari, jamiyatdagi mavjud turli xil ijtimoiy institutlar, davlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari

o'quvchilarning huquqiy savodxonligini shakllantirish orqali huquqiy madaniyatni rivojlantirishga tizimli yondashishi zaruriyat hisoblanadi. Jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlar o'qituvchidan xushmuomalalik, harakatchanlik, o'ziga ishonch, individual yondashuvni ko'rsatish qobiliyatini talab qiladi. Afsuski, har bir o'qituvchida bunday fazilatlar mavjud emas. Bu haqida o'zbek pedagogikasi tarixida ma'rifatparvar olim, jadid harakati namoyandalaridan Abdulla Avloniy bolalarda fikrlash qobiliyatini o'stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug'ullariish benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning «diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur», – deya ta'kidlagan edi [6].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaldagi huquqiy savodxonligining darajasini aniqlashda respublikamizning Buxoro viloyati, Navoiy viloyati, Toshkent shahridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida tajriba-sinov ishlarining dastlabki aniqlovchi bosqichi olib borildi. Tajriba sinovda 238 ta respondent qatnashdi. Respondentlardan quyidagi mazmunda so'rovnoma olindi. «Think tank» metodikasi ishlab chiqildi va ushbu metodikamiz asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarning 4K modelidagi kabi kommunikativlik, kreativlik, tanqidiy fikrlash, kollaborativlik kompetensiyalarini uzviy, tizimli tarzda shakllantirishga qaratilgan. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv jarayoni avvalida o'zlariga sherik tanlash sharti qo'yiladi. Sheriklar soni topshiriqning murakkab va soddaligi hamda topshiriqning sinf xonasi yoki sinfdan tashqarida bajarilishi bilan bog'liq, sheriklar tanlangandan so'ng hayotiy-huquqiy vaziyatlarga asoslangan real holatga oid o'quv topshirig'i mavjud guruhlariga beriladi. O'quv topshirig'i o'qituvchi tomonidan tayyorlanadi. O'quv topshirig'i quyidagi qismlardan iborat bo'ladi: topshiriq raqami; real ijtimoiy-huquqiy vaziyat; topshiriqni bajarish uchun vazifalar; huquqiy vaziyatga noan'anaviy 2 tadan ortiq yechim; o'quvchilar topshiriqga yechim topish jarayonida o'qituvchi va sherik-o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlaydi. Topshiriqda berilgan muammoli vaziyatni yechimini topishda o'quvchilar dars mavzusi asosidagi ma'lumotlarga hamda ijodiy tafakkurga tayanishi muhim talab hisoblanadi. Topshiriq vaziyatlarini yanayam qiziqarli bo'lishi uchun o'quvchilarning ertaklardagi va zamonaviy qahramonlari bilan nomlashdan foydalanish mumkin. Topshiriq bajarilgach o'quvchilar o'z fikr va natijaviy mahsulotlarni sinf jamoasi yoki katta auditoriyalarda taqdimot etishi kerak bo'ladi. So'nggi bosqichda o'quvchilar o'z fikrlarini erkin bayon etishni, bajargan vazifalari va jarayonni izohlash asosida mustaqil pozitsiyaga ega bo'lish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishadi. O'quv jarayoni darslari hamda sinfdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tabdirlar jarayonida biz tomondan ishlab chiqilgan «Think tank» metodikani qo'llash orqali bir qator samarali natijalarga erishdik.

Xulosa. Maktab partasidan boshlab huquqiy savodxonlik, huquqiy ongni shakllantirish zaruriy ehtiyoj, ya'ni mohiyatan huquqiy madaniyat biz mustaqil yurtimizda yaratmoqchi bo'lgan fuqarolik jamiyatining muhim negizi hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini huquqiy tarbiyalash – o'z mustaqil fikriga, o'zining qat'iy, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega qilib shakllantirishning samaradorligi, albatta, yuksak darajada tashkil etilgan pedagogik faoliyatga bog'liqligi azaliy haqiqatdir. Huquqiy tarbiyaga doir ishlar oiladan boshlansa va bu ish barcha o'quv ta'lim muassasalarida pedagoglarimiz tomonidan yangicha va zamonaviy ta'lim metodlari va vositalari asosida mustahkamlansa, albatta, o'z samarasini beradi. Bolalikning beg'ubor qalbilariga singdirilgan har qanday ezgu fikr katta bo'lgach, o'z

natijasini berishi shubhasiz. Hozirda kuchli huquqiy davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari qat'iy qadam tashlayotgan yurtimizda yosh avlod kelajagi yo'lida qilinayotgan ishlar behisob. Chunki, buyuk kelajakni aynan faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, zamonaviy fikr va intellektga ega yoshlar quradi. Shu sababdan boshlang'ich sinf o'quvchilarni huquqiy savodxonligini shakllantirishga doir pedagogik jarayonga kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda biz taklif etayotgan ta'lim metodi o'qituvchilarga o'z mas'uliyatli vazifalarini samarali bajarishda muhim ko'makchi bo'la oladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-apreldagi 342-son «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - T., 2019. - 09/19/342/2995-son.
2. Малко А.В., Козарев В.В., Матузов Н.И. Теория государства и права. - М.: Юрист, 2001. - 122-с.
3. <https://elar.urfu.ru/handle/10995/186>
4. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi, 2006. - 160 b.
5. Tuychiyeva H.N. Shaxs huquqiy ongini shakllantirishda huquqiy ta'limning o'rni va uning ilmiy-amaliy muammolari: Yur. fanl. nomz. ... Dis. - T., 2009. - 46-b.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. - T.: O'qituvchi, 1992.

O'SMIRLARDA DINIY IDENTIFIKATSIYA NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XARAKTERISTIKASI

Kubayev Ma'ruf Qosim o'g'li, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti, Maratov Temur G'ayrat o'g'li, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarda diniy identifikatsiya namoyon bo'lishining turli psixologik yondashuvlarda tahlili, diniy identifikatsiyani shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillar haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: shaxs diniy identifikatsiyasi, dindorlik, diniy ong, «shaxsiyat» tushunchasi, axloqiy motivlar, ijtimoiy aloqalar, ijtimoiy me'yor.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЛИГИОЗНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ У ПОДРОСТКОВ

Кубаев Маруф Косим угли, докторант международной исламской академии Узбекистана, Маратов Темур Гайрат угли, преподаватель Ташкентского международного университета Кимё

Аннотация. В данной статье проведён анализ проявления религиозной идентичности у молодежи в различных психологических подходах, а также раскрыты социально-психологические факторы, влияющие на формирование религиозной идентичности.

Ключевые слова: религиозная идентификация личности, религиозность, религиозное сознание, понятие «личность», нравственные мотивы, общественные отношения, социальные нормы.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF RELIGIOUS IDENTIFICATION IN ADOLESCENTS

Kubayev Maruf Kosim ugli, doctoral student of the International islamic academy of Uzbekistan, Maratov Temur Gayrat ugli, teacher of Kimyo international university in Tashkent

Abstract. This article deals with the analysis of the manifestation of religious identity in young people in different psychological approaches, and the socio-psychological factors influencing the formation of religious identity.

Key words: religious identification of a person, religiosity, religious consciousness, the concept of «personality», moral motives, social relations, social norms.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda diniy identifikatsiyaning inson uchun nechog'li ahamiyatga ega ekanligini baholash murakkab, chunki u hayotda yashash mohiyati va inson «men»ining mazmunini bilish bilan bog'liq hodisa sanaladi. Diniy identifikatsiya shaxs tarixiy taraqqiyoti va madaniyatning uzluksizligini ta'minlab, axloqiy motivlar asosida shakllangan jamoalar va guruhlariga mansubligini aniqlaydi. Bundan tashqari psixologiyada diniy identifikatsiya tushunchasi «jamoaviy va individual o'z-o'zini anglash shakli» sifatida tushuniladi, bu ma'lum diniy dogmalar yordamida o'zi va uning atrofidagi dunyo haqida g'oyalarni shakllantiradigan dinga mansubligini anglashni aks ettiradi. Shaxsning o'z-o'zini anglash shakllaridan biri sifatida diniy identifikatsiya boshqa identifikatsiya turlarining shakllanishiga ta'sir qiladi.

Asosiy qism. Tadqiqotchi S.J.Dollingerning ta'kidlashicha, shaxs diniy identifikat-siyasi shaxsga yaxlitlik va o'ziga xoslikni bera oladigan, ajralmas va yagona ijtimoiy-psixologik ta'limot bo'lib, u qadriyatlar asosida shakllanadigan ong va ijtimoiy normalar, idrok, ijtimoiy

rollarni qabul qilish, ijtimoiy guruhlariga qo'shilish orqali o'z-o'zini anglashda namoyon bo'ladi [1]. O.M.Artemenkoning ta'kidlashicha, ko'pincha diniy identifikatsiya shaxs dindorligini o'rganish orqali ko'rib chiqiladi [2]. Shu bilan birga, L.Adkins, E.Lyuis va S.Gledning kabi bir qator tadqiqotchilar dindorlikni Xudoning mavjudligi, insonga xos xatti-harakatlar va diniy ong bilan bog'liq individual diniy e'tiqodlarning to'plami va mazmuni sifatida tavsiflashadi [3]. Demak, dindorlik shaxsning dinga nisbatan munosabat darajasini aks ettiradi: masalan, diniy bilim darajasida e'tiqodlar orqali xulq-atvor darajasida diniy arkonlarni bajarish, ya'ni ibodat qilishi, marosimlarda qatnashish, ibodat joylarini ziyorat qilish va boshqalarda namoyon bo'ladi. Kaliforniya universiteti professori R.A.Emmonsning fikricha, hissiyotlar bilan bevosita bog'liq shaxs dindorligi ongsiz sohada yotadi, bu esa, uni obyektiv usullar bilan o'rganishni murakkablashtiradi. So'nggi o'n yilliklarda o'tkazilgan tadqiqotlarda din alohida mustaqil omil sifatida odamlarning xulq-atvoriga ta'sir qilishi mumkinligi isbotlanmagan degan fikr shakllandi. Tadqiqotchilar M.Argil va P.Hillarning fikricha, ko'pchilik odamlar dinni ongli ravishda tanlamaydilar, balki uni oiladan boshlab, sotsializatsiya va tarbiya jarayonida, bolalikdan ularga taklif qilingan narsaga amal qilgan holda qabul qilishlari bilan bog'liqdir. Biroq, haqiqatan ham dinni ongli ravishda tanlaganlar uchun, diniy munosabatlarning dunyoqarash e'tiqodlari va ijtimoiy munosabatlarga o'xshashligi hal qiluvchi omil hisoblanadi [4]. Demak, odamning dindorligini diniy jamoa a'zolari bilan ijtimoiy aloqadan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi.

Shaxsni o'rganishning nazariy tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxs diniy identifikatsiya-sining mazmuni ichki psixologik xususiyatlar (ehtijoj-motivatsiya va emotsional holatlari, o'ziga bo'lgan munosabat, onging psixosemantik komponentlari) va ijtimoiylikni ta'minlovchi tashqi sharoitlarning (shaxslararo munosabatlar tizimidagi mavqeyi va holati, shaxslararo o'zaro munosabatlarning xususiyatlari) kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Y.M.Perevozkin, N.V.Dmitriyeva, N.A.Samoilik, S.B.Perevozkin, I.E.Sokolovskaya kabi bir qator tadqiqotchilar ijobiy diniy identifikatsiyaga ega shaxslar faol ijtimoiy muloqotga intilishadi degan xulosaga kelishgan. Ijobiy identifikatsiya asosida kognitiv funksiyalarning adekvat ishlashi shakllanadi, masalan: shaxsning o'ziga nisbatan ishonchi kuchayadi, shuningdek, xatti-harakatlarda ichki erkinlik va mustaqillik tuyg'usini tez-tez namoyon qiladi, boshqalar bilan munosabatda sezgir va e'tiborli bo'lishga harakat qiladi. Bunday xatti-harakatlar diniy identifikatsiyaning rivojlanishi bilan shaxsning ham biologic, ham ijtimoiy hayoti ijobiy tomonga o'zgarishni boshlaydi. Aksincha, salbiy diniy identifikatsiyaga ega bo'lgan odamlarda boshqalar bilan ijtimoiy aloqalarni o'rnatish murakkablashadi, qo'llab-quvvatlashga moyillik oshadi, shaxslararo munosabatlarda psixologik yaqinlikdan qochish holatlari vujudga kela boshlaydi [5]. AQSh tadqiqotchisi P.Verbneming ta'kidlashicha, diniy identifikatsiya biror dinga bog'liq g'oyalarni va qadriyatlarni o'zini deb bilish va jamoaga mansubligini anglatuvchi «diniy ong»ning o'ziga xos kategoriyasi sanaladi. Bundan tashqari, diniy identifikatsiya shaxsiy va ijtimoiy qutblar bilan ajralib turadigan 2 xil tabiatga ega: individual va guruhii [6]. Bu kabi qarashlar zamonaviy din psixologiyasida diniy e'tiqod va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarining shakllanishi va namoyon bo'lishi, bir so'z bilan aytganda, an'anaviy qarashlarga javoban amalga oshiriladigan ijtimoiy va madaniy sharoitlarni o'rganishga olib keldi.

Shaxs shakllanishida dinning ahamiyatiga doir qarashlar islom diniga oid manabalarda ham mufassal o'rganilgan. Shaxs atamasi islom kontekstida «shaxsiyah» atamasi bilan sinonimdir. «Shaxs» atamasi arabcha «شخص» so'zining ko'pligidan kelib chiqqan bo'lib, shaxslarning farqlovchi xususiyatlarini bildiradi. Shaxs atamasini jismoniy va psixologik mexanizmlar tizimi hamda inson ruhiga integratsiyalashgan mentalitet sifatida tilga oladi. Abu Homid G'azzoliy tomonidan shaxs so'zining tafsilotini tushuntirishda axloqiy falsafiy nuqtayi nazardan ta'kidlanadi [7]. Muallifga ko'ra, shaxs atamasi dinamik xarakterga ega

bo'lib, baholash va tarbiyalash mumkin bo'lgan xatti-harakatni belgilaydi. Shaxsiyatning jismoniy va axloqiy dinamikligi inson qalbida qiziqarli odatlarni shakllantiradi. S.H.Nosirga ko'ra, «shaxsiyat» atamasi fikrlar, his-tuyg'ular, niyatlar, istaklar, munosabatlar, madaniyat hamda ijtimoiy normalari bilan chambarchas bog'liq [8]. Bundan ko'rinadiki, diniy identifikatsiya shaxsning dunyoqarashida, niyat-istaklarida, munosabatlarida va ijtimoiy normalarni qay darajada qabul qilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotchi A.Abdullohning ta'kidlashicha, «shaxsiyat» so'zi insonning har bir harakatida mavjud bo'lgan turli narsalarni anglatadi. Muallif ularni quyidagi komponentlarga ajratib ko'rsatadi: السجية – temperament; الطبع – xulq-atvor, asosiy xarakter; العادة – odatlar. Barcha komponentlar umumiy shaxsiyatni tashkil qiladi. Islom ulamolari shaxsiyatni yaxshilik yoki yomonlikni odamning qadr-qimmatiga, ruhiyatiga ta'sir qilgan xulq-atvorning in'ikosi sifatida tasvirlashadi. Bir qancha islom ulamolari shaxsiyatning yangi ilmiy jihatlarini tushuntirib, uning mohiyatini izohlashda his-tuyg'u, motivatsiya va shaxs aks ettirgan har bir harakatga munosabatni e'tiborga olishadi. Shu bilan birga, shaxs ham ta'sir ko'rsatadigan tashqi elementlar ijtimoiy muhit, madaniyat, oila instituti va ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida olingan bilimlar ham nazarda tutiladi. Shuningdek, halollik, sabr-toqat, sobitqadamlik, yuksak fikrlilik, shukronalik, mardlik va rahmdillik xususiyatlari shaxsni ifodalaydi. Shuning uchun islom dinidagi shaxs o'ziga xos kamtarlik, va'daga vafo, rostgo'y, jasur va ishonchli bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqotchi M.Yunusning [9] ta'kidlashicha, shaxsning barcha xususiyatlari uning estetik xatti-harakatlarini aks ettiruvchi odatlardan kelib chiqqan bo'lib, diniy identifikatsiya umumiy, qarama-qarshi, bir-birini almashtirishga va to'ldirishga moyil bo'lgan xususiyatlarining dialektikasida namoyon bo'ladi. Bir tomondan, din, diniy me'yorlar, haqiqat, ta'limga bilan to'ldirilgan identifikatsiya jarayonining mazmuni bo'lib, insonga o'zini, hayotdagi o'rni topishga yordam beradi, shuningdek, ekzistensial xarakterdagi ba'zi savollarga javob beradi. Boshqa tomondan, din identifikatsiyalash jarayonining quroli bo'lib, insonning ijtimoiy guruhga (millat, mamlakat, urug') mansubligini anglash va aniqlashga yordam beradi. Identifikatsiya jarayonida zarur va muhim bo'lgan ushbu jamoa tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy xulq-atvor an'analari, normalarni yetkazish va saqlashga undaydi [10].

Abu Homid G'azzoliy shaxsiyat xususiyatlarini islom falsafasi kontekstida har tomonlama asoslab beradi. Ma'lumki, identifikatsiya masalasi dastlab insonning mohiyati, o'zligini anglash sifatida tushunilgan bo'lib, g'arb falsafasida ham, sharq falsafasida ham ushbu qarash mushtarak ma'no-mazmunga ega. Aynan G'azzoliy islom falsafasi yordamida buni quyidagicha tushuntiradi. G'azzoliy o'zining «Ihyoi ulum ad din» asarida muhabbatni inson hayotining mazmuni va bir bo'lami deb hisoblab uning 5 turini ko'rsatib o'tadi. Ular: 1) insonning o'ziga o'z kamoloti va sog'omonligiga muhabbati; 2) insonning o'z hayotini davom ettirishni ta'minlovchi uni asrovchi undan turli halok etuvchilarni nari tutuvchi vali ne'matlariga muhabbati; 3) insonning garchand o'ziga yaxshilik qilmagan bo'lsa ham boshqa insonlarga xizmat ko'rsatgan yaxshilik qilgan zotlarga muhabbati; 4) insonning tashqi yoki ichki qiyofadagi barcha go'zallikka muhabbati; 5) insonning o'zi bilan botiniy yashirin o'xshashligi bor bo'lgan zotlarga muhabbati [11]. G'azzoliy bu fikri bilan insonning o'z-o'ziga muhabbati bilan ichki botiniy muhabbati orasida bilvosita bog'lanish borligini ko'rsatib, buyuk muhabbatga inson nafsdan kechish va komillik yo'lini tanlaganidagina yetishish mumkinligini ta'kidlaydi.

Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda, aytish mumkinki, diniy identifikatsiya dinni to'g'ri tushunish, anglash, boshqa dinlarga nisbatan bag'rikeng munosabatda bo'lishni

anglatadi. Uning turli ta'sirlar natijasida noto'g'ri shakllanishi shaxsni yot ta'sirlarga oson aldanib qolishi, radikal va mutaassib qarashlari bilan jamiyatga havf keltirishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun yoshlarni yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishini oldini olish, ijtimoiy xatar guruhiga kiruvchi yoshlarda ijtimoiy-psixologik immunitetni shakllantirish uchun quyidagilarni e'tiborga olish tavsiya etiladi: pedagoglar, psixologlar va diniy soha vakillarining ilmiy-ijodiy faoliyatini kuchaytirish maqsadida jamiyatdagi dolzarb mavzular bo'yicha risola va maqolalar tayyorlash; ijtimoiy xatar guruhiga kiruvchi yoshlar bilan profilaktika ishlarini tizimli olib borishni yo'lga qo'yish; psixolog mutaxassislarini jalb qilgan holda mahalla fuqarolar yig'inlarida uyushmagan yoshlar va vaqtincha ishsiz shaxslar bilan psixologik targ'ibot tadbirlarini tashkil etish; yoshlarni yot g'oyalar ta'siriga berilib ketishiga qarshi kurash, maktab, oliy va professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchi yoshlarni autodestruktiv holatlarini oldini olish yo'nalishlarida tizimli ijtimoiy-psixologik treninglarni tashkil etish samarali ntijalar berishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Dollinger S.J. Religious identity: an autophotographic study // *The International Journal for the psychology of religion*. - 2001. - T. 11. - № 2. - С. 71-92.
2. Артеменко О.М. Религиозная идентичность личности как психологический феномен // *Академическое исследование и концептуализация религии в XXI веке: традиции и новые вызовы: Сборник материалов III конгресса российских исследователей религии*. В 6 т. Т. 3. ? Владимир: Аркаим, 2016. ? 312 с.
3. Шорохова В.А. Религиозная идентичность в зарубежных психологических исследованиях: теоретические модели и способы изучения // *Социальная психология и общество*. - 2014. - Т. 5. - № 4. - С. 44-49.
4. Argyle M., Hills P. Religious experiences and their relations with happiness and personality // *The international journal for the psychology of religion*. - 2000. - Т. 10. - № 3. - С. 157-172.
5. Дмитриева Н.В., Короленко Ц.П., Перевозкина Ю.М. Организационная идентичность как аддиктивная фиксация // *Сибирский педагогический журнал*. - 2012. - № 3. - С. 162-166.
6. Werbner P. Religious identity // M.Wetherell & CT Mohanty the SAGE handbook of identities. - 2010. - С. 233-257.
7. Safii, Safii. Ibn Miskawaih: Filsafat al-nafsdan al-akhlaq // *Jurnal Theologia*. Vol. 25. No. 1, 2014.
8. Nasr, Seyyed Hossein. Islamic spirituality: foundations. - London and New York: Taylor & Francis Group, 2013.
9. Yunus M. et al. The importance role of personality trait // *International Journal of academic research in business and social sciences*. - 2018. - Т. 8. - № 7. - С. 1028-1036.
10. Крылов А.Н. Религиозная идентичность: индивидуальное и коллективное самосознание в постиндустриальном пространстве. - 3-изд. доп. и перераб. - М.: ИКАР, 2014. - 356 с.
11. Диноршоев М. Абу Хамид Мухаммад ал-Газали и его "Опровержение философов". - Душанбе, 2002.

TA'LIM MUASSASASI BOSHQARUVIDA RAHBAR IMIJINI SHAKLLANTIRISH

Usmonova Aziza To'liqin qizi, A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti doktranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim muassasasi rahbarining imijini shakllantirishda muassasa boshqaruv samaradorligiga ta'sir etish jihatlari, rahbar imijini yaratishning pedagogik-psixologik yondashuvlar asosida tahlili berilgan. Imijini shakllantirish ko'p tarkibli komponentlar va o'ziga xoslikdan iborat bo'lib, tashqi, ichki va kasbiy faoliyat bilan bog'liq holatda namoyon bo'lishi, shuningdek, ta'limga bo'lgan talablarning o'zgarib borishi sharoitida rahbarning professional tarzda yaratilgan imiji nafaqat tadbirkorlik faoliyatida, balki, ta'lim muassasalarining raqobatdoshligi va samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynashi masalalari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: *imij, rahbar imiji, rahbar imijining pedagogik-psixologik hususiyatlari, ta'lim muassasasi.*

**ФОРМИРОВАНИЕ ИМИДЖА РУКОВОДИТЕЛЯ В УПРАВЛЕНИИ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ УЧРЕЖДЕНИЕМ**

Усмонова Азиза Тулкун кизи, докторант Национального научно-исследовательского института повышения квалификации учителей и обучения новым методикам имени А.Авлони

Аннотация. В данной статье описано формирование имиджа руководителя образовательного учреждения на основе педагогических и психологических подходов. Формирование имиджа состоит из многих компонентов и идентичности, проявляющейся во внешних, внутренних и профессиональных деятельностных ситуациях. В условиях меняющихся требований к образованию профессионально созданный имидж руководителя играет важную роль не только в предпринимательской деятельности, но и в повышении конкурентоспособности и эффективности образовательных учреждений.

Ключевые слова: *имидж, образ лидера, педагогико-психологические особенности образа лидера, образовательное учреждение.*

**FORMATION OF THE IMAGE OF THE HEAD IN THE MANAGEMENT
OF AN EDUCATIONAL INSTITUTION**

Usmonova Aziza Tulkun qizi, researcher at the National research institute for advanced training of teachers and teaching new methods named after A.Avloni

Abstract. In this article, the formation of the image of the head of an educational institution is analyzed on the basis of pedagogical and psychological approaches. Image formation consists of multicomponent components and identity, manifested in external, internal and professional activity situations. In the context of changing requirements for education, a professionally created image of a leader plays an important role not only in business activities, but also in increasing the competitiveness and efficiency of educational institutions.

Key words: *image, image of a leader, pedagogical and psychological features of the image of a leader, educational institution.*

Kirish. Maktab ta'limining mazmunan rivojlana borishi, ta'lim tizimidagi yangiliklar bugungi kun rahbaridan har tomonlama yetuk kadr bo'lishni taqozo etadi. Rasmiy

munosabatlarda rahbar imijining ahamiyati toboro oshib bormoqda. Imij tushunchasi keng qamrovli tushuncha sifatida izohlanadi. Jamiyatning turli soha vakillari va tashkilotlari uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan bu tushuncha ta'lim tashkilotlari uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim muassasasi rahbari - bu doimo nazarda bo'lgan, keng qamrovli boshqaruvchidir. Uning boshqaruv faoliyati samaradorligini ifodalay oluvchi imijga ega bo'lishi jamoatchilikka ta'sir ko'rsatishning muhim omili hisoblanadi. Rahbar imijini shakllantirishda tashqi ko'rinish ta'siridan tortib, uning shaxs sifatidagi yetukligi, professional va boshqaruv mahoratiga ega ekanligigacha nazarda tutiladi.

Asosiy qism. Imij – bu potensial talablarga javob beradigan va ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun tegishli bo'lgan jihatdir. Psixologlarning bir necha bor e'tirof etishicha, o'ntadan sakkiz xolatda birinchi taassurot tashqi ko'rinishga asoslanar ekan. Imij yaratishda tashqi ko'rinish muhim, ammo yagona jihat emas. Shuningdek, ichki va protsessual komponentlar ham mavjud. Aytishganidek, «boshdan oyoq», ya'ni oyoq kiyimdan soch turmagigacha, kiyinish odobi, jestlar, yuz mimikalari va ovoz ohangi, odob-axloq kabi tushunchalarning barchasi muhim komponentlardir. Imijni shakllantiruvchi ichki omillarga xalqimizga xos xos qadriyatlar, kishining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, professional salohiyati, o'ziga nisbatan talabchanlik, halollik, mas'uliyatlilik, javobgarlik, qiziqishlar kabi ong va ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan jihatlarni kiritish mumkin.

Shuningdek, ta'lim muassasasi rahbarining imijini shakllantirishdagi mafkuraviy yetuklik ham muhim. O'z g'oyasiga ega bo'lmagan rahbar jamiyatda ham o'z o'rmini topa olmagan kishi kabidir. Ta'lim muassasasi rahbarining imijini shakllantirishda uning boshqaruv usuli, kommunikativlik, hamkorlarni jalb qilish qobiliyati bilan ta'lim muassasasi boshqaruv siyosatini yo'lga qo'yishi talab etiladi. Ichki imij ta'lim muassasasi rahbarining ishchi xodim bilan o'zaro munosabatga kirishish jarayonida aniqroq namoyon bo'ladi. Rahbar xodim o'z ijobiy qiyofasini shakllantirishga harakat qilmog'i va bunga o'z imijini yaratish bilan ta'sir qilmog'i lozim. Bularning barchasida kasbiy-pedagogik faoliyatini ifodalab turuvchi o'ziga xoslik aks etib turishi kerak. Imij yaratish jarayoni ko'p qirrali va murakkabdir. Balki har bir detal ayni ahamiyatli bo'lishi mumkin. Hususan, kiyinish stili va tashqi ko'rinish, boshqaruv va muvaffaqiyat hissini berib turadigan ichki did va aksessuarlar. Har qanday noto'g'ri tashlangan qadam ta'lim muassasasi rahbariga nisbatan ishonchsizlikka sabab bo'lishi mumkin. Rahbar imijidagi nozik jihatlar: u betakror tashqi ko'rinishga ega bo'lishi mumkin, ammo ishbilarmonlik qobiliyati, etiketi, yoki maqsadni amalga oshirishda intiluvchanlik hususiyati yetishmasligi teskari reaksiya uyg'otishga sabab bo'ladi. Jamoatchilikning e'tiborini tortish maqsadidagi yaratilgan imij muvaffaqiyat keltirishi, yoki ta'lim muassasasi rahbariga nisbatan ishonchsizlikni yuzaga keltirishi ham mumkin. Bunga imij ustida to'liq ishlamaslik, tashqi ta'surotning kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayoniga muvofiq emasligini misol keltirish mumkin. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda jamoatchilik e'tiborini torta olish bilan mavjud vaziyatni o'nglab olish, muvaffaqiyatga erishish mumkindir, ammo ta'lim xizmatlarini sifatli tashkil qilish va barqarorlikka erishishga intilish bilangina ta'lim muassasasi rahbarining ijobiy imijini, raqobatdoshligini saqlashga erishiladi.

Imij - bu ichki ruhiy xolatni oqilona boshqara olish hamdir. Ta'lim muassasasi rahbari imijida betakror tashqi ko'rinish, rasmiy kiyinish usuli va rasmiy etiket bevosita bir-birini to'ldira boradi, imij doimiy yoki vaziyatga xos bo'lishi mumkin. Vaziyatga xos imij ta'lim muassasasi rahbarining ma'lum bir vaziyatlarda, rasmiy uchrashuvlar, yig'ilishlar,

pedagogik kengashlar, taqdimot marosimlari yoki turli jamoaviy yig'inlarda namoyon bo'ladi. Norasmiy munosabatlar holatida rahbar o'zini erkinroq tutishi va ammo, vaziyatni oldindan ko'ra bilishi, shunga muvofiq harakat qilishi lozim. Rahbar imijining asosi, uning shaxs sifatidagi hususiyatlari – axloqiy fazilatlar, professionallik va tadbirkorlik qobiliyati, tashqi ta'surot uyg'otish (shaxsiy joziba, xulq-atvor va madaniyatlilik) kabi jihatlarning barchasi tashkilot va rahbarning boshqaruv faoliyatini baholashga imkon yaratadi. Ta'lim muassasasi rahbari shaxsining integral xarakteristikasi sifatida imij yaratishda ijobiy ishbilarmonlik imijini namoyon etmasdan, muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat va jamiyatdagi mavqeyga ishonish qiyin ekanligini ko'rsatadi [1, 235-b.].

Ta'lim muassasasi rahbari imijining psixologik hususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: ijobiy xarakter, pozitiv fikrlash va ziddiyatlardan yiroqlik; moslashuvchanlik – tashqi ziddiyatlarni to'g'ri qabul qila olish; harakat izchilligiga ega bo'lish; ma'naviy-marifiy yetuklik; emotsionallikni ifodalash, hazil-mutoyiba tuyg'usiga egalik.

Pedagogik jihatdan ta'lim muassasasi rahbari imiji kasbiy-pedagogik faoliyati bilan izohlanadi. Rahbar imijini shakllantirishda nafaqat uning «Ta'lim muassasasi rahbari» kasb standarti talablarini amalga oshirishdagi kasbiy-pedagogik bilimlarga ega bo'lishi, balki, rahbarning mehnat faoliyati mazmunini ham kengaytirish talab etiladi. Demak, ta'lim muassasasi rahbari o'zining liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishi, liderlik kompetensiyasiga ega ekanligini ko'rsata olishi, o'z ustida doimiy ishlashi lozim, bu an'anaviy subyekt-obyekt munosabatlariga asoslangan boshqaruvdan subyekt-subyekt munosabatlariga asoslangan boshqaruvga o'tish sharoitida muhim ahamiyat kas etadi. Boshqaruvning bunday ko'rinishi xodimlarga muassasa faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hayotiy muammolarni hal etishda rahbar bilan tenglik asosida hamkorlikda ishlash imkonini yaratadi [2, 2-b.].

Ta'lim muassasasi rahbari imiji haqida gap ketganda, avvalo, uning pedagog ekanligiga e'tibor qaratish lozim, imijini shakllantirishda ham pedagogik hususiyatlar mavjud bo'lishi kerak. So'ngi vaqtlarda axborot texnologiyalarning insoniyat hayotiga ta'siri tobora ortib bormoqda. Ilm-fan taraqqiyoti, axborot bozorining jadal rivojlanishi va ularning ommaviyligi menejerga ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhitda uning ijobiy professional imijini shakllantirishda yuqori sifat darajasiga erishish imkonini beradi. Yangi axborot texnologiyalari tahlili shuni ko'rsatadiki, rahbar imijini shakllantirishda «Web-texnologiyalar»dan, hususan, «Web-potrfolio»dan foydalanish katta samara beradi.

Mutaxassislar pedagog imijini shakllantirishda rahbar imijiga ham xos quyidagi jihatlarni keltiradi: tashqi imij - kiyinish uslubi, jestlar, yuz mimikasi, soch turmagi, nutqning o'ziga xosligi, tovush ohangining o'ziga xosligi kabilarning barchasi rahbar haqida ijobiy tasavvur uyg'otishga qaratilgan bo'lishi lozim; faoliyatga doir imij – atrofdegilar uchun kasbiy bilimlarga ega ekanligini ko'rsata olish. Ya'ni, ta'lim-tarbiya metodikasini yaxshi o'zlashtirganlik, ta'limni raqamlashtirish davrida o'quv jarayonini tashkil etish, pedagogik faoliyatdagi muammolarni tezkor xal eta olish qobiliyati, yangi texnologiyalardan samarali foydalana olishi muhim ahamiyatga ega. Muloqot madaniyatiga egalik, suhbat, munozara olib borish mahorati, suhbatdoshning fikrini xurmat qilish. Zamonaviy ta'lim talablari va ta'limga bo'lgan ehtiyojning o'zgarib borish sharoitida kreativ yondashuv olib borish; ichki imij – rahbarning ma'naviy intellektual salohiyati, qiziqishlari, qadriyatlar va shaxsiy maqsadga ega ekanligi bilan bog'liq ichki olamidir [3, 320-b.; 4, 84-b].

Rahbar imijini shakllantirishda mafkuraviy kompetentlilik, yangiliklardan doimiy xabardor bo'lish, oqilona qarorlar qabul qila olish, nizoli vaziyatlarda oqilona yechim

berish, marketing sohasida kompetentlikka ega bo'lishi bilan ta'limdagi tendensiyalar va raqobat muhitida samarali ishlay olishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagogika sohasida ta'lim olayotgan talabar bo'lajak o'qituvchi sifatida menejment asoslarini bilishlari lozimligi talabi bilan ularning ta'lim muassasasi rahbari imijini shakllantirish masalasida fikrlari o'rganilgan. Bo'lajak pedagog kadrlar, – ta'lim muassasasi rahbari imijini shakllantirishda, avvalo, kasbiy mahorat – kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, shuningdek, tashkilotchilik mahorati – pedagogik jamoa, o'quvchi va ota-onalar bilan hamkorlik qilish mahorati, ishbilarmonlik fazilatlarini – tadbirkorlik qobiliyati, ish samaradorligi – mehnatga munosabat, tashabbuskorlik, shaxsiy boshqaruvchanlik, axloqiy fazilatlar – ma'naviy-marifiy yetuklik, mehnatsevarlik – davomli va qizg'in ish olib borish, siyosiy madaniyat – davlat va jamiyat manfaatlarini anglash, keng qamrovli fikr yuritish kabi hususiyatlarga ega bo'lish lozim, degan fikrlarni bildirganlar.

Bugungi pedagogik tadqiqotlarda katta yoshdagilarni o'qitish amaliyotida mustaqil ta'lim, intensiv ta'lim, loyiha ishi, modulli, faol ta'lim, kouching kabi ta'lim texnologiyalari qo'llash zararati asoslab berilmoqda. Rahbar kadrlarni tayyorlashda ham turli ta'lim texnologiyalarini qo'llash jarayonida rahbarning o'z imijini yaratish ustida ishlashi uning ijodiy faolligi va o'z-o'zini anglash imkoniyatiga bog'liq ekanligi nazarda tutiladi. Ayni vaqtda mutaxassis olimlar ta'lim texnologiyalarining turli kriteriyalarini taklif qiladilar: maqsadga ko'ra, harakat yo'nalishiga ko'ra, ta'lim bosqichlari tashkil etilishiga ko'ra va boshq.

Xulosa. Ta'lim muassasasi xodimlari, hamkor muassasalar jamoatchiligi, o'quvchilar, ota-onalarning muassasa faoliyatiga munosabati qanday bo'lishi ham bevosita muassasa rahbarining shaxsiy imijini qanday «yaratgan»ligiga bog'liqdir. Yuqorida aytilganidek, rahbar imijini shakllantirish jarayonida uning salohiyati, ijodkorligi va zamonaviy axborot texnologiyalarini qanchalik egallaganligi yanada yorqin nomoyon bo'laveradi. Imijga ega bo'lish umumta'lim muassasasi rahbari faoliyatining har qanday davrida, qolaversa, kasbiy muvaffaqiyatga erishishida asosiy natijaviylikni ifodalaydi.

Adabiyotlar:

1. Березина Д.В. Психологические условия формирования имиджа руководителя учреждения образования: Дис. ... канд. психол. наук. - Новосибирск, 2006. - 235 с.
2. Хачикян Е.И., Заборина М.А., Фролова Е.А. Имидж современного руководителя образовательной организации: психолого-педагогический аспект: КиберЛенинка.
3. Митина Л.М. Психология труда и профессионального развития учителя. - М.: Академия, 2004. - 320 с
4. Опфер Е.А. Имидж современного педагога. - Волгоград: Принт, 2017. - 84 с.

REFLEKSIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MADANIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING ZARURIYATI

Xolbo'tayeva Dilfuza, O'zPFITI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada refleksiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda madaniy dunyoqarashni shakllantirishning zaruriyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bo'lajak o'qituvchilarga madaniy dunyoqarashni shakllantirishda refleksiv yondashuvning qanchalik zarur ekanligi, refleksiyalash ko'nikmasi bo'lajak o'qituvchilarga lozim ekanligi tushuntirilgan.

Tayanch so'zlar: *refleksiv yondashuv, madaniy dunyoqarash, refleksiyalash ko'nikmasi, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, bo'lajak o'qituvchi, innovatsion.*

ВОСТРЕБОВАННОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ КУЛЬТУРНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ НА ОСНОВЕ РЕФЛЕКСИВНОГО ПОДХОДА

Холботаева Дильфуза, базовый докторант УзНИИПН

Аннотация. В данной статье представлена информация о необходимости формирования у будущих учителей культурного мировоззрения на основе рефлексивного подхода. Будущим учителям объясняется, насколько необходим рефлексивный подход к формированию культурного мировоззрения, навыки рефлексии необходимы будущим учителям.

Ключевые слова: *рефлексивный подход, культурное мировоззрение, рефлексивный навык, критическое мышление, креативное мышление, будущий учитель, новатор.*

THE NEED TO FORM A CULTURAL WORLDVIEW ON THE BASIS OF A REFLEXIVE APPROACH IN FUTURE TEACHERS

Kholbotaeva Dilfuza, base doctoral of UzSRIPS

Abstract. This article provides information on the need to form a cultural worldview in future teachers on the basis of a reflexive approach. It is explained to future teachers how necessary a reflexive approach is in the formation of a cultural worldview, that the skill of reflexion is necessary for future teachers.

Key words: *reflexive approach, cultural worldview, reflexive skills, critical thinking, creative thinking, future teacher, innovation.*

Kirish. Shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarning mavjud bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik refleksiyani talab etilgan darajada rivojlantirish natijasida o'z-o'ziga nisbatan munosabatni shakllantirish mumkin [1]. Refleksiyaning yetishmasligi natijasida bo'lajak o'qituvchilar o'z imkoniyatlari va rivojlanish darajasini munosib baholay olmaydilar. Bo'lajak o'qituvchilarning o'z ko'nikmalari mohiyatini anglashlariga to'sqinlik qiladi. Natijada, bo'lajak o'qituvchilar boshqalar, ayniqsa, o'quvchilarning aqliy jarayonlarini yetarlicha baholay olmaydilar. O'qituvchi refleksiya vositasida o'quvchining aqliy taraqqiyot darajasi, ushbu yo'nalishdagi bo'shliqni aniqlashi va ularning rivojlanish trayektoriyasini aniq belgilab olishi lozim [2]. Agar bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik refleksiyaning yetarlicha rivojlamaganligi tahlillar natijasida aniqlansa, bo'lajak o'qituvchilarga o'quvchilarning ichki olamini anglash, uning xatti-harakatlarini ijobiy tomonga o'zlashtirishga oid pedagogik bilimlarni taqdim etish talab qilinadi. Shundagina o'quvchilarda harakat motivlari va topshiriqlarni

bajarishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish uchun qulay sharoit vujudga keladi. Natijada, bo'lajak o'qituvchilarda aniqlangan sabab oqibatlar asosida o'z harakatlarini rejalashtirish ko'nikmasi shakllanadi.

Asosiy qism. Bo'lajak o'qituvchilar o'quv jarayoni samaradorligini va o'quv jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan omillarni yaxshi bilishlari alohida ahamiyatga ega. Refleksiyalash layoqatiga ega bo'lmagan o'qituvchilar o'quvchilarning rivojlanish darajasini ta'minlovchi metodikalarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'lmaydilar. O'qituvchi o'quv jarayoniga ijodiy yondasha olishi unda refleksiyalash layoqati yetarli darajada shakllangan bo'lishi alohida ahamiyatga ega.

O'quvchilarga o'qituvchining ko'rsatadigan ta'siri o'quv predmeti orqali amalga oshadi. O'quvchilar dastlab bir o'qituvchini ikkinchisidan jaratmaydilar. Ular barcha o'qituvchilarga birdek munosabatda bo'ladilar. Biroq, o'qituvchilar bilan o'quvchilar o'zaro yaqindan tanishganlaridan keyin ular orasida muayyan xarakterdagi shaxslararo munosabatlar vujudga keladi. Ayniqsa, o'qituvchilar o'quvchilarga nisbatan, ayniqsa, o'quvchilar o'qituvchilarga baho bera boshlaydilar. Ularga nisbatan qoniqish yoki qoniqmaslik hissi paydo bo'la boshlaydi. Nafaqat o'qituvchilarning xatti-harakatlariga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat bo'ladilar, balki ular o'qitadigan o'quv faniga nisbatan ham shu tarzda munosabatlarini namoyon qiladilar.

1) O'qituvchilarda shakllangan past darajadagi shaxsiy refleksiya ularning ichki hayoti va faoliyati mazmunini aniqlaydi. Natijada, o'qituvchilar o'zlarining ijodiy imko-niyatlari namoyon eta olmaydilar. Ularni shaxsiy va kasbiy rivojlanishning yuqori darajalariga erishmaydilar. Madaniy dunyoqarashlari yetarlicha taraqqiy etmaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'qituvchi kasbiy taraqqiyotining bir qancha refleksiyasi madaniy dunyoqarashning rivojlanishi bilan bog'liq. Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarning shakllanmaganligi tufayli ularning pedagogik kompetetililik darajasi to'laqonli tarzda shakllanmaydi. O'qituvchi-o'quvchi munosabat-larining o'ziga xos qonuniyatlarini bilish darajalari o'quv jarayonini tahliliy o'rganish ko'nikmalari yetarlicha shakllanmay qoladi. O'qituvchining ongini o'quvchilarga qaratish imkoniyatlari pasayadi. O'quvchining kasbiy ongida pedagogik voqelikni tahlil qilish mexanizmlari yetarlicha shakllanmaydi [3]. Natijada, o'qituvchi o'quvchi munosa-batlarining pozitiv imkoniyatlari pasayadi. Refleksiv faoliyatlarga oid ko'nikmalari rivojlanmagan o'qituvchilar o'quv axborotlarini namoyish etishda qiyinchiliklarga duch keladilar. O'qituvchi o'quv jarayonini refleksiyalashi asosida pedagogik faoliyatni amalga oshirsa o'quvchilarning o'zlashtirish darajalari o'quv jarayoni samaradorligini ifodalovchi ko'rsatgich sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarni kompleks rivojlantirishdan iborat. O'qituvchi birinchi navbatda o'quvchilarning intellektual layoqat-larini aniqlash layoqatiga ega bo'lishi kerak. Umumiy o'rta ta'lim tizimini rivojlantirishning umummilliy dasturida o'quvchilarning shaxsiy tajribasini boyitish, intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, mantiqiy, tanqidiy, kreativ fikrlash imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan [4]. Bo'lajak o'qituvchilarning madaniy dunyoqarashini rivojlantirish jarayonida ular xuddi shunday kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Bunday tajribaning mazmunini o'quvchilarning tasavvurlari, tushunchalari, aqliy, amaliy harakatlari, shuningdek, hissiy-emotsional jihatlari, shaxsiy sifatleri, madaniyatga oid bilimlari va hatti-harakatlari tashkil etadi. Mazkur xarakterdagi pedagogik jarayonni tashkil etish uchun o'qituvchining kasbiy-madaniy dunyoqarashi rivojlangan bo'lishi lozim.

Madaniyatshunoslikka asoslangan o'quv jarayonini tashkil etish uchun o'qituvchidan keng ko'lamdagi kasbiy-madaniy dunyoqarashga ega bo'lish talab etiladi [5]. Bo'lajak o'qituvchining refleksiv layoqati esa, uning kasbiy-amaliy instrumenti hisoblanadi. Mazkur instrument yordamida quyidagi pedagogik vazifalarga yechim topiladi. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniy dunyoqarashning yetarli darajada rivojlanmaganligi o'quv jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatini pasaytiradi. Bu jarayonida refleksiyani rivojlantirish nafaqat pedagogik madaniyatni, balki, keng ko'lamli ijtimoiy pedagogik fikrni ham vujudga keltirishga ko'maklashadi. Ushbu muammoga muvaffaqiyatli yechim topish uchun tashqi va ichki shart-sharoitlarni aniqlash, uning tabiatini o'rganish taqozo qilinmoqda. Shundagina, bo'lajak o'qituvchilarda o'zining kasbiy-madaniy dunyoqarashini refleksiyalash ko'nikmalari shakllanadi. Bunda refleksiyaning pedagogik-psixologik asoslariga tayanish taqozo qilinmoqda. Shundagina, bo'lajak o'qituvchilarda o'z madaniy dunyoqarashini muntazam refleksiyalashni pedagogik imkoniyatlarini kengaytirishga erishiladi. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik refleksiyani rivojlantirish uchun uning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash kerak.

2) Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik refleksiyani rivojlantirish uchun refleksiv faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan maxsus mashg'ulotlar, seminar-treninglar o'tkazish talab etiladi. Refleksiv faoliyatning mazmun-mohiyatini talabalar anglab yetishlari uchun refleksiv mashqlardan tizimli tarzda foydalanish lozim. Chunki, refleksiv mashqlar bo'lajak o'qituvchilarni o'z madaniy darajalarini muntazam refleksiyalash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonning ustuvor maqsadlaridan biri bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-madaniy bilimlar va tajribalarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etishdan iborat. Shundagina, o'quv jarayonining tarkibi bilan bog'liq tarzda bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv faoliyatini tahlil qilish mexanizmlarini aniqlash ham o'z yechimini kutayotgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki, bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv faoliyati o'zining aniq tarkibiy tuzilishiga ega. Uning tarkibiy qismlari sifatida refleksiv faoliyat masadi, motivlari, mazmuni, muayyan hodisani tahlil qilish bilan bog'liq harakatlar, ko'nikmalar va natijalarni o'z ichiga oladi.

Shunga ko'ra bo'lajak o'qituvchining refleksiv faoliyati quyidagilar bilan tavsiflanadi:

1) Refleksiv faoliyatning o'ziga xosligi. Ya'ni, maqsadga yo'naltirilganligi, qayta shakllantiruvchilik xarakteriga ega ekanligi, muayyan narsa hodisa bilan bog'liqligi va anglanganligi, muayyan qurilish va usullarga ega ekanligi, faoliyat jarayoni va uning asosiy natijalari bilan tavsiflanadi. 2) Pedagogik jarayonda refleksiv muhitning mavjudligi. Refleksiv muhit deganda, bo'lajak o'qituvchi kasbiy-madaniy taraqqiyotining o'ziga xos shart-sharoitlari, ular oldida o'z-o'zini tadqiq qilish va o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritish imkoniyatining mavjudligi, ijtimoiy-psixologik hamda kasbiy manbalarning qulayligidan iborat. Refleksiv muhitning asosiy funksiyasi bo'lajak o'qituvchilarda refleksiyaga nisbatan ehtiyojni vujudga keltirishdan iborat.

Xulosa. Bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion xarakterdagi refleksiv faoliyatni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Bunday faoliyat talabalarni birgalikda ijod qilish, tanlov vaziyatlarini vujudga keltirish uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada, bo'lajak o'qituvchilarda shaxs va pedagog sifatida o'z-o'zini anglash, kasbiy faoliyat ko'rsatish jarayonlarini tasavvur qilish ko'nikmalari shakllanadi. Refleksiya natijasida bo'lajak o'qituvchilar o'zlariga boshqalarning nuqtai nazari orqali baho berishga

bilimlarni chuqurlashtirish masalalarini hal qiladi. Qoidaga ko'ra, u ko'p hollarda tashkil etiladigan to'garagiga asosan o'zi rahbarlik qiladigan sinfni jalb etadi. Maktabdagi sayyohlik va o'lkashunoslik faoliyati tashkilotchilari asosiy e'tiborni sayyohlik tarafdorlari bo'lgan o'quvchilarga qaratadilar. Ular uchun bo'lg'usi sayyohlik yo'riqchi, tashkilotchi va tashviqotchilarini voyaga yetkazadigan to'garaklarni tashkil etishlari lozim.

Ashaddiy sayyohlar faoliyati bu maktabda sayyohlik va o'lkashunoslik faoliyati jarayonini barqarorlashtirishning katalizatori, harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, usiz sayyohlik turg'unlikda bo'g'ilib qoladi. Faollik sifat bilan, ommaviy sayyohlik taraqqiyoti darajasida o'sib borishi lozim. Biroq, endigina o'rganishni boshlayotgan yosh sayyohlarga to'garakning maqsadi faollik, yo'riqchilar tayyorlashdangina iborat ekanligini aytasangiz, bu fikr ularni kam ilhomlantiradi. Ular asl sayyohlik gashtini «tatib» ko'rishni xohlaydilar, uning «ishlab chiqarilishi» esa, hozircha tashvishga solmaydi ham. Axir aslida ham bolalar to'garaklarga rahbarning yoshlarni tarbiyalash masalalarida hamjihatlik qilishi uchun tashrif buyurmaydilar. Ular sarguzashtlar to'g'risidagi orzular, erkin darbadarlik romantikasi, ota-onalardan «mustaqillik»ni olishga muvaffaq bo'lish hayollari bilan yashaydilar. Ularning har biri alohida holda sayyohlikdan zavq olishni istar ekan, bu xohish va istaklarni ham, albatta, inobatga olish lozim bo'ladi. Ulardan ba'zilar sayohatga piyoda, boshqa birlari baydarkalarda, ayrimlari velosipedda chiqishni istashsa, kimlar uchun esa, sayohatdagi eng muhim narsa mazmunli muloqot va gulxan atrofida aytiladigan ashulalardan iborat, xolos.

«Xo'sh, bugungi bolalar nimani istaydilar va nima qila oladilar?» savoli barcha sayyohlik ishlarining asosiy maqsad «ko'rsatkichi» bo'lishi kerak va bu masalani har doim bolalar bilan birga yechish lozimdir. Agarda ular mumkin bo'lmagan narsalarni istashsa, unda bolalarga kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarning variantlarini ko'rsatib berish kerak. Biroq, faqat bolalarning xohish-istaklarini hisobga olish bilan chegaralanibgina qolmay, uni shakllantira bilish ham kerak. Garchi hozir ularning xohishlari haqiqatdan yiroq bo'lsada, bolalarning taklifini qabul kiling va ular uchun tushunarli va yetishishni istaydigan maqsadlar bilan poxod-sayohatga chiqing va sayr davomida anchayin murakkab qiziqishlarni shakllantirib boring.

Sayyohlik-o'lkashunoslik to'garagi faoliyati ishida tajriba mashqlari asosiy o'rin egallab, ular sayohat yoki tabiat qo'ynida amalga oshiriladi.

Sayohatchi guruhlarning avtonom sharoitlarda mavjud bo'lishi ajoyib tarbiyaviy muhitni yaratadi. Chunki bu guruhlar faoliyati o'z o'ziga xizmat qilish va mustaqil harakatlanishga asoslangan bo'ladi. Sayyohlik-o'lkashunoslik faoliyati uchun aynan shunday ikki ma'noli yondashuv uslubi xos bulib, unda vaziyat va muhitning o'zi tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi hamda zarur bilim va ko'nikmalarni ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

Biroq, tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'pincha maktablardagi sayyohlik-o'lkashunoslik to'garaklarining ish mundariyasi uzluksiz sayohatlardangina iborat bo'lib, ko'p hollarda pedagoglar nazariya bilim va mahorat tajribasining o'zidan kelib chiqadi deb hisoblashadi. Shu sababdan ham bunday sayru-sayohatlarning dasturi bir xil bo'lib qolaveradi, bu esa, o'quvchilarning bilimi va sayyohlik mahoratining o'sishiga ta'sir qilmaydi.

Quruq kilometrlarigina bosib o'tishga yo'l qo'ymang. Yo'l yurilgan har bir chaqirim masofa bolalarga ham, o'qituvchiga ham yangi bilim va taassurotlar bera olishi kerak. Chunki, sayohatdan faqat ko'rish va jismoniy sport maqsadlaridagina foydalanilmaydi. Yo'nalish estetik mazmun bilan to'ldirilib, qir-adirlardagi xushmanzara joylarda to'xtashga, bolalar e'tiborini atroflaridagi olam go'zalliklariga jalb etishga muvaffaq bo'lish kerak.

Sayohatda jismoniy quvvatni me'yorlay bilish zarurdir. Qiyinchilarga bardoshlilikni tarbiyalash «eniga» va «bo'yiga» bo'lishi kerak. Shunga qaramay bir narsani yodda tutish lozimki, sayohatdan maqsad baribir rohat olishdan iborat bo'lib, bunda «plyus» jihatlap «minus»lardan iborat bo'lishi lozim.

Shu bois, to'garak faoliyatida ekspeditsion faoliyatni to'g'ri tashkil etish muhimdir. O'lkashunoslik ishlaridagi qidiruv va tadqiqot ishlarining ilmiy mehnat jihatlariga ega

taraffarini hisobga oladigan bo'lsak, masofani bosib o'tish, o't-ulanlar yig'ish, urug'lar terish va hokazolar oddiy jamoaviy foydali mehnat hisoblanadi.

Ekspeditsiya ishtirokchilari aniq maqsadga ega bo'lishlari, o'z ishlarining muhim va foydali jihatlarini aniqlashlari, bu mehnatlarning natijalari esa, muhit ekspozitsiyalari, ekologik topilma va hokazolar bo'lishini bilishlari kerak. Maktab o'lkashunosligi hayotdagi narsa va hodisalarga nisbatan bolalarning tanqidiy (tahliliy) munosabatda bo'lish vositasi sifatida ish ko'rsatmogi lozim.

Sayyohlik-o'lkashunoslik to'garaklaridagi tarbiyaviy ish o'smirlarda quyidagi o'ziga xos jihatlarini tarbiyalashi kerak:

1. Qiyinchiliklarni yenga oluvchi mardonalik xislati. Poxodlarda bunga masofani bosib o'tish, yomon ob-havo, notanish o'rmonda tunash yaxshi asos bo'la oladi. Hattoki oziq-ovqatning yetishmasligi tufayli (kishi boshiga bir bo'lak qoq non) ochiq qolish ham ijobiy rol o'ynaydi. Sayohatdagi yetishmovchilikning yaxshi jihati shundaki, u hayot uchun zarur bo'lgan iqtisodiy tejankorlikka o'rgatadi. Bolalarga «Biz bu qiyinchiliklarni yenga oldik, vaholanki, bunga ko'zimiz yetmagandi...» degan faxr tuyg'usi yot bo'lmagani ham yaxshidir. Bu esa, ularga o'zlarining mahorat darajasini anglay olishida yordam beradi.

2. Ham sayyohlik, ham o'lkashunoslik kabi turli musobaqalarda jamoaning g'alaba qozonish xislati. Qoidaga ko'ra, faol to'garak a'zolari ko'pincha maktablarining sharafini himoya qilib, turli sport va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etadilar. Ularning bu faolligini har qanday usul bilan rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash zarur, ularda o'z jamoasidan faxrlanish tuyg'usini tarbiyalash kerak. Axir musobaqalarda ishtirok etishning o'zi ham mahorat ko'rsatkichining bir jihati-da.

3. Foydali faoliyat, xayrli ishlarni amalga oshirish xususiyatlari (to'garak, sinf, maktablar, tuman uchun). Bu yerda, albatta, shaxsiy muvaffaqiyatlar bilan birga boshqalar uchun qilingan ishning foydalilik jihatlarini umumlashtira bilish kerak. To'garak a'zolarining kaerdaki, mumkin bo'lsa o'sha joyda fotosuratlarda, filmlar, gazetalar, stendlar, adabiy montaj va hokazolarda chiqish qilish, o'zlarining erishgan yutuqlarini namoyish qilishlariga qo'yib bering.

To'garak a'zolari yutuq va muvaffaqiyatlarini maktabdagilar, albatta, bilishlari kerak, chunki bu faqat o'quvchigina emas, to'garak, uning rahbari, umuman, sayyohlik va o'lkashunoslikning ommaviylashuvi uchun «ishlaydi».

Razryadli ko'krak nishonlari, sayyohlik unvonlar qabul qilingani haqidagi hujjatlarni topshirish marosimlari tantanali tarzda o'tkazilishi kerak. Agar biror nufuzli kishi yoki maktab direktori g'olibning qo'lini siqib qo'ysa, ota-onalar tabrigi bo'lsa, umumiy choyxo'rlik tashkil etilsa, yanada yaxshidir.

Ayrim paytlarda, rahbarning ketish holatlarida, to'garak bilan ish olib borish to'xtab qolsa, yaxshigina turistik jamoaning transformatsiyalashuvi – yig'ilib olish xavfi paydo bo'lishi, bunda guruh lideri bilan, kattalar nazoratisiz o'zboshimchalik bilan yashirin poxodlar tashkil etilish holatlari ham ehtimoldan holi emas. Yoki sayyohlikdan ozgina xabardor bo'lgan yuqori sinf o'quvchilari buni boshqa bir «kayf» bilan almashtirishlari, darbadarlik erki, tabiat qo'ynida ichkilik ichish, «erkin muhabbat» va yoki hatto o'g'irlik bilan ham uyg'unlashtirib yuborishlari mumkin. Aynan shu tarzda o'quvchilar o'rtasida erkin ko'rinishli ixtiyoriy sayyohlik paydo buladi. Shu sababdan ham tabiat quchog'ida ovqatlanish, gulxan atrofida shunchaki ichimlik ichib, ashula aytib o'tirish kabilarga nisbatan nafratni tarbiyalash, og'ir mehnat bilangina erishish mumkin bo'lgan sayyohlik mahoratiga erishishga nisbatan intilishlarni qo'llab-quvvatlash juda muhimdir. Mazkur tizimning maktab to'garaklaridagi ishi faqat qiziqishlarga qarab birlashtirish xususiyatigina emas, balki umumiy ehtiyojlarni ham birlashtira olishi kerak. To'g'ri, to'garaklarda yo'riqchi sudya va boshqa yosh mutaxassislarni tayyorlashadi, biroq bu shartlilik xususiyatiga ega bo'lmasligi kerak.

Asos baribir o'sha qiziqishda bo'lishi lozim. Biroq, bu qiziqishni qanday uyg'otish va qay tarzda tarbiyalash kerak, muammo ana shunda.

To'garak rahbari o'z tarbiyalanuvchilarining mavjud imkoniyatlarini to'g'ri baholashi, o'z vaqtida noxush holatlar yuzaga kelishining oldini ola bilishi, anchayin iqtidorli bolalar bilan aniq maqsad yo'lida ishlay olishi kerak. Shu bilan bir vaqtning o'zida ishtirokchilarning ayrim bilimlarda mohir va topqirga aylanib borayotgani uchun ularning tor doirada ixtisoslashib qolishlariga yo'l quyimaslik kerak. Sayyohlikning turli usullariga doir o'quvchilarni aynan hozir nimaiki zarur bo'lsa, faqat ushangagina e'tiborni to'liq qaratishga berilib ketmagan holda o'rganib borish zarurdir. Bolalar uchun har bir bilim va tajribaning alohida holda hammasi zarur ekanligi tushunarli bo'lsin. Sayyohlik mahoratini oshirish uchun o'quvchilarga, ayniqsa, turli muddatli seminarlar, kurslar ham yordam beradi. Masalan, umummaktab ekspeditsion mavzusiga doir dala ishlari metodikasi bo'yicha seminar maktab muzeyiga mo'ljallangan bo'lishi, sinfning sayyohlik tashkilotchilari seminarlari yo'l ko'rsatuvchilar, musobaqa sudyalari va hokazolar tarzida bo'lishi ham mumkin.

Guruh rahbari ishni shunday tashkil qila olishi kerakki, bir yillik mashg'ulotlardan keyin to'garak a'zolari maslahatlar bera bilishi, kichik sinflardagi sudyalalar va yo'l boshqaruvchilari bilan ish olib bora olish va boshqalar bilan birga o'zi uchun bo'lgan sayyohlikdan maktab sayyohligiga qarab bora olishi kerak. Kichkina bolalar bilan turizmga doir ishlarni har qanaqasiga rag'batlantirib borish muhimdir.

Axir gap faqat ma'lum bir bilimni berish haqida emas, butun jamoa, maktab foydasi uchun bo'ladigan faoliyat haqida bormoqda. Bu esa, murakkab va qiyindir. Shu sababli ham sayyohlik-o'lkashunoslik ishlari orqali kishini pedagogikaga jalb etish muhimdir.

Xulosa. Sayyohlik-o'lkashunoslik tizimi rivojlanishining yuqori bosqichi ko'rinishi uning «chegaralanmagani», ya'ni maktabdan tashqariga chiqishi bilan ifodalanadi. Bunday ish tizimini tashkil etish, albatta, oson emas va nafaqat birgina jamoatchi o'qituvchi, balki boshqalardan ham ko'p harakat va vaqtni talab etadi.

Adabiyotlar:

1. Куронов М. Ўзбекистон умумий ўрта таълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: Пед. фанл. д-ри ... Дис. - Т.: ЎзПФТИ, 1998. - 316 б.
2. Муниров Р. Теория и практика школьного краеведения. - Уфа, 2003. - 243 с.
3. Набиев А. Тарихий ўлкашunoslik: Ўқув қўлланма. - Т.: Ўқитувчи, 1996. -334 б.
4. Махмудов Ю. Дидактико-методические основы краеведения в физико-техническом образовании школьников. - Т.: Фан, 1997. - 110 с.
5. Кацюба Д.В. Краеведение в воспитании учащихся: Пособие для учителей. - М.: Просвещение, 1991. - 99 с.
6. Константинов Ю.С. Детско-юношеский туризм: Учебно-методическое пособие. - М.: ФЦДЮТик, 2006.

PISA 2022 TADQIQOTIDA MAMLAKATLAR VA IQTISODIYOTLAR O'QUVCHILARINING FANLAR BO'YICHA KO'RSATKICHLARI

Karimov Nizomjon Abduqayumovich, TDPU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada PISA 2022 xalqaro tadqiqotida ishtirok etgan mamlakatlar va iqtisodiyotlar o'quvchilarining fanlar bo'yicha ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatlar va iqtisodiyotlar ko'rsatkichlari IHTT tashkiloti bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar bilan solishtirilgan.

Tayanch so'zlar: *Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHHT), PISA tadqiqoti, ko'rsatkichlar, ta'limda tenglik, tenglikdagi tendensiyalar, mazmun, baholash, so'rovnoma, ESCS - PISA iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy holat indeksi.*

ПОКАЗАТЕЛИ УЧАЩИХСЯ ПО ПРЕДМЕТАМ ПО СТРАНАМ И ЭКОНОМИКЕ В ИССЛЕДОВАНИИ PISA 2022 ГОДА

Каримов Низомджон Абдукаюмович, самостоятельный исследователь ТГПУ

Аннотация. В данной статье проанализирована успеваемость учащихся по предметам стран и экономик, участвующих в международном исследовании PISA 2022. Кроме того, сравнены показатели стран и экономик со средними показателями организации ОЭСР.

Ключевые слова: *Организация экономического сотрудничества и развития (ОЭСР), исследование PISA, показатели, равенство в образовании, тенденции равенства, содержание, оценка, анкетирование, ESCS - индекс экономического, социального и культурного статуса PISA.*

SUBJECT PERFORMANCE OF STUDENTS BY COUNTRIES AND ECONOMIES IN THE PISA 2022 STUDY

Karimov Nizomjon Abduqayumovich, independent researcher of TSPU

Abstract. This article analyzes the performance of students in subjects in countries and economies participating in the international study PISA 2022. It also compares the performance of countries and economies with the average performance of the OECD organization.

Key words: *Organization of economic co-operation and Development (OECD), PISA Research, performance, equity in education, trends in equity, content, assessment, questionnaires, ESCS - PISA index of economic, social, and cultural status.*

Kirish. 1997-yilda IHTT tomonidan yo'lga qo'yilgan PISA dasturi 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlarni bilish darajasini hamda maktabda o'rgangan narsalarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini baholaydi.

Asosiy qism. PISA tadqiqotlari 2000-, 2003-, 2006-, 2009-, 2012-, 2015-, 2018- va 2022-yillarda o'tkazildi; hozir PISA 2025 tadqiqotiga tayyorgarlik davom etmoqda. PISA – bu ta'lim siyosati va amaliyoti haqida tushuncha beruvchi va o'quvchilarning turli mamlakatlarda va har bir mamlakat ichidagi turli demografik kichik guruhlarda ko'nikma va bilimlarga ega bo'lish tendensiyalarini kuzatishga yordam beruvchi, muntazam ravishda amalga oshiriladigan dasturdir.

PISA natijalari orqali siyosatchilar o'z mamlakatlaridagi o'quvchilarning ko'nikmalari va bilimlarini boshqa mamlakatlarga nisbatan baholashi, boshqa ta'lim tizimlarida

erishilgan o'Ichovli maqsadlarga nisbatan siyosat maqsadlarini belgilashi va ijobiy o'zgarishlarga erishgan mamlakatlar siyosati va amaliyotidan saboq olishi mumkin.

PISA ballari nafaqat o'quvchilar bilimlarini oshirishi mumkinligini aniqlaydi; balki o'quvchilar o'rgangan narsalarini qanchalik yaxshi tatbiq qilishi va bu bilimlarni maktabda ham, undan tashqarida ham notanish vaziyatlarda qo'llashi mumkinligini aniqlash imkonini beradi.

O'quvchilar va maktab direktorlariga taqdim etilgan so'rovnomalar orqali PISA tadqiqoti o'quvchilarning uy muhiti, ularning ta'limga yondashuvi va o'quv muhiti haqida ham ma'lumot to'playdi.

Turli xil so'rovnomalar orqali to'plangan ma'lumotlar bilan birgalikda PISA baholash jarayoni natijalarning quyidagi uchta asosiy turini aniqlashga imkon beradi: o'quvchilarning ko'nikma va bilimlarining asosiy tavsifini beruvchi asosiy ko'rsatkichlar; bunday ko'nikmalarining turli demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va ta'lim o'zgaruvchilari bilan qanday bog'liqligi hamda akademik ko'rsatkichlar va osoyishtalik kabi kengroq ta'lim natijalari bilan bog'liqligini ko'rsatuvchi so'rovnomalar asosida olingan ko'rsatkichlar; PISA tadqiqotida mamlakatning ikkinchi ishtirokidan boshlab o'rtacha ko'rsatkichlarning o'zgarishini, o'quvchilar o'rtasidagi natijalarning o'zgarishini hamda boshlang'ich o'zgaruvchilar va o'quvchilar miqyosidagi, maktab miqyosidagi va tizim miqyosidagi natijalar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatuvchi tendensiya ko'rsatkichlari.

Har bir test olinadigan fan bo'yicha har bir ishtirokchi mamlakat uchun ball o'sha mamlakatdagi barcha o'quvchilar ballarining o'rtacha qiymatiga teng. PISA o'rtacha ballari ishtirokchi mamlakatlar va iqtisodlarni o'qish, matematika va tabiiy fanlardagi yutuqlariga qarab tartiblash uchun qo'llanishi mumkin.

PISA tadqiqotida barcha fanlar bo'yicha umumiy ball birlashtirilmaydi, aksincha, har bir fan sohasi uchun ball belgilanadi va bu har bir fan sohasi uchun o'rtacha ball reytingini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin.

Har bir baholangan fan uchun PISA o'quvchilarning natijalari olti darajali malakalarga ajratilgan shkala bo'yicha hisobot beradi. O'xshash murakkablikdagi baholash topshiriqlari har bir malaka darajasini o'quvchilar bilimi va ballari ma'lum darajada bo'lganda nima qila olishlari mumkinligi nuqtayi nazaridan tavsiflash uchun ishlatiladi. Shunday qilib, PISA ta'lim tizimi samaradorligini o'quvchilar 15 yoshga to'lgunga qadar o'zlashtirgan ko'nikma va bilimlar nuqtayi nazaridan tavsiflashi mumkin, bu shunchaki bitta raqam yoki darajadan ko'ra batafsilroq tavsif beradi.

PISA uzoq muddatli istiqbolda turli mamlakatlardagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalaridagi tendensiyalarni hamda har bir mamlakatning turli demografik kichik guruhlarini kuzatish uchun bir qator ma'lumotlarni ishlab chiqish imkonini beruvchi amaldagi dasturdir. Dunyo bo'ylab siyosatchilar PISA natijalaridan o'z mamlakatlari/iqtisodiyotidagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini boshqa ishtirokchi mamlakatlar/iqtisodiyotlarga nisbatan baholash, taqdim etilgan ta'lim va/yoki ta'lim natijalarini yaxshilash uchun ko'rsatmalar ishlab chiqish va o'z ta'lim tizimining nisbatan kuchli va zaif tomonlarini tushunish uchun foydalanadilar.

PISA 2022 tadqiqoti o'qish, tabiiy fanlar va ustuvor yo'nalish sifatida matematikani baholaydi. Bugungi kunda matematikada bilimdon bo'lish oddiy matematik amallar (protseduralar)ni takrorlashdan iborat emas. Aksincha, PISA matematik bilimdon odamni murakkab real hayotiy muammolarni hal qilish, matematik mulohaza yurita oladigan va matematik ifodalash, qo'llash va talqin qilish orqali yechim topa oladigan shaxs deb hisoblaydi.

O'zbekistonda va butun dunyoda siyosatchilarning asosiy tashvishi fuqarolarni o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, tobora o'zaro bog'liq bo'lib borayotgan dunyoga hissa qo'shish va pirovardida yuksak sabab yaxshiroq turmush tarziga ega bo'lish uchun zarur bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlashdan iborat.

PISA tadqiqotidan o'rin olgan o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi ko'rsatkichlari mamlakatlar bu maqsadlarga erishishga qanchalik yaqinligini kuzatish uchun ishlab chiqilgan.

Oxirgi yigirma yil ichida PISA mamlakatlar bo'yab ta'lim natijalarining sifati, tengligi va samaradorligini solishtirish bo'yicha jahonning birinchi tadqiqot mezonini va ta'limni isloh qilishda ta'sirchan kuchga aylandi. Bu siyosatchilarga qiyin qarorlarni dalillar bilan qo'llab-quvvatlash orqali siyosiy harakatning narxini pasaytirishga yordam berdi, ammo siyosat va amaliyot qoniqarsiz bo'lgan sohalarni ko'rsatish orqali harakatsizlikning siyosiy badalini ham oshirdi.

Ta'limda tenglik:

1) Kanada, Daniya, Finlandiya, Gonkong (Xitoy), Irlandiya, Yaponiya, Koreya, Latviya, Makao (Xitoy) va Buyuk Britaniya ta'lim tizimlarida PISA standarti bo'yicha tenglik yuqori darajada ta'minlangan (inklyuzivlik va haqqoniylikning yuqori darajasini hisobga olgan holda).

2) Har bir mamlakat/iqtisodiyotda maktabda 7 yoki undan yuqori sinfda o'qiyotgan 15 yoshli o'smirlar ulushi Kambodjada 36% va Gvatemalada 48% dan, 34 mamlakat va iqtisodiyotlarda 90% gacha yoki undan ko'pni tashkil qiladi.

3) Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ustun bo'lgan o'quvchilar matematika fanidan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlari bo'yicha o'rtacha 93 ballga ko'proq natija ko'rsatishdi. O'quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga bog'liq bo'lgan natijalar farqi 22 mamlakat yoki iqtisodiyotda 93 ball dan yuqori va 13 mamlakatda yoki iqtisodiyotlarda 50 ball yoki undan kamroq natijani qayd etdi. O'zbekistondagi o'quvchilar IHTTning boshqa mamlakatlaridagi o'quvchilarga qaraganda pastroq ball to'plaganini ko'rish mumkin. O'zbekistonda mamlakatning kam ta'minlangan oilalariga mansub o'quvchilarning ko'rsatkichlari IHTT mamlakatlaridagi eng kam ta'minlangan o'quvchilarnikiga deyarli teng. O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori o'quvchilar shkala bo'yab muntazam ravishda IHTT mamlakatlaridagi o'xshash o'quvchilardan past natija ko'rsatib turibdi. Darhaqiqat, o'zbekistonlik o'quvchilarning natijalari IHTT mamlakatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy holatning barcha darajalaridagi o'xshash o'quvchilarnikidan pastroqda.

4) IHTT mamlakatlari bo'yicha o'g'il bolalar matematika bo'yicha qiz bolalardan to'qqiz ballga, qiz bolalar o'qish bo'yicha o'g'il bolalardan 24 ballga yuqori natija ko'rsatdi. Tabiiy fanlarda o'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi farq sezilarli darajada emas. O'zbekistonda bu natija o'g'il bolalar foydasiga 6 ballik farqni tashkil etadi. PISA 2022 tadqiqotida ishtirok etgan barcha mamlakatlar va iqtisodiyotlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham o'g'il bolalarning o'qish bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlari qizlarning o'qish bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlaridan past (22 ball). Biroq O'zbekistonda bu farq IHTTning aksariyat mamlakatlariga qaraganda kamroq. O'zbekistonda qizlar foydasiga tabiiy fanlar bo'yicha yutuqlar farqi ham boshqa mamlakatlaridan kamroq (deyarli 4 ball).

5) Immigrant bo'lmagan o'quvchilar IHTT mamlakatlari bo'yicha matematikadan immigrant o'quvchilardan o'rtacha 29 ball ko'p to'pladilar, ammo immigrant bo'lmagan o'quvchilar ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va uyda so'zlashadigan tili hisobga olinsa, immigrant o'quvchilardan atigi besh ball ko'p to'pladi.

6) IHTT hududidagi o'quvchilarning o'rtacha 8 foizi so'nggi 30 kun ichida haftasiga kamida bir marta ovqat iste'mol qilmagani, chunki oziq-ovqat sotib olishga pul yetarli emasligi haqida xabar beriladi. 18 ta mamlakat/iqtisodiyotda o'quvchilarning 20% dan ortig'i haftasiga kamida bir marta ovqat yeya olmasligini ma'lum qildi.

PISA ta'limdagi tenglikni ikkita o'zaro bog'liq tamoyil orqali aniqlaydi va o'lchaydi: inklyuzivlik va adolat. Inklyuzivlik barcha o'quvchilar kamida zarur asosiy ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlashni anglatadi. Adolat deganda, o'quvchilarning sifatli ta'lim olish imkoniyati va aniqrog'i, hayotiy sharoitlarining o'quvchilarning ta'lim natijalariga ta'sirini kamaytirish darajasi tushuniladi. Ta'limdagi inkluzivlik va tenglik barcha bolalar jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy holati yoki uyda so'zlashadigan tilidan qat'i nazar, samarali ta'lim natijalariga olib keladigan ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishini talab qiladi.

O'zbekistonda yuqori natijalarga erishgan o'quvchilarning ulushi unchalik katta bo'lmasa da, 15 yoshli o'quvchilarning deyarli 5% i matematikani 3 yoki undan yuqori darajaga – IHTT mamlakatlaridagi 15 yoshli o'quvchilarning odatiy savodxonlik darajasiga erishganini ta'kidlash zarur. O'zbekistonda o'quvchilarning deyarli 2% i o'qish bo'yicha 3-darajaga, tabiiy fanlar bo'yicha o'quvchilarning 2% idan ortig'i 3-darajaga yoki undan yuqori darajaga erishdi. Bu bilim va malaka darajalari bo'lajak fuqarolar va xodimlar uchun muhim atribut bo'lib, O'zbekiston oldida turgan vazifalar yuqori natijalarga erishgan o'quvchilar ulushini oshirish, past va yuqori natijalarga erishgan o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishdan iborat.

Tenglikdagi tendensiyalar: 1) Mavjud PISA ma'lumotlariga ega 68 mamlakat/iqtisodiyotning 51 tasida matematika ko'rsatkichlari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy tafovut 2018- va 2022-yillar oralig'ida o'zgarmadi; 12 ta mamlakatda/iqtisodiyotda tafovut kattalashgan va beshtasida kamaygan (Argentina, Chili, Filippin, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari). 2) 2018- va 2022-yillar oralig'ida matematika bo'yicha gender tafovut ko'pchilik mamlakatlarda/iqtisodiyotlarda o'zgarmadi (qiyoslash mumkin bo'lgan 72 tadan 57 tasi); 11 ta mamlakatda/iqtisodiyotda bu tafovut kattalashdi va to'rttada kamaydi (Albaniya, Boku [Ozarbayjon], Kolumbiya va Chernogoriya).

Xulosa. Tadqiqotdan olingan ma'lumotlar O'zbekistonning ta'lim sohasidagi hozirgi tashabbuslari va kelajakdagi sa'y-harakatlariga katta hissa qo'shishi mumkin bo'lgan qimmatli manba hisoblanadi. Loyiha yakuniga yetganida to'plangan xulosalarni strategik jihatdan amalga oshirishimiz juda muhimdir. Sa'y-harakatlarimizning haqiqiy ta'siri ta'lim siyosati va amaliyotini rivojlantirish uchun ma'lumotlardan mazmunli va asosli foydalanishdadir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» PF-5712-sonli farmonida xalqaro PISA tadqiqotiga oid vazifalar.

2. OECD, PISA 2022 Results. Vol. I: The state of learning and equity in education, PISA, OECD Publishing, Paris, 2023.

Executive Summary p. 26-35, Key features of PISA 2022. - P. 40-41, Howw did countries perform in PISA? - P. 49-57.

DUAL TA'LIM SHAKLIDA TASHKILOTLARDAN BIRIKTIRILGAN USTOZLARNING PEDAGOGIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH

*Qo'chqarov Diyorbek Ulug'bekovich, Professional ta'limni rivojlantirish
instituti tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada dual ta'lim shaklida ta'lim olayotgan professional ta'lim muassasalari o'quvchilariga tashkilotlar tomonidan birlashtirilgan ustozlarning pedagogik mahoratini oshirishning maqsadi, vazifalari va metodikasi hamda ularning pedagogik mahoratini shakllantirishni amalga oshirish jarayoni nazariy asoslangan.

Tayanch so'zlar: dual ta'lim, ustoz, kasbiy-pedagogik faoliyat, kognitiv faoliyat, tashkilotchilik faoliyati, uslubiy faoliyat, texnologik faoliyat, ijtimoiy-psixologik faoliyat, kreativ faoliyat.

ФОРМИРОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА У НАСТАВНИКОВ, ПРИКРЕПЛЕННЫХ К ОРГАНИЗАЦИЯМ В ФОРМЕ ДУАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

*Кучкаров Дийрбек Улугбекович, соискатель Института развития
профессионального образования*

Аннотация. В данной статье теоретически обоснованы цель, задачи и методология повышения педагогического мастерства преподавателей, прикрепленных организациями к студентам профессиональных образовательных учреждений, а также показан процесс реализации процесса формирования у них педагогического мастерства.

Ключевые слова: дуальное образование, наставник, профессионально-педагогическая деятельность, когнитивная деятельность, организационная деятельность, методическая деятельность, технологическая деятельность, социально-психологическая деятельность, творческая деятельность.

THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SKILLS OF ATTACHED MENTORS FROM ORGANIZATIONS IN THE FORM OF DUAL TRAINING

*Kuchkarov Diyorbek Ulugbekovich, researcher of the Institute for the
development of Professional education*

Abstract. This article theoretically substantiates the purpose, objectives and methodology of improving the pedagogical skills of a mentor attached by organizations to students of professional educational institutions receiving education in the form of dual training, as well as measures to implement the process of forming their pedagogical skills.

Key words: dual education, mentor, professional and pedagogical activity, cognitive activity, organizational activity, methodological activity, technological activity, socio-psychological activity, creative activity.

Kirish. Professional ta'lim tizimida kasbiy tayyorgarlikning sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishi – zamonaviy, raqobatbardosh va jahon mehnat bozorida munosib o'rin egallay oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, professional ta'lim tizimida tadbiq etilayotgan, yoshlarga berilayotgan imkoniyatlardan kasb-hunar egallashning jahon tajribalaridan biri sifatida o'quv mashg'ulotlarining nazariy qismi ta'lim muassasasida, amaliy qismi ish joyida o'zlashtirishga qaratilgan dual ta'lim shaklini – fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashda samarali yondashuv sifatida ko'rishimiz mumkin. Ushbu ta'lim shakli o'quvchilarga bir davmning o'zida tanlagan kasbi bo'yicha ta'lim muassasasida o'qish bilan bir qatorda turli tashkilotlarda maosh evaziga ishlash imkoniyatini yaratadi.


Asosiy qism. Yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash masalasida, ularga keng keng imkoniyatlar yaratish, tashkilotlarda kadrlarga bo'lgan ehtiyojni o'z vaqtida qondirib borish, o'qitishning zamonaviy shakllarini professional ta'lim tizimiga qo'llash hamda professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish maqsadida o'quvchilarni haftada kamida ikki kun professional ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonlarida ishtirok etishlarini va qolgan ish kunlarida tegishli tashkilotlarda amaliy mashg'ulotlar bilan birga mehnat faoliyati olib borishlarini ta'minlash, dual ta'limni tashkil etish, o'quvchilarni tashkilotga yuborish, tashkilotlardan o'quvchilarga murabbiy sifatida ustoz birlashtirish masalalari yuzasidan tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan [1]. Qarorga muvofiq, ustoz – ta'lim jarayonining ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismini o'tkazish uchun tashkilot tomonidan o'quvchilarga birlashtirilgan mas'ul shaxs (mutaxassis) bo'lib, ushbu mutaxassis ko'p hollarda o'rta yoki o'rta maxsus kasbiy ma'lumotli bo'lishiga qaramay, kasbi bo'yicha yuqori malakali, tajribali va hayotiy tajribali kasb egalari hisoblanishadi.

O'quvchilarni ta'lim oluvchi va o'spirin ekanligini hisobga olish ularga murabbiylik qilayotgan ustozlarga zaruriy pedagogik mahorat sirlarini egallashlarini taqozo etadi. Hususan, ustoz-pedagog sifatida o'quvchilarning hulq-atvorini hisobga olish, qiziqishlarini bilish, muomala madaniyatini singdira olish va ularga kasb sirlarini o'rgata olishi, tushuntira bilishi, ularni baholay olish malakasi bo'lishi kerak. Buning uchun ustozda, muhim kasbiy sifatlar bilan birgalikda o'z kasbiy darajasini oshirib borish, faoliyat sifatini oshirib borish, maqsad qo'ya bilish va unga erishish yo'llarini topa olish kabi muhim pedagogik sifatlarni ham mujassam bo'lishi pedagogik faoliyatning samarali tashkil etilishini ta'minlaydi.

Dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilish tizimi joriy etilishi yuzasidan qabul qilingan huquqiy hujjatlarning tegishli bandlarida, tashkilotlardan birlashtirilgan ustozlarning pedagogik mahoratini ixtiyoriy ravishda oshirish uchun har yili dual ta'lim shakli bo'yicha bepul qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish vazifasi belgilangan [2].

Dastlab o'qitish mazmuniga qo'yiladigan talablarni olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik mahoratini tahlil qilgan holda aniqlashtirib olish mumkin.

Dual ta'lim sharoitida ustozning kasbiy-pedagogik faoliyatini quyidagi turlarga ajratish mumkin: kognitiv, tashkilotchilik, uslubiy, texnologik, ijtimoiy-psixologik, kreativ [4]. Ustoz pedagogik faoliyati tarkibini 1-rasmdagidek ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. Ustoz pedagogik faoliyatining tarkibi

Ustozning kasbiy-pedagogik faoliyati turlariga xos bo'lgan ushbu maxsus vazifalarini aniqlashtirib olamiz:

1. Kognitiv faoliyat – ustozning kasbiy mehnat faoliyati jarayonida o'zlashtirgan malakaviy bilimlarini pedagogik faoliyati davomida o'z ifodasini ko'rish orqali nazariy bilimlarni boyitishi.

2. Tashkilotchilik faoliyati – o'quvchilar bilan targ'ibot-tashviqot ishlari olib borgan holda, o'quvchilarni tashkilotdagi ish o'rinlariga joylashishini ta'minlash va unga moslashtirishni tashkil qilish, shuningdek o'quvchilarning kundaligini muntazam nazorat qilib borishi.

3. Uslubiy faoliyat – tashkilot va ta'lim muassasasi integratsiyasini hisobga olgan holda, bo'lajak mutaxassislariga qo'yilayotgan talablar va mehnat operatsiyalaridan kelib chiqib, amaldagi ta'lim dasturlarini takomillashtirish: o'quv dasturlariga o'zgartirishlar kiritishi, o'quvchilarni ish o'rinlariga moslashishi yuzasidan uslubiy tavsiyalar berishi, o'quv-metodik va normativ-huquqiy hujjatlarni mustahkamlab borishi.

4. Texnologik faoliyat – o'quvchilarning texnologik jarayonlardagi o'z o'rnini topa bilishi, dastgohlar, asbob-uskuna va jihozlar bilan ishlash malakasini oshirishi, texnika va mehnat xavfsizligi bilan bog'liq yo'riqnomalar berish hamda ushbu sohadagi mahoratini takomillashtirishi.

5. Ijtimoiy-psixologik faoliyat – turli xil ijtimoiy toifadagi va lavozim darajasidagi mutaxassislardan tashkil topgan tashkilot jamoasi va hodimlari, shuningdek, muloqot jarayonlariga kirishishga o'quvchi va ularning ota-onalarini tayyorlash uchun ijtimoiy hamkorlikdagi shaxslarni o'ziga xos individual psixologik jihatlarni hisobga olgan holda kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish.

6. Kreativ faoliyat – ustozning ta'lim muassasasi va tashkilot o'rtasida o'quvchilarning muayyan kasb bo'yicha ish o'rniga ega bo'lgan holda, ish faoliyati jarayonini samarali tashkil etish va takomillashtirish bilan bog'liq xulosa va takliflar tayyorlashga ilmiy-ijodiy yondashishi.

Ustozning yuqorida keltirilgan faoliyat turlaridan kelib chiqib, ta'lim mazmunini belgilashimiz va ularni o'qitishga qo'yilgan talablar asosida ta'limni amalga oshirishimiz mumkin. Professional ta'limni rivojlantirish instituti misolida ushbu masala, «Dual ta'lim shakli bo'yicha tashkilotlardan birlashtirilgan ustozning pedagogik mahorati» nomli 36 soatlik qisqa muddatli kursni masofaviy ta'lim shaklida tashkil etish yo'li bilan hal qilindi va tasdiqlangan o'quv rejasiga muvofiq mazmuni quyidagicha belgilandi: 1) dual ta'limning mohiyati, uning o'ziga xosligi va xorijiy tajribalar – 6 soat; 2) dual ta'limning meyoriy-huquqiy asoslari. Dual ta'limda tomonlarning huquq va majburiyatlari - 8 soat; 3) pedagogik mahorat va kreativlik – 6 soat; 4) o'quvchi psixologiyasi, qobiliyatlari va motivatsiyasi – 4 soat; 5) dual ta'limda davlat attestatsiyalarini tashkil etish – 4 soat; 6) o'quvchilarning kasbiy ko'nikmalarini baholash – 4 soat; 7) tinglovchilar bilimini baholash – 2 soat.

Ushbu kurs o'quv rejasiga muvofiq, ustozlar tinglovchi sifatida ma'ruza mashg'ulotlarini tinglovchi sifatida masofaviy ta'lim asosida o'zlashtiradilar, amaliy va mustaqil ta'limni ish joyida, jarayonning o'zida mustahkamlab boradilar. Bu bizga aralash ta'lim (blended learning) texnologiyasidan foydalanish bilan birga ish joyida o'qitish imkonini beradi.

Aralash ta'lim (blended learning) – online ta'limning kamchiliklarini yengillashtirish uchun yangi yondashuv sifatida ko'p qirrali ta'lim tizimi bo'lib, o'quv tajribasini samaralashtiradi va mazmunli ta'lim natijalarini oshiradi. Aralash ta'lim an'anaviy, masofaviy va inaktiv ta'limning birgalikda olib borilishidir [3].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dual ta'lim shaklida korxonalardan birlashtirilgan ustozlarning pedagogik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning o'quvchilarga murabbiylik qilish jarayonida nazariy, uslubiy va amaliy tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi, umuman olganda, dual ta'limni tashkil qilish sharoitida, kasbiy ta'limning sifat va samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmiga aylanadi deb ta'kidlash mumkin.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 163-sonli «Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida» qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrda 647-sonli «Professional ta'lim muassasalariga yil davomida o'quvchilarni dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilish tizimi joriy etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» qarori.
3. Garrison D.R., Vaughan N.D. (2007). Blended learning in higher education: Framework, principles, and guidelines. - San Francisco, CA: Jossey-Bass.
4. Uralov S.A. Stajirovka – dual ta'lim tizimida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining malakasini oshirish omili sifatida // Ta'lim tizimida ijtimoiy gumanitar fanlar. - T., 2023. - 2-son. - B. 63-69.

IXTISOSLIK FANLARIDAN O'ZLASHTIRISH NATIJALARINI BAHOLASHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Ro'ziyev Furqat Roziyevich, Professional ta'limni rivojlantirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlarni o'zlashtirish natijalarini baholashda modulli texnologiyalar va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining integratsiyasi yoritilgan.

Tayanch so'zlar: *axborot kommunikatsiya texnologiyalari, modulli ta'lim texnologiyalari, bo'lajak muhandislarni baholash, texnologik kompetensiya, ta'lim dasturlari, innovatsion ta'lim va yondashuvlar.*

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОЦЕНКЕ РЕЗУЛЬТАТОВ ОСВОЕНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН

Рузиев Фуркат Рузиевич, соискатель Института развития профессионального образования

Аннотация. В данной статье описана интеграция модульных технологий и информационно-коммуникационных технологий при оценке результатов освоения специальных дисциплин при подготовке будущих инженеров к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: *информационно-коммуникационные технологии, модульные технологии обучения, оценка будущих инженеров, технологическая компетентность, образовательные программы, инновационное образование и подходы.*

THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN ASSESSING THE RESULTS OF MASTERING SPECIAL DISCIPLINES

Ruziev Furkat Ruzievich, researcher of the Institute for the development of Professional education

Abstract. This article describes the integration of modular technologies and information communication technologies in the assessment of the results of mastering specialized subjects in the preparation of future engineers for professional activities.

Key words: *information and communication technologies, modular learning technologies, assessment of future engineers, technological competence, educational programs, innovative education and approaches.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi PQ-309-son «Neft va gaz sohasida ta'lim-ishlab chiqarish klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risi»dagi qarorida Neft va gaz sanoatini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, mazkur sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro integratsiyani yo'lga qo'yish, kadrlarni o'qitishning usul va shakllarini takomillashtirish orqali ta'lim sifatini hamda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga to'g'ridan-to'g'ri tatbiq qilish kabi masalalar belgilangan [1].

Asosiy qism. Ixtisoslashtirilgan fanlar bo'lajak muhandislarni tayyorlashda, ularga o'z sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni berishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu fanlar fundamental va ilg'or tushunchalarni o'zida mujassam etgan holda o'quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalarini va metodikalarni yaxshi bilishini ta'minlaydi. Masalan, Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan muhandislarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalarini tushunish va

qo'llash, jarayonni ishlab chiqish, zamonaviy kompyuter yordamida loyihalash usullaridan foydalanish muhimligi ta'kidlanadi. Xuddi shunday, maxsus fanlarning qishloq xo'jaligi muhandisligi fanlarining integratsiyalashuvi shaxsiy faoliyat, kompetensiyaga asoslangan, muammoli-integrativ, kontekstual va tizimli yondashuvlar kombinatsiyasi orqali kasbiy kompetensiyani oshirishga yordam berishi ko'rsatilgan [2]. Bundan tashqari, dasturiy ta'minot muhandislarini professional kadrlar tayyorlashda o'quv jarayonini takomillashtirish va yuqori mahsuldorlik va samaradorlikni ta'minlaydigan integrativ, kontekstual, fanlararo va tizimli pedagogik yondashuvlar qo'llaniladi. Texnologik muhandislarni tayyorlashda ilg'or ishlab chiqarish kurslari va innovatsion loyihalardan foydalanish nazariy bilimlar va amaliy qo'llash o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga yordam beradi [3]. Muhandislik ta'limiga umumiy gumanitar fanlarni kiritish zamonaviy ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash va har tomonlama rivojlangan shaxsni rivojlantirishga yordam beradi. Modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, masalan, korroziya jarayonlarini o'rganishda, har tomonlama ta'lim berishda ixtisoslashtirilgan fanlarning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Umuman olganda, ixtisoslashtirilgan fanlar bo'lajak sanoat muhandislarining har tomonlama rivojlanishining ajralmas qismi bo'lib, ularga kasbiy martabalarida muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarni beradi.

Ixtisoslashtirilgan fanlar bo'lajak muhandislarini tayyorlashda, ularga o'z sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni berishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu fanlar fundamental va ilg'or tushunchalarni o'zida mujassam etgan holda o'quvchilarning zamonaviy texnologiyalar va metodikalarni yaxshi bilishini ta'minlaydi.

Ixtisoslik fanlaridan o'zlashtirish natijalarini baholash jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash ishlab chiqarish faoliyatida harakatlana oladigan va moslasha oladigan malakali va moslashuvchan mutaxassisni shakllantirish uchun muhimdir va nihoyat, innovatsion ta'lim tadqiqotlarini rag'batlantirish talabalar uchun noyob va samarali martaba yo'llarini yaratish orqali yanada adolatli va samarali ta'lim tizimini yaratishga yordam beradi [4]. Ixtisoslik fanlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) integratsiyalashuvining asosiy jihatlari jadval shaklida keltirilgan:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) integratsiyasining asosiy jihatlari

Asosiy jihat	Ta'rif
Ma'lumot beruvchi qobiliyatlarni rivojlantirish	AKTdan foydalanishga interfaol va qiziqarli o'rganishga yordam beradi, o'quvchilarning bilim qobiliyatlari va o'zini o'zi anlashni rivojlantiradi
Innovatsion ta'lim texnologiyalari	Oliy ta'limda yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun zamonaviy uslubiy yondashuvlar va shaxsga yo'naltirilgan kadrlar tayyorlashni joriy etish
Ilmiy tadqiqotlar va o'qitishning sinergiyasi	Amaliy muammolarni hal qilishda bilimlarni qo'llash, talabalarining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini oshirish
Motivatsion komponent	AKTdan foydalanish orqali o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini rivojlantirish
Ma'lumot beruvchi komponent	Zamonaviy axborot resurslari va interaktiv o'quv materiallaridan foydalanish
Ijodiy komponent	Multimedia va interfaol vositalardan foydalanish orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish

Ijodiy komponent	Multimedia va interfaol vositalardan foydalanish orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish
Reflektiv komponent	Ta'lim jarayonini tahlil qilish va uning samaradorligini oshirish uchun o'zini o'zi baholash
Ixtisoslashgan fanlarning dolzarbligi va innovatsionligi	Kasbiy bilimlar tizimining zamonaviyligi va innovatsiyasini ta'minlash
O'qituvchilarning ijodiy salohiyati	Yangi ta'lim muammolarini hal qilish va oliy ta'lim sifatini oshirish uchun innovatsiyalarni tizimli ravishda joriy etish
Chet tillarni o'qitish metodikasi	Talabalarning motivatsiyasi va tilni bilish darajasini oshirish uchun interaktiv va multimedia vositalaridan foydalanish
Kasbiy tayyorgarlikdan oldingi pedagogik amaliyot	Nazariy bilimlarni real ta'lim muhitida qo'llash uchun ta'lim tadqiqotlari, pedagogik innovatsiyalar va kasbiy kompetensiyalarni integratsiyalash
Ilmiy-tadqiqot faoliyati	Ishlab chiqarish faoliyatida navigatsiya va moslasha oladigan malakali va moslashuvchan mutaxassisni shakllantirish
Innovatsion tadqiqotlarni targ'ib qilish	Talabalar uchun noyob va samarali yo'llarini ta'minlaydigan yanada teng va samarali ta'lim tizimini yaratish

Bundan tashqari, ijtimoiy kommunikatsiyalar va axborot faoliyatidagi fanlararo integratsiya integratsiyalashgan laboratoriya ishi kabi innovatsion usullardan foydalangan holda bilimlarni baholashni tizimlashtirish va kasbiy vakolatlarni oshirish orqali ta'lim sifatini oshiradi [5]. Shuningdek, muhandislik ta'limiga umumiy gumanitar fanlarning kiritilishi zamonaviy ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash va har tomonlama rivojlangan shaxsni rivojlantirishga yordam beradi. Modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, masalan, korroziya jarayonlarini o'rganish, har tomonlama ta'lim berishda ixtisoslashtirilgan fanlarning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Asosiy jihat	Tavsif	Misollar va usullar	Xulosa
Muhandislik va texnologiya bo'yicha ixtisoslashgan bilimlar	Maxsus bilimlar murakkab muammolarni hal qilish va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun chuqur nazariy va amaliy bilimlarni beradi	Kimyoviy texnologiya va mashinasozlik; zamonaviy texnologiyalar, texnologik jarayonlarni ishlab chiqish, kompyuter yordamida loyihalash kognitiv fan, pedagogika; fanlararo yondashuv korporativ innovatsiyalar; bilimlarning tashqi manbalari ta'lim dasturlari; texnik mexanika va ixtisoslashtirilgan fanlarni kiritish	Ixtisoslashtirilgan fanlar kasbiy malakani oshiradi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi va turli sohalaridagi murakkab muammolarni hal qilishga yordam beradi

<p>Ixtisoslashtirilgan fanlar va amaliy ko'nikmalarning integratsiyasi</p>	<p>Fanlar va ko'nikmalarning integratsiyasi bo'lajak muhandislar uchun har tomonlama ta'lim beradi</p>	<p>texnik mexanika; nazariy mexanika, materiallarning mustahkamligi; dizayn va ma'lumotlarni tahlil qilish; zamonaviy usullar; tuzilmalar va metodologiyalar; o'qituvchilar va sanoat vakillari o'rtasidagi hamkorlik</p>	<p>Ixtisoslashtirilgan fanlarni kiritish va kasbiy mahoratni rivojlantirish har tomonlama ta'lim olish, bitiruvchilarni haqiqiy muammolarni hal qilishga tayyorlash uchun zarurdir</p>
<p>Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) integratsiyasi</p>	<p>AKTdan foydalanish interfaol va qiziqarli ta'limga yordam beradi hamda o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlari va o'z-o'zini bilishini rivojlantiradi</p>	<p>kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish; innovatsion ta'lim texnologiyalari; tadqiqot va o'qitishning sinergiyasi; motivatsion component; kognitiv component; ijodiy component; aks ettiruvchi component; ixtisoslashtirilgan fanlarning dolzarbligi va innovatsionligi; pedagoglarning ijodiy salohiyati; chet tillarni o'qitish</p>	<p>AKTni ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi va talabalarni muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga tayyorlaydi</p>

Xulosa. Muhandislik va texnologiya sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda ixtisoslik fanlar va ixtisoslik fanlarni o'qishda o'zlashtirish natijalarini baholash jarayoniga AKTlarni joriy etish asosiy rol o'ynaydi. Ular chuqur nazariy va amaliy bilim beradi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi va murakkab muammolarni hal qilishga yordam beradi. Amaliy tayyorgarlik va AKTni o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini kafolatlaydigan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi PQ-309-son «Neft va gaz sohasida ta'lim-ishlab chiqarish klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risi»dagi qarori.
2. Nikolaenko S., Bulgakova S., Yasinetska I., Zbaravska L., Dukulis I., Shynkaruk N., Rucins A. (2023). Programming of pedagogical technology for formation of professional competence studying special disciplines in agricultural engineering sciences // Engineering for Rural Development. DOI: 10.22616/erdev.2023.22.tf135
3. Onyshchenko Sv. (2022). To the problem of teaching technical disciplines at preparation of specialists to direction professional education // Naukov' zapiski Berd'ns'kogo der'avnogo pedagog'nogo un'versitetu. DOI: 10.31494/2412-9208-2022-1-2-304-310
4. Pathak R., Shah M. (2017). Issues for research and innovation in education // Social Science Research Network.
5. Malykhin A. (2022). Interdisciplinary approach: the essence and features of implementation in the methodological training of future teachers of labor education and technology // Naukov' zapiski Berd'ns'kogo der'avnogo pedagog'nogo un'versitetu. DOI: 10.31494/2412-9208-2022-1-1-240-250

DIDAKTIK ASAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI O'RTASIDA ODOB-AXLOQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Shamalikova Dilfuza Shoyunusovna, O'zPFITI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining odob-axloq ko'nikmalari rivojlanishi uchun pedagogik shart-sharoitlar zarur muhit va o'quvchida olijanob fazilatlarini tarbiyalashga ta'sir qiluvchi omillari ochib berilgan. Shuningdek, boshlang'ich maktabning o'quv jarayoniga etnopedagogik komponentning kiritilishi o'quvchilarning odob va axloq salohiyatini oshirishi, ularning shaxsiyatining ichki dunyosini boyitilishi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: pedagogik tizimlar faoliyatini takomillashtirish muammolari, zamonaviy pedagogik tadqiqotlar, faoliyat, muvaffaqiyatini ta'minlaydigan pedagogik sharoitlar.

РАЗВИТИЕ ЭТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ СРЕДИ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Шамаликова Дилфуза Шююнусовна, самостоятельный исследователь УзНИИПН

Аннотация. Педагогические условия необходимы для развития нравственных навыков учащихся младших классов и выявлены факторы, влияющие на воспитание благородных качеств у ученика. Считается также, что включение этнопедагогического компонента в учебный процесс начальной школы позволит существенно повысить морально-нравственный потенциал учащихся и обогатить внутренний мир их личности.

Ключевые слова: проблемы совершенствования деятельности педагогической системы, современные педагогические исследования, деятельность, педагогические условия, обеспечивающие ее успех.

DEVELOPMENT OF ETHICAL SKILLS AMONG PRIMARY CLASS STUDENTS BASED ON DIDACTIC WORK

Shamalikova Dilfuza Shoyunusovna, independent researcher of UzSRIPS

Abstract. Pedagogical conditions are necessary for the development of moral skills of elementary school students and the factors influencing the education of noble qualities in the student are revealed. It is also thought that the inclusion of ethno-pedagogical component in the educational process of the primary school will significantly increase the moral and moral potential of the students and enrich the inner world of their personality.

Key words: problems of improving the activity of pedagogical systems, modern pedagogical research, activity, pedagogical conditions that ensure its success.

Kirish. Zamonaviy pedagogikani tadqiq qilishda didaktik sharoitlar mavjud o'quv sharoitlari hisobga olinadigan holatlar, shart-sharoitlar sifatida ko'rib chiqiladi, ushbu shartlarni o'quv maqsadlari yo'nalishi bo'yicha o'zgartirish usullari ta'minlanadi, tarkibiy elementlar, usullarva ta'limning tashkiliy shakllari hisobga olingan holda quriladi va qo'llaniladi, ya'ni ular didaktik maqsadlarga erishish uchun kontent elementlarini, usullarini, shuningdek, o'qitishning tashkiliy shakllarini maqsadli tanlash, loyihalash va qo'llash natijasida harakat qiladi.

Asosiy qism. Pedagogik tizimlar faoliyatini takomillashtirish muammolari bilan bog'liq zamonaviy pedagogik tadqiqotlarga katta qiziqish uyg'otadigan jihatlardan biri – bu amalga

oshirilayotgan faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan pedagogik sharoitlarni aniqlash, asoslash va tekshirishdir.

Psixologik-pedagogik sharoitlar olimlar tomonidan pedagogik jarayon subyektlari yoki obyektlari (o'qituvchilar yoki maktab o'quvchilari) shaxsining rivojlanishiga, o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga muayyan pedagogik ta'sir choralari ta'minlash uchun mo'ljallangan sharoitlar sifatida qaraladi.

Sh.A.Amonashvilining ta'kidlashicha, pedagogik jarayonning samaradorligi uchun maxsus pedagogik sharoitlarni aniqlash, asoslash va yaratish kerak. Olim rivojlanish shartlarini zarur va yetarli deb ajratadi.

Rivojlanayotgan ta'lim va tarbiyani belgilaydigan boshlang'ich sinf o'quvchilarining paydo bo'lishi, mavjudligi va rivojlanishining samaradorligining ichki obyektiv muntazamligi zarur shart-sharoitlardir. Kerakli pedagogik sharoitlarga quyidagilar kiradi: o'qituvchining bolalarga bo'lgan cheksiz sevgisi; bola diqqatini jamlashi, o'zini chuqur o'rganishi, aks ettirishi, yaratishi uchun tinch muhit yaratish; boshlang'ich sinf o'quvchilarining nuqtai nazar va ular bilan muloqotda bo'lgan o'qituvchining nutqi; ijodiy sabr-toqat, buning yordamida odam o'zini «nihoyat g'azabdan» xalos qilishi mumkin. U bizning yashirin ta'lim energiyamizni o'z ichiga oladi; boshlang'ich sinf o'quvchilarini kelajakda maktab bilimlariga, shuningdek, o'zlari hayotni rag'batlantirish va o'z manfaatlari va sharoitlariga muvofiq ravishda oladigan bilimlarga asoslangan hayotga tayyorlash.

Taklif etilayotgan pedagogik shart-sharoitlarni samarali tashkil etish va qo'llash bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni yaxshilanadi. Yetarli sharoitlar rivojlanishning sabablari, asoslari, qarama-qarshiliklari bilan bog'liq. Kerakli va yetarli sharoitlarning yo'qligi yoki yetishmasligi boshlang'ich sinf o'quvchilarining, shu jumladan, ta'lim, o'qitish va ijtimoiylashuvning rivojlanishini to'xtatish yoki sekinlashtirishga olib keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining odob-axloq ko'nikmalari rivojlanishi uchun pedagogik shart-sharoitlar zarur muhit va o'quvchida olijanob fazilatlarni tarbiyalashga ta'sir qiluvchi omillarni yaratishda o'z aksini topadi. Sh.A.Amonashvili boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsining odob va axloqiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan o'quvchilar bilan ishlash tamoyillari, shartlari va mazmunini ilmiy asoslab berdi va maktab amaliyotida sinovdan o'tkazdi.

Boshlang'ich maktabning o'quv jarayoniga etnopedagogik komponentning kiritilishi o'quvchilarning odob va axloqiy salohiyatini sezilarli darajada oshirishi, ularning shaxsiyatining ichki dunyosini boyitishi mumkin. Hissiy idrok bilish jarayonida ham, ta'lim jarayonida ham ta'minlanadi. Shunday qilib, muloqot didaktik asarlardan foydalanishga asoslangan odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini o'z ichiga oladi [1].

Didaktik asarlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida uch bosqich kuzatilmoqda.

Birinchi bosqichda asosiy e'tibor o'quvchilarni o'quvchilar uchun tegishli va muhim ma'noga ega bo'lgan turli xil faoliyat va shakllarga, hukmlar, baholar, motivlar, intilishlar va ma'lum bilim va odob-axloqiy ma'nolarga jalb qilishga qaratiladi.

Ikkinchi bosqichda barqaror xulq-atvor usullarini birlashtirish va odob-axloqiy ma'noda yangi, yuqori xulq-atvor motivlarining paydo bo'lishi uchun odob-axloq ko'nikmalari harakatlar tajribasini chuqurlashtirish va kengaytirish mavjud.

Uchinchi bosqichda odob-axloq ko'nikmalari tajribasini chuqurlashtirish va tarbiyalash, muayyan sharoitlardan qat'i nazar, nafaqat mazmunan, balki mukammal ma'noda ham ishtiyiq bilan shakllanadi.

Odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida uch davr kuzatiladi:

Birinchi davrda muhim va mazmunli g'oyalar, mulohazalar, baholar, motivlar, intilishlar va o'quvchilarni ma'lum bir kognitiv va odob-axloqiy ma'noga ega bo'lgan faoliyatning turlari va shakllariga kiritishga e'tibor qaratiladi.

Ikkinchi davrda barqaror xulq-atvor usullarini mustahkamlash va xulq-atvorning yangi, yuqori odob-axloqiy motivlarini tug'ilishi uchun odob-axloq ko'nikmalari harakatlar tajribasini chuqurlashtirish va kengaytirish mavjud.

Uchinchi davrda esa, odob-axloq ko'nikmalari harakatlar tajribasini chuqurlashtirish va tarbiyalash, muayyan vaziyatlardan qat'i nazar, nafaqat mazmunga, balki bajarilgan ishlarining ma'nosiga ham ishtiyiq shakllanadi.

N.I.Boldirev, I.F.Xarlamov, T.Ye.Konnikova turli yosh davrlarida odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun turli xil imkoniyatlar mavjudligini aniqladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish muammolari ustida ishlashda ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Misol uchun, o'yinga qiziqish. O'yin munosabatlari sharoitida bola ixtiyoriy ravishda mashq qiladi, normativ xatti-harakatlarni o'rganadi. O'yinlarda, boshqa joylarga qaraganda, boladan qoidalarga rioya qilish qobiliyati talab qilinadi. Ular o'yindagi xatolarni alohida keskinlik bilan payqashadi va murosasiz ravishda qoidabuzarni qoralashlarini bildiradilar. Agar bola ko'pchilikning fikriga bo'ysunmasa, u juda ko'p yoqimsiz so'zlarni tinglashi va hatto o'yinni tark etishi kerak. Shunday qilib, bola boshqalar bilan hisoblashni o'rganadi, haqiqat, halollik, adolat saboqlarini oladi. O'yin o'z ishtirokchilaridan qoidalarga muvofiq harakat qilishni talab qiladi [2]. Psixologlarning fikriga ko'ra, 6-7 yoshli bolalar 7-10 daqiqadan ko'proq vaqt davomida biron bir mavzuga e'tibor qarata olmaydilar. Keyin ular chalg'ishni boshlaydilar, e'tiborini boshqa fanlarga o'tkazadilar, shuning uchun darslar davomida faoliyatni tez-tez o'zgartirish zarur. Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik sharoitlar turlarining xususiyatlarini umumlashtirish ilmiy-pedagogik ishlarda ilmiy yangilik va maxsus tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini belgilaydigan eng muhim vazifalardan birini aniqlashga imkon beradi.

Umuman olganda, pedagogik sharoitlar – bu o'quv jarayoni natijasining turli bosqichlarida uning samaradorligiga erishishni birgalikda belgilaydigan pedagogik faoliyatga qaratilgan maxsus asoslangan va uyushgan holatlar majmui [3].

Shunday qilib, har tomonlama tahlil natijalari «sharoit» tushunchasi umumiy ilmiy va uning pedagogik jihatdagi mohiyati bir nechta qoidalar bilan tavsiflanadi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi: sabablar, holatlar, har qanday obyektlarning umumiyligi; belgilangan umumiylik insonning rivojlanishi, tarbiyasi va tarbiyasiga ta'sir qiladi; sharoitlarning ta'siri rivojlanish, tarbiyalash va o'qitish jarayonlarini tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi, shuningdek, ularning dinamikasi va yakuniy natijalariga ta'sir qilishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligining asosiy pedagogik shartlari barcha darslarda maktab soatlarida (o'qitish usullari, tashkiliy shakllar) yuqori darajadagi bilim faolligi, jamoaviy hayot muhiti, faoliyatning ijtimoiy qimmatli maqsadlariga intilish, o'zaro munosabatlarning gumanistik uslubi, o'qituvchi va o'quvchilar, har bir o'quvchining o'quv faoliyatidagi faol pozitsiyasi kabilardan iborat [4]. Shunday qilib, «psixologik-pedagogik sharoitlar» atamasini tushuntirishga tahliliy yondashuvlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda, quyidagilar belgilanishi mumkin: psixologik-pedagogik sharoitlar pedagogik jarayonning zarur tarkibiy qismi sifatida hamda

psixologik va pedagogik sharoitlar tuzilishi quyidagilarga ta'sir qiladi: a) ta'lim tizimi obyektlarining protsessual komponentlari; b) o'quv jarayonida subyektning shaxsiy rivojlanishi.

Ushbu paragrafda biz didaktik asarlar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shartlarni aniqladik: ta'lim mazmuni va usullarini takomillashtirishda folklorning axloqiy mazmunini aktuallashtirish; maktabda va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirishning etno-pedagogik yo'nalishini ta'minlash; boshlang'ich sinf o'quvchilarini didaktik asarlarning odob va axloqiy qadriyatlari bilan tanishtirishda oila va maktabning birgalikdagi faoliyatini ta'minlash.

Shunday qilib, didaktik asarlar orqali boshlang'ich maktab o'quvchilarining odob-axloq ko'nikmalari xususiyatlariga quyidagilar kiradi: boshlang'ich maktab o'quvchilarini odob va axloqiy munosabatlarni ongli ravishda faol o'zlashtirish uchun samarali tarbiyalash istagi; atrof-muhitga ta'sir qilish istagi, ularning yutuqlarini boshqalar tomonidan tan olish; vatanparvarlik, mehribonlik, qarindoshlar, fuqarolikka hurmat, ekologik sharoitlar, kompetensiya, bag'rikenglik, ijtimoiy birdamlik, hayotiy qadriyatlarni tizimini egallash [5]; o'quvchi shaxsiyatiga va boshqalarning qo'llab-quvvatlashiga kognitiv e'tibor.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini eng samarali odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan quyidagi pedagogik sharoitlar aniqlandi: didaktik asarlar (she'rlar, hikoyalar, maqollar, afsonalar) yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining odob va axloqiy g'oyalari asoslarini shakllantirish uchun 4-sinf o'quv materialining tarkibiy tahlilini o'tkazish; didaktik vositalar (she'rlar, hikoyalar, maqollar, afsonalar) materialining mazmuni va shakllarini tanlashda boshlang'ich maktab o'quvchilari o'rtasida odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish; boshlang'ich sinf o'quvchilarining odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradigan odob va axloqiy tushunchalar tizimidan xabardor qilish va faol o'zlashtirishga qaratilgan eng samarali usul va usullarni qo'llash.

Adabiyotlar:

1. Hasanboyeva O. Milliy-ma'naviy qadriyatlarda komil inson tarbiyasi. - T.: O'qituvchi, 2011. - 141 b.
2. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar va izohli lug'ati. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. - 447 b.
3. Usmonov M. Avestoda inson madhi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. - T., 2000. - 20-dekabr.
4. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. - T.: Universitet, 1998. 43 b.
5. Abu Rayhon Beruniy. Qadimga xalqlardan qolgan yodgorliklar. - T.: Fan, 1989. - 40 b.

BOSHQARUV MASALALARI SHARQ MUTAFAKKIRLARI TALQINIDA

Abdulxayeva Maxiraxon Boriyxonovna, *Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada sharq mutafakkirlarining boshqaruv san'atiga doir ilg'or fikr mulohazalari bayon etiladi.

Tayanch so'zlar: *Sharq, boshqaruv, davlat, vazifa, idora, adolat, fazilat, faoliyat.*

ВОПРОСЫ УПРАВЛЕНИЯ В ТОЛКОВАНИЯХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Абдулхаева Махирахон Борихановна, *самостоятельный соискатель Национального научно-исследовательского института повышения квалификации педагогов и обучения новым методам*

Аннотация. В данной статье представлены передовые взгляды восточных мыслителей на искусство управления.

Ключевые слова: *Восток, управление, государство, миссия, должность, справедливость, добродетель, деятельность.*

ISSUES OF MANAGEMENT IN THE INTERPRETATIONS OF EASTERN THINKERS

Abdul Khaeva Makhiraxon Borikhanovna, *independent researcher at the National research institute for advanced training of teachers and teaching new methods*

Abstract. This article presents the advanced views of Eastern thinkers on the art of management.

Key words: *East, management, state, mission, position, justice, virtue, activity.*

Kirish. Insonning rahbar sifatida kamol topib rivojlanishida jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy omillar xam muhim o'rin tutadi. Sharq xalqlariga xos jamoaviylik, G'arbdagi individualizmdan farqli ravishda, kishilarning o'zaro birligini ta'minlashga qaratilgandir. Jamoa ta'sirida shakllanib, rivojlangan tafakkur doimo bir-birini qo'llab yashash xususiyatiga moyil bo'ladi. Shu bilan birga, o'zgalar taqdiriga mas'uliyat hissi ham ortadi. Binobarin, rahbarning bir o'zi barcha imkoniyat va salohiyatini yuzaga chiqarolmaydi. Buning uchun u muayyan jamoaga tayanishi lozim. U jamoaga tayangan taqdiridagina orzu-istaklarini kengroq ko'lamda ro'yobga chiqarish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Asosiy qism. Sharqda jamoani boshqarishda yetakchi rahbarda muayyan axloqiy sifatlar mavjud bo'lishi lozimligi to'g'risida ko'plab g'oya va qarashlar, fikr-mulohazalar bayon etilgan. Xususan, qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfutsiy (eramizdan av. 551-479 yy.) shunday deydi: «Xalq ma'muriy buyruqbozlik bilan boshqarilsa, uning xatti-xarakatlari iskanjalari yordamida tartibga solinsa, oddiy xalq majburan o'zini jinoyat sodir etishdan tiyib turadi, lekin jinoyatning isnodligini tushunib yetmaydi. Xalq muruvvat va ishonirish yo'li bilan boshqarilsa va axloq qoidalari, adolatga asosan boshqarilsa, bunday xalq egrish qilish isnodligini tushunadi. Shuningdek, o'z xatolarini o'zi to'g'rilay oladi».

Qadimgi so'g'd yozma yodgorliklari orasida V.B.Xen tomonidan aniqlangan va «Eski xatlar» nomi bilan yuritiladigan qimmatli manbalarda ham [1] aholi ma'lum hajmga yetganida (40 dan ortiq xonadon) so'ng ular orasidagi oliyjanob va obro'li kishilar orasidan

jamo'a boshlig'i yoki oqsoqoli saylanganligi, u asosan kundalik hayot va jamiyat hayotini tartibga solish bilan bog'liq turli xil funktsiyalarni bajarganligi, xususan: iqtisodiy masalalarni hal qilish, marosimlarni o'tkazish va boshqa ommaviy tadbirlarga rahbarlik qila olishga qodir insonlar tanlanganligiqayd etilganligini ko'rishimiz mumkin [2]. Bu mulohazalardan ko'rinib turibdiki, Sharqda qadimdan buyruqbozlik tizimi qoralanib, axloq va adolat qoidalari ustuvor g'oya sifatida ilgari surilgan. Garchi mazkur fikrlar bundan qariyb uch ming yil ilgari aytilgan bo'lsa-da, shu kunga qadar o'z ahamiyatini saqlab qolgan bilan qimmatlidir.

Mutafakkir ajdodlarimiz ta'limotlarida, xalq ijodiyotida adolatli va odil shoh to'g'risidagi ma'lumotlar haddan ziyod ko'p. Abu Nasr Forobiy, Abu Bakr al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy va boshqalarning qo'lyozmalarida rahbar (yuksak lavozim egallaganlar nazarda tutiladi) insonlarning shaxsiy fazilatlarini, ularning oldida turadigan murakkab, mas'uliyatli vazifalar, ayrim illatlarning oldini olish va bartaraf qilish yo'l-yo'riqlari bo'yicha ibratli fikrlar bildirilgan. Ayniqsa, rahbaming fahm-farosati, donishmandligi haqqo'yligi, xalqparvarligi, insof-diyonatligi, sahovat peshaligi ilmiy-amaliy namunalar asosida ta'kidlab o'tilgan. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy [3] yaqin va o'rta sharqda ilg'or ijtimoiy-falsafiy oqimning asoschilaridan bo'lib, «Sharq Aristoteli» degan unvonga sazovor bo'lgan mashhur shaxsdir. U o'rta asr mutafakkirlaridan birinchi bo'lib jamiyatning kelib chiqishi va davlatni boshqarishning asosi haqidagi bilimlar tizimini ishlab chiqdi hamda bu masalalarni bir qator asarlarida batafsil bayon etib berdi. Abu Nasr Forobiyning «Baxtga erishish haqidagi traktat», «Davlat arboblari haqidagi aforizmlar» kabi asarlarida jamiyatning kelib chiqishi, davlatning paydo bo'lishi, uning shakllari, davlat rahbarining vazifalari, ular oldiga qo'yilgan asosiy talablar, davlatni idora etish usullari haqida o'zining chuqur falsafiy-siyosiy qarashlarini bayon qiladi. Forobiy shahar, davlat rahbarlarining haqiqatgo'y, yolg'onga, adolatsizlikka, zulmga qarshi keskin kurashuvchi, boylikka jirkanib qarovchi, adolatni o'z tabiati bilan sevuvchi, botir va qat'iy bo'lishi zarurligini ta'kidlab o'tadi. U davlatni boshqarishda donolar yordamiga suyanish, ular bilan maslahatlashib ish yuritish, boshqaruv apparatiga ega har tomonlama yetuk dono, halol va kamtarin kishilarni jalb qilishni eng to'g'ri yo'l deb biladi. Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida insonlarning yaxshi hayot kechirishi boshqaruvchi, ya'ni rahbar shaxsiga bog'liq ekanligini, uning turli fazilatlarini bu borada unga yordam berishini uqtiradi hamda rahbar shaxsi uchun gumanistik, insonparvarlik xususiyatlari muhimdir deb ta'kidlaydi. Forobiyning bu fikrlaridan ko'rinadiki, rahbar shaxsi, birinchi navbatda, o'zini yomon odatlardan ozod qila olishi, boshqalarni yaxshi ishlarga ruhlantira olishi kerak ekan. Bu fikrlarning bugungi kunimiz uchun ham ahamiyati pasaymaganligini kuzatish mumkin.

Abu Bakr al-Xorazmiy ilmiy ma'rifat yordamida xalqni jaholat va nodonlikdan qutqarish, jamiyatdagi adolatsizliklarni yo'q qilish mumkinligini, mamlakatni obod, xalqni bahtiyor qilishning asosiy sharti adolat ekanligini ta'kidlab, mamlakat hukmdorini adolatli bo'lishga chaqiradi: «Agar hokimiyat atrofida adolat hukm surmasa, u inqirozga yuz tutadi. G'azab hurmatni unutadi, yaxshiliklarni ko'mib yuboradi va begunohlar uchun jinoyatlarni vujudga keltiradi. Rahbarlikdagi to'g'ri yo'l nafsni tiya bilish, adolat bilan ish tutishdir» deb, rahbarlarni adolat bilan boshqaruvga chaqiradi.

O'rta Osiyoning buyuk donishmandlaridan biri bo'lmish Abu Rayhon Beruniy ham boshqaruv va boshqaruvchi shaxsi xususida o'zining bir qator fikr-mulohazalarini bayon etgan. U har bir kishiga baho berish uchun, uning qilgan ishini kuzatish mumkinligini ta'kidlaydi: «Har bir odamning bahosi o'z ishini ajoyib bajarishidadir». Uning fikricha, tabiatan boshqarishga moyil bo'lgan rahbar o'z fikri va qarashlarida qat'iy bo'lishi, ishlarni amalga oshirishda

donishmandlar tomonidan bildirilgan ilg'or mulohazalarga bo'ysunishi va adolat o'rnatishi lozimdir. Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi feodal tarqoqlik va islom siyosiy mafkurasi hukmronlik qilayotgan bir zamonda shakllanadi. Beruniy jamiyatni boshqarishda jamiyat podshoga xizmat qilmay, balki podsho jamiyatga xizmat qilishi kerakligini tushungan holda: «Idora qilish va boshqarishning mohiyati yo'qotishdan iboratdir» [4], – deydi. U Xorazmshoh Ma'mun II saroyida hukmdorning maslahatchisi bo'lib xizmat qilgan chog'larida ham mamlakat siyosiy ishlarida faol qatnashgan, shoxga juda ko'p foydali siyosiy maslahatlar bergan, siyosiy tavsifanomalar ishlab chiqib taqdim etgan edi. Beruniy o'zining orzu-umidlarini odil hokimlar bilan bog'lagan bo'lsa-da, lekin ideal shox o'sha davrda topilmasligini va bo'lishi ham mumkin emasligini his etadi. U johil va zolimlarning mavjudligi tufayli zulm va zo'ravonlik kuchayadi, boylikka xirs qo'yiladi, deb ta'kidlaydi.

Abu Ali ibn Sinoning davlat boshqaruvi haqidagi fikr-mulohazalari tahsinga loyiqdir. Ibn Sino «Risolai tadbiri manzil» asarida agar hamma odamlar shoh, sultonlardan iborat bo'lsa, yoki hammalari oddiy mehnatkash bo'lsalar edi, ularga rahbarlik qiluvchi xonlar, sultonlar bo'lmas edi. U jamiyatdagi moddiy tengsizlikni e'tirof etib, insonlarning boyib ketishlariga va aksincha kambag'allashib ketishlariga qarshi chiqadi.

Sharq mamlakatlari xalqlarining madaniy-ma'naviy taraqqiyotida ulkan hissa qo'shgan allomalardan biri Yusuf Xos Hojibdir. XI asming yirik allomalaridan Yusuf Xos Xojib o'zining «Qutadg'u bilig», ya'ni «Saodatga boshlovchi bilim» asarida yurt boshqaruvchilar va amaldorlar o'zlashtirishlari zarur bo'lgan sifatlarni shunday tasniflaydi. Unga ko'ra, boshqaruvchi» dono, botir, sheryurak bo'lishi kerak. Uning bilimli, zakovatli, adolatli, mulohazakor bo'lishi taqozo etiladi. Ochiq yuzlilik, hushyorlik, sergaklik eng yaxshi fazilatlardir. Uning fikriga ko'ra, har bir boshqaruvchi o'z ishining ustasi, ilm fanni egallagan, uning turli sohalar borasida fikr yurita oladigan, so'zga chechan, zehni, fahm farosatli, himmatli, ko'zi to'q, ochiq ko'ngil, sahiy, tadbirkor, zukko, hushyor, jiddiy, qanoatli, jasur, sog'lom, samimiy, sadoqatli, o'z so'zining ustidan chiqadigan, andishali, she'r bahsida ishtirok etib, o'zi ham she'r to'qiy oladigan, shatranj (shaxmat), chavgon (ot sporti) o'ynay oladigan, merganlik kabi xislatlarga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Sharqning buyuk allomalaridan biri Jaloliddin Davoniy mashhur asari «Axloq Jaloliy» kitobida inson kamoloti uchun zarur axloqiy fazilatlar yo'llari va usullarini bayon etadi. Asar uch qismdan iborat. Birinchi qism – axloq faniga, ikkinchi qism – «Odamning ichki holati» oilaviy hayotiga, uchinchi qism – «shahami (davlatni boshqarish va podshohlar siyosati) deb atalib, unda muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar ko'tariladi. Davoniy ham Forobiy kabi shaharlarni odil podsho idora qilsa va o'z hukmlarida adolatga rioya qilsa, ta'magirlikni, aql bilan daf etsa, johil shahar boshlig'i o'z manfaatini ko'zlab ish yuritadi va boylikka hirs qo'yib, xalq fikri bilan hisoblashmaydi, deydi. Davoniy olimlarning jamiyatda, davlatni boshqaruvda tutgan o'miga katta ahamiyat beradi. Uning fikriga ko'ra, haqiqiy olim davlat ishlarida faol qatnashishi, jamiyatga foyda keltiradigan murakkab muammolarni yechishda ishtirok etish kerak. Olimlar tabiat sirlarini o'rganish, ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanishi, omma o'rtasida adolat qoidalari, odob-axloq normalarini tarqatish bilan shug'ullanishi boshqalardan ilgarigi safda turishi kerak. Ularning maslahatlaridan davlat muassasalari boshqaruvchilar foydalanishi muhim, – deb uqtiradi.

Muallif fozil shahar boshqaruvchilari haqida gapirib, ularda o'nta eng yaxshi fazilat mujassamlashgan bo'lishi kerak, deydi. Bular quyidagilar: 1) hukmdor odamlarni e'zozlashi kerak; 2) davlat ishlarini adolatli ijro etishi kerak; 3) hirs va sha'vatga berilmasligi kerak; 4) hukmdorlikda shoshma-shosharlikka va g'azabga yo'l qo'ymasligi, balki shafqat va

muruvvatga asoslanishi kerak; 5) xalqning e'tiyojini qondirishga oid ishlarni bajarishga harakat qilishi kerak; 6) xalqning ehtiyojini qondirish uchun xudoning irodasidan kelib chiqishi kerak; 7) xalqqa nisbatan odil bo'lishi kerak; 8) har bir ishni maslahatlashib, kengashib hal etishi kerak; 9) har bir kishini uning qobiliyatiga monand lavozimga tayinlashi, qobiliyatsiz kishilarga yuqori lavozim bermasligi kerak; 10) adolatli farmonlar chiqarish, qonunni buzishga yo'l qo'ymasligi kerak.

Sharq ilm-fani tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan allomalardan biri Abdurahmon Jomiydir. Alloma o'z ijtimoiy-siyosiy qarashlarida zulm tugatilgan, ezuvchi ham, eziluvchi ham bo'lmagan, barcha teng huquqqa ega bo'lgan fozil jamiyatni orzu qiladi. Fozil jamiyatning bunyodkorini adolatli xalqparvar shoh siymosida ko'radi. Bunday davlat boshlig'ining ijtimoiy qiyofasini o'zining «Xirodnomai Iskandar» (Iskandar aqlnomasi) asarida Iskandar obrazida gavdalan tiradi. U xalq dardi bilan yashovchi, uning dardiga quloq soluvchi, nohaq qon to'kishning oldini oluvchi hukmdor haqida orzu qiladi. Abdurahmon Jomiy adolatli shohning eng oliyjanob fazilati odillik deb o'ylaydi. Odillikni nurga qiyos qiladi. Zo'rlikni esa, zulmatga o'xshatadi.

Buyuk shoir va davlat arbobi Alisher Navoiyning siyosiy qarashlarida odil hukmdorlarga, el yurtga adolatli tuzum o'rnatilishiga qat'iy ishonch, katta umid gavdalanadi. Shoiming fikriga ko'ra, davlatni boshqaradigan hukmdor yaxshilik, ezgulik bilan nom chiqarishi, savodxon, ilimli, xususan tarixni yaxshi bilishi, eng muhimi – axloqan pok bo'lishi zarur. Navoiyning boshqaruvga oid qarashlarida boshqaruvchi adolat, qat'iqo'llik, ziyraklik, kamtarlik, odillik, kechirimlilik, muloyimlik va rostgo'ylik yetakchilik qiladi: «Shoh ham lutf marhamatli, ham siyosat egasi (qat'iqo'l) bo'lmog'i kerak. Ammo har biri o'z o'mida yaxshi. Shohga do'st bilan dushmani farq qilmoq uchun, yomi ag'yordan ajratmoq uchun ko'p tajriba va ziyraklik kerak. Zero, shohning siyosatidan hamma xavfda va marhamatidan barcha umidda bo'ladi. Shoh-xalqqa o'zini kamtarin bir odam sifatida ko'rsatmog'i zarur» [4].

Buyuk sarkarda, sohibqiron Amir Temur ham katta bir saltanatning asoschisi, rahbari sifatida boshqarish va rahbarlik masalalariga oid kuchli tamoyillarni yaratgan. Amir Temur fikricha, saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilish lozim: kengashmov; mashvaratu maslahat yuritmoq; qat'iy qaror chiqarmoq, tadbirkorlik, hushyorlik hamda e'tiyotkorlik qilish deb hisoblaydi. Uning fikricha: «Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir», ya'ni uni nafaqat sinab ko'rish lozimligi, balki rahbarning individual-psixologik xususiyatlari, shaxsiy yo'nalganligi, e'tiqodi, e'tiyoji, motivi kabilarni inobatga olish, bu rahbarlarni rag'batlantirish, yuqori lavozimlarga ko'tarish yoki jazolash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi ham Amir Temur tuzuklarida bayon etib berilgandir.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, bizning hududimizda yashab ijod etgan mutafakkirlar, davlat arboblari, namoyandalar asarlari va qarashlari boshqarish, rahbarlik muammolariga bag'ishlangan bo'lib, ularda ijtimoiy voqealikka nisbatan ijtimoiy-psixologik yondashish, insonparvarlik g'oyalari ustuvor etib olingandir.

Adabiyotlar:

1. Исҳоқов М. Сўғдиёна тарих чорраҳасида. - Т.: Фан, 1990.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/sogdiyskie-starye-pisma-kak-istochnik-po-izucheniyu-sogdiyskoy-kolonizatsii>
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. - Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. - 160 b.
4. Алишер Навоий. Махбубул-қулуб. - Т.: Ёшлар нашриёт уйи, 2018. - 173 б.

AJDODLARIMIZ MEROSINI O'RGANISH JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING SAVODXONLIK KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Sanoev G'aybullo Abdurahmonovich, BuxDU tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk ajdodlar merosini o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik ahamiyati haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: *meros, rivojlanish, boshlang'ich sinf o'quvchisi, mexanizm, takomillash-tirish, o'quv jarayoni.*

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ НАСЛЕДИЯ НАШИХ ПРЕДКОВ

Sanoev Gaiybullo Abdurakhmonovich, соискатель БухГУ

Аннотация. В данной статье сказано о педагогическом значении развития навыков грамотности у учащихся начальных классов в процессе изучения наследия великих предков.

Ключевые слова: *наследие, развитие, учащийся начальных классов, механизм, совершенствование, процесс изучения.*

PEDAGOGICAL IMPORTANCE OF DEVELOPING LITERACY SKILLS IN PRIMARY CLASS PUPILS IN THE PROCESS OF STUDYING THE HERITAGE OF OUR ANCESTORS

Sanoev Gaibullo Abdurakhmonovich, applicant for BukhSU

Abstract. This article talks about the pedagogical importance of developing literacy skills among primary school students in the process of studying the heritage of great ancestors.

Key words: *heritage, development, primary school pupil, mechanism, improvement, learning process.*

Kirish. Boshlang'ich sinf darslarida xalqaro va milliy o'quv dasturlar mazmunini integratsiyalash natijasida o'quvchilarda ijodkorlik, faollik, moslashuvchanlik, kompetentlilik, savodxonlik kabi ko'nikmalarni tarkib toptirishda ajdodlarning shaxs kamoloti va ma'naviyatiga oid ta'limotlarini bugungi talablar bilan qiyosiy tahlil etgan holda tadbiq etish o'ziga xos dolzarblik kasb etmoqda.

Asosiy qism. Mamlakatimizda uchinchi Renessans davriga poydevor qo'yilayotgan bugungi «axborot asri»da savodxonlik ko'nikmasi yuqori darajada rivojlangan kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratish, «...buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak» [1].

2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida o'quvchilarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda ajdodlar merosidan foydalanishni ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Buning uchun fikr tarbiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tashkil etish, xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga tayanish, ilmiy-nazariy va kompleks tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturining joriy etilishi yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarga, mustaqil

fikrga ega bo'lgan yosh avlodni intellektual darajada savodxon qilib tarbiyalash eng muhim vazifa sifatida belgilab berilgan.

Savodxonlik – millat yuksalishining eng muhim jihatlardan biri bo'lib, u faqat ta'lim tizimidagi alohida tarmoq bo'lmay, davlatning barcha sohasidagi birlamchi masaladir. YUNESKOning 1958-yil Parijda bo'lib o'tgan 10-sessiyasida barcha mamlakatlarda savodlilik tushunchasini bir xillashtirish maqsadida yozuvni tushunib o'qiy oladigan va o'zining kundalik hayotini yozma ravishda bayon qila biladigan kishilarni savodli hisoblashga kelishilgan va YUNESKOning 1966-yilda bo'lib o'tgan Bosh anjumanida 8-sentyabr – Xalqaro savod tarqatish kuni ekanligi belgilab qo'yilgan. Savodxonlik – aholi madaniy saviyasi ko'rsatkichlaridan biri; odamning adabiy til normalariga muvofiq keladigan og'zaki va yozma nutq; oddiy matnlarni o'qiy olish yoki ularni o'qish va yoza olish; muayyan soha bo'yicha mukammal bilimga; shaxsiy va hayotiy sifatlar; jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida shaxsning ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, madaniy hamda ruhiy saviyasini oshirib borish kabi ko'nikmalariga egalik darajasidir. O'quvchining savodxonlik ko'nikmasiga egalik darajasi uning o'quv topshiriqlarni bajara olishi va yozma ishlarining taqdimoti orqali baholanadi. O'quvchining savodxonlik darajasi uch bosqichda, ya'ni rivojlanayotgan savodxonlik, rasmiy ta'lim va savodxonlik kabi bosqichlarda rivojlantiriladi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimi aholining barcha qatlamini savodxon qilishga qaratilgan bo'lib, bu ma'suliyatli vazifani sifatli amalga oshirish maktab zimmasiga yuklatilgan. Kichik yoshdagi o'quvchining savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirish omillaridan biri – ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlar merosini ilmiy va badiiy manbalar asosida puxta o'zlashtirish orqali ularning ongli, ravon o'qish malakalari, og'zaki va yozma nutqi, savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirib, so'z boyliklarini oshirishdan iborat.

Qadimdan savodlilik insonning eng go'zal xislatlardan biri sanalib, Hazrat Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn», «Mahbub-ul qulub», «Lison ut-tayr», Munisning «Savodi ta'lim» kabi asarlarida o'quvchi savodxonligi masalasining nozikligi va lozimligi haqida uqtilgan. «Bobumoma» asarida Bobuming til sofligini ta'minlashga doir olib borgan islohotlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Boshlang'ich ta'lim dasturida berilgan ajdodlar merosini o'rganish jarayoni o'quvchilarning savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirish bilan birga ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy o'zlikni anglash, qadriyatlarini hurmat qilish kabi shaxsiy sifatlarini ham tarkib toptirishi tajribasini jaraynida aniqlandi.

1-sinf savodxonlik davri egallangan ko'nikmalar natijasida o'quvchilarning ajdodlar merosiga oid matnlar va murakkab so'zlarni o'qish, ma'nosini anglash, mazmunini tahlil qilish malakasini bosqichma-bosqich egallashadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan obyekt-subyekt faoliyati mazmuni aksiologik yondashuvlar bilan boyitilsa, o'quvchilarda ajdodlar merosiga hurmat, ijtimoiy ma'sullik, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish ko'nikmalarini tarkib toptirishga imkoniyat yaratiladi.

Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda jahon ilmu fani rivojiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz hayoti va ijodini o'rgatish, ular qoldirgan bebaho meros haqida bilim berish orqali o'quvchilarning savodxonlik darajalarini yanada oshirishda o'qituvchi quyidagi kasbiy kompetentlikka ega bo'lishi lozim.

«Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim» [2] ekanligi nuqtayi nazaridan boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarga sifatli ta'lim berish, o'qish darslarida ajdodlar merosini puxta o'zlashtirish o'ziga xos ahamiyatga ega.

Ma'lumki, o'qish darslarining maqsad va vazifasi o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini boyitish, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda

muloqot madaniyati, ijoqkorlik hamda tadqiqotchilik qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat bo'lib, aynan ajdodlar merosini o'rganish jarayoni ularning quyidagi savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'qish darslarida ajdodlar merosini o'rganish jarayonida qo'yilgan ta'limiy va tarbiyaviy vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog'liq bo'lib qolmay, balki bolalarni qurshab olgan hayot, tabiatdagi turfa o'zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat bilan ham o'zaro bog'liq bo'lishi lozim. O'quvchilarni ongli savodxon sifatida o'qishga o'rgatishda hayot tajribalariga tayanib ish ko'riladi.

Boshlang'ich sinflarda ajdodlar merosini o'rganish jarayonida bolalarda go'zallikka muhabbat uyg'otadigan, poklik tuyg'ulariga ozuqa beradigan, hissiyotni o'tkirlashtiradigan, aqlni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o'stiradigan fanlar integratsiyasiga asoslanishi zarur omillardan biridir. Ajdodlar merosini o'rganish jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning shaxs sifatida ma'naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonda o'quvchi ajdodlarimiz hayoti bilan tanishtiruvchi matnlardan tashqari jadval, diagrammalardagi topshiriqlarni mantiqiy fikrlab, tanqidiy, kreativ yondashsagina o'quvchining savodxonlik ko'nikmasi oshib boradi.

O'quvchi savodxonligini rivojlantirishda o'qitishning texnologik, ijodiy-izlanuvchanlik usulidan foydalanish o'quvchining intellektual qobiliyatini rivojlantirish sharoitida o'quv maqsadlariga erishish imkonini kafolatlaydi. Tavsiyamizdagi metodik mexanizm asosida, ajdodlar merosini o'rganish jarayonida o'quvchilarning savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirishning pedagogik mazmunini mualliflik yondashuvida tasnif etdik: «4K tamoyili → ajdodlar merosi → o'qituvchi → o'quvchi hamkorligi → ongli, ifodali, tushunib o'qish → matn tahlili → og'zaki va yozma nutq → lug'at → aksiologik yondashuv → ijodiy-izlanuvchanlik texnologiyasi → savodxonlik ko'nikmasi → milliy-ma'naviy qadriyat → shaxsiy sifat va qobiliyat → uzviylik va uzluksizlik»dagi ajdodlar merosini o'rganishda o'quvchilarning savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirishni ta'minlovchi ta'lim modelini takomillashtirishga erishdik.

Xulosa. Natijada, o'qish darslari mazmunida berilgan ajdodlar merosini o'rganish jarayonida noan'anaviy tarzda o'tkazilgan «So'z ma'nosi», «Lug'at ishi», «So'zni toping» kabi metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning lug'at boyligi oshib, savodxonlik ko'nikmasi rivojlanishiga erishildi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirishda ularning diqqat va e'tiborini, qiziqishini, tashqi va ichki faolliklarini inobatga olish lozim. Bunda tashqi faollik – tashqaridan va o'z ichki istak-xohish ta'sirida o'quvchining bevosita ko'rish, qayd qilish mumkin bo'lgan harakatlari tushuniladi. Ichki faollik esa, – u yoki bu faoliyatni o'quvchi tomonidan bajarish mobaynidagi pedagogik-psixologik jarayonlarni o'z ichiga oladigan faoliyat tushuniladi. Faoliyat pedagogikada psixologik qonuniyatlarga tayangan holda o'ziga o'quv-biluv jarayonida turli shakl va metodlar orqali, maxsus didaktik tamoyillarni qo'llash asosida tashkil etiladi. Chunki o'quvchi faoliyati o'quv jarayonida bilimlarni o'rganish, malaka va ko'nikmalar hosil qilishi asosida bilishga oid, yaratuvchilik, estetik, kommunikativ vazifalarini bajarib, maqsad, faoliyat predmeti, vositalari, bajarish usullari va natijani o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'qituvchi va ziyolilarga murojaati: <https://uza.uz/uz/posts/prezident-ituvchi-va-ziyolilarga-murozhaat-illo-da-30-09-2020>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi: <https://president.uz/oz/lists/view/4057>

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ДИЗАЙНСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИИ

Норбутаева Дилафруз Абдурасуловна, самостоятельный исследователь УзНИИПН

Аннотация. В данной статье раскрыты педагогические особенности формирования дизайнерских компетенций у будущих учителей технологии.

Ключевые слова: педагогика, формирование, особенность, дизайнер, компетентность, технология, будущий учитель технологии.

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA O‘QITUVCHILARIDA DIZAYNERLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Norbutaeva Dilafruz Abdurasulovna, O‘zPFITL mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola bo‘ljak texnologiya o‘qituvchilarida dizayn kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlarini ochib beradi.

Tayanch so‘zlar: pedagogika, shakllanish, xususiyat, konstruktor, kompetensiya, texnologiya, bo‘ljak texnologiya o‘qituvchisi.

PEDAGOGICAL FEATURES OF FORMATION OF DESIGN COMPETENCIES IN FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS

Norbutaeva Dilafruz Abdurasulovna, independent researcher of UzSRIPS

Abstract. This article reveals the pedagogical features of developing design competencies among future technology teachers.

Key words: pedagogy, formation, feature, designer, competence, technology, future technology teacher.

Введение. Дизайнерская компетенция для будущего учителя технологии является одной из значимых профессиональных качеств, под которой понимается способность успешно применять графические знания, умения и навыки при решении специальных практических задач.

Основная часть. Изучение сущности понятий «компетенция», «компетентность», «профессиональная компетенция» позволило представить структуру этих понятий как симбиоз специальных и социально-личностных составляющих. Дизайнерская компетенция является разновидностью предметно-специализированной, входящей в специальную компетентность.

В педагогической литературе дизайнерская компетенция рассматривается как составная часть профессиональной компетенции будущего учителя технологии, включающая ряд компонентов. В их числе: дизайнерская грамотность – умение читать чертежи, оформлять графическую документацию, выполнять изображение простейших геометрических фигур; дизайнерская информированность – умение находить данные для решения дизайнерских задач; дизайнерские знания – представления об основных графических элементах, способах решения задач, построении графических изображений; дизайнерские умения – готовность студента оперировать пространственными образами, создаваемыми на различной графической основе; дизайнерские навыки – владение навыками абстрактной мыслительной

деятельности, пространственного воображения, изложения технических идей с помощью графического изображения, работы с литературой, готовность к самостоятельной творческой работе.

Особенно актуально формирование у будущего учителя технологии профессиональной дизайнерской компетенции в связи с переходом на усовершенствованные государственные образовательные стандарты основного общего образования и внедрением новой концепции преподавания предмета «Технология». С целью коррекции данного положения дел в ходе подготовки будущих учителей технологии в высшем образовательном учреждении необходимо применять специальные средства, ориентированные на формирование компонентов дизайнерской компетенции у будущих учителей.

В первую очередь, важно определить педагогические условия формирования дизайнерской компетенции у будущих учителей технологии. Первое условие формирования дизайнерской компетенции будущих учителей технологии – это активизация их самостоятельной работы через выполнение творческих заданий. Кроме того, той же цели служит использование различных форм самоконтроля и контроля, выполнение аудиторных контрольных работ.

Вторым условием формирования дизайнерской компетенции у будущих учителей технологии выступает использование метода проектов для организации самостоятельной работы будущих учителей в процессе обучения графическим дисциплинам. Умение создавать проекты пригодится будущим учителям в дальнейшей их профессиональной деятельности – при ведении уроков технологии в общей средней школе.

Кроме того, для активизации формирования дизайнерской компетенции будущих учителей в процессе обучения целесообразно: применение индивидуальных и групповых способов работы на аудиторных занятиях; использование презентаций, видеоматериалов, интернет-источников и наглядных дидактических пособий при изучении теоретического материала; выполнение самостоятельных индивидуальных расчетно-графических работ с привлечением учебной, учебно-методической и справочной литературы; организация и проведение студенческих конкурсов по дизайну и межпредметных олимпиад.

Для эффективного повышения уровня сформированности дизайнерской компетенции будущих учителей актуально также использование в процессе обучения системы принципов, а именно: принципа активности, акцентирующего необходимость деятельной позиции субъектов обучения; принципа кумулятивности знаний, предполагающего непрерывное, последовательное, содержательно-структурированное накопление знаний; принципа самообразования и саморазвития, осуществляемого через самостоятельную когнитивную активность личности; принципа акцентирования основных смысловых образов; принципа комплексности, направленного на обеспечение структурности, взаимосвязанности, взаимозависимости, иерархичности и интегративности компонентов самостоятельной деятельности будущих учителей.

Позитивные тенденции в развитии современного образования свидетельствуют о прогнозируемой потребности в будущих учителях в области дизайна, уровень квалификации которых соответствует требованиям современного общества. Модернизация подготовки будущих учителей в системе высшего образования связана, в первую очередь, с совершенствованием подготовки будущих учителей.

Согласно государственному образовательному стандарту высшего профессионального образования педагог профессионального обучения должен обладать компетенциями в области учебно-профессиональной, научно-исследовательской,

образовательно-проектировочной и организационно-технологической деятельности. Вместе с тем в образовательных программах приоритет отдается педагогической составляющей профессиональной подготовки по сравнению с подготовкой в области специализации. В таких условиях преподаватели высших образовательных учреждений испытывают трудности в выборе форм и методов подготовки педагогов профессионального обучения как специалистов в области дизайна. В результате, как показало исследование, уровень сформированности дизайнерских компетенций у значительной части учителей предмета технология – выпускников педагогических высших образовательных учреждений не соответствует предъявляемым требованиям.

В педагогической теории проблема формирования дизайнерских компетенций у будущих учителей технологии остается недостаточно разработанной; требует уточнения определения сущности и видов дизайнерских компетенций у будущих учителей технологии; недостаточно раскрыты педагогические условия их формирования в период обучения в педагогическом высшем образовательном учреждении.

Анализ теоретических и практических достижений педагогической науки и практики высшего образования в области дизайна позволил выявить противоречие между стоящей перед педагогическими высшими образовательными учреждениями задачей формирования дизайнерских компетенций у будущих учителей, с одной стороны, и недостаточной разработанностью педагогических условий ее решения – с другой стороны.

Формирование дизайнерских компетенций у будущих учителей обеспечивается реализацией следующих педагогических условий:

- построением учебного процесса в соответствии с моделью, основанной на компетентностном, контекстном, деятельностном и личностно ориентированном подходах к обучению дисциплинам специализации;

- введением в процесс обучения дисциплины технологии интегрированных учебных модулей и заданий, построенных на трансферировании содержания учебных дисциплин;

- формированием у будущих учителей опыта квазипрофессиональной деятельности посредством их участия в работе дизайн-студии;

- вовлечением администрации общей средней школы в процесс оценивания результатов художественно-проектной деятельности будущих учителей;

- осуществлением диагностики сформированности дизайнерских компетенций у будущих учителей в целях своевременной коррекции процесса их формирования.

На наш взгляд, для формирования дизайнерской компетенции у будущих учителей технологии важно уточнить сущность и виды дизайнерских компетенций будущего учителя; определить критерии, показатели, охарактеризовать уровни сформированности данных компетенций; раскрыть педагогический потенциал предмета технология для формирования у будущих учителей дизайнерских компетенций; теоретически обосновать педагогические условия формирования дизайнерских компетенций у будущих учителей; экспериментально проверить эффективность предлагаемых нами педагогических условий.

Для решения обозначенных нами задач мы использовали следующие методы исследования: теоретические (изучили педагогическую, психологическую литературу и нормативно-правовые документы по теме исследования, а также использовали анализ, синтез, сравнение, классификацию полученной информации, обобщение, моделирование предмета исследования); эмпирические (педагогический эксперимент, наблюдение, анкетирование, беседа, интервьюирование, опрос, тестирование,

ранжирование, контент-анализ, метод экспертных оценок); математические (статистическая обработка данных, корреляционный и факторный анализы).

Комплексное применение обозначенных выше методов позволило добиться поставленной цели в данном научном исследовании, исходя из которой в процессе проведения опытно-экспериментальной работы уточнена сущность дизайнерских компетенций будущего учителя, выделены виды специальных компетенций (технологическая, художественно-проектная, социально-контекстная, рабоче-профессиональная компетенции); определены критерии (потребностно-мотивационный, когнитивный, деятельностный, результативный), их показатели, по степени соответствия которым охарактеризованы уровни сформированности специальных компетенций (базовый, обязательный, продвинутый, творческий); выявлены и научно обоснованы педагогические условия формирования дизайнерских компетенций у будущих учителей.

Дизайнерские компетенции будущих учителей представляют собой их способность к художественному проектированию, изготовлению объектов дизайна и руководству проектными работами в качестве дизайнера-исполнителя, дизайнера-проектировщика и дизайнера на основе приобретенных знаний и освоенных обобщенных способов действий.

К дизайнерским компетенциям будущих учителей относятся: технологическая компетенция (владение технологией и методикой процесса проектирования объектов предметно-пространственной и визуально-коммуникативной среды); художественно-проектная (способность к художественному проектированию объектов предметно-пространственной и визуально-коммуникативной среды); социально-контекстная (способность к художественному проектированию и изготовлению объектов предметно-пространственной и визуально-коммуникативной среды в соответствии с социокультурным контекстом); рабоче-профессиональная компетенция.

Уровень сформированности дизайнерских компетенций определяется степенью соответствия следующим критериям и их показателям: потребностно-мотивационному, включающему положительную мотивацию к деятельности в области дизайна, к овладению технологией и методикой художественного проектирования объектов дизайна; в когнитивном, показателями которого являются знания технологии и методики проектирования и изготовления объектов предметно-пространственной и визуально-коммуникативной среды, архитектурных и художественных стилей, основ формообразования, художественного проектирования и макетирования, структуры и организации дизайнерского производства; деятельностному, включающему следующие показатели: умение применять технологии и методики проектирования объектов дизайна, навыки пользования специальными инструментами и специальным оборудованием, опыт стилеобразующего формообразования, социокультурного проектирования, графического и объемного моделирования проектируемого объекта, организации и проведения проектных работ; результативному, показателями которого являются способность к анализу и самоанализу, контролю и самоконтролю в проектировании объектов дизайна, самостоятельность в оценке и самооценке результатов художественного проектирования и изготовления объектов дизайна, ответственность за безопасность и эффективность применяемых технологий и методик, а также за качество дизайнерской деятельности.

Дисциплина технология обладает значительным педагогическим потенциалом в формировании дизайнерских компетенций у будущих учителей, который заключается в возможности комплексного использования основных методов дизайнерской деятельности (художественное формообразование и конструирование, моделирование, макетирование, эскизирование, функциональное, образное и сценарное проек-

тирование, образно-ассоциативное, прототипное и аналоговое проектирование), активного обучения, моделирующих профессиональную деятельность в области дизайна (ролевые игры, кейс-стади, реальное проектирование), форм обучения и контроля, моделирующих художественно-проектную деятельность дизайнера.

Формирование дизайнерских компетенций у будущих учителей обеспечивается при реализации следующих педагогических условий: построении учебного процесса в соответствии с моделью, основанной на компетентностном, контекстном, деятельностном и личностно ориентированном подходах к обучению дисциплинам специализации; введении в процесс обучения дисциплинам специализации интегрированных учебных модулей и заданий, построенных на трансферировании содержания учебных дисциплин; формировании у будущих учителей опыта квази-профессиональной деятельности посредством их участия в работе дизайн-студии; вовлечении работодателей в процесс оценивания результатов художественно-проектной деятельности будущих учителей; осуществлении диагностики сформированное у будущих учителей дизайнерских компетенций в целях своевременной коррекции процесса их формирования.

Вывод. Таким образом, процесс формирования дизайнерских компетенций у будущих учителей следует осуществлять с учётом следующих педагогических условий: построение учебного процесса в соответствии с моделью, основанной на компетентностном, контекстном, деятельностном и личностно-ориентированном подходах при обучении дисциплины технология; введении в процесс обучения дисциплины технология интегрированных учебных модулей и заданий, построенных на трансферировании содержания дисциплины технология; формировании у будущих учителей опыта квазипрофессиональной деятельности посредством их участия в работе студенческой дизайн-студии; вовлечении в процесс оценивания других преподавателей и результатов художественно-проектной деятельности студентов; осуществлении диагностики сформированности у будущих учителей дизайнерских компетенций в целях своевременной коррекции процесса их формирования.

Литература:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ-60-son «Yangi O'zbekistonni 2022-2026 yildagi rivojlantirish strategiyasi» farmoni // Xalq so'zi. - T., 2022. - 29 yanvar. - B. 1-2.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni: <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5085999>
4. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий ривожлантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фанл. д-ри ... Дис. - Т., 2007. - 315 б.

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING BOSHLANG'ICH SINIF
O'QUVCHILARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI ONA TILI VA O'QISH
SAVODXONLIGI DARSLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA
SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

Nasriddinova Nasiba Alimjonovna, GulDU o'qituvchisi

Annotatsiya. O'qish savodxonligi – shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'mini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyatidir. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini ona tili va o'qish savodxonligi darslaridan unumli foydalangan holda shakllantirish yo'llari hamda uning samaradorligi yoritilgan.

Tayanch so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, boshlang'ich sinf o'quvchilari, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim, tarbiya, o'qish, o'qish savodxonligi, didaktika, dars, darslik, ona tili, metod.*

**МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ
У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ
С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ РОДНОГО ЯЗЫКА
И УРОКОВ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ**

Насриддинова Насиба Алимжоновна, преподаватель ГулГУ

Аннотация. Читательская грамотность – это способность личности понимать тексты, использовать их, размышлять над ними и реагировать на них для достижения цели развития своих знаний и потенциала, поиска своего места в обществе. В данной статье освещены пути формирования читательской грамотности учащихся младших классов с эффективным использованием родного языка и занятий по читательской грамотности и ее эффективность.

Ключевые слова: *начальное образование, младшие школьники, учитель, ученик, образование, воспитание, чтение, читательская грамотность, дидактика, урок, учебник, родной язык, метод.*

**METHODOLOGY OF FORMATION OF READING LITERACY IN ELEMENTARY
SCHOOL STUDENTS OF GENERAL SECONDARY SCHOOLS USING NATIVE
LANGUAGE AND READING LITERACY LESSONS**

Nasriddinova Nasiba Alimjonovna, teacher of GulSU

Abstract. Reading literacy is the ability of a person to understand texts, use them, reflect on them and react to them in order to achieve the goal of developing his knowledge and potential, finding his place in society. In this article, the ways of forming the reading literacy of elementary school students with the effective use of the mother tongue and reading literacy classes and its effectiveness are highlighted.

Key words: *primary education, primary school students, teacher, student, education, upbringing, reading, reading literacy, didactics, lesson, textbook, mother language, method.*

Kirish. Boshlang'ich ta'lim – boshlang'ich sinf o'quvchilari hayotida muhim ahamiyatga ega. Bola maktabga ilk qadam qo'ygan kundan boshlab uning oldida faqat bilim olish maqsadi turadi. Bola ushbu maqsadini amalga oshirish uchun harakat qiladi. Bu yo'lda qanchadan-qancha kitoblar o'qiydi va ustozlardan kerakli bilimlarni oladi. Shu sababli ham boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan o'quvchilarga bilim berishda judayam katta mas'uliyat talab etiladi. Ular o'quvchilarning savodini chiqarishda, ularga fan yuzasidan zarur bo'lgan bilim, ko'nikmalarni berishda, o'qishga o'rgatishda o'zlarining barcha imkoniyatlarini ishga solishlari muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy majlisga Murojaatnomasida «Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Rennessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Abu Ali ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiylar va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratib berishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim» [2], – deb ta'kidlab o'tganlar. Maktablarda pedagoglar bunday mukammal, shaxslar darajasiga yetisha oladigan o'quvchilarni tarbiyalashda, avvalo, o'tadigan darslarni samarali tashkil etsalar, o'z maqsadimizga erisha olamiz.

Bizga ma'lumki, ta'lim sohasining poydevori – bu boshlang'ich ta'lim hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda olingan bilim ko'nikma va malakalar qolgan yillar davomida egallanadigan bilimlar uchun asos – poydevor hisoblanadi. Zero, poydevori qanchalik mustahkam bo'lsa imorat shunchalik chidamli bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda mukammal bilimga ega bo'lgan, o'qish savodxonligi to'liq shakllantirilgan o'quvchilar yuqori sinflarda va ta'limning keyingi bosqichlarida ham muammolarga duch kelishi qiyin bo'ladi. Bu yo'lda boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ya'ni pedagoglarning mahorati judayam muhim ahamiyatga egadir. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ilk bora maktabga kelgan jajji go'dak, murg'ak bola, ko'zlari bilim istab, yonib turuvchi bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini, avvalo, o'z farzandi, ukasi, singlisi, jigarbandidek qabul qilib, uni yetaklay olishi zarur. Savod o'rgatishda o'qituvchi o'z o'quvchilariga o'z bilimi, kuch-g'ayrati, shirin so'zi, mehribonligini ko'rsata olishi, bu mashaqqatli yo'lda sabr-toqati va matonati bilan o'quvchilariga namuna bo'la olishi zarur. O'z kasbining ustasi bo'lishni xohlagan har qanday pedagog, qanday vaziyatda bo'lishidan qat'iy nazar o'zini qo'lga ola bilishi zarur va shartdir! Chunki, bir sinfda agar 30 ta o'quvchi bo'lsa, ular 30 xil harakterga ega bo'ladilar. Ularning har biri bilan individual, yakka holatda ishlashiga to'g'ri keladi. Uning uchun o'qituvchi psixologiya fani haqida ham oz bo'lsada tushunchaga ega bo'lmog'i zarur. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida shunday vaziyatlar bo'ladi, kerak bo'lsa o'z o'quvchingizni darslaringizga qiziqтира olishingiz uchun va siz bergan bilimni egallashi uchun aktrisalilik qilib rol ham o'ynab bera olishingiz kerak... Agar o'quvchi o'z o'qituvchisini hurmat qilsa, uni yaxshi ko'rishini his qilib tursa, o'z sinfida o'quvchi o'z o'rnini borligini anglasa, o'qituvchisining bilim berish shakllari, yo'llari unga maqul kelsa, o'quvchi uyida qanday vaziyat bo'lishidan qat'iy nazar o'qituvchi tomon talpinadi, intiladi. Kerak bo'lsa u darslarini o'zlashtira olmagan kunlarda ham ustozini bir bora ko'rib ketish uchun maktab tomon intiladi, o'z oilasida ota-onasidan tarbiya olib kelgan bolalarga ta'lim berish, savod o'rgatish, uning o'qish savodxonligini shakllantirish bilan birga bolani tarbiyalab ham borish zarur va shartdir [3].

O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Asosiy e'tibor, tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchini qalban yuksak, ma'naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o'rgatish muhim ahamiyatga ega [4].

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish (boshlang'ich sinf o'quvchilari) yoshlarimizning ijodiy qobiliyatlari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma

va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimi (PIRLS, TIMSS), ya'ni PIRLS - Progress in International Reading and Literacy Study – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash; TIMSS – Trends in International Mathematics and Science Study – 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash. Shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir. Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslari alohida ajralib turadi. Ona tili va O'qish savodxonligi darslari orqali o'quvchining savodi chiqadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yozganlarini ko'radilar, o'qiganlarini eshitadilar va eshitganlarini tahlil qilib tushunib oladilar. Ularda o'qish savodxonligi turli hil usullar orqali shakllantiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yozishni va o'qishni o'rganadi. Bu o'quvchilarga keyinchalik ham boshqa fanlarni yaxshi o'zlashtirishiga yordam beradi. Bunda asosiy rolni boshlang'ich sinf o'qituvchisi egallaydi. Chunki, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodini chiqarish o'qituvchidan kasbiy mahorat va bilim talab etadi. Bu vazifa o'qituvchining zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. O'qituvchi har doim ushbu mas'uliyatni his qilgan holda dars jarayonini samarali tashkil etishi lozim hisoblanadi. Bunda o'qituvchidan ijodkorlik, izlanish, ilg'or va inovatsion texnologiyalarni, ilg'or o'qituvchilarning tajribalarini o'z darsida mahorat bilan qo'llay olish talab etiladi [5].

O'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishda ona tili va o'qish savodxonligi fani muhim ahamiyatga ega. Boshqa fanlarda bo'lgani kabi ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ham axborot texnologiyalaridan foydalanib dars olib borish ta'lim sifatini oshirishga va o'quvchilarning darsga nisbatan qiziqishlarini o'stirishga yordam beradi. Shu sababli ham ona tili va o'qish savodxonligi darslarida axborot texnologiyalarini qo'llash asosida dars o'tish davr talabi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ona tili va O'qish savodxonligi darslarida multimedia vositalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Masalan: axborotning xilma-xilligi: matn, lavha, bezak, nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiyalardan foydalanishga erishiladi; o'quvchilarga ta'lim olishda ijodiy munosabatni uyg'otadi; o'quvchilarda o'zlariga bo'lgan ishonchni shakllantiradi; o'quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi; o'z-o'zini namoyish etish imkonini beradi; o'quvchi mavzu bo'yicha yangi fikrlarni bildirish va yangi fikrlarni o'zlashtirishga ruhan tayyor bo'ladi.

Ushbu jihatlardan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy o'qituvchi butun dunyo ta'lim tizimida bo'layotgan o'zgarishlardan doimo xabardor bo'lishi va ularni o'zlashtirib o'z faoliyati davomida qo'llay olishi lozim. Shu paytgacha maktablarning boshlang'ich sinflarida «Ona tili va o'qish savodxonligi» darslari birgalikda o'tilar edi. Bugungi kunga kelib, boshlang'ich sinflar kesimida ushbu ikki fan alohida «Ona tili» va «O'qish savodxonligi» darsligi deb joriy etildi. Ushbu fan joriy etilishining o'zi ham bugungi kunda yurtimizda ta'lim sohasidagi bo'layotgan o'zgarishlarning bir turi hisoblanadi. Yangi darslik yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, axborotning xilma-xilligi, matn, lavha, bezak, nutq, musiqa, videofilmlar, asosan, axborot texnologiyalari asosida darslarni o'tishga mo'ljallangan. Yangi darslikda rang-barang tasvirlar, qiziqarli topshiriqlarga e'tibor qaratilgan. Yangi darslikda o'quvchilarning tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. Shunday ekan ushbu topshiriqlarni bajarish uchun o'qituvchi dars davomida axborot texnologiyalaridan foydalanishi zarur.

Boshlang'ich sinflarning «Ona tili» va «O'qish savodxonligi» fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning keng imkoniyatlari yaratilgan va bular sirasiga o'quv adabiyotlarining yangi avlodlari: elektron o'quv qo'llanmalar, elektron darsliklar, qisqa interaktiv o'quv dasturlari, audio qo'llanmalar, multimediali darslarni kiritib o'tish mumkin. Ushbu darsliklar xalqaro baholash tizimlariga mos ravishda tuzilgan bo'lib, darslikdan asosiy maqsad o'quvchilar o'z fikrlarini tinglab va o'qib tushunishlari, fikrini bayon eta olishlariga erishish hisoblanadi. Ushbu darslik bilan bir qatorda o'qituvchi kitobi, o'quvchilar mashq daftari va fan multimedia ilovalari ishlab chiqilgan. Asosan, darsliklarda o'qish savodxonligini shakllantirish, rivojlantirish uchun matnlar berilgan. O'quvchilar ushbu matnlar orqali tinglab tushunishlari, o'qiganlarini uqishlari lozim bo'ladi. O'qituvchi bir mavzuni har xil ko'rinishda, didaktik materillar asosida o'quvchiga yetkazib berishligi talab qilinadi.

Xulosa. Umuman olganda, umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini ona tili va o'qish savodxonligi darslari orqali shakllantirish yo'llari, usullari, har xil metodlaridan o'qituvchilar samarali foydalanmoqda va, o'z navbatida, ko'zlangan samaradorlikka erishilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Shukurova H. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati. - T.: O'qituvchi, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - T.: O'zbekiston, 2021.
3. Nasriddinova N.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish metodikasi: O'quv qo'llanma. - T., 2024. - 167 b.
4. https://cyberleninka.ru/article/n/xalqaro_tadqiqotlar_tajribasida_boshlang'ich_sinf_o'quvchilarini_o'qish_savodxonligini_baholash.
5. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh. Ona tili va o'qish savodxonligi. - T., 2021.

TALABALARDA IRODAVIY SIFATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDA YORITILISHI

Hamrayeva Oynisa Farxod qizi, FarDU o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada iroda haqida tushuncha va irodaviy sifatlarning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari hamda talabalarda irodaviy sifatlarning shakllanish jarayonlari, shuningdek, mehnat qilish, mehnatni qadrlash, o'z-o'zini boshqarishga ta'sirini ularning pedagogik va psixologik jarayonlari va iroda tushunchasining ilmiy nazariyalari haqida keng ma'lumotlar berilib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: iroda, irodaviy xususiyatlar, yoshlar irodasi, sobitqadamlik, qat'iyat, ishonch, irodasizlik, ta'lim, tarbiya, o'quv jarayoni ahamiyati, iroda buzilishlari, o'z-o'zini boshqarish, dadillik, qat'iylilik, chidam, toqat, prinsipial, kuch, xislat, fazilat, saviya, ikkilanish, xarakter.

РАСКРЫТИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ У СТУДЕНТОВ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Хамраева Ойниса Фарход кизи, преподаватель ФерГУ

Аннотация. В данной статье рассмотрены понятие воли и природа волевых качеств, их специфика и процессы формирования волевых качеств у студентов, а также их влияние на труд, оценку труда, самоуправление, их педагогическое и предоставлены обширные сведения о психологических процессах и научных теориях концепции воли.

Ключевые слова: воля, волевые характеристики, воля молодежи, стойкость, целеустремленность, уверенность, безволие, образование, воспитание, значение образовательного процесса, расстройств воли, самоуправление, смелость, целеустремленность, выдержка, терпимость, принципиальность, сила, характер, качество, уровень, двойственность, характер.

EXPLANATION OF THE FORMATION OF VOCATIONAL QUALITIES IN STUDENTS IN PSYCHOLOGICAL LITERATURE

Hamrayeva Oynisa Farkhod daughter, teacher of FarSU

Abstract. In this article, the concept of will and the essence of will qualities, their specific characteristics, and the processes of formation of will qualities in students, as well as their effect on work, appreciation of work, self-management, their pedagogical and psychological processes, and scientific theories of the concept of will extensive information is provided.

Key words: will, volitional characteristics, will of young people, steadfastness, determination, confidence, lack of will, education, training, the importance of the educational process, will disorders, self-control, courage, determination, endurance, tolerance, principle, strength, character, virtue, level, duality, character.

Kirish. Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlarning ijtimoiy faolligini ta'minlash, tashabbuskorligini yuksaltirish, intizomlilik, irodaviylik, shaxsiy javobgarlik tuyg'ularini shakllantirishning zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. «Yoshlarni vatanparvarlik fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida... tarbiyalash» [1] vazifalariga asoslanib, yoshlarning irodasini rivojlantirish va mas'uliyat hissini takomillashtirish, irodaviy sifatlarni barqarorlashtirish hamda zarur taklif-tavsiyalarni ishlab chiqish uchun ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratilganligini qayd etish maqsadlidir.

Asosiy qism. Shaxsda irodani shakllantirishga xizmat qiluvchi turli yondashuvlar

falsafiy, psixologik, pedagogik, huquqiy, ma'naviy, diniy-falsafiy jihatdan jamiyat hayotini belgilaydigan muhim omil sifatida o'tmish mutafakkirlaridan Aristotelning «Jon haqida», Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Ali ibn Sinoning «Risolatut-tayr», Yusuf xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Alisher Navoiyning «Mahbub-ul qulub», Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultoni; Ahloqiy muhsiniy», I.Kantning «Ahloq metafizikasi» asarlarida shaxs o'zini o'zi anglashi, o'zini o'zi boshqarishi, o'zini o'zi nazorat qilishi, tarbiyalashi, baholashi kabi irodaviy jarayonlar haqidagi g'oyalar ilgari surilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qadimdan boshlab, jamiyat taraqqiyoti hamda shaxs rivojlanishida irodaning o'rni muhim ekanligi e'tirof etilgan.

Respublikamizda stress bilan bog'liq masalalarni psixolog olimlar iroda kategoriya-sining muammolarini ba'zi jihatlarini Sh.V.Azizova, M.G.Davletshin, A.A.Fayzullayev, B.G.Gappirov, E.M.Muxtorov, E.A.Quljonov, R.I.Sunnatova, B.N.Sirliyev, G.I.Sattorova, N.S.Safayev, I.Xayriyev, M.Xakimova, O'.B.Shamsiyev, E.G'.G'oziyev va boshqalar ilmiy tadqiq etishgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlardan L.I.Bojovich, L.S.Vigotskiy, A.Ivannikov, Ye.P.Ilin, A.F.Lazurskiy, S.L.Rubinshteyn, V.N.Selivanov, D.N.Uznadze, G.I.Chelpanov, Sh.N.Chxartishvili va boshqalar iroda muammosini ilmiy tadqiq etishgan bo'lib, bu tadqiqotlarda irodaviy sifatlarni o'zaro qiyoslashning miqdoriy jihatlarini, irodani tashqi o'zlashtirilgan rag'batlantirish asosida vujudga kelishi, to'siqlarning qiyinchilik darajasi va harakatlar ahamiyatligi, iroda motivlarni ko'zg'atuvchi kuch ekanligi, iroda o'ziga xos original yondashuvga ega ekanligi o'rganilgan.

Xorijiy olimlardan A.Buzeman, D.Derner, M.Ekenberg, D.Frenems, R.Holland, U.Jems, M.Keller, M.Kepling, M.Mentey, V.Vundt, J.Piaje, T.Ribo va boshqalar iroda muammosini keng doirada tadqiq etgan bo'lsalarda, XX asming 30-yillarida irodani o'rganish salmog'i G'arb mamlakatlari va AQShda o'ta kamayib ketdi, ba'zi davlatlarda iroda tushunchasining murakkabligi tufayli qo'llanilmaslik holati tufayli ilmiy manbalar va darsliklarda unga oid ma'lumot va matnlar kiritilmagan vaziyatlar kuzatildi. Psixologiya fanida iroda kategoriyasi to'g'risida psixologlar tomonidan bir qator ta'riflar berilgan bo'lib, ular uning mohiyatini ochishga xizmat qila oladi. Lekin biz uchun ma'qulroq ta'rif bu rus psixologi V.N.Myasishchevning ijodiga xosdir: «Inson tomonidan o'z faoliyatini ongli tashkillashtirish va o'zini o'zi boshqarishni, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishni ta'minlovchi xatti-harakatlar irodadir». Umumiy psixologiya fanida to'plangan nazariy va amaliy ma'lumotlarning tahliliga qaraganda, mehnat harakatlarida iroda faolligining alohida shakli vujudga kelgan. Hozirgi zamon psixologiya fanining talqiniga asoslangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, iroda ikki bir-birini taqozo etuvchi psixologik hodisadan tashkil topadi, jumladan, asosan ichki va tashqi ko'rinishlarni o'zida mujassamlashtirib, birinchidan, motivlar kurashida, ikkinchidan, qiyinchiliklarni bartaraf qilishda namoyon bo'ladi.

Mulohazalardan kelib chiqqan holda iroda bir qator funksiyalarni bajaradi: a) ichki funksiya integratsiya (birlashish, qo'shilish) deb nomlanib, psixikaning jamiki imkoniyatlarini safarbar etadi; b) tashki funksiya boshqaruv (regulyatsiya) deb atalib, maqsadga erishish yo'lidagi zo'r berishlik (zo'riqish) jamoaviy xususiyatni kasb etadi. Shuning uchun barcha psixik hodisalarning ichidan diqqat va xotira «ixtiyoriy»lik mezoniga daxldor, xolos. Xuddi shu boisdan, irodaning asosiy manbai inson ehtiyoji bo'lib hisoblanadi. Bu borada quyidagilarni ta'kidlash joiz:

Iroda harakatining tuzilishi: qo'zg'atuvchining vujudga kelishi va maqsadni belgilash, motivlar kurashi, muammoni tanlash, qaror qabul qilish, harakatlarni bajarish yoki ijro etish.

Irodaviy harakatlarning turlari: 1) Oddiy yoki soddaharakatlar: maqsadni belgilash, ijro qilish yoki bajarish. 2) Murakkab harakatlar: maqsadni anglash; noaniq mayl, xohish, motiv; rejalashtirish; yo'l va vositalarni belgilash; ijro etishning qiyinchiliklarni yengish bilan aloqadorligi.

Ontogenezda irodaning rivojlanishi: 1. Bolalik – ixtiyorsiz faoliyatning ustuvorligi, irodaviy zo‘r berishning zaifligi; maktab darslarida muskul faoliyatini to‘xtatish, kamaytirish ko‘nikmasi ekanligi. 2. O‘smirlik – taqlid, maqsad qo‘ya olishning mavjudligi, lekin irodaviy zo‘r berishning zaifligi. 3. O‘spirinlik – maqsadni mustaqil qo‘ya bilish va zo‘r berishni anglash, qiyinchiliklarni bartaraf etish zaruriyligini tushunish.

Shaxsning irodaviy sifatlari: a) maqsadga intilganlik (maqsadni belgilash va unga erishishni ta‘minlash); b) qat‘iyatlilik (tezkor va o‘ylangan maqsadni tanlash, unga erishish usullarini aniqlash); v) barqarorlik (xulq-atvorni uzoq muddatga yo‘naltirish va nazorat qilish qobiliyati); g) chidamlilik (o‘zini qo‘lga olishlik); d) mustaqillik (shaxsiy tashabbuskorlik).

Iroda kategoriyasi ko‘p asrlik tadqiqot tarixiga ega bo‘lganligi tufayli falsafa va psixologiya fanlarining asosiy uchta (aql, hissiyot, iroda) kategoriyasining biri sifatida yuqori mavqeni egallab kelmokda. Psixologiya tarixida iroda muammosiga nisbatan qiziqishni keskin o‘zgarish davrlari ham hukm surgan. Ayniqsa, XX asrning 30-yillarida irodani o‘rganish salmog‘i G‘arb mamlakatlarida, shuningdek, AQShda ham o‘ta kamayib ketdi, ba‘zi davlatlarda iroda tushunchasi qo‘llanilmay qoldi, xuddi shuning uchun darsliklarga unga bag‘ishlangan bob ham o‘zidan o‘zi tushib qoldirildi. Rossiyalik psixolog V.I.Selivanovning ta‘kidlashicha, yigirma yil davomida (1938-1958 yillarda) irodaga oid 40 ta ilmiy ish e‘lon qilingan, xolos. Mazkur davr oralig‘ida sobiq sho‘ro davlatida psixologiya bo‘yicha 400 ta dissertatsiya himoya qilingan bo‘lsa, ularning atigi 8 tasi iroda mavzusiga taalluqlidir. Hozirgi zamon psixologiyasida iroda kategoriyasi ikkita variantga asoslangan holda tadqiqilinmokda. Birinchi variant: iroda o‘zini o‘zi determinatsiya qilishiga asoslanadi. Odatda iroda erkin, u tashqi zaruriyatga aslo bo‘ysunmaydi degan nuqtai nazar uning negizida yotadi. Ikkinchi variant esa, iroda o‘zini o‘zi boshqaruvga suyanadi. Chunonchi, iroda erkinlikka ega emas, chunki u tamoman tashqi zaruriyatga bog‘lik, unga bevosita tobe, degan ta‘limotni o‘zida mujassamlashtiradi.

T.Elers fikricha, iroda kategoriyasiga nisbatan o‘zgarishlarning, beqarorliklarning namoyon bo‘lishi shartlangan uchta muhim omilga borib taqaladi: birinchidan, metodologik, fenomenologik sabablar, ikkinchidan, irodani ilmiy-nazariy jihatdan tushunishning murakkabligi, uchinchidan, tadqiqot o‘tkazishning uslubiy qiyinligi, yaxlit metodikalar majmuasining yaratilmaganligi. Shunday munosabatlar mavjudligiga qaramasdan, psixologiya fanida motivatsion yondashuv doirasida iroda to‘g‘risida ilmiy tasavvur shakllantirilgan, qiyinchiliklarni ongli bartaraf etish jarayonida qobillik namunasi sifatida qarash tavsiflari vujudga keltirilgan. Hozirgi davrgacha mamlakatimizda iroda kategoriyasiga bag‘ishlangan birorta jiddiy tadqiqot o‘tkazilmagan. Bizning dastlabki ijodiy izlanishlarimiz bu yo‘nalishga dadil intilish deya baholanishi mumkin. Biz shaxsiy izlanishlarimizda muammoga vaziyatli yondashuv nazariyasiga asoslangan holda umumpsixologik nuqtai nazaridan ham miqdor, ham sifat tahlilini amalga oshiramiz. Xuddi shu bois tadqiqot obyektiga turli yoshdagi, muayyan kasb-faoliyat subyektlari kiritiladi, ekstremal, kasusli, kauzal vaziyatlarida iroda o‘rganiladi. Psixologiyada iroda kategoriyasining psixologik mohiyatiga nisbatan munosabatlar muayyan darajada o‘zgardi, shu boisdan uning tuzilishi, jarayonlari, sifatlari, ta‘riflari to‘g‘risidagi talqinlar o‘ziga xos xususiyatga ega.

Sobiq ittifoq psixologiyasi inson shaxsini shakllanish, rivojlanish, kamol topish mohiyatini ochishda tashqi va ichki holatlarning o‘zgarishi, o‘zaro ta‘sir, taraqqiy etish jarayonlaridagi uzviylik to‘g‘risidagi materialistik dialektika nazariyasidan kelib chiqqanligi uchun ta‘limot quyidagi voqeiliklarni tasdiqlashga yo‘naltirilganligi bilan o‘ziga xos xususiyat kasb etadi [2]: 1. Insonning psixikasi borliqda mavjud bo‘lmagan vital kuchlar (ilohiy ta‘limot, taqdiri instinklar) ta‘sirining mahsuli, organizmda vujudga keladigan jarayonlar va jamiyatni ta‘sir etuvchanlik omillarining passiv mahsuli ham emas. Ular turmushning muayyan ijtimoiy-

tarixiy taraqqiyoti sharoitlari bilan shartlangan shaxsning o'zi rivojlanishi mahsulidir. Psixik rivojlanish o'zining mantiqi va qonuniyatiga ega bo'lib, ular biologik (genetik) va ijtimoiy (sotsiologik) qonuniyatlar bilan bevosita bog'liqdir, lekin ular o'zaro ayniyat sifatida talqin qilinmaydi. Eng nozik bo'lgan asosiy masala shundan iboratki, mazkur rivojlanishda inson kamolotini to'g'ri tasavvur qilish va tushunish gumanistik-psixologik yo'nalishning o'zi harakatlanish prinsipi nuqtai nazaridan yondashishni mujassamlashtiradi. 2. Inson psixikasining rivojlanishi - bu funktsiya, holatlar tizimidagi oddiy kattalashish yoki kichiklashish (kichrayish) emas, albatta. Rivojlanish – bu miqdor o'zgarishlarini tamoman sifat o'zgarishiga o'tish jarayonidir. Boshqacha so'z bilan aytganda, eskilar (ma'naviy, jismoniy) o'z qiymatini nisbatan yo'qotishi, uning o'rniga yangisining paydo bo'lishi, shuning negizida oldingi jarayonlarni, ehtiyojlarni, holatlarni qayta qurish demakdir. Bu bilan shu narsa tasdiqlanadiki, psixik rivojlanishning barcha jarayonlari parchalanishi, o'zaro aloqadorligi, lekin kelib chiqish davrining ilk bosqichida bir-biridan farqlanishi va hokazo. 3. Insonning psixik rivojlanishi – bu ontogenetik (yosh davriga xos) alohida jarayonlar, holatlar, o'zgarishlar yig'indisi deb tushunish mumkin emas. Aksincha, yaxlitlikning diffuz o'zgarishi tariqasida talqin qilish, bizningcha, salbiy voqeelikdir. Psixikaga yaxlitlik sifatida qarash uning tuzilishini aks ettiradi. Chunonchi, uning alohida elementlari (unsurlari) – jarayon, holat – o'zaro aloqador yaxlitning rivojlanishi va saqlanishi bo'yicha bir-biriga tobedir. Ammo ularning har biri shaxsning tashqi dunyo bilan munosabatlarida o'ziga xos funksiyalarni bajaradi. Insonning psixik rivojlanishi – bu struktura va uning alohida elementlari, funktsiyalari o'zgarishi bilan birligi o'zaro bog'liqligidir. Ushbu holatda inson irodasining rivojlanishi shaxs strukturasi va takomillashuvidan tashqarida kechadi degan tushuncha bo'lishi aslo mumkin emas. Jumladan, bilish jarayonlari, emotsional-motivatsion doirasidan tashqarida rivojlanishni tasavvur etish o'ta qiyin psixologik holatdir. 4. Insonning asosiy funktsiyasi uning shaxsiy faoliyati hisoblanib, tashqi olam bilan aloqa vositasi, borliqni faol o'zgartirish usuli hamda ehtiyojlarni qondirish uslubi sifatida tavsiflanadi. Faoliyat jarayonida shaxsning psixik jarayonlari, holatlari, qobiliyatlari shakllanadi va rivojlanadi. Insonning ilmiy bilishi, uning psixik rivojlanishi, eng avvalo, faoliyatning ilmiy tahliliga, nafaqat psixik takomillashuv darajasiga erishuv ko'rsatkichi fikratsiya qilinadi, balki rivojlanish tendensiyasi, yangi bosqichning shakllanishi namoyon bo'ladi.

Shaxs irodasi rivojlanishining harakatlantiruvchisi – bu subyektning tashqi olam yoki tevarak-atrof bilan amaliy jarayonda o'zaro ta'siri hisoblanadi. Psixologiyada irodaning tuzilishi to'g'risidagi fikr-mulohazalar tahlilining ko'rsatishicha, irodaviy jarayonlar irodaviy aktning bevosita kechishida, maqsad belgilanishidan to'jro etilishigacha vaqt oralig'ida namoyon bo'ladi. Jumladan, oldindan niyat qilingan diqqatda, idrokda, esda olib qolishda, esda saqlashda, vizual obrazlar yaratishda, tafakkurda, hayolda aks etadi. Buning uchun irodaviy zo'r berishni, yo'naltirishni talab qiladi. Endi iroda strukturasi tarkibiy qismlari ta'rifi yuzasidan mulohaza yuritaylik.

Irodaviy holatlar – favqulodda vujudga keladigan qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli yengib o'tishga yordam beruvchi shaxsning optimal ichki sharoitlari hisoblanmish muvaqqat psixologik holatdir. Psixologik holatlar tarkibiga optimizm holati, umumiy faollik, safarbar tayyorgarlik, qiziquvchanlik kabilar kiradi. Ular holatlarning yaxlit majmui ta'siri ostida vujudga keladi. Stress – tashqi va ichki muhit noqulay omillarining inson psixikasiga ta'sir etishi natijasida paydo bo'luvchi keskin emotsional zo'riqish holati. Frustratsiya – inson faoliyati va xulq-atvorini tamoman izdan chiqaruvchi emotsional-psixologik holat. Berilgan topshiriqlarni yechish jarayonida bartaraf etishning imkoni yo'q to'siqlar ta'siri ostida shaxsda tushkunlik holati paydo bo'ladi. Chunonchi, o'zini yo'qotib qo'yish, esankirash, favquloddagi vaziyatga nisbatan tajovuzkorlik munosabati vujudga kelishi mumkin. Irodaviy sifatlar – nisbatan barqaror, muvaqqatlikdan yiroq, mazkur vaziyatga daxldor bo'lmagan psixologik yangilanishlarni, o'zgarishlarni o'rnatish, tiklash jarayonining mahsuli. Shaxsning irodaviy sifatlariga maqsadga yo'nalganlik (sabitqadamlik),

tashabbuskorlik, qatilylik, o'zini tuta bilishlik (toqatlilik), mustaqillik, tashkiliylik, jasurlik, ishbilarmonlik, esankiramaslik kiradi. Insonning irodasizligi quyidagi tushunchalar orqali tavsiflanadi: prinsipsizlik, chidamsizlik, yalqovlik, qo'rqqoqlik, qaysarlik, shafqatsizlik va boshqa illatlar, patologik holatlar ifodasida mujassamlashadi. Sobitqadamlik – shaxs irodasining turlicha namoyon bo'lish, rivojlanish darajasini, yo'nalishini aniqlovchi bosh irodaviy sifat. Mustaqillik ideallariga sodiqlik, Vatan oldidagi burchini yuksak anglash, jamoaviylik hissi, umumiy ishga o'z ulushini qo'shish xohishi. Tashabbuskorlik – shaxsiy xohish-irodasiga, yaratuvchanlik iste'dodiga, norasmiy sardorlik xususiyatiga asoslangan holdazaruriy sa'y-harakatlarni tatbiq etish ko'nikmasi. Qat'iylik – o'ylab, oqilona qaror qabul qilish va ularni izchillikda turmushga olib kirish va tatbiq etish ko'nikmasi. Tirishqoqlik – qiyinchiliklar bilan kurashish jarayonida butun kuch-quvvatini aslo susaytirmasdan, pasaytirmasdan uzoq maqsadni ko'zlash ko'nikmasi yoki uquvi. O'zini tuta bilishlik – qabul qilingan qarorni amalga oshirishga xalaqit berayotgan fikr, mulohaza, hissiyot va xatti-harakatni tormozlash, turg'unlash, to'xtatish, idora qila olishlik uquvchanligi. Tashkiliylik – o'z xatti-harakati va fe'l-atvorini rejalashtirish uquvi, eng avvalo, uni ijro qilish jarayonida rejaga asoslangan holda ish tutishlik. Dadillik (mardonavorlik) – qo'yilgan maqsad yo'lida o'zini oqlash imkoni mavjud xavf-xatar tomon borish va qo'rqinchga qarama-qarshi turish ko'nikmasi. Ishbilarmonlik – har qanday rejani, o'ylangan istak-xohishni qiyinchiliklar, to'siqlar, xalaqit beruvchi omillar bo'lishiga qaramasdan, pirovard natija sari yetaklash uquvi. Mustaqillik – boshqa odamlarning yordamiga, maslahatiga muhtojlik sezmasdan shaxsiy kuch-quvvatiga, aql-zakovatiga, o'z e'tiqodiga, dunyoqarashiga chindan ishongan holda «men»ligini ro'yobga chiqarish uquvchanligi.

Xulosa. Inson psixikasi rivojlanishi to'g'risidagi umumiy holatlar, tavsiflar, talqinlar sobiq ittifoq psixologlari tomonidan tan olinadi va ularga asoslangan holda tadqiqot o'tkazishni mo'ljallaydilar. Ittifoq psixologiyasida inson irodasining ixtiyoriy xulq-atvor bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Ixtiyorsiz, impulsiv harakatlarning irodaga hech qanday aloqasi yo'qligi ko'p holatlarda e'tirof etiladi. Irodaning o'ziga xosligi inson tomonidan qiyinlashtirilgan vaziyatlarda o'z xulq-atvorini ongli boshqarishida namoyon bo'ladi. Bunda shaxs butun tashabbusini, ongli munosabatini safarbar qiladi, toki o'z oldiga qo'ygan maqsaddan, unga erishish vositalaridan shaxs aslo chetlashib ketmasin. Muammo yuzasidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, shu narsani ta'kidlash joizki, inson qanday, qay yo'sinda va nimaga erishmoqchi hamda harakatlanmoqda: motiv-maqsad-to'siqlarni yengib o'tish usullari.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги фармони: http://lex.uz/docs/3107036_2_file:///C:/Users/User/Downloads/mamun-2023-1-26.pdf

ZO'RAVONLIK VA OILADA ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mirsidikova Aziza Mirvohidovna, TAFU assistent-o'qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda butun dunyodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning globallashuvi natijasida gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarni turli xil tayziq va zo'rvonlikdan himoya qilish masalasi dolzarb va ahamiyatlidir.

Tayanch so'zlari: zo'rvonlik, kamsitilish, sezgi, funksiyaб faollik, rivojlanish, gendir, konvensiya, kompleks, tenglik, huquq, strategiya, reabilitasiya, inson.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЖЕНЩИН, ПОДВЕРГШИХСЯ НАСИЛИЮ И ДОМАШНЕМУ НАСИЛИЮ

Мирсидикова Азиза Мирвахидовна, преподаватель-ассистент ТУПН

Аннотация. Сегодня в результате глобализации общественно-политических процессов во всем мире актуален вопрос обеспечения гендерного равенства, защиты женщин от различных притеснений и насилия.

Ключевые слова: насилие, дискриминация, интуиция, функциональная активность, развитие, гендер, конвенция, комплекс, равенство, право, стратегия, реабилитация, человек.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN WOMEN WHO ARE ABUSED AND ABUSED IN THE FAMILY

Mirsidikova Aziza Mirvohidovna, assistant teacher of TUAS

Abstract. Today, as a result of the globalization of socio-political processes all over the world, the issue of ensuring gender equality, homogenizing women from various types of taiziq and violence is relevant and relevant

Key words: violence, discrimination, intuition, functional activity, development, gene, convention, complex, equality, law, strategy, rehabilitation, human.

Kirish. Bugungi kunda butun dunyodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning globallashuvi natijasida gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarni turli xil tayziq va zo'rvonlikdan himoya qilish masalasi dolzarb va ahamiyatlidir.

Asosiy qism. BMT Bosh assambiliyasining 1967-yil 7-noyabrdagi 2263-rezalyusiyasi bilan e'lon qilingan «Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barxam berish to'g'risida»gi deklarasiyaga muvofiq hotin-qizlarga nisbatan tayziq va zo'rvonlikning sodir etilishi inson huquqlarining buzilishining jiddiy ko'rinishi hisoblanadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda dunyoda juda katta miqyosda xotin-qizlar jismoniy va jinsiy zo'rvonlikka duchor bo'lmoqdalar. Bu aholi orasidagi xotin-qizlarning 36 foizini tashkil etadi [1]. Bu butun jahonda mavjud bo'lgan o'ta dolzarb muammoligini isbotlovchi statistik ma'lumotdir. Bu borada butun dunyoda insoniy munosabatlar va shaxs xuquqlarining jinsga, irqqa, millatga, dinga, ijtimoiy mavqe (status)ga ko'ra kamsitilishini oldini olishga va gender tenglikni insoniy tamoyil sifatida ko'rib inson huquqlarini himoya qilishga doir qator huqiy-ijtimoiy loyihalar amalga oshirilgan. Bulardan, «Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida» xalqaro konvensiya (1979-yil 18-dekabr, New York),

1995-yil dekabrda «Oiladagi Zo'ra vonlikka Qarshi kurashish»ga bag'ishlangan II Butun Polsha konferensiyasida «Oiladagi zo'ra vonlikka qarshi kurashish bo'yicha Polsha deklarasiyasi» qabul kilingan bo'lib, ularning asosiy maqsadi – gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarni diskriminasiya qilinishini oldini olishdan iboratdir. O'zbekiston gender tenglik masalalariga bag'ishlangan bir qator Xalqaro konvesiya va shartnomlarga a'zo, jumladan: BMTning ayollar huquqlari shartnomasi, Inson huquqlari to'g'risidagi umumjahon deklarasiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Irqiy kamsitishga barham berish to'g'risidagi konvensiya, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyalar shular jumlasidandir. Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchilardan bo'lib, 1995-yil 6-mayda BMTning «Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida 2gi konvensiyasiga qo'shildi, konvensiyasiga qo'shilganidan beri oltita davriy hisobotni BMTning xotin-qizlarga nisbatan kamsitishni tugatish qo'mitasiga topshirdi. Shuningdek, «Onalikni himoya qilish to'g'risida»gi, «Mehnat va kasb sohasidagi kamsitishlarga barham berish» to'g'risidagi konvensiyalari va boshqa xalqaro hujjatlarni ratifikasiya qilgan. Bu borada mamlakatimiz 70 ga yaqin inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarga qo'shilgan.

2017-2021-yillarda ayollar huquqlarini ta'minlash va himoya qilishga qaratilgan bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2019-yil 2-sentyabrda «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi «Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitasiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5116-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis senatining 2021-yilning 28-may kuni «2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi SQ-297-IV-sonli qarori qabul qilinib, mazkur qarorga ko'ra 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlari va kompleks chora-tadbirlari va dasturlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Zo'ra vonlik – bu shaxsning boshqasiga nisbatan har qanday qasddan qilingan harakati [1]. Zo'ra vonlik kabi yomon illatlarning oqibatlari umr bo'yi bo'lib, insonning jismoniy va ruhiy salomatlik hamda xulq-atvoriga qattiq ta'sir qilib kelmoqda. Zo'ra vonlik o'quvchilarning ta'lim muassasalariga qo'shilishini zaiflashtiradi. Ularga qo'rquv va ishonchsizlik hissini tug'diradi. Zo'ra vonlikning oldini olishda ko'p shakllar mavjud. Mamlakatdagi zo'ra vonlik darajasi va o'zgartirilishi mumkin bo'lgan omillar o'rtasida kuchli bog'liqlik bor. Masalan, konsentrlangan (mintaqaviy) qashshoqlik, daromadlar va gender tengsizliklari, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, bolalar va ota-onalar o'rtasida xavfsiz, barqaror hamda tarbiyaviy munosabatlarning yo'qligi. Garchi ruhiy va jismoniy salomatlik hamda individual reaksiyalar, shaxsiyatlar va boshqalar bu xatti-harakatlarning shakllanishida doimo hal qiluvchi omillar bo'lib kelgan bo'lsada, zo'ra vonlikning asosiy sabablarini hal qiluvchi strategiyalar uning oldini olishda nisbatan samarali bo'lishi mumkin.

Oiladagi zo'ra vonlik (shuningdek, oila zo'ra vonligi yoki oilaviy zo'ra vonlik deb ham ataladi) oila sharoitida, masalan, nikoh yoki birgalikda yashashda sodir etiladigan zo'ra vonlik yoki boshqa zo'ra vonlik turidir. Oiladagi zo'ra vonlik ko'pincha yaqin insoni yoki sherik zo'ra vonligining sinonimi sifatida ishlatiladi, u boshqa shaxsga nisbatan yaqin munosabatlardagi odamlardan biri tomonidan qo'llaniladi va munosabatlarda yoki sobiq turmush o'rtoqlar yoki sheriklar o'rtasida sodir bo'lishi kuzatiladi. Keng ma'noda oiladagi

zo'raonlik bolalar, ota-onalar yoki qariyalarga nisbatan zo'raonlikni ham o'z ichiga oladi. U bir nechta shakllarni o'z ichiga olishi mumkin: jismoniy, og'zaki, hissiy, iqtisodiy, diniy, reproduktiv yoki jinsiy zo'raonlik kabi. Bu eng oddiy zo'rlash shakllaridan tortib, nikoh davrida zo'rlash va boshqa zo'raonlik shakllaridan tortib jismoniy zo'raonlikgacha bo'lishi mumkin, masalan, bo'g'ish, kaltaklash, ayollarning jinsiy a'zolarini kesish va kislotatashlash kabi zararlashi yoki o'limga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan va insonni nazorat qilish uchun buyumdan foydalanishni o'z ichiga oladi, misol tayoq. Maishiy qotillik toshbo'ron qilish, kelinni yoqish, nomus uchun o'ldirish va ba'zan birga yashamaydigan oila a'zolarining zo'raonligini o'z ichiga oladi. 2015-yilda Buyuk Britaniya Ichki ishlar vazirligi oiladagi zo'raonlik ta'rifini nazoratni o'z ichiga olgan holda majburiy tarzda kengaytirgan.

Butun dunyoda oiladagi zo'raonlik qurbonlari ko'pchiligini afsuski ayollar tashkil qiladi va ayollar zo'raonlikning yanada og'ir shakllarini boshdan kechirishadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) hisob-kitoblariga binoan, har 3 ayoldan 1 nafari hayotining bir bosqichida oiladagi zo'raonlikka duchor bo'lgan. Ular, shuningdek, erkaklamikiga qaraganda, o'zini himoya qilishda yaqin sherik zo'raonligidan foydalanishlari mumkin. Ba'zi mamlakatlarda oiladagi zo'raonlik asosli yoki qonuniy deb qaralishi mumkin, ayniqsa, ayol tomonidan haqiqiy yoki gumon qilingan xiyonat holatlarida. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatdagi gender tengligi darajasi va oiladagi zo'raonlik darajasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri va sezilarli bog'liqlik mavjud bo'lib, shundan ko'rinadiki, gender tengligi kamroq bo'lgan mamlakatlarda oiladagi zo'raonlik ko'proq sodir bo'ladi. Oiladagi zo'raonlik butun dunyo bo'ylab erkaklar va ayollar uchun eng kam qayd etilgan jinoyatlardan biridir. Bundan tashqari, erkaklar qurbonligi bilan bog'liq ijtimoiy stigma fikrlar tufayli, oiladagi zo'raonlik qurboni bo'lgan erkaklar tibbiyot xodimlari tomonidan e'tibordan chetda qolish ehtimoli tabiiyki oshadi.

Oiladagi zo'raonlik ko'pincha zo'raon ular bunga haqli deb hisoblaganda yoki bu maqbul, asosli yoki xabar qilinishi imkonsiz deb hisoblaganda sodir etiladi. Bu bolalar va boshqa oila a'zolarida avlodlararo zo'raonlik zanjirini keltirib chiqarishi mumkin, ular bunday zo'raonlikni maqbul yoki ma'qul degan ega bo'lib qolishlari mumkin. Ko'p odamlar o'zlarini zo'raon yoki qurbon deb bilishmaydi, chunki ular o'zlarining tajribalarini nazoratdan chiqib ketgan oilaviy nizolar deb hisoblashlari mumkin. Oiladagi zo'raonlikdan xabardorlik, idrok etish, ta'riflash va hujjatlashtirish turli mamlakatlarda juda farq qiladi. Bundan tashqari, oiladagi zo'raonlik ko'pincha majburiy yoki yosh nikohlar orasida sodir bo'ladi.

Ba'zi munosabatlarda zo'raonlik bir davr bo'lishi mumkin, bunda keskinliklar kuchayadi va zo'raonlik harakati sodir bo'ladi, keyin yarashuv va xotirjamlik davri keladi. Jabrlanuvchilar izolyatsiya, kuch va nazorat, zo'raon bilan travmatik bog'lanish, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, qo'rquv va uyat yoki bolalarni himoya qilish sababli uydagi zo'raonlik holatlarida tuzoqqa tushishi mumkin. Zarar yetkazish natijasida jabrlanuvchilar jismoniy nogironlik, tartibsiz tajovuz, surunkali sog'liq muammolari, ruhiy kasalliklar, cheklangan moliyaviy va sog'lom munosabatlar o'rnatish qobiliyatini boshdan kechirishi mumkin. Jabrlanuvchilar Travma va travmadan so'ng stress buzilishi (TSSB) kabi jiddiy psixologik kasalliklarga duch kelishi mumkin. Zo'raonlik bilan oilada yashovchi bolalar ko'pincha erta yoshdanoq psixologik muammolarni ko'rsatadilar, masalan, qochish, tahdidlarga o'ta hushyorlik va tartibga solinmagan tajovuzkorlik, bu esa, jiddiy travmatizmga olib kelishi mumkin.

«Oiladagi zo'raonlik» atamasining zamonaviy dunyoda birinchi marta qo'llanilishi, ya'ni uydagi zo'raonlik ma'nosiga ega. 1973-yilda Jek Eshli Buyuk Britaniya parlamentiga

qilgan murojaatida bo'lgan. Ilgari bu atama asosan fuqarolik tartibsizliklari, ichki zo'rvonliklarni nazarda tutgan. An'anaga ko'ra, oiladagi zo'rvonlik, asosan, jismoniy zo'rvonlik bilan bog'liq. Xotinni ho'rlash, xotinni kaltaklash va kaltaklangan ayol kabi atamalar ishlatilgan, ammo turmushga chiqmagan sheriklar, jismoniy zo'rvonlikdan tashqari zo'rvonlik, ayol jinoyatchilar va bir jinsli munosabatlarga kirishga urinishlar tufayli mashhurligi pasaygan. Oiladagi zo'rvonlik endi keng ma'noda oila a'zosi yoki yaqin sherigi tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan «barcha jismoniy, jinsiy, psixologik yoki iqtisodiy zo'rvonlik»ni o'z ichiga oladi. Jinsiy zo'rvonlik atamasi ko'pincha maishiy zo'rvonlik yoki oiladagi zo'rvonlik bilan sinonim sifatida ishlatiladi, lekin u ayniqsa er-xotin munosabatlarida (masalan, nikoh, birga yashash yoki birga yashamaydigan yaqin sheriklar) sodir bo'lgan zo'rvonlikka ishora qilinadi. Ularga Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) xatti-harakatlarni nazorat qilishni suiste'mol qilish shakli sifatida qaraydi. Qarama-qarshi va bir jinsli munosabatlarda intim sheriklar tomonidan zo'rvonlik avvaldan kuzatilgan va avvalgi holatda ham erkaklar ayollarga, ham ayollar erkaklarga nisbatan [2-3]. Oiladagi zo'rvonlik kengroq atama bo'lib, ko'pincha bolalarga nisbatan zo'rvonlik, qariyalarga nisbatan zo'rvonlik va oila a'zolari o'rtasidagi boshqa zo'rvonlik harakatlarini o'z ichiga oladi.

Xulosa. Oilada zo'rvonlikka uchragan ayollarda koping- strategiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va zo'rvonlikdan keyingi davrda ijtimoiy-psixologik moslashuvini amalga oshirishda samarali ijtimoiy-psixologik xizmatni amalga oshirishdan iboratdan iborat. Oxirgi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bolalik davridagi psixologik travmalar bolaning miyasini o'zgartirishi mumkin. «Travma miya va tanaga tashvish, g'azab va diqqatni jamlash qobiliyatini keltirib chiqaruvchi jismoniy ta'sir ko'rsatishi ma'lum. Shuningdek, ular eslash, ishonish va munosabatlarni o'rnatishda muammolarga duch kelishlari ham mumkin». Miya zo'rvonlikka duch kelaverganligi sabab, u doimo hushyor holatda (jang yoki parvoz rejimida qolib ketishga o'xshaydi) bo'lib qoladi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, «zo'rvonlikka duchor bo'lgan yoshlarda hissiy, ijtimoiy va psixologik muammolar bo'lishi mumkin. Ular his-tuyg'ularini nazorat qilish, maktabda darslarga e'tibor berish, do'stlardan uzoqlashish yoki travmadan keyingi stress buzilishi belgilarini ko'rsatish kabi muammolariga duch kelishi mumkin».

Adabiyotlar:

1. Zokirxodjaev Sh.Ya., Solixov M.U. Shifokor va bemor. - T., 2016.
2. Силуянова И.В. Биоэтика в России: ценности и закон. - М., 2001.
3. Karimov Sh.I. Soglom ovkattlanish - salomatlik mezon. - T., 2015.

O'SMIR SHAXSINING RIVOJLANISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TA'SIRI

Matyakubova Shohista Odamboyevna, TAFU o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola o'smir shaxsining rivojlanishida ommaviy axborot vositalarining ta'siri hamda ijtimoiy tarmoqlarning o'smir shaxsiga ijobiy va salbiy ta'sirlari haqida muhokama qilinadi.

Tayanch so'zlar: o'smirlilik davri, shaxs, ommaviy axborot vositalari, rivojlanish, orasida stress, depressiya, ruhiy salomatlik, zo'ravonlik, xatti-harakat, desensitizatsiya.

ВЛИЯНИЕ СМИ НА РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТИ ПОДРОСТКА

Матякубова Шохиста Одамбоевна, преподаватель ТУПН

Аннотация. В этой статье обсуждено влияние средств массовой информации на развитие личности подростка, а также положительное и отрицательное влияние социальных сетей на личность подростка.

Ключевые слова: подростковый возраст, личность, СМИ, развитие, между стресс, депрессия, психическое здоровье, насилие, поведение, десенсибилизация.

MEDIA IMPACT ON ADOLESCENT PERSONALITY DEVELOPMENT

Matyakubova Shohista Odamboyevna, teacher of TUAS

Abstract. This article discusses the effects of media on adolescent personality development and the positive and negative effects of social media on adolescent personality.

Key words: adolescence, personality, media, development, between stress, depression, mental health, violence, behavior, desensitization.

Kirish. O'smirlar ongini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni katta. Bugungi kunda o'smirlar ko'plab ommaviy axborot vositalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar, televidenie, filmlar va video o'yinlar bilan tanishadilar. Ommaviy axborot vositalari o'yin-kulgi va ma'lumot manbai bo'lishi mumkin bo'lsa-da, u o'smirlarning ruhiy salomatligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu maqola ommaviy axborot vositalarining o'smirlarning ruhiy salomatligiga psixologik ta'sir hamda ommaviy axborot vositalarining o'smir shaxsini rivojlanishidai o'rni qanchalik ekanini o'rganishga qaratilgan.

Asosiy qism. Ommaviy axborot vositalari o'smirlarning ruhiy salomatligiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijobiy ta'sirlar muhim masalalar bo'yicha bilim va xabardorlikni oshirish, ijtimoiy aloqalarni yaxshilash va ijodkorlikni oshirishni o'z ichiga oladi. Biroq, salbiy ta'sirlar orasida stress, depressiya va tajovuzning kuchayishi, shuningdek, o'z-o'zini hurmat qilish va tana qiyofasi bilan bog'liq muammolar mavjud. Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda o'smirlar foydalanadigan ommaviy axborot vositalarining eng mashhur shakllaridan biridir. Facebook, WhatsApp, Instagram, Twitter, Tik Tok, Telegramm va Snapchat kabi ijtimoiy media platformalari o'smirlarga tengdoshlari bilan bog'lanish, o'z tajribalarini baham ko'rish va o'z fikrlarini bildirish imkonini beradi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlar o'smirlarning ruhiy salomatligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish yolg'izlik, tashvish, tushkunlik va o'zini past bahoga olib kelishi mumkin. Televidenie va

filmlar o'smiring ruhiy salomatligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa ommaviy axborot vositalaridir. Filmlar va teleko'rsatuvlardagi zo'rvonlik mazmuniga ta'sir qilish tajovuzkorlikning kuchayishi va zo'rvonlikka desensitizatsiya bilan bog'liq. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarida tasvirlangan haqiqiy bo'lmagan go'zallik standartlari tana qiyofasi tashvishlari va ovqatlanish buzilishiga olib kelishi mumkin. Video o'yinlar – bu o'smirlar orasida mashhurlikka erishgan ommaviy axborot vositalarining yana bir shakli. Video o'yinlar muammoni hal qilish va qaror qabul qilish kabi kognitiv ko'nikmalarni yaxshilashi mumkin bo'lsa-da, ular giyohvandlik va tajovuzga olib kelishi mumkin. Zo'rvonlik video o'yinlarini o'ynash tajovuzkor xatti-harakatlarni kuchaytirishi va ijtimoiy xulq-atvorni kamaytirishi mumkin. Ommaviy axborot vositalarining o'smirlarning ruhiy salomatligiga ta'siri murakkab va ko'p qirrali hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa-da, o'smirlarning ruhiy salomatligiga mumkin bo'lgan salbiy ta'sirni tan olish muhimdir.

Ommaviy axborot vositalari o'smirlarning ruhiy salomatligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ba'zi usullar quyida keltirilgan: 1. Filmlar, teleko'rsatuvlar va video o'yinlardagi zo'rvonlik mazmuniga duchor bo'lgan o'smirlar tajovuzkor xatti-harakatlarni namoyon qiladi va zo'rvonlikka nisbatan sezgir bo'lmagan munosabatda bo'ladi. 2. OAVda haqiqatga to'g'ri kelmaydigan go'zallik standartlariga duchor bo'lgan o'spirinlarda tana qiyofasi bilan bog'liq muammolar va ovqatlanishning buzilishi ehtimoli ko'proq. 3. Ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt sarflaydigan o'smirlar o'zlarini boshqalar bilan solishtirishga moyil bo'lib, o'z-o'zini hurmat qilishning pasayishiga va xavotirming kuchayishiga olib keladi. 4. Video o'yinlarni o'ynashga ko'p vaqt sarflaydigan o'smirlar giyohvandlikni rivojlantiradi va yomon akademik natijalar va ijtimoiy izolyatsiya kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. 5. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan o'smirlar kiberbullingni boshdan kechirish xavfi ostida bo'lib, bu tashvish, ruhiy tushkunlik va o'z joniga qasd qilish g'oyalarini kuchaytirishi mumkin [1].

Biz o'smirlilik davri psixologiyasi haqida to'xtalib o'tamiz: o'smirlilik davri insonni bolalikdan – yoshlikka o'tuvchi va, o'z navbatida, boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir. Bu davr taxminan bolalarning 5-8-sinflarda o'qish paytlariga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davr oralig'ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. O'smirlilik davri ayrim maxsus psixologik adabiyotlarda «o'tish davri», «og'ir davr», «inqiroz davri» kabi nomlar bilan ham ataladi. Bu davrning «og'irligi», «keskinligi», «murakkabligi» nimalar bilan asoslanadi? O'smirlilik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun-mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil an'analar kuzatiladi. Bu davrga kelib bola endi «bola» emas va shu bilan birga hali «katta» ham emas. Uning o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan bo'lgan munosabatlari butunlay boshqacha xarakter kashf etib boradi. Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo'nalganligi qaytadan shakllanadi, o'z-o'zini anglashi, baholashi, qadriyatlarini o'zgaradi. Uning uchun o'z «men»i va shu «men»ning ahamiyati ortadi. O'smirlilik avtonomiya-sining huquqiy avtonomiya, emotsional avtonomiya, makoniy avtonomiya kabi turlari farqlanadi. Ma'lumki, bola dunyoga kelgan kundan boshlab kimningdir qaramog'iga muhtoj bo'ladi. Ota-onasi va boshqa yaqinlari uni oziqlantiradi, kiyintiradi, tarbiyalaydi va bolani muntazam nazorat ostida tutadi. Ular bolani har tomonlama qo'llab-quvvatlab turadilar va bola bunday qo'llab-quvvatlash, daldalarga muhtojlik his etib turadi. O'smirlilik davrida esa,

bola o'z hayotini, xavfsizligini ta'minlash borasida nisbatan mustaqillikka erishadi. Endi u o'zini-o'zi himoya qila olishi, lozim bo'lsa o'zi o'z imkoniyatlari darajasida mehnat qilib, yetarli darajada daromad qilishi, o'z ehtiyojlarini mustaqil ravishda o'zi qondira olishi mumkin bo'ladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan huquqiy avtonomiya ayni vaqtda bola o'smirlik yoshiga yetishi bilan unga qator huquqiy imkoniyatlar berilishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda bola yuridik shaxs hisoblanib, ovoz berish huquqiga ega bo'ladi. Mabodo bu davrda o'smir ota-onasi ajralib ketgudek bo'lsa, bu holatda o'smirming qayerda va kim bilan qolishi bola xohishiga qarab hal etiladi. Shuningdek, bola bu davrda o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda rasmiy ravishda jismoniy mehnat bilan shug'ullanishi ham mumkin. Lozim bo'lsa, ulardan o'z xatti-harakati, qiliqlari uchun javob berishi ham talab qilinadi. Shu kabi huquqiy imkoniyatlarga ega bo'lish va bundan o'smirming xabardorligi uning huquqiy avtonomiyasining yuzaga kelishini ta'minlaydi. Bunday avtonomiyaga ega bo'lish o'smirda o'z xatti-harakati uchun javobgarlik, mas'uliyatlilik hissini yuzaga keltiradi.

O'smirlik avtonomiyalaridan yana biri – emotsional avtonomiyadir. Ma'lumki, bola dunyoga kelgan ondan boshlab u onasi va atrofida gilarining emotsional, hissiy qo'llab-quvvatlashiga, mehru muhabbatini namoyon qilishiga, erkalashiga ehtiyoj his qiladi. Shuning uchun ham ilk bolalik yoshidagi, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni suyub, erkalab ularni quchib, boshini silab, yoqimli gaplar va muomala bilan ularga hissiy yaqinlik namoyon qilinsa, ular bundan quvonib, xursand bo'ladilar va erkalayotgan shaxsga nisbatan talpinadilar. Buni yosh bolalarning onasiga suykalishi, ularning pinjiga suqilishi, ularga erkananishi hollarida kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, bolalar o'z tengdoshlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarida nizo-tortishuvlarga duch kelganida va, avniqsa, tengdoshlaridan «jabrlanganda», «yengila boshlaganidan», ota-onasidan va atrofidagi yaqinlaridan emotsional dalda, hissiy qo'llab-quvvatlash kutadi va bu borada ularga murojaat qiladi. Agar o'z vaqtida shu hissiy daldani ola olsa, o'zini erkin, tetik, g'olib his qiladi va ular bilan quvonib yuradi. O'zining kichkinagina hayotida duch kelgan «muammolari»ni hal qilishda kattalar yordamiga muhtojlikni his qiladi, ulardan muntazam foydalanishga intiladi. O'smirlik davrida esa, aksincha, o'smir endi «yosh bola» emas. Endi u «katta odam». Katta odam esa, mustaqil bo'lishi, o'z muammolarini o'zi hal qilishi kerak. Bu davrda kattalar yordamiga murojaat qilish tengdoshlar tomonidan qoralanadi va buni o'smirming o'zi ham xohlamaydi. Bu davrda o'smirlarga kanalar tomonidan oldingidek ko'rsatiladigan iltifot, erkalashlar erish tuyuladi. Endi ular o'zlarini erkalab, silab siypashlarini, «arzimagan narsalar» uchun kattalar tomonidan bildiriladigan olqishlarni «yoqtirmaydi». Endi ular atrofda gilarini hissiy qo'llab-quvvatlashlaridan xoliroq bo'lishga, o'z muammolarini o'zlari shaxsan hal qilishga intiladilar. Oldinlari ko'chada, bog'chada, maktabda yuz bergan voqealar haqida uyidagilarga shikoyat qilib ota-onasidan yordam so'ragan bo'lsalar, endi oiladan tashqarida birontasidan dakki eshitib, kaltak yeb kelgan taqdirda ham bu haqda ota-onasiga bildirmaslikka harakat qiladi va imkon qadar ota-onalarini uning «ishlariga» aralashmasliklarini xohlaydi. Bularning barchasi o'smirlarda bevosita kuzatiladigan emotsional avtonomiyaning ta'siridir.

O'smirlarda kuzatiladigan avtonomiya holatining yana biri makoniy avtonomiyadir. Bunga ko'ra, o'smirlar imkon qadar o'z xonasida yolg'iz qolishga, biron-bir ishni bajarayotgan yoki biron-bir joyda bo'lgan vaqtlarida imkon qadar yolg'iz bo'lishga, ayniqsa, o'z ota-onasi, oila a'zolari nazaridan chetroqda bo'lishga, o'z o'y-hayollari bilan mashg'ul bo'lib vaqt o'tkazishga intilib qoladi. Suhbatlashsa ham, asosan, o'z tengdoshlari, yaqin

o'rtog'qlari bilangina muloqotda bo'lib o'z ota-onasi bilan imkon qadar kamroq muloqotda bo'lishga intilib o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qoladi. Ayni vaqtda o'smirda kuzatilayotgan bu hodisalarning asl sababini tushunmagan ayrim ota-onalar ularning bunday holatidan xavotirlanib, ular bilan oldingiga qaraganda ko'proq qiziqib qoladilar.

Boshqacha qilib aytganda, ularning avtonomiyasiga «bostirib kiradilar». Buni esa, o'smirlar yoqtirmaydi. Bunday holatlar o'smirlar va ularning ota-onalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarida kelishmovchiliklar, nizolarning yuzaga kelishiga asos bo'lishi mumkin. Yuqorida qisman ta'xtalib o'tganimizdek, o'smir mohiyatida kuzatiladigan xarakterli xususiyatlardan biri ularning o'ta ta'sirlanuvchan, jizzaki, qo'rs, sal narsaga xafa bo'lishi uning hissiy noturg'unligi ifodasidir.

Xulosa. Bunday holatlarning yuzaga kelish sabablaridan biri bevosita jinsiy balog'atga yetish, ichki sekretiya bezlari, ayniqsa, jinsiy bezlar vazifalarining faollashuvi va shular bilan bog'liq holda o'smir organizmida ro'y beradigan psixofiziologik o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Ma'lumki, o'smirlik davrida o'smiring «men»i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofida qilarga, ayniqsa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlarini yo'nalishi keskin o'zgaradi. Uning o'z shaxsiga bo'lgan e'tibori kuchayadi. O'smirlik davrida shaxs egotsentrizmi boshqa davrdagilarga qaraganda eng yuqori darajaga yetadi. Bu davrda o'smir o'z shaxsiyatini boshqalardan ustun qo'yadigan, o'ziga ko'proq bino qo'yadigan bo'lib qoladi. Shu davrda o'g'il bolalarda ham, qiz bolalarda ham shunchaki kattalarga taqlid qilib emas, balki tom ma'noda o'zining xatti-harakatini nazorat qilish, o'zining yurish-turishi, kiyinishi, tashqi ko'rinishiga astoydil e'tibor berish, pardoz-andoz bilan shug'ullanish kabi holatlar kuzatiladi. Biroq bu davrdagi endokrin sistemasi faoliyati, epofiz, jinsiy sekretiya bezlari ajratib chiqaradigan gormonlar ta'siri ostida o'smir organizmida va tana tuzilishida o'zgarishlar ro'y beradi. Uning tana tuzilishi proporsiyasi buziladi (u nisbatan beso'naqayroq bo'lib qoladi), tovushlari o'zgarib, do'rillab qoladi. Jinsiy balog'atga yetishning boshlanishi bilan yuzlariga husnbuzar chiqa boshlaydi. Bularning barchasi, o'smir uchun kutilmagan, uncha xush kelmaydigan holatlardir va aynan ana shu holat o'smiring ta'sirlanuvchanligini, jizzakiligini ortishiga olib keladi. Shu davrda o'smiring tashqi ko'rinishi, shaxsiyatiga oid bildirilgan arzimagan nojo'ya gap uning uchun jiddiy salbiy kechinmalarga asos bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Karakulova U., Berdiyeva S., Rejebbayeva A. O'smirlik davrida namoyon bo'ladigan deviant xulq-atvor // Педагогика и психология в современном образовании. - M., 2023. - № 3(2). - С. 157-192.
2. Abdullayev I.I. Ommaviy axborot vositalarining o'smirlarning ruhiy salomatligiga psixologik ta'siri // Golden brain. - № 16. - P. 98-101.
3. <https://www.mpka.uz/fanlar/tibbiy-bilim-asoslari>

BOLALARDA QO'RQUV HOLATINING IJTIMOY MOSLASHUV JARAYONIGA TA'SIRINI AMALIY O'RGANISH

Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna, TAFU o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarda qo'rquv holatining ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'siri amaliy tomondan o'rganilgan. Bizga ma'lumki, kichik maktab o'quvchilari orasida shaxsning yaqqol xususiyatiga aylanadigan yuqori va mustahkam qo'rquvga ega bolalar ajralib turadi. Bolaga tana qilishganda, uyaltirishganda va ochiqchasiga hamma narsa uchun ketma-ket urushganligida masalan: joyida turmagan o'yinchoq, to'kilgan choy, iflos qo'llar, o'ta baland yoki o'ta past nutq uchun vaziyatga ko'ra qo'rquvlik ko'rinishlari butun emotsional tusga aylanadi.

Tayanch so'zlar: *emotsionallik, ijtimoiy qo'rquv, xayolparastlik, tajovuzkorlik, tobelik, avtoritar uslub.*

ПРАКТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СОСТОЯНИЯ СТРАХА У ДЕТЕЙ НА ПРОЦЕСС СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ

Туляганова Дилноза Равшанбековна, преподаватель ТАФУ

Аннотация. В данной статье с практической стороны исследуется влияние состояния страха у детей на процесс социальной адаптации. Как известно, среди младших школьников выделяются дети с высоким и стойким страхом, который становится очевидной чертой личности. Когда ребенка обижают, стыдят и откровенно воют за все подряд, например: игрушку, которая не стоит на месте, пролитый чай, грязные руки, слишком громкую или слишком низкую речь, проявления страха в зависимости от ситуации приобретают целую эмоциональную окраску.

Ключевые слова: *эмоциональность, социальный страх, бред, агрессивность, подчиненность, авторитарный стиль.*

PRACTICAL STUDY OF THE IMPACT OF THE STATE OF FEAR ON THE PROCESS OF SOCIAL ADAPTATION IN CHILDREN

Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna, teacher of TUPS

Abstract. This article explores the impact of the state of fear in children on the process of social adaptation from a practical point of view. Among the students of small schools, as we know, children with high and strong fears stand out, which become an obvious feature of the personality. When a child is tamed, ashamed and openly at war in a row for everything, for example: a toy that does not stand still, spilled tea, dirty hands, for too high or too low speech, the manifestations of fear according to the situation become all emotional.

Key words: *emotionality, social fear, delusions, aggression, tobelic, authoritarian style.*

Kirish. Kichik maktab o'quvchilari orasida shaxsning yaqqol xususiyatiga aylanadigan yuqori va mustahkam qo'rquvga ega bolalar ajralib turadi. Avvalambor ularda yuzaga keladigan muammolarni ko'rib chiqishdan oldin quyidagi savolga javob berishimiz o'rinlidir: Nima uchun ba'zi bir bolalar birinchi sinfga borishda yetarli yuqori darajadagi qo'rquvga ega bo'ladi? Maktabdagi qo'rquvning mustahkamlanishi yoki rivojlanishiga nima turtki beradi? Maktabgacha bo'lgan bolalik o'ziga ishongan, yuqori darajda o'zi haqida fikrga egalik, tinch, emotsionallik davr. Bu paytda bolaga o'z samimiy istaklarini, o'zi bilishiga, yaqin kattalari bilan ma'qullanmaydigan harakatlarga bo'lgan xohishlarini saqlab turishga

yordam beruvchi vaziyatga ko'ra qo'rquv yuzaga keladi. Vaziyatga ko'ra, qo'rquv har bir insonning hayoti davomidagi emotsional holatiga aylanadi. Bu qo'rquv turi bir tomondan foydali hisoblanadi, sababi ixtiyoriy hулq-atvor boshqaruviga kiritiladi. Bolalarga qo'rquvning to'la darajada yo'qligi emas, balki uning ma'qul darajasi va mos usullar bilan o'ta kuchli va uzoq emotsional holatlardan chiqish qobiliyati kerak. Vaziyatga ko'ra, qo'rquv mustahkam, shaxsiyat tuzilishida qayd qilinishi mumkin.

Asosiy qism. Maktabgacha bo'lgan yoshda bu bolaning muayyan tarbiya uslubida sodir bo'ladi. Shaxsiyat qo'rquvi yuqori darajadagi intilish bilan birikadigan avtoritar uslubda, ota-onalarning bolaga nisbatan umidida va giperg'amxo'rlikda, ya'ni qo'rquv to'la ota-onalar bu hislatni o'z bolasida qayta ishlab chiqarishida shakllanadi. Agar ota-onalardan biri vahimaga to'lib yursa, bola uning hayoti va salomatligi haqida o'ta ortiqcha g'amxo'rlikni namoyon qiladi, bu unda atrofdagi olamning barqaror emasligiga qayg'urishni, har tomondan kelayotgan havf-xatarlarni sezishni yuzaga keltiradi. Bola yashashga va odatiy munosabatlardan chetga chiqishga qo'rqadi, faqatgina oilada ish tutadi. Bu yerda himoyasizlik hissi, o'z kuchlariga ishonmaslik, yuqori darajadagi qo'rquvlik kelib chiqadi.

Biz tadqiqotimizning amaliy qismida bolalarning qo'rquvlarini diagnostika qilish metodikasi orqali bolalardagi (A.I.Zaxarov tomonidan ishlab chiqilgan, M.A.Panfilova [1, 84-b.] tomonidan qayta ishlangan): tibbiy tomonlama bo'ladigan qo'rquvlarini (qo'rquvning paydo bo'lishi shifokorlarning davolashlari oqibatida yuzaga keluvchi og'riqlar hamda ular bilan bog'liq salbiy emotsiyalarga asoslanadi); jismoniy jazolar bilan bog'liq qo'rquvlarini (qo'rquvlarning paydo bo'lishi refleksiv ta'sirchanlikning susayishi, jismoniy og'riqlardan hissiy-emotsional qo'rqishning ortishi); hayvonlar va yovuz ertak qaxramonlaridan qo'rqish (bolaning hissiy-emotsional zo'riqishi, kattalar tomonidan mehr-e'tiborning etishmasligi tufayli yuzaga keladi); ijtimoiy qo'rquvlarini (bolaning kech qolishidan qo'rqishi va biror baxtsizlik yuz berishidan qo'rqish tufayli yuzaga keladi); kichik va tor joylardan qo'rqish (bolada bu qo'rquvning paydo bo'lishi o'zini o'zi saqlab qolish instinkti va xavotirlanish darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi); qo'rqinchli tushlardan qo'rquvlarini amaliy o'rganish (bolada bu qo'rquvning paydo bo'lishi, ularning avvalroq boshdan kechirgan mudhish voqea-hodisasi tufayli yodida saqlanib qolgan salbiy emotsiyalari sabablidir) natijasida quyidagi natijalar kelib chiqdi:

Qo'rquvlar diagnostikasi

1-jadval

Yosh ko'rsatkichlari	Qo'rquvlar soni	
	O'g'il bolalar	Qiz bolalar
7 yosh	6	9
8 yosh	6	9
9 yosh	7	10

Oilada bajarib bo'lmaydigan talablarni qo'yishganda, doimo va ochiq xulq-atvoriga bo'lgan norozilikni ifodalashganda, bolalar ko'pincha qo'rqoq bo'lib qoladi. Albatta, kattalar bola harakatlarini baholashi, qilgan ishlariga o'z munosabatini mos ravishda ifodalashi kerak. Biroq bu qay tarzda va qanday shaklda qilinishi juda muhim. Bolaga tana qilishganda, uyaltirishganda va ochiqchasiga hamma narsa uchun ketma-ket urushganligida masalan: joyida turmagan o'yinchoq, to'kilgan choy, iflos qo'llar, o'ta baland yoki o'ta past nutq uchun vaziyatga ko'ra qo'rquvlik ko'rinishlari butun emotsional tusga aylanadi. Ko'ngilsizlikni qo'rquv bilan kutish, jazo oldidan qo'rquv yuzaga keladi.

Ta'kidlab o'tamizki, tarbiyaning avtoritar uslubi barcha bolalarda ham shaxsiyat qo'rquvini yuzaga keltirmaydi. Ba'zi oilalarda cheksiz tana qilishlar bolani bezitadi, bola ularga befarq bo'lib qoladi, o'rganib qoladi, o'ziga olmaydi yoki joni dili bilan aytishadi. Mustahkam qo'rquv ta'sirchan har narsani o'ziga oladigan bolalarda rivojlanadi. Erta shaxsiyat qo'rquvi bola ota-ona munosabatlari buzilishi hisoblanadi. Biroq odatda qo'rquv keskin ravishda maktabdagi o'qishga tayyorlanish davrida ortib ketadi. Ilgari bola qilayotgan ishiga e'tibor bermagan ota-onalar unga o'ta yuqori talablarni qo'yishni boshlaydi. Katta yutuqlarni kutib, agarda ularda o'zlari kutayotgan qobiliyalari yo'qligi uchun asabiylashadi va jahli chiqadi.

Shunday qilib, maktabga borguncha bola yutuqqa ega bo'lmagan vaziyatga tushadi. Har qanday topshiriqni bajarishga kirishganda, u omadsizlikni kutadi va qo'rqadi. Shu tufayli yuqori natijalarga erishmaydi va ota-onasining salbiy bahosini oladi. Omadsizlikni kutish doimiy tarzga aylanadi, qo'rquv ortadi, faoliyat borgan sari buzila boradi, o'ziga nisbatan baho ham quyi bo'lib boradi. O'ziga bo'lgan ishonch susayadi, og'ir ahvol yuzaga keladi. Bunday ahvol maktabda ham saqlanadi, bunga qo'shimcha ravishda o'qituvchi tomonidan past baholar qo'yilishi ham kiritiladi. Qo'rquvga to'la bolalarning birinchi sinfdagi o'qish imkoniyatlariga to'g'ri kelmaydi, ba'zilari esa, vazifalarni o'zlashtirmas bo'lib qolishi mumkin. Kichik yoshdagi o'quvchilar qo'rquvining rivojlanishiga o'qituvchining sinf bilan bo'lgan avtoritar muloqot uslubi, pedagogning individual me'yorga emas, balki balki ijtimoiy me'yorga ko'ra ish tutishi, shu me'yorga to'g'ri kelmaydigan bolalarga «yorliq yopishtirish» yordam beradi. O'qituvchining emotsional sovuqligi, odobsizligi, ba'zida esa, ochiq qo'polligi ayniqsa o'qish boshida o'quvchilar qo'rquvining umumiy ortishi yuzaga keltiruvchi o'ziga xos psixologik muhitni sinfda aniqlab beradi. «Barcha bolalarga ozor beruvchi o'qituvchining qo'polligi qo'rquvga ega bo'lgan yoki «qo'rquvga tayyorlik» holatida turgan, ya'ni o'zini himoyasiz, qarshi turish imkoniyatlariga ega bo'lmagan o'jiz deb his etadigan bolalar uchun juda og'irdir».

Ta'kidlash lozimki, kichik maktab yoshida bola uchun obro'-e'tiborga ega bo'lgan kattalar, ota-onalar, o'qituvchining fikri va unga bo'lgan munosabati o'ta muhim. Bolalar o'z ota-onasi e'tibori intilishlariga to'g'ri kelmasa va o'qituvchi tomonidan quyi baholansa, ular qo'rquviga «ozuqa beruvchi» o'ta nomuvofiq sharoitlarda bo'lib qoladi. Maktabgacha bo'lgan yoshdan boshlab bolalarda qo'rquvlik «niqoblari» deb atalmish qo'rquvlikni yumshatilgan holda boshdan kechirishga va tashqi ko'rinishda namoyon qilmaslikka imkon beradigan hulq-atvor shakllari yuzaga keladi. Bunday niqoblar tajovuzkorlik va tobelik o'ta darajadagi itoatkorlik yoki norozilik bilan bo'ysunmaslik, o'ta kuchli g'amxo'rlik kichik yoshdagi o'quvchilarga qaraganda o'smirlarga ko'proq xos. Kichik yoshdagi o'quvchilarda ko'pincha ortiq darajadagi xayolparastlik, reallikdan fantaziyalar olamiga o'tib ketish yuzaga keladi, bunda bola darsda rasman ishtirok etadi biroq, o'z orzulariga cho'kib ketadi.

Yutuqning o'zi emas, balki unga bo'lgan ta'sirning muhim bo'lganligi sababli ota-ona va o'qituvchilar omadsizliklar va ayrim xatolarga e'tibor bermasligi kerak. Ular o'quv ishidagi eng kichik foydali siljishlarni rag'batlantirish, tanbehlarni esa, boshqacha shaklda berish lozim: «Yashavar, senda juda yaxshi o'xshayapti. Biroq hali oxirigacha yaxshi o'xshamadi. Keyingi safar hozirgiga qaraganda yaxshiroq qilasan». O'ta qiyin maktab hayotiga moslashayotgan qo'rquv to'la birinchi sinf o'quvchilari uchun psixoprofilaktik dastur ishlab chiqilgan [2, 65-b.] U bolalarda o'z faoliyati natijalariga bo'lgan mos munosabati uni pedagogdan qat'iy nazar baholay olish qobiliyati, o'z-o'zini nazorat qilish

ko'nikmalarning shakllanishi, rivojlanishiga qaratilgan. Dastur maktab psixologi va o'qituvchining hamkorlikdagi ishiga yo'naltirilgan. Unda, xususan, bolalarda, kattalar va tengdoshlar bilan bo'lgan muloqot ko'nikmalari, o'yin ko'nikmalari, o'quv faoliyatini tahlil qila olishi, o'z yutuqlariga o'z intilishi natijasi sifatida qaray olish va xatolardan qo'rqmaslik qobiliyatlarining rivojlanishi ko'zda tutilgan. Boshqa tomondan, psixolog o'qituvchiga o'quvchilar o'quv ishining mazmunli baholanishini o'zlashtirishga, o'quv faoliyati va bolalar hulq-atvoriga bo'lgan aniq talablar tizimini o'rnatishga, qiyin vaziyatlar va ularni hal etish usullarini tahlil qilishga yordam ko'rsatishi kerak.

Xulosa. Shuni aytib o'tish mumkinki, qo'rquvlar o'zining kelib chiqishi dinamikasi bo'yicha ko'pincha bolani yaqin atrofdagilari bilan bo'lgan o'zaro munosabatlari usullaridan o'zgacha qiyinlashuv ko'rsatkichida ko'rinadi. Bolada qo'rquv xissini ijtimoiy moslashish jarayoniga to'g'rilash, ya'ni korreksiya qilish, uning sabablarini, kelib chiqishini bilishdan boshlash kerak. Bolalardagi qo'rquv hissini sababi kerakli obyektini o'zlashtira olmaslik, ma'lum bir ijtimoiy muhitga moslasha olmaslik yoki kattalar tomonidan biron bir harakatni amalga oshirishni ta'qiqlash bo'lishi mumkin. Bolada uzoq muddatli qo'rquv xissi mavjud bo'lsa, bu tajovuzkorlik, qo'zg'aluvchanlik, passivlik kabi xarakterli xususiyatlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Панфилова М.А. Коррекция тревожности у старших дошкольников с задержкой психического развития: Дис. ... канд. психол. наук. - М., 2007.
2. Прихожан А.М. Психология тревожности: дошкольный и школьный возраст. - СПб., 2009.

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARGA STEM TA'LIMI JARAYONIDA
RASMLI KITOBLARDAN FOYDALANISHNING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI**

Iskanderova Sayyora Abdubasidovna, TAFU o'qituvchisi, Muminova Dinara Ramizullayevna, PhD, Nordik Xalqaro universiteti, dotsent v.b.

Annotatsiya. Bugungi kunda aniq va tabiiy fanlarni bolalarga o'rgatish texnologiyalari orasida STEM ta'limi alohida qiziqishga sazovor bo'lmoqda. Zamonaviy bolalar rasmlar kitobi STEM bilimlariga qiziqishi uyg'onishi uchun bolaning hayotidagi ilk manbadir. Ushbu maqolada jahon tajribasidan kelib chiqqan holda kichik maktab yoshidagi bolalarga STEM ta'limi jarayonida rasmlar kitoblardan samarali foydalanishning usullari psixologik hamda pedagogik jihatdan tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: fan, kreativlik, intellekt, diqqat, pedagogik texnologiyalar, pedagog, kichik maktab yoshi, psixik rivojlanish.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
КНИГ С КАРТИНКАМИ В ПРОЦЕССЕ STEM ОБРАЗОВАНИЯ
ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

Искандерова Сайёра Абдубасидовна, преподаватель ТУПН, Муминова Динара Рамизуллаевна, PhD, Nordic international university, и.о.доцента

Аннотация. Сегодня STEM образование представляет особый интерес среди технологий обучения детей точным и естественным наукам. Современная детская книжка с картинками – это первый ресурс в жизни ребенка, пробуждающий интерес к STEM. В данной статье на основе мирового опыта психолого-педагогически проанализированы методы эффективного использования книжек с картинками в процессе STEM-образования детей младшего школьного возраста.

Ключевые слова: наука, творчество, интеллект, внимание, педагогические технологии, педагог, младший школьный возраст, умственное развитие.

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF USING PICTURE
BOOKS IN THE PROCESS OF STEM EDUCATION TO PRIMARY
SCHOOL CHILDREN**

Iskanderova Sayyora Abdubasidovna, teacher of TUPS, Muminova Dinara Ramizullayeva, PhD, Nordic international university, associate professor

Abstract. Today, STEM education is of particular interest among the technologies for teaching children science and natural sciences. The modern children's picture book is the first resource in a child's life to spark interest in STEM. In this article, based on world experience, methods of effective use of picture books in the process of STEM education for children of primary school age are psychologically and pedagogically analyzed.

Key words: science, creativity, intelligence, attention, pedagogical technologies, pedagogue, junior school age, mental development.

Kirish. Bugungi kunda respublika ta'lim sohasidagi islohotlarda aniq va tabiiy fanlar ta'limini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida aniq va tabiiy fanlarni maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarga o'qitish haqida maqsad va vazifalar qo'yilgan» [1].

Asosiy qism. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tabiiy va aniq fanlarni o'qitishni rivojlantirish kerakligini ko'p ta'kidlaganlar. Shunga muvofiq, 193 ta ta'lim muassasasi negizida tabiiy va

aniq fanlarga ixtisoslashgan maktablar tashkil etish rejalashtirilgan [2]. Aniq va tabiiy fanlarga qiziqishning ortishi kelajakda mamlakat fan potensialining ortishiga olib keladi [3]. Aniq va tabiiy fanlarni o'rganish doirasida STEM ta'limi alohida qiziqishga sazovor bo'lmoqda. STEM ta'limi Science – ilm-fan, Technology – texnologiya, Engineering – muxandislik va Math – Matematika fanlariga oid bilimlarni o'z ichiga oladi. Dunyoning yekatchki mamlakatlarida, ilm-fan sohasi keskin rivojlangan mamlakatlarda STEM ta'limi orqali bolalarni aniq va tabiiy fanlarga qiziqtirish keng tarqalgan amaliyotdir. Mamlakatimizdagi il'or texnologiyalar asosida tashkil etilgan Prezident maktablarida ham STEM ta'limi muvaffaqiyatli o'qitilib kelinmoqda. STEM ta'limi maktabgacha yoshdan boshlab samarali qo'llanilishi mumkin [4]. Bugun global darajada ta'lim sohasi innovatsion yo'llarni izlamoqda. An'anaviy tarzda bilim berish jarayonlari bugungi zamon bolalariga samarali bo'lmayotganini olimlar va ekspertlar ta'kidlamoqdalar. Bugungi ta'lim 4C ko'nikmalarga asoslangan bo'lib, bunda 1C-critical thinking – tanqidiy fikrlash, 1C-communicating – munosabat yaratish, 3C-creative thinking – kreativ tafakkur va 4C-collaboration – birgalikda ishlash ko'nikmalarni rivojlantirish zamon talabi bo'lmoqda [5]. Ya'ni bolaga «NIMA» o'rganishni ko'rsatish davri o'tirmishda qoldi. Tanqidiy fikrlash, muhokama va kreativlik zamon talabi bo'lmoqda. Buning uchun biz bolalarda, avvallo, biron fanga, biron sohaga qiziqish uyg'ota olishimiz talab etilmoqda. Fanga qiziqish paydo qilishni o'rgatib bo'lmaydi, uni qo'zg'atish kerak. Ana shu qiziqishni qo'zg'atishda bolalar rasmi kitoblari muhim ahamiyat kasb etadi [6]. Rasmi kitoblar bolalarning o'sib ulg'ayishi jarayonidagi ilk ma'lumot manbaidir. Rasmi kitoblarni bolalarga kattalar (ota-ona, pedagog) o'qib berganida bola bilan turli mavzularni ko'tarish, uni diqqatini qiziqarli faktlarga qaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Yangi bilimlarni bolaga tushuntirishdan ko'ra bir vaziyat orqali ko'rsatishning samarasi yuqori hisoblanadi. Zamonaviy bolalar rasmi kitobi bolaning STEM bilimlariga qiziqishi uyg'onishi uchun samarali instrumentdir. Sifatli rasmi bolalar kitobi orqali bolada tasavvur rivojlanadi, tanqidiy fikrlash qobiliyati shakllanadi, divergent tafakkur rivojlanadi, tolerantlik va diqqatni bir joyda ushlay olish qobiliyatlari keskin yaxshilanadi. Har qanday rasmi bor kitob rasmi kitob hisoblanmaydi. Chinakam rasmi kitob (picturebook)da ilustratsiyalar matnni to'ldirishi kerak va bunday kitoblarda ilustratsiya matsiz, matn esa, ilustratsiyasiz ishlamaydi. STEM ta'limini berish jarayonida ham sifatli rasmi bolalar kitoblaridan foydalanish, rasmi kitob qonuniyatlariga amal qiladigan kitoblardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha yoshdagi va boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar ta'lim jarayonida pedagoglar kitobni instrument sifatida qo'llashi keng qo'llaniladigan amaliyotdir. Bugun bolalar adabiyoti bu faqat filologik jihatdan bilim beruvchi adabiy asar emas, balki psixologiya, tabiiy fanlar, matematika, hatto iqtisodga doir bilimlarni beruvchi ajoyib manba ham bo'lishi mumkin. E'tiborli tomoni shundaki, bolalar adabiyotini biz pedagogik instrument sifatida 3 yoshlik bolalar bilan ham qo'llahismiz mumkin [7]. Chunki kichik yoshdagi bolalarni aynan qiziqarli rasmi kitoblar bilan e'tiborini jalb qila olamiz. Shuning uchun aynan aniq va tabiiy fanlarga kichik bolalarda ham qiziqish uyg'otishda bolalar kitoblarnining o'rni juda yuqoridir. Dastlab xorijlik psixologlar bolaning ongillik darajasiga, uning dunyoqarashining kengligiga e'tibor qaratishgan. Mahalliy psixologiyada maktabga psixologik tayyorgarlikning intellektual komponentini o'rganishda asosiy e'tibor olingan bilimlar miqdoriga emas, balki kognitiv jarayonlarning rivojlanish darajasiga qaratiladi. «Bola atrofdagi voqealik hodisalaridagi muhim narsalarni ajratib ko'rsatishi, ularni solishtirishi, o'xshash va farqli narsalarni ko'ra olishi, u mulohaza yuritishni, hodisalarning sabablarini topishni, xulosa chiqarishni o'rganishi kerak». Boshlang'ich sinflarda o'quv faoliyati, birinchi navbatda, atrofdagi dunyoni bevosita bilishning aqliy jarayonlarini – sezgi va hislarni rivojlantirishni rag'batlantiradi. Kichik maktab

o'quvchisi atrof-muhitni jonli qiziqish bilan qabul qiladi, bu esa, har kuni unga ko'proq yangi tomonlarni ochib beradi. Bu o'quvchilar idrokining eng xarakterli xususiyati uning kam differensialligi bo'lib, ular o'xshash obyektlarni idrok etishda farqlashda noaniqlik va xatolarga yo'l qo'yadilar. Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilar idrokining navbatdagi xususiyati uning o'quvchining harakatlari bilan chambarchas bog'liqligidir. Aqliy rivojlanishning bu darajasidagi idrok bolaning amaliy faoliyati bilan bog'liq. O'rganish jarayonida idrok chuqurlashadi, tahlil qiluvchi, farqlovchi bo'lib, uyushgan kuzatish xarakterini oladi. Ba'zi yosh xususiyatlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqatiga xosdir. Boshlang'ich maktab yoshida ixtiyoriy diqqat sezilarli darajada yaxshilanadi. Har bir yangi, kutilmagan, yorqin, qiziqarli narsa o'z-o'zidan o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi, ular hech qanday kuch sarflamaydilar. Ya'ni STEM ta'limi berilishi samarali bo'lishi uchun jarayonda bolalarning e'tibori maksimal tarzda tortilgan bo'lishi kerak.

Hozirgi vaqtda maktab ijtimoiy tizimning an'anaviy institutlaridan biri sifatida, birinchi navbatda, zamonaviy o'qituvchining kompetentsiya profiliga qo'yiladigan talablarning ortishi bilan bog'liq bo'lgan global o'zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Bugungi kunda uning vazifalari nafaqat bilimlarni yosh avlodga yetkazish, balki o'quvchilarning doimiy o'zgarishlarga moslashuvchan, tez va ijodiy javob berish qobiliyatini rivojlantirishdir. Ko'p yillar davomida an'analar saqlovchisi va yetkazuvchi maskani bo'lib kelgan maktab o'qituvchining kelajak shaxsining innovatsion tafakkurini shakllantirishi zarur bo'lgan makonga aylanib bormoqda. Ushbu murakkab va ulkan vazifani hal etish zamonaviy maktab uchun kadrlar tayyorlashga yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Bo'lajak maktabgacha ta'lim va boshlang'ich sinf o'qituvchilari zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim berish kompetensiyalarini shakllantirishga tayyor bo'lishlari kerak. Har bir yosh bosqichi bolaning ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan munosabatlar tizimidagi alohida mavqeyi bilan tavsiflanadi. Shunga ko'ra, turli yoshdagi bolalarning hayoti o'ziga xos mazmun, atrofda odamlar bilan alohida munosabatlar va rivojlanishning ma'lum bir bosqichiga olib keladigan maxsus faoliyat bilan to'ldiriladi.

O'zbekistonda yaqin yillarda bir nechta nashriyotlar tomonidan aynan rasmi bolalar kitoblari nashr etildi. Tadqiqotimiz doirasida aynan O'zbekistonda nashr etilgan bolalar kitoblaridan foydalanamiz. Bugungi kun ta'limi pedagoglarda nazariy bilimlarni amalda qo'llash yo'llarini izlashni talab etmoqda. Bugun pedagogik jarayon bolalarni jarayonda mutloq ishtiroki bilan kechishi darkorligini bilamiz. Bolaning STEM ta'limiga oid bilimlarni o'zlashtirishi, uning aniq va tabiiy fanlarga qiziqishini orttirish uchun pedagog munosib kitob tanlab, kitob matni va illustratsiyalarining uyg'unlashuvini muhokama qilib, bolada tafakkurni qo'zg'atishi kerak. STEM ta'limi-botanika sohasi. Rasmi kitob yordamida bolalarni kaktuslar olami bilan tanishtiramiz. «Akademnashr» nashriyotida chiqqan «Ajoyib kaktus» kitobi orqali bolalarni botanika sohasiga, hususan, kaktuslar olami bilan tanishtirish va unga qiziqishiga jalb qilish yo'lini taqdim etamiz: Bolani e'tiborini jalb qilish. «Ajoyib kaktus» kitobi bolani qiziqtiradigan maishiy bir muammo haqida. Bu muammoni bola o'z hayotida MTM yoki maktabda uchragani uchun kitob uni e'tiborini qozg'aydi. STEM bilimlarini tabiiy ravishda keltirib o'tish. Kitob matnini o'qish jarayonida bola kaktus va o'simliklar nomlari bilan tabiiy ravishda tanisha oladi. Shu yerda pedagog bola bilan kitobdagi vaziyatni muxokama qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bola qahramon muammosini muxokama qilishi davomida kaktus va o'simliklar nomini o'zi sezmagan holda yanada chuqurroq o'zlashtirib oladi va mavzuga oid ko'proq bilimlarga ega bo'ladi. Aniq va tabiiy fan bilimlari haqidagi tasavvumi kengaytirish. Tasavvumi rivojlantirish bolalikdagi eng muhim qobiliyatlardan

biri hisoblanadi. Bolada kitob mutolaasi yordamida kaktuslar haqida, ularning ko'rinishi, rangi, ba'zi xususiyatlari haqida ilk tasavvurlari shakllanadi. Keyinchalik katta bo'lganida bola o'rgangan kaktuslarga duch kelganida uning ichki xotirasida aynan shu kitobda namoyon bo'lgan kaktuslar gavdalanadi va yangi bilimlarni o'zlashishida yuqori samarani ko'rsatadi. Bolaning ichida savollarni uyg'otish yoki mavzuga qiziqishini yuzaga chiqarish. Pedagog kitobni mutolaa qilish jarayonida, undagi vaziyatni bolalar bilan muhokama qiladi. Kaktuslar haqida boshqa ma'lumotlarni qo'shadi. Ajoyib faktlarni keltiradi. «Nega bu kaktus bunday o'sadi?», «Kaktuslarni qay biri senga yodi, nega?», «Sen qanday kaktus o'stirgan bo'lar eding?» kabi savollarga bolani javob topishga undaydi. Shuningdek, bolada kaktuslarga oid va kitobdagi kaktuslarning ko'rinishiga oid savollarni yuzaga chiqarisha undaydi. Bilim odam ichida yuzaga chiqqan savollarga javob izlangandagina o'zlashtiriladi. Qiziqarli kitob bolada savollarni uyg'ota olsa, unda tabiiy ravishda kitob orqali berilgan STEM mavzusiga qiziqish uyg'onadi. Natijada, STEM sohasining bir jabhasiga bolaning e'tibori jalb qilinadi.

Huddi shu jarayonni boshqa kitoblar misolida ham ko'rib chiqish mumkin: STEM ta'limi – fizika sohasi. Rasmi kitob yordamida bolani akssado fenomeni bilan tanishtiramiz. «Akademnashr» nashriyotida chiqqan «Tomchi qayerga ketdi?» kitobi orqali bolalarni fizikaviy hodisalarga, hususan, akssado fenomeniga e'tiborini qaratishga va qiziqishini oshirish imkoni mavjud. «Tomchi qayerga ketdi?» rasmi kitobida ikki do'stning munosabatlari orqali bolani e'tiborini akssado fenomeniga qaratishimiz mumkin. Akssadoning yuzaga chiqishi, uning foydasi va fizik xususiyatlari haqida bola bilan kitobdagi qahramonlar faoliyatini muxokama qilish orqali suhbat qilish imkoni bo'ladi. Kitobda akssado ham qahramondir. STEM ta'limi – fizika va matematika sohasi. Rasmi kitob yordamida bolani fasllar o'zgarishi, quyoshning botishi haqida qizqarli hikoya asosida tanishtiramiz. Akademnashr nashriyotida chiqqan «Quyoshning sirli botishi» kitobi orqali bolalarni fizika va matematika sohasiga, hususan, quyosh botishi, vaqt, fasllar o'zgarishi mavzulariga o'ziga o'xshash qahramon kechinmalari orqali tanishishimiz mumkin bo'ladi. Bu yerda bosh qahramon Bahromjonning quyosh bilan munosabatini kuzatish orqali bolalar bilan «Nega quyosh erta ketadi?», «Kuz qish va yoz fasllarida qorong'ulik har xil vaqtda bo'lishi», «Quyosh ketish vaqtini o'zgartirish mumkinmasligi», «Tabiatning yil mobaynida o'zgarishi», «Vaqt» kabi mavzularga bolani e'tiborini qaratishimiz va bolani shu mavzularga qiziqishini o'rtirishimiz mumkin bo'ladi. STEM ta'limi – muxandislik. Rasmi kitob yordamida bolani ixtirochilar bilan tanishtiramiz. «Akademnashr» nashriyotida chiqqan «Tug'ilgan kunimga sovg'a» kitobi orqali bolalarni ixtirochilikka, ixtiro qilish yo'llariga qiziqitiramiz. Ixtirochilik uchun muhim bo'lgan tasavvurni kengaytirish qobiliyatini rivojlantiramiz. Ushbu bolalar uchun yaratilgan rasmi kitobda qahramonning bir muammosini hal qilish yo'lini bolalar bilan birgalikda topishimiz mumkin bo'ladi. Qahramon bolalar yoshida bo'lganligi va huddi bolalar singari fikr yuritishi bolalarda unga tavsiyalar berishga ehtiyoj uyg'otadi. Pedagog kitob illustraliyalarini muhokama qilgan holda muzqaymoq fabrikasi, avtomobil, uchar shar, uchar qanotlar haqida qiziqarli suhbatlarni amalga oshirish mumkin. Jarayonda bolalarning ishtiroki va turli xil fikr-mulohazalarini eshitish va to'g'irlamaslik talab etiladi. Bolaning tasavvuri kattalamikidan ko'ra kengroq bo'ladi. Uni qiziqishi va hayolini noto'g'ri deya o'zgartirish mumkin emas.

Xulosa. Boshlang'ich maktab yoshining boshlanishi bolaning maktabga kirgan payti bilan belgilanadi. Maktab hayotining boshlang'ich davri o'rtacha 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha (1-4-sinflar) yosh oralig'ini egallaydi. Bu davr jismoniy va ruhiy stressning kuchayishi, bolaning ijtimoiy chegaralarini kengaytirish va jamiyatda moslashish bilan bog'liq. Bola o'zini va qobiliyatini boshqacha baholaydi, yana bir inqirozni boshdan kechiradi va mustaqil va mas'uliyatli shaxs bo'lishni o'rganadi. Boshlang'ich maktab yoshida bolalar rivojlanishning sezilarli zaxiralari

ega. Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish kuchli pedagogik mahorat va zamonaviy yondashuvni talab qiladi. Ilim-fanga qiziqish qancha erta yuzaga chiqsa, shunchalik uning natijasi yuqori bo'ladi. Aynan maktabgacha va boshlang'ich sinf davri bolalarni STEM olamiga olib kirishda muhim hisoblanadi. Bolalar kitobi esa, bu maqsadga erishish uchun kuchli va yuqori samaraga ega instrumentdir. Boshlang'ich maktab yoshidagi xotiraning yosh xususiyatlari o'rganish ta'sirida rivojlanadi. Og'zaki-mantiqiy, semantik yodlashning roli va o'ziga xos og'irligi ortib boradi, xotirani ongli ravishda boshqarish va uning namoyon bo'lishini tartibga solish qobiliyati rivojlanadi. Boshlang'ich maktab yoshida tasavvurni rivojlantirishning asosiy tendensiyasi rekreativ tasavvurni takomillashtirishdir. Bu ilgari idrok etilganlarni tasvirlash yoki berilgan tavsif, diagramma, chizma va boshqalarga muvofiq tasvirlarni yaratish bilan bog'liq. Qayta yaratuvchi tasavvur haqiqatning tobora to'g'ri va to'liq aks etishi tufayli yaxshilanadi. O'rganish ta'sirida hodisalarning tashqi tomonini bilishdan ularning mohiyatini bilishga bosqichma-bosqich o'tish sodir bo'ladi. Tafakkur narsa va hodisalarning muhim xossalari va xususiyatlarini aks ettira boshlaydi, bu esa, birinchi umumlantirish, birinchi xulosalar chiqarish, birinchi o'xshashliklarni tuzish va elementar xulosalar tuzish imkonini beradi. Shu asosda bolada asta-sekin elementar ilmiy tushunchalar shakllana boshlaydi. Boshlang'ich maktab yoshi – bu shaxsning sezilarli darajada shakllanish yoshi. U kattalar va tengdoshlar bilan yangi munosabatlar, jamoalarning butun tizimiga qo'shilish, faoliyatning yangi turiga – o'quvchiga bir qator jiddiy talablarni qo'yadigan o'qitish bilan tavsiflanadi. Bugungi pedagog uchun kitob badiiy asar bo'lib qolmay, balki bolalar bilan turli mavzularda suhbat qilish uchun kuchli bir manbaga aylanishi kerak. Aniq va tabiiy fanlarni kichik yoshdagi bolalarga o'rgatar ekanmiz, aniq va tabiiy fanlar ma'lumotlariga ularning e'tiborini qaratib, qiziqishlarini uyg'otishni istar ekanmiz, jahon tajribasidan foydalangan holda bolalar rasmiy kitoblariga murojaat qilishimiz lozim. Ta'lim sohasini islohot qilar ekanmiz, pedagoglarni dars jarayonlarida rasmiy kitoblardan foydalanishga o'rgatishimiz lozim. STEM ta'limiga oid bolalar kitoblarini nashr etilishiga alohida ahamiyat qaratmoq lozim. Har qanday pedagogik jarayonda kitobni instrument sifatida qo'llash maqsadga muvofiq va samarali ekanligini unutmasligimiz lozim.

Adabiyotlar:

1. <https://www.president.uz/oz/lists/view/5109>.
2. <https://lex.uz/uz/docs/-6008663>.
3. <https://doi.org/10.1007/s10956-005-7198-9>.
4. 10.1080/1350293X.2021.1913204.
5. JPI, Vol. 10 No. 2, June 2021 p-ISSN: 2303-288X, e-ISSN: 2541-7207 DOI: 10.23887/jpi-undiksha.v10i2.31400 *Corresponding author. Received January 23, 2021; Accepted May 15, 2021; Available online June 25, 2020 © 2020 JPI. All Rights Reserved Jurnal Pendidikan Indonesia (JPI) | 244 4C-Based Learning Model: What, Why, How' Ni Made Ratminingsih1 *, I Gede Budasi 2, Kadek Sonia Piscayanti 3,6.
6. Strouse Gabrielle A., Nyhout Angela, Ganea Patricia A. The Role of Book Features in Young Children's Transfer of Information from Picture Books to Real-World Contexts. *Frontiers in Psychology*. Vol. 9. 2018.
7. Zheng Y., Li D., Chen Z., Liu G. Picture book reading on the development of preschoolers in rural areas of China: Effects on language, inhibition, and theory of mind. *Front Psychol*. 2022 Nov 24;13:1030520. DOI: 10.3389/fpsyg.2022.1030520. PMID: 36506994; PMCID: PMC9731333.

MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA KIBERBULLING OMMALASHUVINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Ahrorova Vaziraxon Suhroboxon qizi, O'zMU magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab o'smirlik davri o'quvchilarining psixologik xususiyatlariga doir nazariy yondashuvlar qiyosiy tahlili, kiberbulling tushunchasining mazmun-mohiyati hamda maktab o'quvchilari o'rtasida kiberbulling namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tadqiq amalga oshirilgan.

Tayanch so'zlar: kiberbulling, maktab o'quvchilari, agressiya, tahdid, ta'qib, himoyalanganlik, bulling.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАСПРОСТРАНЕНИЯ КИБЕРБУЛЛИНГА СРЕДИ УЧАЩИХСЯ ШКОЛ

Ahrorova Vaziraxon Suhroboxon kizi, магистрант НУУз

Аннотация. В данной статье проведен сравнительный анализ теоретических подходов к психологическим особенностям учащихся подросткового периода, сущности понятия кибербуллинга, а также исследование социально-психологических особенностей проявления кибербуллинга среди школьников.

Ключевые слова: кибербуллинг, школьники, агрессия, угроза, преследование, незащищенность, буллинг.

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF CYBERBULLING POPULATION AMONG SCHOOL STUDENTS

Akhrorova Vaziraxon Sukhrobkhon kizi, graduate student of NUUZ

Abstract. This article provides a comparative analysis of theoretical approaches to the psychological characteristics of adolescent students, the essence of the concept of cyberbullying, as well as a study of the socio-psychological characteristics of the manifestation of cyberbullying among schoolchildren.

Key words: cyberbullying, pupils, aggression, threat, harassment, unprotected, bulling.

Kirish. Uzoq yillardan buyon zo'ravonlik hamda tajovuzkorlik muammosi o'rganilib kelinmoqda. Zo'ravonlik, tajavuzkorlik, agressiv xatti-harakatlar, tazyiq o'tkazish kabi ma'nolarni birlashtiruvchi umumiy ma'nodagi tushuncha turli mamlakatlarda turlicha nom olgan. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida ushbu ma'nodagi tushuncha bulling deb nomlanadi.

Asosiy qism. Bulling – yangi atama bo'lishiga qaramay, oldingi davrlarda qo'llanilgan – bolalar o'rtasidagi shavqatsizlik tushunchasiga ham mos keladi. Bugungi kunga kelib esa, bullingning bir qancha turlari hamda ko'rinishlari ommalashib bormoqda. Shulardan biri bu - kiberbullingdir. Yaqin yaqingacha kiberbulling muammosi uzoq muddatgacha o'rganilmagan, ushbu hodisa haqida fikr bildirish mumkin bo'lmagan hattoki ushbu tushuncha ilmiy atama sifatida qo'llanilmagan hodisa tarzida namoyon bo'lgan. Kiberbulling hodisasining muhimlik darajasiga qaramasdan ilmiy adabiyotlarda aynan ushbu hodisaning o'rganilganligi haqida yetarlicha ma'lumotlar mavjud emas edi. Bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlarida yoshlar o'rtasida jinoyatchilik, zo'ravonlik, bulling, kiberbulling holatlari tobora ommalashib

bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, global masshtabda har yili dunyoda 300 millionga yaqin 2-4 yoshdagi bolalarga nisbatan kattalar tomonidan doimiy tarzda shavqatsiz jazo choralari qo'llanilishi, 11-15 yoshdagi maktab o'quvchilarining har uchdan biri esa, tengdoshlari tomonidan turli tazyiqlar, jismoniy va hissiy zo'rvonlikka duch kelishmoqda [1]. Bunday sharoitda ta'lim muhitida o'quvchilar orasida bullying, kiberbullying holatlarining namoyon bo'lish muammosini o'rganish, psixoprofilaktikasini amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu o'rinda esa, bullying, kiberbullying tushunchalari, ularning mazmun-mohiyatini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoni o'rganish davomida ushbu tushunchaga doir turli yondashuvlar mavjudligini kuzatish mumkin. Xususan, bullying hozirda ta'lim psixologiyasida qo'llaniluvchi tushuncha sifatida talqin etilsada, aslida ushbu atama ilk marotaba yoshi kattalar jamoasini tadqiq etish jarayonida qo'llanilgan [2]. Bullying so'zi inglizcha «bullying» («bully» – bezori, urushqoq, qo'pol) so'zidan olingan bo'lib, birovni kamsitish, tahqirlashni ifodalagan. D.Leyn va E.Miller «bullying tushunchasini – anglangan, uzoq muddatli jismoniy yoki psixologik jihatdan guruh a'zolari tomonidan yakka bir shaxsga nisbatan shavqatsiz munosabatidir» deya ta'kidlashgan [3]. Biroq shuni ham unutmaslik kerakki, bullying deganda, faqatgina o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni emas, balki «o'qituvchi-o'quvchi» o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan munosabatlarga ham duch kelishimiz mumkin. Bugungi ayni globallashgan, texnika va axborot zamonida yoshlar o'rtasida axborot texnologiyalaridam to'g'ri foydalanish malaka ko'nikmalarining shakllanmaganligi, axborot vositalar yordamida o'zga shaxslarga nisbatan bilvosita psixologik zo'rvonlik holatlarini amalga oshirilayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ayni shu holatlar ham bullyingning bir qancha turlari mavjudligini ko'rsatadi. Shulardan biri bu – kiberbullyingdir.

Kiberbullying - bu zo'rvonlikning yangi kontekstda sodir bo'luvchi nisbatan yangi shakli bo'lib: Internetda yoki zamonaviy elektron qurilmalar orqali amalga oshiriladigan zo'rvonlik jarayonidir. Kanadalik olim R.Tokunag o'zining metatahliiy tadqiqotida so'nggi o'n yil ichida kiberbullyingning turli ta'riflari taklif qilinganligini, shu bilan birga ularning barchasi konseptual jihatdan maktab bezoriligining an'anaviy kontseptsiyasi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Keyinchalik, D.Ulvaeus, V.Belsi ta'rifiga asoslanib, tadqiqotchi 2006 yilda kiberbullying fenomenini aniqlagan – «yakka yoki guruh shaxslarning axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda boshqalarga nisbatan qasddan, takroriy dushmanlik harakati» [4]. Xorijiy ilmiy hamjamiyatning kiberbullying fenomeniga qiziqishi 2000-yillarning boshlarida paydo bo'lgan va, birinchi navbatda, uning qurbonlari uchun fojiali oqibatlar, shu jumladan, o'z joniga qasd qilish bilan bog'liq sabablardan biri edi. Kiberbullying muammosi ko'p jihatdan chet ellik olimlar, xususan, Kanada va Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa, Rossiyada bu hodisa keyinchalik tadqiqotchilarning qiziqish mavzusiga aylandi. Tadqiqotchilar orasida R.Kovalski, S.Limber, P.Agatson nomlari bor – ular kiberbullyingning turli shakllarini aniqladilar va tavsifladilar, K.Blava o'z tadqiqotlarida kiberbullyingning maktablardagi muhitga ta'siri, O.Yubarra – kiberbullying va depressiya o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi, S.Hindudja va J.Patchin kiberbullying va o'z joniga qasd qilish o'rtasidagi munosabatlar muammosini ko'rib chiqadi. 2005-yilda Qo'shma Shtatlarda jinoyat huquqi bo'yicha mutaxassislar S.Hindudja va J.Patchinlar rahbarligida kiberbullying tadqiqot markazi ochildi. Markaz o'z tadqiqotlarini olib boradi va turli toifalarga: o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar, maktab rahbarlariga qaratilgan kiberbullying muammosi va unga qarshi kurashish bo'yicha ixtisoslashtirilgan broshyuralarni nashr etadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga qo'shimcha ravishda, kiberbullyingning o'ziga xos xususiyatlarini ham eslatib o'tish kerak. Maktab hovlisi kabi qat'iy cheklangan hududlarda

sodir bo'ladigan an'anaviy bullingdan farqli o'laroq, kiberbulling keng tarqalgan jabha hisoblanadi. Kiberbullingning yana bir muhim xususiyati shundaki, kattalar uchun kiberbulling haqida bilish va harakat qilish qiyin bo'lishi mumkin. Ba'zi o'quvchilar kattalarga bo'lgan voqeani aytishga ikkilanib qolishadi, chunki kattalar tomonidan beriladigan javob reaksiyasi yoshlarga Internetdan foydalanishni ta'qiqlaydi [5, 6]. Natijada, ota-onalar va o'qituvchilar ko'pincha bolalar va o'smirlar Internetdan qanday foydalanayotgani va kim bilan muloqot qilishlari haqida tasavvurga ega emaslar yoki kiberbulling oqibatlarining jiddiyligini kam baholaydilar. Kiberbulling, avval aytib o'tilganidek, turli xil qasddan amalga oshiriladigan, tajovuzkor xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. «Kiberbulling va kibertahdidlar» nomli kiberbulling haqidagi ilk nashr etilgan ma'lumotlar muallifi N.Villard onlayn xulq-atvorning quyidagi shakllarini aniqlaydi [7]: fleyming (inglizcha «flaming» – yonayotgan) – ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi qo'pol, tahdid yoki haqoratli so'zlar yordamida janjallashuvini anglatadi. Ko'pincha, fleyming ommaviy Internet platformalarida, masalan, forumlarda, chatlarda va kamroq shaxsiy yozishmalarda sodir bo'ladi. Forumga tashrif buyuruvchilar va guvohlar tomonlardan biriga nizoning asl ma'nosini to'liq tushunmasdan va ko'pincha vaziyatga o'yin sifatida qaragan holda qo'shilib bunday yozishmalarni rivojlantirishlari mumkin; kiberxarassment (inglizcha «harassment» – bezorilik, ta'qib) – jabrlanuvchiga qaratilgan takroriy haqoratli xabarlaridir [8]. Xarassment, asosan, shaxsiy muloqotlarda, elektron pochta orqali keng tarqalgan, ba'zan boshqa onlayn platformalarda ham sodir bo'lishi mumkin. Kiberxarassment fleymingdan ikkita muhim nuqta bilan ajralib turadi – bular davomiylikning ko'payib borishi va qo'rquv yoki tajovuzkorlarni aniqlay olmaslik tufayli jabrlanuvchiga bir yoki bir nechta huquqbuzarlarning bir tomonlama ta'sir qilish tendentsiyasi. Xarassmentning bir turi grifing (inglizcha «griefing» – qayg'urish)dir – ba'zi o'yinchilarning ko'p ishtirokchilardan iborat bo'lgan onlayn o'yinlarida ularning zavqini buzish uchun boshqalar tomonidan ta'qib qilinishi. Griferlar o'zini tajovuzkor tutishi, odobsiz so'zlarni ishlatishi, o'yinning muayyan maydonlarini bloklashi yoki aldashi mumkin.

Yana bir kam uchraydigan xarassment shakli – trolling – o'quvchilarning kuchli hissiy reaksiyasini qo'zg'atuvchi sharhlar va ma'lumotlarni forumlarda, veb-sahifalarda va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirish. Ingliz tilidan tarjima qilingan trolling – bu baliq ovlash atamasiga sinonim tarzda qo'llaniladi. Internet-trollar – bu odamni o'zlarining manipulyatsiyalari bilan o'lja qiladigan va uning yaqqol namoyon bo'ladigan kuchli emotsional reaksiyasidan zavqlanadigan provakatorlardir. Har qanday manipulyatsiyada bo'lgani kabi, tajovuzkor ham jabrlanuvchini manipulyatsiya qilganda, qurbonning hissiy va axloqiy holatiga nisbatan ta'siriga guvoh bo'lganda hukmronlik tuyg'usini his etadi. Xarassmentning yanada kuchli va to'g'ridan-to'g'ri agressiv shakli kiber ta'qib qilish (kiberstalking) deb ataladi. Bunday holda, tajovuzkor jabrlanuvchiga yoki uning oila a'zolariga tahdidli, noqonuniy yoki haqoratli xabarlarini yuboradi; tuhmat (inglizcha «denigration») – boshqa shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi yoki uning obro'siga putur yetkazuvchi qasddan yolg'on ma'lumotlarni tarqatish. Bunday ma'lumotlar veb-saytda, ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinishi yoki messengerlar orqali shaxsiy yuborilishi mumkin. Bu shakl, shuningdek, boshqa shaxsning suratlarini kamsituvchi tarzda raqamli tahrirlashni o'z ichiga oladi [8]; soxtalashtirish, ma'lum bir shaxsga aylanish (inglizcha «impersonation»). Ijtimoiy tarmoqlardagi, blogdagi, pochtaga akkauntga kirish uchun uning parolidan foydalangan holda boshqa tarmoq foydalanuvchisi sifatida o'zini namoyon qilish yoki «jabrlanuvchi»ning ma'lumotlari bilan akkaunt yaratish va uning nomidan boshqa foydalanuvchilar bilan salbiy aloqa o'rnatish. Bunday xabarlar jabrlanuvchining obro'siga putur yetkazadigan haqoratomuz, zo'ravonlik yoki nomaqbul

xabarlarini shaxsiy yoki guruhlarda yuborishni o'z ichiga olishi mumkin; maxfiy ma'lumotlarni to'plash, auting (ingl. outing) – shaxsiy ma'lumotlarni olish va uni Internetda nashr qilish yoki uni mo'ljallanmagan shaxslarga topshirish. Auting real hayotda qurbonning sirlarni ochishga, shuningdek, jabrlanuvchining uyat va qo'rquv hissi bilan birga keladi va faqat guvohlar soni bilan farqlanadi, ularning sonini onlayn sanab bo'lmaydi; mustasno qilish (exclusion/ostracism) – bu kimnidir Internet hamjamiyatidan yoki do'stlar ro'yxatidan ataylab va shafqatsiz ravishda olib tashlash.

Kiberbulling holatida manipulyativ ta'sir modeli quyidagicha amalga oshiriladi: 1) ma'lumot to'plash – potensial jabrlanuvchi haqida to'g'ridan-to'g'ri aloqalar va / yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladi; 2) aloqaga jalb etish – qabul qiluvchining o'z akkaunti, pochtasini ochishi paytida sodir bo'ladi; 3) bu holda muhim omil tajovuz etuvchining jazosiz, anonim holda qolishiga ishonishi va jabrlanuvchining ushbu hujumdan himoyalanihga zaifligi hisoblanadi; 4) ta'sir qilish nishonlari – kiberbulling oqibati depressiya, xavotirlanish, stress va boshqalar, hattoki o'z joniga qasd qilishgacha olib borishi mumkin.

«Individlarning kiberbullingdan himoyalanganlik darajasini baholash» so'rovnomasi kiberbullingdan shaxslarning himoyalanganlik darajasini baholash maqsadida ishlab chiqilgan. So'rovnomani standartlashtirish jarayonida 307 nafar 17-21 yoshdagi o'g'il va qiz bolalar uchun normalar aniqlangan, o'rtacha qiymatlar va standart og'ish ko'rsatkichlari taqdim etilgan. Metodikani ishlab chiqish jarayonida uning nazariy asosini manipulyativ ta'sir modeli (kiberbulling ularning ko'rinishlaridan birini aks ettiradi) va ushbu model nuqtai nazaridan tasvirlangan kiberbullingning shaxsga ta'sirining psixologik mexanizmi tashkil etgan. So'rovnoma yordamida aniqlangan kiberbullingga duchor bo'lgan shaxslarning holatlari, bundan avval o'tkazilgan tadqiqotlarda olingan natijalarga ham mos kelishi qayd etilgan. Mazkur so'rovnoma shaxslarga kiberbulling qurboni bo'lishning hozirgi yoki yaqin xavfi haqida ogohlantirishga imkon beradi. So'rovnoma natijalarini yuqori yoki past ko'rsatkichlarini tasniflash mezoni uning tegishli jins uchun o'rtacha qiymati bilan taqqoslash ekanligi belgilangan: o'rtacha qiymatdan yuqori ko'rsatkichlar respondentlarning kiberbullingdan himoyalanganlik darajasining yuqori ekanligini, o'rtacha qiymatdan past ko'rsatkichlar ularda kiberbullingdan himoyalanganlik darajasining past ekanligini anglatadi. Yuqori yoki past ko'rsatkichlarga og'ish «standart og'ish» birliklarida o'lchanadi. Kiberbullingdan himoyalanganlik darajasining so'rovnoma mualliflari bo'yicha me'yoriy ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

«Individlarning kiberbullingdan himoyalanganlik darajasini baholash» so'rovnomasi mualliflari bo'yicha me'yoriy ko'rsatkichlari (Belarus Respublikasi)

Guruhlar	O'rtacha qiymat (M)	Standart o'g'ish (σ)
Qizlar	17,5	1,2
O'g'il bolalar	18,47	4,6

Bizning tadqiqotimiz davomida dastlab, pilotaj tadqiqot doirasida 10-11-sinflarda ta'lim olayotgan 79 nafar o'quvchilar bilan so'rovnoma asosida tadqiqot amalga oshirilib, tanlov guruhimizda so'rovnoma muallifi natijalariga yaqin me'yoriy ko'rsatkichlar aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

«Individlarning kiberbullingdan himoyalanmaganlik darajasini baholash» so'rovnomasi me'yoriy ko'rsatkichlari

Guruhlar	O'rtacha qiymat (M)	Standart o'g'ish (σ)
Qizlar	18,28	5,39
O'gil bolalar	18,62	4,92

So'rovnoma natijalarini sifat tahlilini amalga oshirish uchun respondentlarni kiberbullingdan himoyalanmaganlik darajasini baholashda uning uch darajasi belgilandi: yuqori daraja – qiz bolalar uchun – 23,67 balldan, o'gil bolalar uchun 23,54 balldan yuqorini tashkil etdi; o'rta daraja – qiz bolalar uchun – 12,90 dan 23,66 ball, o'gil bolalar uchun 13,69 dan 23,53 ball oralig'ini tashkil etdi; quyi daraja – qiz bolalar uchun –12,89 balldan, o'gil bolalar uchun 13,7 balldan past ko'rsatkichni tashkil etdi. Mazkur mezon bo'yicha ko'rsatkichlar chastotali tahlil qilindi (3-jadval).

3-jadval

«Individlarning kiberbullingdan himoyalanmaganlik darajasini baholash» so'rovnomasi natijalari ko'rsatkichlarining chastotali tahlili

Танлов guruhi	Quyi daraja		O'rta daraja		Yuqori daraja	
	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi
Qizlar (n=39)	5	12,8	29	74,4	5	12,8
O'g'il bolalar (n=40)	5	12,5	27	67,5	8	20,0
Farqlanish	0	-0,3	-2	-6,9	+3	+7,2

Chastotali tahlil natijalari kiberbullingdan himoyalanmaganlik darajasining tanlov guruhi tarkibiga kirgan qiz va o'gil bolalar ko'rsatkichlarida quyidagicha taqsimlanganligini ko'rsatdi: yuqori daraja – qiz bolalarda – 12,8%ni, o'gil bolalarda 20%ni, farqlanish - 7,2%ni tashkil etdi; o'rta daraja – qiz bolalarda – 74,4%ni, o'gil bolalarda 67,5%ni, farqlanish – 6,9%ni tashkil etdi; quyi daraja – qiz bolalarda – 12,8%ni, o'gil bolalarda 12,5%ni, farqlanish – 0,3%ni tashkil etdi.

Natijalardan ko'rinib turganidek, kiberbullingdan himoyalanmaganlik darajasining yuqori ko'rsatkichlari o'gil bolalarda qiz bolalarga nisbatan balandroq, o'rta ko'rsatkichning pastroq hamda quyi ko'rsatkichining teng ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida mazkur so'rovnoma natijalarining tanlov guruhimizda gender xususiyatlariga ko'ra farqlanishlarning statistik ishonchligini aniqlash maqsadida Student t-mezone bo'yicha SPSS 26.0 dasturida tahlil o'tkazilib, natijalar qiz va o'gil bolalar ko'rsatkichlari o'rtasida statistik ahamiyatli farqlanish mavjud emasligini ko'rsatdi (4-jadval).

4-jadval

«Individlarning kiberbullingdan himoyalanmaganlik darajasini baholash» so'rovnomasi natijalari ko'rsatkichlarining farqlanish tahlili (Student t-mezone)

Metodika va shkalalar	Tanlov guruhi				Student t-mezone
	Qizlar (n=39)		O'g'il bolalar (n=40)		
	(M)	(σ)	(M)	(σ)	
«Individlarning kiberbullingdan himoyalanmaganlik darajasini baholash» so'rovnomasi	18,28	5,39	18,62	4,92	0,295

Xulosa. Zo'ravonlik (kiberbulling) zamonaviy jamiyatning dolzarb muammosidir. Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek: mamlakatdagi har bir maktabda buni kuzatishingiz mumkin bo'lgan kamida bitta sinf mavjud. Bizning fikrimizcha bezorilik, zo'ravonlikning oldini olish uchun aholi madaniyatini yuksaltirish kerak. Maktab o'quvchilari o'rtasidagi kiberbulling odatiy hodisaga aylanmasligi va tajovuzkor xatti-harakatlar norma sifatida qaralmasligi juda muhimdir. Aynan shuning uchun ham kiberbulling fenomeni yuzasidan psixodiagnostika va psixoprofilaktika ishlarini tashkillashtirishning asosiy vositasi bu jamiyat a'zolariga ushbu tushunchaning mazmun-mohiyati, uning shakli va ko'rinishlari, oldini olish usul va metodlari, ilk belgilari hamda shaxsga ta'sir ko'rsatadigan psixologik ta'sirlari to'g'risida tushunchalar berish, uning namoyon bo'lishining obyektiv va subyektiv omillarini o'z vaqtida tashxislash, samarali psixokorreksiya tadbirlarini amalga oshirish hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Доклад ООН о положении дел в мире в области профилактики насилия в отношении детей 2020 года.
2. Бочавер А.А., Хломов К.Д. Буллинг как объект исследований и культурный феномен // Психология. - М., 2013. - Т. 10. - № 3. - С. 149-159.
3. Лейн Д. Детская и подростковая психотерапия / Под ред. Д.Лейна и Э.Миллера. - М., 2001. - 448 с.
4. The world's first definition of cyberbullying: <http://www.cyberbullying.ca/2019/02/25/cyberbullying-involves-the-use>
5. Juvonen J., Gross E.F. Extending the school grounds' - bullying experiences in cyberspace // Journal of School Health, 2008. - № 78. - P. 496-505.
6. Reyns B.W., Henson B., Fisher B.S. Being pursued online: Applying cyberlifestyle - routine activities theory to cyberstalking victimization // Criminal justice and behavior, 2011. - Т. 38. - № 11. - P. 1149-1169.
7. Willard, N. E. Cyberbullying and cyberthreats: Responding to the challenge of online social cruelty, threats, and distress // Research Press, 2006. - 311 p.

IJTIMOY XATAR GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLARDA EMOTSIONAL INTELEKTNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Beknazarova Nigina Zarip qizi, «Psixologiya» o'quv-ilmiy markazi mutaxassis psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada deviant xatar guruhiga kiruvchi yoshlarda emotsional intellektning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish va emotsional intellektni rivojlantirish haqidagi nazariy ma'lumotlar tatbiqi keltirilgan.

Tayanch so'z: *emotsional intellekt, xatar guruhi, deviant xulq-atvor.*

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У МОЛОДЕЖИ ГРУППЫ СОЦИАЛЬНОГО РИСКА

Бекназарова Нигина Зарип кизи, специалист психолог учебно-научного центра «Психология»

Аннотация. В данной статье представлено исследование особенностей развития эмоционального интеллекта у молодых людей, относящихся к девиантной группе риска, и применение теоретических сведений о развитии эмоционального интеллекта.

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, группа риска, девиантное поведение.*

PERSONAL DEVELOPMENT EMOTIONAL INTELLECT AND YOUTH GROUP SOCIAL RISK

Beknazarova Nigina Zarip daughter, expert psychologist of educational and scientific center «Psychology»

Abstract. This article presents the study of the characteristics of the development of emotional intelligence in young people belonging to the deviant risk group and the application of theoretical information about the development of emotional intelligence.

Key words: *emotional intelligence, risk group, deviant behavior.*

Kirish. Ijtimoiy xatar guruhiga kiruvchi yoshlar kim? Ijtimoiy xatar guruhiga kiruvchi yoshlar bu – xulq-atvorida og'ishish mavjud, ya'ni deviant, delikvant xulq-atvorga, jinoyatchilikka moyil shaxslar.

Asosiy qism. Bugungi kunda aholi sonining ko'payishi, jinoyat sodir etish usullarining oshishi va ijtimoiy sabablarni natijasida ijtimoiy xatar guruhiga kiruvchi yoshlarning soni ortib bormoqda. Ya'ni, O'zbekistonda 2019-2023-yillarda ro'yxatga olingan jinoyatlar soni 2,3 barobarga – 46 mingdan 104 mingtaga oshgan. 2021-yildagi keskin ko'tarilishdan so'ng bosqichma-bosqich pasayish kuzatilmoqda. Shu bilan birga, yil davomida o'ta og'ir va og'ir jinoyatlar soni ortganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Yil davomida eng ko'p jinoyatlar (jinoyatchilik darajasi bo'yicha emas, balki umumiy soni bo'yicha, ya'ni aholiga nisbatan) Toshkent shahrida – 21728 ta (10 ming kishiga 71,5), Farg'ona viloyatida – 13025 ta (32,1), Toshkent viloyatida – 12430 ta (40,7) va Andijon viloyatida – 7487 ta (22,1) sodir bo'lgan. Eng kam jinoyat Jizzax viloyati – 3192 ta (21,2), Sirdaryo viloyati – 3387 ta (37,1) va Xorazm viloyatida – 3023 ta (15,1) qayd etilgan.

Bunday jinoyatlarning aynan yoshlar tomonidan ko'p foizda amalga oshirilayotganligiga ijtimoiy va psixologik sabablarni ham bir omil sifatida keltirib o'tish mumkin. Ijtimoiy

xatar guruhiga kiruvchi yoshlarda deviant xulq-atvor boshqa odamlar bilan munosabatlarda qiyinchiliklar, his-tuyg'ularining yuzakiligi, boshqalarning ko'rsatmalari asosida harakat qilish, o'z-o'zini anglash sohasidagi buzilishlar, o'quv materialini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarning kuchayishi bilan ifodalanadi. Oiladagi yetishmovchilik, nosog'lom muhit, noto'liq oilalar va bu oilada hayot mazmunining, irodaviy sifatlarning yetishmasligi hamda emotsional intellektning yetarlicha rivojlanmaganligi ham shunga o'xshash jinoyatlarning sodir bo'lishiga ta'sir etuvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi paytlarda emotsional intellekt atamasi tobora ommalashib bormoqda, ammo fanda bu tushunchaning aniq ta'rifi hali ham mavjud emas. Birinchi marta EQ – hissiy kvotinent, emotsionallik koeffitsienti, IQ – intellekt koeffitsienti bilan o'xshashlik – 1985 yilda klinik fiziolog Ruven Baron tomonidan kiritilgan. 1990 yilda Jon Mayer va Piter Salovey emotsional intellekt tushunchasini kiritdilar. Daniyel Goleman bilan birgalikda ushbu olimlar emotsional intellekt bo'yicha tadqiqotlarda «birinchi uchlik»ni tashkil qiladi. Bu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlarning umumiy soni juda katta. Emotsional intellektni o'rganish xorijiy psixologiya doirasida juda keng tarqaldi. Emotsional intellekt nazariyasiga X.Gardner katta hissa qo'shgan bo'lib, u 1983 yilda insonning «ko'p intellektlari»ni e'lon qilib, uning yettita shaklini, shu jumladan, hissiy yoki shaxslararo intellektni alohida ta'kidlaydi. 1990-yilda X.Gardner kontseptsiyasiga asoslanib, psixologlar J.Meyer va P.Salovey «emotsional intellekt» atamasini kiritdilar va ular emotsional intellektni «o'z his-tuyg'ularini va boshqalarning his-tuyg'ularini anglash va tushunishga yordam beradigan aqliy qobiliyatlar guruhi» degan to'xtamga kelishadi.

Olimlar emotsional intellektning birinchi va eng mashhur modelini ishlab chiqdilar va ushbu modeldagi emotsional intellekt quyidagi qobiliyatlardan iborat: his-tuyg'ularni to'g'ri idrok etish, baholash va ifoda etish qobiliyati; fikrlash samaradorligini oshirish uchun his-tuyg'ularga kirish va ularni uyg'otish qobiliyati; his-tuyg'ularni tushunish qobiliyati; his-tuyg'ularni ongli ravishda tartibga solish, his-tuyg'ularni boshqarish qobiliyati.

1990-yillarning o'rtalarida G'arb dunyosi jumalist Daniyel Golemaning «Emosional intellekt: nega bu IQ dan ko'ra muhimroq» psixologik bestsellersi bilan portladi. Goleman inson miyasi, his-tuyg'ular tarixi va antropologiya haqidagi faktlar orqali amerikalik olimlarning tadqiqotlaridan foydalanib, muvaffaqiyatli odamning o'z versiyasini berishga harakat qildi. D.Goleman, boshqa tadqiqotchilar singari (Gardner; Sternberg), IQ testlari va shunga o'xshashlar, masalan, maktab baholarini baholash testlari (SAT), kim hayotda katta muvaffaqiyatlarga erishishini aniq bashorat qila olmasligini isbotladi. U IQ testlari bilan o'lchanmagan muvaffaqiyatning qariyb 80 foizi boshqa xususiyatlarga bog'liq deb taxmin qildi, ulardan biri emotsional intellektidir. Bu bilan u «o'z-o'zini rag'batlantirish va umidsizlikka qarshilik ko'rsatish, hissiy portlashlarni nazorat qilish va zavqlanishdan voz kechish, kayfiyatni tartibga solish va hissiyotlarni o'ylash, hamdardlik va umid qilish qobiliyatini so'ndirmaslik» kabi qobiliyatlarni tushungan.

Amerikalik olim Daniel Goleman tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida emotsional intellekt darajasining past, o'rta va yuqori bo'lishi yoshlarda o'z-o'zini rag'batlantirish, umidsizlikka qarshilik ko'rsatish, hissiy portlashlarni nazorat qilish, kayfiyatni tartibga solish, empatiya bildirish xususiyatlarining qay darajada shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omil ekanligi aniqlandi.

Agar ijtimoiy xatar guruhiga kiruvchi yoshlarda emotsional intellekt darajasi past bo'lsa ularda quyidagi holatlar namoyon bo'lishi mumkin:

– o'z-o'zini anglashning yomonlashishi: o'z his-tuyg'ularini tan olish va tushunishdagi

qiyinchilik, impulsivlik yoki oldindan aytib bo'lmaydigan hissiy reaksiyalarga olib kelishi;

- tuyg'ularni boshqara olmasligi: hissiyotlarni tartibga solish uchun kurashish, bu kayfiyatning o'zgarishiga yoki hissiy charchoqqa olib kelishi mumkin;

- empatiya yetishmasligi: boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va baham ko'rishda qiyinchiliklar keyinchalik g'amxo'rlikning yetishmasligiga yoki befarqlikga olib kelishi mumkin;

- ijtimoiy ko'nikmalarning yetarlicha rivojlanmasligi: bunda insonda samarali muloqot, faol tinglash va ijtimoiy vaziyatlarni osongina boshqarish qobiliyati yetarlicha shakllanmasligi kuzatilishi mumkin.

Tabiiyki, bunday yoshlarning jamiyatga moslashish jarayoni qiyinlashishi natijasida ularda agressiv, stressli, depressiv holatlar yuzaga kela boshlaydi va o'z vaqtida bartaraf etilmagan bunday hislar shaxsda o'zi anglamagan holda jinoyatga olib keluvchi xatti-harakatni keltirib chiqaradi.

Agar ijtimoiy xatar guruhiga kiruvchi yoshlarda emotsional intellekt darajasini yuqori ko'rsatgichga ko'taradigan bo'lsak, quyidagi natijaga erishishimiz mumkin: oiyn vaziyatlarga nisbatan yoshlar chidamliroq, qat'iyatli va kuchli bo'ladi; yanada ko'proq do'stlar orttiradi va boshqalar bilan muammolarni osonroq hal qila oladi; qiyin paytlarda yoki stressli vaziyatlarni oldingiga nisbatan yaxshiroq yengish imkoniyatiga ega bo'ladi; muammoli vaziyatlarda stressing ta'sir darajasi past bo'ladi, salomatlikka ta'sir qiluvchi salbiy omillar kamayadi; ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolar uchrash ehtimoli pasayadi, xavotirlanish va tashvishlanish kamayadi, buning natijasida esa, psixotrop moddalarni qabul qilish ehtimoli yuzaga kelishining oldi olinadi; asta-sekinlik bilan yoshlarda atrofidagi insonlar bilan ijobiy va barqaror munosabatlarni rivojlantirishga olib keladi; emotsional intellekti yuqori bo'lgan yoshlar hayotning barcha jabhalarida muvaffaqiyat qozonadi, o'z ustida ishlay boshlaydi va mehnat faoliyatida yaxshi natijalarni qo'lga kiritadi.

Asosan, emotsional intellekt darajasi yuqori bo'lgan yoshlar o'z oilasi, do'stlari, jamiyati va maktabi bilan yaqin munosabatlarni his qiladi. Ular muvaffaqiyatga erishish va shaxs sifatida o'sish uchun o'z qobiliyatlariga nisbatan kuchli ishonchga ega bo'ladilar. Qolaversa, ular qiyin yoki stressli vaziyatlardan osonroq chiqib keta olishadi va aqliy jihatdan kuchli bo'lishadi.

Xulosa. Agar inson o'z hissiyotlarini anglasa, o'z xohishlari bilan tanish bo'lsa, o'z emotsiyalari haqida ma'lumotga ega bo'lsa inson o'zidagi agressiya, apatiya, depressiya, pessimizm, stress, xavotirlanish kabi salbiy hislar ustida ishlashi, ularni boshqarishni o'rganishi va o'zidagi emotsional intellektni rivojlantirishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Монаина Г.Б. Эмоциональный интеллект супругов как фактор оптимизации супружеских отношений. - М.: ФГБОУДПО «Институт повышения квалификации специалистов профессионального образования», Академия профессионального образования, 2012. - № 3. - С. 40-50.
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/19/crime-stats-uzbekistan/>
3. Ильин Е. Эмоции и чувства. - СПб.: Питер, 2011.
4. Барканова О.В. Методики диагностики эмоциональной сферы: Психологический практикум. - Красноярск, 2009.

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR O'R NATISHADGI PSIXOLOGIK TO'SIQLAR VA ULARNING OLDINI OLISH

Atabayev Navruzbek Ilhombek o'g'li, TAFU o'qituvchisi

Annotatsiya. Insonning boshqa mavjudotlardan farqli eng muhim jihatlaridan biri bu, albatta, uning ijtimoiylashish xususiyati va ijtimoiy mavjudot ekanligidir. Inson jamiyatda baxtli hayot kechirishi uchun faqatgina tabiiy ehtiylarinigina qondirishni o'zi yetarli emasligi bugungi kundagi ochiq oydin haqiqatlardan biridir. Shaxslararo munosabatlar insonning jamiyatga bo'lgan shu kabi talablaridan biri hisoblanib aynan shu ehtiyoj va talab zamirida u mustaqil shaxs sifatida tarkib topadi. Maqolada shaxslararo munosabatlar va yuqori sinf o'quvchilarida bu jarayon qanchalik ahamiyatligi borasida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: shaxslararo munosabatlar, o'spirin, motiv, individ, shaxs, psixika, muloqot.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕПЯТСТВИЯ В УСТАНОВЛЕНИИ МЕЖПЕРСОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ У УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ И ИХ ПРОФИЛАКТИКА

Атабаев Наврузбек Илхомбек угли, преподаватель ТУПН

Аннотация. Одной из важнейших вещей, отличающих личности от других существ, является его способность к социальному существованию и существование социального существа. Сегодня одной из очевидных истин является то, что личность недостаточно счастлива, чтобы развивать только свои естественные потребности, чтобы жить в обществе. Межличностные отношения считаются одной из потребностей личности, лежат в основе этого общества и требуют, чтобы оно обрело самостоятельное личностное содержание. В статье говорится о межличностных отношениях и их значении в этом процессе у учащихся старших классов.

Ключевые слова: межличностные отношения, подросток, мотив, индивид, личность, психика, общение.

PSYCHOLOGICAL OBSTACLES IN ESTABLISHING INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN HIGH SCHOOL STUDENTS AND THEIR PREVENTION

Atabayev Navruzbek Ilhombek son, teacher of TUPS

Abstract. One of the most important things that makes a person different from other creatures is his ability to be social and the existence of a social being. Today, it is one of the clear truths that a person is not happy enough to develop only his natural needs in order to live in society. Interpersonal relations are considered one of the demands of a person, and it is at the core of this society and demand that it finds an independent personal content. The article talks about interpersonal relationships and their importance in this process in high school students.

Key words: interpersonal relations, adolescent, motive, individual, personal, psyche, communication.

Kirish. Ijtimoiy hayotga bo'lgan qadamlar o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining o'qish faoliyati tugashi u yoki bu sohada o'z faoliyatlarini boshlashlari bilan yanada keng qamrovda amalga oshadi. Bizga ma'lumki, yuqori sinf o'quvchilarining psixik rivojlanish davri bu o'spirinlik davriga to'g'ri keladi va bu yosh insonning jamiyatga bo'lgan o'zaro faol ta'sirlashuv jarayoni bo'lib bu davrdagi o'quvchilarning shaxslararo munosabatlar jarayoni va ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish jamiyatning strukturaviy tuzilishi va unda ro'y beradigan jarayonlarni chuqurroq tadqiq etish imkonini beradi.

Asosiy qism. Shaxslararo munosabatlar aslida juda murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanib bu boradagi izlanishlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Shaxslararo munosabatlar jarayoni qanday kechishi, uning jamiyatdagi bo'layotgan voqea xodisalarida tutayotgan o'rmi, oilaning shaxslararo munosabatlarga bo'lgan ta'siri va boshqa shu kabi shaxslararo munosabatlarga ta'sir etuvchi omillarni atroflicha yoritish va o'rganish bugungi kunda ham psixologiya fanining dolzarb mavzularidan biri bo'lib qolmoqda. Insonning jamiyatdagi munosabatlari borasidagi fikrlar azaldan insonlarni diqqat markazida bo'lib kelgan. Xususan, Platonning «Davlat» va «Qonunlar» deb atalgan asarlarida insonning jamiyat bilan munosabatlariga, jamiyat shaxsga nisbatan o'zgarimas nuqtada, jamiyatning taraqqiyoti jamiyat rivojlanish qonunlariga bog'liq degan fikrni ilgari suradi. Qarama-qarshi fikr o'laroq Aristotel individni barcha ijtimoiy o'zgarishlarning bosh omili, chunki unda bu jarayonga ta'sir etuvchi yetarlicha imkon borligini aytadi. Shaxs va jamiyat orasidagi munosabatlarni Platon jamiyat foydasiga hizmat qilishini aytgan bo'lsa Aristotel buning aksini ko'rsatib o'tishga intilganini ko'rishimiz mumkin. Keying davr faylasuflari Gobbs, Falvesiy, Lokk, Russo, Gegel, Makiavelli, sharq faylasuflaridan Beruniy, Farobiyalar ham shaxs va jamiyat, shaxslararo munosabatlar, insonning jamiyatdagi ro'li va ahamiyati borasida o'z qarashlarini bayon etishgan.

Zamonaviy psixologiyada «shaxslararo munosabatlar» tushunchasining aniq ta'rif mavjud emas. Biz bu borada bildirilgan fikrlarning ayrimlariga to'htalib o'tishga harakat qilamiz. N.N.Obozov shaxslararo munosabatlar har doim «subyekt-subyekt» aloqalari ekanligini ta'kidlaydi. E.P.Ilin o'zining «Muloqot psixologiyasi va shaxslararo munosabatlar» kitobida quyidagi ta'rifni keltirib o'tadi: «shaxslararo munosabatlar – bu shaxslar o'rtasida rivojlanadigan munosabatlar. Ular ko'pincha hissiy tajribalar bilan birga keladi, ular insonning ichki dunyosini ifodalaydi [1]. G.M.Andreeva shaxslararo munosabatlarni obyektiv ravishda tajribali, turli darajada, odamlar o'rtasidagi idrok etilgan munosabatlar deb belgilaydi. Umuman olib qaraganda, har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilat-lari, xattoki kamchilik va nuqsonlari ham shaxslararo munosabat jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan inson o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'lolmaydi.

XXI asr boshlarida ingliz olimi Benedikt Xermann antisotsial jazoning ijtimoiy-psixologik hodisasini tasvirlab berdi. Bu hodisaga ko'ra, haddan tashqari faollik ko'rsatadigan shaxslarni jamiyat tomonidan tanqid qilish yoki jazolashdan iborat, hatto bunday faoliyat obyektiv ijtimoiy foydali bo'lsa ham. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bu hodisa ijtimoiy aloqalar, ijtimoiy-siyosiy institutlar va ijtimoiy foydali faoliyat an'analari etarli darajada rivojlanmagan mamlakatlarda keng tarqalgan [2].

Til va urf-odatlarining muloqotdagi roliga oid qiyosiy tahliliy asarlar XIX-asrda faol nashr etila boshlandi. Ularning ko'pchiligi «Xalqlar psixologiyasi» nomini olgan nazariya g'oyalari doirasida amalga oshirildi. Uning asosiy qoidalari V.Vundt tomonidan ishlab chiqilgan. Nazariyaning markaziy bayonoti shundan iboratki, odamlarning o'zaro munosabatlarining birlamchi shakli madaniy (lingvistik) jamoa bo'lib, unda shaxsning shaxs sifatida shakllanishi va uning tarbiyasi amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan xalqlar psixologiyasiga e'tibor qaratgan ko'plab maqola va monografiyalar mualliflarini muloqot tilining o'ziga xos xususiyatlari, uning tafakkur bilan aloqasi qiziqirdi. Strukturaviy muvozanat nazariyasini yaratuvchisi F.Hayder va uning shogirdlari odamlarning kundalik vaziyatlarda rivojlanadigan va birinchi navbatda, sog'lom fikrga zid bo'lgan va muammolarni keltirib chiqaradigan munosabatlarini o'rgandilar. Masalan, quyidagi tarzda tuzilgan munosabatlar: «Men do'stim sevganni sevmayman». Bu nazariya doirasidagi munosabat-larning shakllanish mexanizmi odamlar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarining

muvozanatlashuvi va tranzitivligi mexanizmi deb qaraladi. Shuni ta'kidlash kerakki, F.Haydarning g'oyalari odamlarning bir-birini idrok etish mexanizmlari va hodisalarini toifalash va stereotiplash mexanizmlari, muloqotdagi sherigiga sifatlar va xususiyatlarni berish hodisalarini o'rganishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlarga yordam berdi [3].

Odamlar bilan muloqot qilishda fikrlar, baholashlar, nuqtai nazarlarning izchilligi rolini o'rganish L.Festinger nazariyasi (kognitiv dissonans) muhim ahamiyatga ega. Muallif turli fikrlarga ega bo'lgan odamlarni ularni solishtirishga va ularning izchilligiga intilishga undaydigan mexanizm mavjudligini ko'rsatdi [4]. Kognitiv dissonans nazariyasida bir xil mavzu bo'yicha mavjud bilimlarga qarama-qarshi fikr paydo bo'lishi natijasida yuzaga keladigan noqulaylik hissi yo'q qilishni ta'minlash uchun mo'ljallangan motivatsiya maqomi beriladi. Obyekt haqidagi mantiqiy jihatdan qarama-qarshi bilimlar ongda to'qnashganda noqulaylik hissi paydo bo'ladi kognitiv dissonans nazariyasi ushbu qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yoki yumshatish yo'llarini tavsiflaydi va odatiy holatlarda odam buni qanday amalga oshirishini tasvirlaydi [5]. Shaxslararo munosabatlar insonning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning rivojlanish davrlari mobaynida turli hil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Rivojlanish psixologiya-sidan ma'lumki, yuqori sinf o'quvchilarining psixik rivojlanishi o'spirinlik davriga to'g'ri keladi va bu davrdagi ularda kechadigan shaxslararo munosabatlar ham ayrim jihatlari bilan boshqa davrlardan farqli ko'rinishga ega. O'spirinlarda qadriyatli ma'noli muloqot dominantlik qiladi. Yigit va qizlarning kattalar va ota-onalar bilan muloqoti demokratik xarakter kasb eta boshlaydi. O'spirinning kattalar bilan muloqotining mazmuni hayot mazmunini izlash, o'zini bilish, hayotiy rejalar va ularni amalga oshirish yo'llari, insonlar orasidagi shaxslararo munosabatlar, kasb egalari haqidagi muammolarni qamrab oladi [6]. Kattalar bilan muloqot bir xil davom etmaydi, o'zini qiziqtirgan muammoni hal qilgach, keyingi muammo bo'yicha savollar tug'ilguncha kamroq muloqot qilishi mumkin. Yigit va qizlar o'ziga yaqin kattalar bilan muloqot qilishga kasb tanlash muammolariga duch kelganlarida hayotiy tajribalarini o'rganish uchun ehtiyoj sezadilar. Bir-birini tushunish, bir-birini qo'llab-quvvatlashga asoslangan hamkorlik sharoitida muloqot samarali kechadi. O'spirin uchun kattalar bilan ishonchli muloqotning mazmuni shundan iboratki, uning muammolarini tushunish, hamdardlik bildirish va uni hal qilish uchun yordamlashishdan iboratdir. Muloqotdagi o'zaro ishonch o'spirin shaxsiga hurmat, hayotiy qiyinchiliklarni yenga olishiga ishonch bildirish - ota-ona va farzand munosabatlarida uyg'unlikni ta'minlashning muhim asosidir. O'spirinlik davrida muloqotga ehtiyoj kuchayadi, muloqot vaqti ortadi, muloqot doirasi kengayadi. Muloqot doirasining kengayishi bilan muloqot chuqurlashadi va individuallashadi. O'spirinlik inson hayotining eng ahamiyatli davrdir, chunki bu paytda axloq asoslari shakllanadi, ijtimoiy munosabatlar, o'ziga, odamlarga, jamiyatga munosabat shakllanadi.

Bundan tashqari, bu yoshda xarakter xususiyatlari va shaxslararo xatti-harakatlarining asosiy shakllari barqarorlashadi. Bu fazilatlarining barchasi o'spirin va odamlar o'rtasidagi muloqot jarayonida rivojlanadi. Muloqot uning yetakchi faoliyatlaridan biriga aylanadi. O'z-o'zini anglashni shakllantirish va rivojlantirishda muloqot juda muhim rol o'ynaydi va «men»ning to'g'ri qiyofasi bolada faqat uning atrofidagi odamlar bunga chin dildan qiziqish bildirganda shakllanadi. O'spirinlik davrida bolalar aqliy rivojlanish uchun ahamiyati jihatidan farq qiladigan ikkita munosabatlar tizimini rivojlantiradilar: biri kattalar bilan, ikkinchisi tengdoshlari bilan. Ularning ikkalasi ham maktabning o'rta sinflarida shakllana boradi. Bir xil umumiy ijtimoiylashtiruvchi rolni bajara turib, bu ikki munosabatlar tizimi ko'pincha mazmunan va ularni tartibga soluvchi normalarda bir-biriga zid keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, shaxslararo o'zaro ta'sir ko'nikmalarini rivojlantirishning yoshga bog'liq vazifasi o'spirin uchun eng muhim va dolzarb bo'lib qoladi,

chunki o'spirinlik shaxslararo o'zaro ta'sir ko'nikmalarini rivojlantirish uchun eng sezgir davrdir. Kundalik hayotdagi munosbatlarimizda biz har doim ham yuzaga kelgan muammolarning sabablarini tushunmasligimiz mumkin. Albatta, turli yosh davrida shaxslararo munosabatlar qayidir jihatlari bilan bir biridan farq qiladigan va o'xshashlik taraflari bor. Biz bu narsalarni tushungan bilgan holda vaziyatlarga yondashishimiz mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan muammoli holatlarda to'g'ri yechim topishimizga va umuman o'sha muammoli vaziyatlarni oldini olishimizga oz bo'lsada manfaatli bo'ladi. Yuqori sinf o'quvchilarida bu paytda o'zlarini «men»ni tasdiqlashga bo'lgan intilish, atrofdagil insonlardan ishonch bildirilishi va ularni to'g'ri tushunish ular bilan munosabat o'rnatishda ahamiyat berishimiz kerak bo'lgan muhim omillar hisoblanadi.

Xulosa. Munosabatlarda turli hil holatlarda uning sabablarini bilish bevosita jarayonda yuzaga keladigan muammolarga to'g'ri yondashishga va ijobiy yechim topsihga sabab bo'ladi. Oddiygina giperaktiv xolerik tipiga mansub insonning farzandi flegmatik yoki melonxolik bo'lishi va buni noodatiy sustkashlik yoinqki, kasallik sifatida qabul qilib undan imkoniyati darajasidan ortiq narsani talab qilish bolada turli hil psixologik buzilishlarni yuzaga keltirishi mumkin. Insonning ayrim xususiyatlari uning fiziologik tuzilishi bilan bog'liq bo'lib buni to'g'ri tushungan holda unga yo'nalish bera olish kelajakda har bir shaxsning hayotda o'z o'rnini topishga hamda o'zi va o'zгалar uchun manffatli bir inson bo'lishiga sabab bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Ильин Е.П. Психология общения и межличностных отношений. - СПб.: Питер, 2009. - 576 с.
2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Антисоциальное_наказание
3. <https://studfile.net/preview/2626326/page:21/>
4. https://ru.wikipedia.org/wiki/Когнитивный_диссонанс
5. <https://www.psychologos.ru/articles/view/teoriya-kognitivnogo-dissonansa>
6. Nishanova Z.T. va boshq. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya: Darslik. - T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. - 600 b.

ПОВЫШЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ STEAM ОБРАЗОВАНИЯ

Мустарова Дилдора Эшмаматовна, учитель школы № 48 Шорчинского района Сурхандарьинской области

Аннотация. В данной статье рассмотрена важность повышения экологической компетентности учителей начальных классов с помощью методики STEAM обучения. Обсуждена эффективность такого подхода и приведены примеры практической деятельности и проектов, которые помогают учителям развивать свои знания и навыки в области экологии. Совершенствование экологических навыков учителей на основе STEAM образования оказывает существенное влияние на формирование экологического сознания и ответственности учащихся младших классов.

Ключевые слова: экология, компетентность, совершенствование, STEAM образование, междисциплинарный подход, учитель, творческие проекты, экологическая культура, начальное образование.

BOSHLANGICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI STEAM TA'LIMI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Mustarova Dildora Eshmamatovna, Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani MMTBga qarashli 48-maktabning o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada STEAM o'qitish metodikasi yordamida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik malakasini oshirish muhimligi ko'rib chiqiladi. Ushbu yonda-shuvning samaradorligini muhokama qilingan va o'qituvchilarga ekologiya bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan amaliy mashg'ulotlar va loyihalarga misollar keltirilgan. STEAM ta'limi asosida o'qituvchilarning ekologik ko'nikmalarini takomillashtirish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik ongi va javobgarligini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tayanch so'zlar: ekologiya, malaka, takomillashtirish, STEAM ta'limi, fanlararo yondashuv, o'qituvchi, ijodiy loyihalar, ekologik madaniyat, boshlang'ich ta'lim.

INCREASING THE ENVIRONMENTAL COMPETENCE OF PRIMARY EDUCATION TEACHERS BASED ON PAIRED EDUCATION

Mustarova Dildora Eshmamatovna, teacher of the 48 th MMTB school, Shorchinsky district, Surkhandarya region

Abstract. This article discusses the importance of increasing the environmental competence of primary school teachers using STEAM teaching methods. The effectiveness of this approach is discussed and examples of practical activities and projects are provided that help teachers develop their knowledge and skills in the field of ecology. Improving the environmental skills of teachers based on STEAM education has a significant impact on the formation of environmental awareness and responsibility in primary school students.

Key words: ecology, competence, improvement, STEAM education, interdisciplinary approach, teacher, creative projects, environmental culture, primary education.

Введение. Современное образование сталкивается с рядом экологических проблем, требующих эффективных решений в обществе. Одним из путей модернизации и обновления образования в мире XXI века является развитие системы STEAM образования.

Основная часть. Важная цель его реализации – расширение возможностей будущих учителей начального образования за счет развития технического и естественно-научного образования на основе установления связей между сетями STEAM с учетом необходимости развития навыков критического и творческого мышления учи-

теля и учащихся [1]. В связи с этим особое значение имеет повышение экологической компетентности учителей начальных классов, играющих ключевую роль в формировании мировоззрения и ценностей учащихся начального образования. Одним из эффективных подходов к достижению этой цели является обучение STEAM (наука, технология, инженерия, искусство и математика). STEAM education предлагает междисциплинарный подход, позволяющий объединить концепции экологии и компетентности в начальном образовании, улучшить педагогические навыки и расширить экологическую культуру. В рамках STEAM обучения учителя знакомятся с инновационными методами обучения, включая погружение в экологические проблемы и творческие проекты, которые способствуют развитию практических навыков. Такой подход обеспечивает взаимодействие учителя и ученика, стимулирует формирование экологической культуры и осознанного отношения к окружающей среде с раннего возраста. В этой статье исследуется важность и эффективность обучения STEAM для повышения экологической компетентности учителей в условиях начального образования.

Анализ литературы подтверждает эффективность методики STEAM по повышению экологической компетентности педагогов начального образования, в том числе Л.В.Моисеев и Ю.Г.Никитина детально рассмотрели опыт внедрения STEAM-образования в начальных классах с целью формирования экологической компетентности младших школьников, формирования экологической компетентности педагогов в своей работе. Подчеркнута важность сочетания естественных наук, технологий, искусства и математики для развития педагогических навыков и знаний, необходимых для преподавания экологии. Развивает междисциплинарный подход учителей начальных классов к развитию экологического сознания в области экологии, использования творческих проектов и эффективности учебного процесса по научным дисциплинам.

Методика исследования по совершенствованию экологической компетентности учителей начальных классов на основе STEAM-образования включает следующие этапы и подходы: 1. Определение целей исследования. 2. Анализ литературы. 3. Разработка учебной программы. 4. Реализация программы и сбор данных. 5. Анализ данных. 6. Интерпретация результатов и выводов. 7. Обсуждение и распространение результатов.

Важно отметить, что конкретные методы и инструменты исследования могут различаться в зависимости от конкретных целей исследования и доступных ресурсов. Кроме того, использование смешанного исследовательского подхода, сочетающего качественный и количественный подходы, может помочь более полно понять влияние STEAM образования на повышение экологической компетентности учителей начальной школы.

Кроме того, важным аспектом методологии исследования является этический аспект. Исследователи должны соблюдать принципы этики и защиты данных при работе с учителями и учениками, что включает в себя согласие участников исследования, конфиденциальность информации, а также рассмотрение этических рекомендаций и норм, существующих в научном сообществе. В целом, методология исследований по повышению экологической компетентности учителей начальной школы на основе STEAM образования должна быть систематической, многоуровневой и включать в себя различные этапы от планирования и разработки учебной программы до анализа данных и интерпретации результатов, что позволяет получить достоверные и актуальные выводы и рекомендации по использованию STEAM образования для развития экологической компетентности учителей начальной школы.

Результаты исследования по улучшению экологической компетентности учителей начальных классов на основе STEAM образования могут включать следующие элементы: 1. Оценка начального уровня экологической компетентности. 2. Применение учебной программы на основе STEAM. 3. Сбор данных в процессе обучения. 4. Анализ данных. 5. Оценка эффективности программы. 6. Выводы и рекомендации.

Результаты исследования могут показать положительное влияние учебной программы на повышение экологической компетентности учителей начальных клас-

сов. Учителя могут проявлять большой интерес к экологическим темам, расширять свои знания и навыки в этой области и больше полагаться на интеграцию экологических аспектов в свою педагогическую практику. Экологическая компетентность учителей начальных классов важна для формирования экологического сознания учащихся и ответственного отношения к окружающей среде. Поскольку учебная программа основана на образовании STEAM, она помогает развивать не только экологические компетенции, но и компетенции в науке, технологиях, инженерии, искусстве и математике. Такое интегрированное обучение помогает учащимся видеть связь между различными предметами и реальным миром, а также развивает их навыки критического мышления, творчества и сотрудничества. Повышение экологической компетентности учителей начальной школы с помощью STEAM education может создать более устойчивое и экологически сознательное сообщество, что способствует формированию нового поколения, способного анализировать и решать экологические проблемы, принимать ответственные решения и действовать в соответствии с принципами устойчивого развития.

Вывод. Исследование по совершенствованию экологической компетентности учителей начальных классов на основе STEAM образования показали, что такая учебная программа имеет большой потенциал для эффективного развития экологических знаний, навыков и взаимоотношений учителей. Учителя, участвовавшие в программе, проявили большой интерес к экологическим темам, расширили свои знания и навыки в этой области, убедились в интеграции экологических аспектов в свою образовательную практику. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости и важности внедрения таких учебных программ в образовательных учреждениях. Рекомендуется создавать сети поддержки для разработки дополнительных ресурсов и материалов, поддержки учителей в их обучении и обмена опытом между учителями. Такие меры способствуют распространению и укреплению экологически предвзятого подхода к образованию STEAM, что, в свою очередь, способствует формированию экологического сознания и ответственного отношения учащихся к окружающей среде. В целом, результаты исследования подтверждают, что включение экологических тем и принципов в образование STEAM является эффективным подходом к повышению экологической компетентности учителей начальной школы. Это не только способствует развитию экологической осведомленности и знаний учителей, но также влияет на формирование экологической осведомленности и активности учащихся, что важно для создания устойчивого и экологически ответственного будущего.

Литература

1. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3931 «О мерах по внедрению новых принципов управления в систему народного образования» от 5 сентября 2018 года.
2. Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-5863 «Об утверждении концепции охраны окружающей среды Республики Узбекистан на период до 2030 года» от 30 октября 2019 года.
3. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-134 «Об утверждении национальной программы по развитию школьного образования в 2022-2026 годах» от 11 мая 2022 года.
4. Yuldashovich K.A. STEAM integrated educational technology in enhancing e-learning effectiveness // European International Journal of multidisciplinary research and management studies. - 2022. - Т. 2. - № 11. - Р. 1-5.
5. Аршанский Е.Я., Сологуб Н.С. STEAM образование: модель лошади к практической реализации // Образование и воспитание. - М., 2020. - № 9. - С. 22-30.

ПОВЫШЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ STEAM ПОДХОДА

Тилавова Сайёра Бекмуратовна, преподаватель ЧГПУ

Аннотация. В данной статье речь идет об обеспечении экологического образования студентов, междисциплинарном STEAM-образовании и наведении студентов на практику, междисциплинарном сотрудничестве, творческих способностях, формировании междисциплинарной экологической культуры посредством самостоятельного обучения вне классной комнаты.

Ключевые слова: STEAM, образование, технология, дидактика, грамотность, практика, подход, образовательная программа, проект, интеграция.

STEAM YONDASHUVI ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI OSHIRISH

Tilavova Sayoera Bekmuratovna, ChDPU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning ekologik ta‘limini ta‘minlash, fanlararo STEAM ta‘limi va talabalarni amaliyotga yo‘naltirish, fanlararo hamkorlik, ijodiy qobiliyat, sinfdan tashqarida mustaqil o‘rganish orqali fanlararo ekologik madaniyatni shakllantirish haqida gap boradi.

Tayanch so‘zlar: STEAM, ta‘lim, texnologiya, didaktika, savodxonlik, amaliyot, yondashuv, ta‘lim dasturi, loyiha, integratsiya.

ZINAMA-ZINA METODIDAN FOYDALANISH**

Karimov Qayum Mamashayevich, p.f.n., QarDU professor v.b.

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarda Informatika va axborot texnologiyalariga oid bilimni zinama-zina metodi yordamida shakllantirish haqida fikrlar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: *texnologiya, axborot kommunikatsion texnologiyalari, interfaol metod, zinama-zina metodi, modullar.*

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛЕСТНИЧНОГО МЕТОДА ПРИ ОБУЧЕНИИ
УЧАЩИХСЯ РАБОТЕ СО СХЕМАМИ**

Karimov Kayum Mamashaevich, k.p.n., i.o. профессора КарГУ

Аннотация. В статье изложены идеи по формированию у учащихся знаний по информатике и информационным технологиям с помощью лестничного метода.

Ключевые слова: *технология, информационно-коммуникационные технологии, интерактивный метод, лестничный метод, модули.*

**THE USE OF THE LADDER METHOD IN TEACHING STUDENTS
HOW TO WORK WITH DIAGRAMS**

Karimov Kayum Mamashayevich, PhD, acting professor of KarSU

Abstract. The article presents ideas for the formation of students' knowledge in computer science and information technology using the ladder method.

Key words: *technology, information and communication technologies, interactive method, ladder method, modules.*

Kirish. Bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama intellektual, axloqiy va ma'naviy rivojlantirish uchun pedagoglar oldiga muhim vazifalar qo'yimoqda.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishni rivojlantirish konsepsiyasida Informatika fani umumiy ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblanishi tajribasidan milliy xususiyatlarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda jahon bozoriga malakali kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash maqsadida Informatika ta'limining me'yoriy hujjatlarini (DTS, malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari)ni ishlab chiqish va joriy etish belgilab berilgan [1; 359-b.]. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarining bilim saviyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda mos metodlar qo'llaniladi. Mamlakatimiz va bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda [2, 203-b.].

Hozirgi kunda o'qitishda qo'llanilayotgan ta'lim metodlari turlicha hamda kop sonli bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarga ega,

muayyan maqsadlarga, sharoitlarga mos ekanligi va boshqa sifatleri bilan bir-biridan farq qiladi. Darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib metodlarni tanlash maqsadga muvofiq.

Ta'lim tizimida axborot-ta'lim muhitidan foydalanish muammolari, ta'limni axborotlashtirish nazariyasi, metodologiyasi, amaliyoti bo'yicha Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va respublikamiz olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, A.A.Andreev, O.E.Belova, A.V.Baraulina, V.A.Krasilnikova, A.L.Nazarenko, L.F.Solovev, A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, M.H.Lutfillaev, N.I.Taylakov kabi olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Ushbu olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida bo'lajak informatika o'qituvchilarni tayyorlashda axborot-ta'lim muhitidan foydalanish metodikasiga oid izlanishlar tadqiq etilgan.

Informatika fanini noan'anaviy o'qitish metodlari A.Abduqodirov, F.Zokirova, M.Mamarajabov, D.Esonbayeva, M.T.Mihridinovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida keng yoritilib, amalda qo'llanilib kelinmoqda.

Pedagogik tajribalarning natijalari umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv jarayonida AKTni foydalanish o'qitishni samaradorligini oshirishini tasdiqlamoqda. AKTni darslarda foydalanish ko'p ijobiy tomonlarga ega bo'lishiga qaramay uning salbiy tomonlari ham mavjud.

AKTni maktablarda foydalanishning eng unumlisi – taqdimotdir. O'quvchilar materiallarni slayddan ko'chirib olishayotganida o'qituvchining tushuntirishlariga befarqlik hosil bo'ladi. Slayddagi axborot bilan ishlashda ko'z zo'riqadi. O'quvchilarning kompyuterda uzluksiz ishlash vaqti yoshlariga mos ravishda, masalan, 5-6-sinf o'quvchilari uchun 15-20 daqiqa.

Ta'limning shakllari, maqsadlari, mazmuniga bog'liq ta'lim metodlarini qo'llash o'qitishda o'zini ta'sirini ko'rsatadi. Tadqiqot ishining maqsadi. Zamonaviy metodlarning imkoniyatlarini tahlil qilib samarali jihatlarini aniqlash va zinama-zina metodi yordamida o'quvchilarga diagrammalar bilan ishlashni tushuntirishda foydalanish holatini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot vazifasi. Interfaol metodlarni o'quvchilarga informatikaga oid bilimlarni tushuntirishda qo'llash holatlarini aniqlash.

Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ularni qo'llash samaradorligi turli omillar bilan ham bog'liq. Metodni tanlashda o'quv materialining xususiyatiga, didaktik maqsadi va vazifasiga e'tibor berish lozim. Bundan tashqari, o'quvchilarning bilim darajasi va o'qituvchining pedagogik mahorati, zamonaviy metodlar bo'yicha bilimlariga bog'liq.

Nazariy mashg'ulotlar yuqori darajada o'zlashtirilmagan holda amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarining topshiriqlarini bajarilishi yuqori bo'lmasligi mumkin. Informatika va axborot texnologiyalari ta'limida ko'pincha o'quvchilar nazariy mashg'ulotlarni o'zlashtirishi past bo'lishi mumkin. Bunda o'zlashtirilgan bilimni mustahkamlash jarayonida o'quvchilar faolligini oshirish imkonini yaratuvchi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash lozim. Zamonaviy metodlarga interfaol metodlar ham kiradi. Shunday metodlardan biri «Zinama-zina» metodidir.

«Zinama-zina» metodi – bu mavzuga oid o'quv materialini oddiydan murakkabga qarab ketma-ketlikka asoslangan tushunchalar yordamida ta'limni amalga oshirishdir. Bunda o'qituvchi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishda dars uchun mo'ljallangan o'quv materialini bir nechta kichik qismlarga bo'lib oladi.

O'quvchilarni materialning bo'lingan qismlar soniga qarab kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir kichik guruhga kichik mavzu, ya'ni mavzuning bir qismi bo'yicha tushunchalarni

yozish uchun varaqalar tarqatiladi. Unga kichik guruh o'zlarining kichik mavzuga oid fikrlarini yozadi. Bu kichik mavzularning har biri darsning umumiy mavzusini o'rganish uchun zarur bosqichlar, ya'ni zinapoyalar hisoblanadi. Zinapoyalarni, ya'ni har bir kichik mavzuni o'rganish to'liq berilgan mavzuni o'rganishga olib keladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining Informatika va axborot texnologiyalari fanining mazmuni axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq ravishda tez o'zgarib bormoqda.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfida informatika va axborot texnologiyalari kursining mazmuni quyidagi modullardan iborat: matnli hujjat bilan ishlashni boshlash; tasvirlar bilan ishlashni boshlash; diagrammalar bilan ishlashni boshlash; dasturlashni boshlash; qidiruv tizimlarida ishlashni boshlash; elektron pochta da ishlashni boshlash.

1-modul quyidagi mavzularni o'z ichiga oladi:

Klaviatura yoki boshqa qurilma yordamida sodda so'zlarni kiritish. Matnni belgilash va uni tahrirlash. O'quvchilar kompyuterning sichqoncha yoki boshqa boshqaruv qurilmasi yordamida hosil qilingan matnli hujjatni biror nom bilan saqlash va uni printerda chop etishni bilishlari ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, mavjud hujjatli faylni ochish va matnni tekshirishda tegishli usullardan samarali foydalanishni bilishlari lozim.

O'quvchilar 2-modulda quyidagilarni o'rganishlari ko'zda tutilgan:

Tasvir va naqshlar yaratishda sodda shakl va chiziqlardan foydalanish, tasvirlarni tahrirlash hamda mavjud tasvirlarni boyitish. Bundan tashqari, tasvir yoki uning qismidan nusxa olish, tahrirlangan tasvirlarni biror nom bilan saqlashni o'quvchilar bilishlari lozim.

3-modulda ma'lumotlarni elektron jadvalga kiritish va saqlash, hamda kiritilgan ma'lumotlar asosida grafiklar, diagrammalar qurib, shunga ko'ra xulosalar chiqarish keltirilgan.

Bu modulda umumlashtiruvchi nazariy darslarni tashkil etish mumkin. Bunday darsda «Zinama-zina» metodini qo'llash uchun guruhni kichik guruhlarga ajratiladi.

Birinci kichik guruh EXCEL elektron jadvalida yacheyka, ustun va satrni nomlash, yacheykaga kiritiladigan ma'lumot turlari haqidagi tushunlarni kichik guruhga berilgan qog'ozga yozishlari kerak.

Ikkinchi kichik guruh o'qituvchi tomonidan berilgan masalaning ma'limotlarini jadval ko'rinishiga keltirishga oid tushunchalarni o'zlariga berilgan qog'ozga yozishlari kerak.

Uchunchi kichik guruh jadvaldagi ma'limotlar asosida diagrammalar qurish bo'yicha tushunchalarni o'zlariga berilgan qog'ozga yozishlari kerak. Qog'ozdagi natijalarni oddiydan murakkabga tomon zinapoya shaklida qog'ozlar doskada joylashtiriladi. Har bir kichik mavzular o'rganilib, to'liq berilgan mavzuni o'zlashtirishga erishiladi.

Xulosa. O'qitishda o'quvchilar faolligini oshirishda qiziqtiruvchi metodlar va «Zinama-zina» metodini qo'llash quyidagi yutuqlarni beradi: erkin, mantiqiy fikrlashga, hamda fanni chuqur o'rganilishiga erishadi; o'zlashtirish jarayonida faollik, mustaqillik shakllanadi va jamoaga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullashga o'rganadi.

Adabiyotlar:

1. Karimov Q.M., Omonova S.M. O'quvchilarga informatika va axborot texnologiyalariga oid bilimni o'rgatishda internetdan foydalanish. Межд.научно-практ // Экономика и социум. - М., 2024. - № 2(117). - С. 359-364.

2. Karimov Q.M. Talabalarni bilim va ko'nikmalarini lokal kompyuter tarmog'idan foydalanib rivojlantirish // Pedagogika. - T., 2023. - 6-son. - B. 203-205.

FIZIKA DARSLARIDA INTERAKTIV DASTURLARDAN FOYDALANISH

Barotov Muslimboy Usmonovich, TDPU dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya. Yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda fizika fanining ahamiyatini kelib chiqib, ta'lim muassasalarida o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini oshirish va bilimlarini oshirish maqsadida ta'lim jarayonining turli bosqichlarida interaktiv dasturlardan foydalanishning istiqbollari haqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: *Macromedia Flash MX, CorelDraw dasturi, SoundForge va Adobe Premier, MatCad, MatLab, Maple, Matematika sistemalari, Crocodile Physics, Electronics Workbench, Interactive Physics va boshqa dastur paketlari, Animatsion rolıklar.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ПРОГРАММ НА УРОКАХ ФИЗИКИ

Баротов Муслимбой Усмонович, доцент ТГПУ, к.п.н.

Аннотация. Исходя из значения физики в подготовке высококвалифицированных кадров, обсуждены перспективы использования интерактивных программ на различных этапах образовательного процесса с целью повышения интереса и знаний учащихся в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: *Macromedia Flash MX, программа CorelDraw, SoundForge и Adobe Premier, MatCad, MatLab, Maple, математические системы, Crocodile Physics, Electronics Workbench, Interactive Physics и другие пакеты программного обеспечения, анимационные ролики.*

USE OF INTERACTIVE PROGRAMS IN PHYSICS LESSONS

Barotov Muslimboy Usmonovich, TDPU associate professor, PhD

Abstract. Based on the importance of physics in the training of highly qualified personnel, the prospects for using interactive programs at various stages of the educational process are discussed in order to increase the interest and knowledge of students in educational institutions.

Key words: *Macromedia Flash MX, CorelDraw program, SoundForge and Adobe Premier, MatCad, MatLab, Maple, Mathematics systems, Crocodile Physics, Electronics Workbench, Interactive Physics and other software packages, Animation reels.*

Kirish. Hozirgi kunda mamlakatimiz oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifalardan biri bu o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va ularga imkon darajasida yangi texnologiyalar bilan ishlashni o'rgatishdir. Biz bilamizki, oxirgi yillarda butun dunyo rivojlanish yo'lida bir-birini ortda qoldirmoqda, shu bilan birgalikda bizning O'zbekistonimiz ham rivojlanayotgan davlatlardan ortda qolayotgani yo'q.

Asosiy qism. Yosh avlodning ilmiy va hayotiy dunyo qarashini kengaytirish o'qitish ishiga qo'shib olib boriladigan zarur pedagogik jarayondir. Bunga erishmoq uchun fanlarni I darajali yoki II darajali fanlar toifasiga ajratmasdan, balki bu fanlarning jamiyatimiz taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasiga asosan, kundalik turmushimizdagi bu fanlarga ehtiyojimiz asosida fanlarni bir-biriga uzviy bog'liq holda, kompleks ta'limni joriy etish uchun kurashmoq zarur. Jamiyatimizning yuksak darajada rivojlanishi, ilmiy-texnik taraqqiyotini e'tiborga olgan holda, ta'lim sistemasini uzluksiz ravishda takomillashtirishni hamda mutaxassislarning umumta'lim darajasini keskin oshirishni taqozo etadi.

Ta'limning mazmunini yangilash, ilmiylik darajasini oshirish, o'qitish metodlarini uzluksiz takomillashtirish, o'quvchilar bilimining oshirib borilishi – o'qituvchidan o'z bilimini uzluksiz ravishda to'ldirib va yangilab borishni, malaka va metodik mahoratini yuksaltirishni taqozo qiladi. Mamlakatimiz yuksalishiga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil – bu ta'lim-tarbiya tizimidir. Shu sababli yoshlarga ta'lim-tarbiya berishga iqtidorlilarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Istiqlolimizning istiqboli buyuk kelajak yaratish yo'lidagi maqsadlarimiz, xatti-harakatlarimizning pirovard natijasi bevosita ta'lim tizimidagi islohotlarimizga bog'liqdir. Ma'lumki, hozirgi kunda dunyoda barcha sohalarida axborotlar o'sib, ularni tahlil qilish jarayoni tobora murakkablashib bormoqda. Shunig uchun barcha sohalarida kompyuterlar va axbotor texnologiyalaridan unumli foydalanish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Axborot texnologiyalaridan ta'lim tizimida, ayniqsa, fizika fanini o'qitishda foydalanish – darsliklarning elektron versiyalari, elektron darsliklar, elektron plakatlar, hodisa va jarayonlarning virtual modellari, test dasturlari va laboratoriyalarning virtual stendlarini yaratish, masalalar echish va hokazo bosqichlardan iborat bo'lib, yoshlarning fizika faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda, hodisa va qonuniyatlarni chuqurroq anglab etishlarida, masofoviy va mustakil ta'lim olishlarida muhim ahamiyatga egadir. Bular orasida fizika ta'limini asosiy muammolaridan biri laboratoriyalarning virtual stendlarini yaratish shu kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni tashkillashtirish uchun ma'lum bir shart sharoitlar mavjud bo'lishi kerak.

Birinchidan, axborot resurslari bo'lishi kerak. Bularga: shaxsiy kompyuter, proektor, multimedia vositalari, skaner (murakkab sxemalar va chizmalarni, negativ plyonkadagi tasvirlarni kompyuterga o'tkazish uchun) raqamli fotoapparat, video kamera (video konferensiyalar o'tkazish uchun va yana boshqa maqsadlarda), printer, nusxa ko'chiruvchi qurilma (tarqatma materiallarni qog'ozga tushirish va ko'paytirish va yana boshqa maqsadlar uchun) va boshqa resurslar.

Ikkinchidan, maxsus dasturiy ta'minotlar hisoblanadi. Ta'lim tizimida multimediali elektron o'quv adabiyotlar, ma'ruzalar, virtual laboratoriya ishlari, har hil animatsion dasturlar va yana boshqa ishlarni yaratishda kerak bo'ladigan maxsus dasturlar hisoblanadi. Bu dasturlar juda ko'p bo'lib, misol uchun: animatsion roliklar yaratish uchun Macromedia Flash MX dasturidan foydalaniladi. Multimediali taqdimot ma'ruzalarini yaratishda hammamizga ma'lum bo'lgan Power Point va Macromedia Authorware dasturidan foydalaniladi. Elektron o'quv adabiyotlarni yaratish davomida keng foydalaniladigan tahrirlovchi dasturlar ham mavjud bo'lib ularga misol uchun, Adobe Photoshop dasturi orqali rasmlarni tahrirlash, sifatini oshirish uchun foydalaniladi. Shuningdek, CorelDraw dasturi orqali har xil grafiklarni yaratish mumkin. Tovush va videolarni tahrirlash uchun esa, mos ravishda SoundForge va Adobe Premier dasturlaridan keng foydalaniladi. Shuningdek, ta'lim tizimida tayyor ishlab chiqilgan multimediali elektron o'quv qo'llanmalar mavjud.

Ta'lim tizimida yuqorida keltirilgan Fizikon kompaniyasining dasturlarida tayyor modellar mavjud bulib, bunda foydalanuvchi boshlang'ich parametrlarni kiritib bir necha turkum ishlarni (laboratoriya ishlarini, masalalarni tahlil qilishda, taqdimot ma'ruzalarida animatsiyalaridan foydalanishda) keng foydalanishi mumkin. Bu turdagi dasturlardan tashqari yana boshqa turdagi dasturlar paketlari ham mavjud bo'lib, ular orqali foydalanuvchi ma'lum bir fizik jarayonlarni o'zi modellashtirishi mumkin bo'ladi. Aynan fizika fanini o'qitishda talabalarda fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun bunday dastur paketlari muhim pedagogik qurol hisoblanadi.

Fizik jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beradigan dasturlarga: MatCad, MatLab, Maple, Matemateka sistemalari, Crocodile Physics, Electronics Workbench, Interactive Physics va boshqa dastur paketlarini misol keltirish mumkin. Axborot texnologiyalari imkoniyatidan foydalangan holda kompyuter modellarini o'quv jarayonlarida foydalanish o'zining samarasini beradi. Kompyuter modellarini o'quv jarayonlarida qo'llash tamoyillari quyidagilar: kompyuter dasturi tajribani o'tkazish mumkin bo'lmagan yoki tajriba kuzatib bo'lmaz darajada harakatlangan paytda qo'llanilishi lozim. Kompyuter dasturi o'rganilayotgan detalni aniqlashda yoki echilayotgan masalaning illyustratsiyasida yordam berishi kerak.

Ish natijasida o'quvchilar model yordamida hodisalarni xarakterlovchi kattaliklarning ham sifatini, ham miqdoriy bog'lanishlarini ko'ra bilishlari kerak.

Dastur bilan ishlash paytida o'quvchilarning vazifasi turli qiyinlikdagi topshiriqlar ustida ishlashdan iborat, chunki bu o'z ustida mustaqil ishlashga imkon beradi. Bugungi kunda o'qitishning an'anaviy ko'rinishidan farq qiladigan zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratadi. Fizika fanini o'qitish borasida talabalar (o'quvchilar) ongida nazariyalarga oid modelning tasavvurlarini shakllantirish, hodisalar va jarayonlar bilan tanishtirishning samarali metodlarini ishlab chiqish muhimdir.

Pedagogik texnologiyani ishlab chiqish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida maxsus tadqiqotlar olib borishni ko'zda tutadi. Bunda, eng avvalo, quyidagilarni aniqlash lozim: ta'lim texnologiyalarini ilmiy ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish uchun ijtimoiy pedagogik asoslar mavjudligini aniqlash; ta'lim tizim sifatida nimani anglatishi va qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligini belgilash; ta'lim texnologiyasining funksional tizimi jarayon sifatida nimalardan iboratligini aniqlash; ta'lim texnologiyalari qay darajada to'g'ri kelishini va baholash mezonini ko'rsatib berish; pedagogik texnologiya tizimlari nazariyasining asosiy qonuniyatlariga mosligini nazarda tutib, ularning yo'l-yo'rig'ini ishlab chiqish.

Kompyuterlashtirish jarayoni shunday shiddat bilan ketmoqdaki, bir necha yildan keyin har bir maktab zamonaviy kompyuterlar bilan ta'minlanadi. Shuning uchun kompyuterlardan o'quv jarayonlarida foydalanishning o'quv-uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish zarur. Birinchi navbatda, elektron qo'llanma dasturlarni ishlab chiqish kerak. O'qituvchilar o'quvchilarga maktab dasturiga to'g'ri keluvchi dasturlarni qo'llashi, elektron darsliklar va topshiriqlarning qulay va tushunarli tomonini ko'rsatishi kerak. Elektron darslikni barcha fan pedagoglariga o'z darslarida qo'llash va shu yordamida dars o'tish vazifasi yuklatiladi.

Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish uchun informatsion texnologiyada fizik bilimlardan keng foydalaniladi. Kompyuter darslari an'anaviy darslarga qaraganda yengillik tug'diradi. Shuningdek, modellashtirishning o'ziga xos muhim tomonlari shundaki, unda turli xil fizik qurilma va asboblarni tayyorlash shart emas, hodisalarni jonli va tabiiy ko'rinishda tasvirlash, tajribani o'z fursat ichida istalgan marta takrorlash, kuzatish qiyin bo'lgan va umuman kuzatilishi mumkin bo'lmagan jarayonlarni ham namoyish etish olish imkoniyatiga ega.

O'qituvchiga kompyuter monitorida, shuningdek, multimedia proektor yordamida ko'pgina fizik effektlarni namoyish etishni hamda yangi noan'anaviy o'qitish turini takomillashtirish imkonini beradi. Bugungi kunga kelib informatsion texnologiyalardan foydalanish ko'zga ko'rinmas, tez yoki sekin o'tuvchi jarayonlarning, murakkab hodisalarining fizik mexanizmlarini animatsiya qilish imkonini yaratadi. Bu animatsion modelni multimedia-proektor tizimidan foydalanib namoyish qilish mumkin.

Fizika darsini rejalashtirishda kompyuter o'quv dasturidan to'g'ri foydalanish kerak, chunki kompyuterlarni har qanday darsda qo'llash mumkin. Shuning uchun uni rejalashtirish va ijobiy natijaga erishishda kompyuterdan qachon va qanday foydalanishni bilish zarur. Kompyuter dasturini qo'llash bilan kompyuterda o'tilgan darslar oddiy darsdan ko'ra yaxshiroq samara beradi. Bu esa, o'quv rejasini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi. Ta'lim berishning bu shakli o'quvchilarning mustaqil fikrlashini oshiradi. Bunda sinfga biror bir fizik hodisalarga oid muammoli savollar tashlanadi, har bir o'quvchi bu vaziyatga o'zining fikrini bildiradi va so'nggida ma'lumotlar umumlashtirilib vaziyatning yechimi aniqlanadi. Bu usul, ayniqsa, fizika darslarida juda qo'l keladi, chunki fizika tabiat haqida fan bo'lib muammoli vaziyatlarning turlari ko'p. Muammolarga asoslangan ta'lim elementidan foydalanish o'quvchilarning ijodiy fikrlashlari uchun sinfda sharoit yaratib beradi. Muammoni o'rganish ushbu texnologiyaning muhim qismidir.

Xulosa. Ta'lim jarayonda muammoni o'rganish o'quvchining nimalarga qodirligini ko'rsatadi, ularga motivatsiya bo'ladi. Ushbu texnologiyadagi bildirilgan fikrlarni to'g'irlash prinsipi ularning darajalarini farqlash, o'quvchilarning qanchalik ta'lim standartlariga mos ravishda bilim olayotganlarini ko'rib borishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Barotov M.U. Fizika fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2023-yil 14-noyabr. - J., 2023. - B. 743-747.
2. Губернаторова Л.И., Потехин К.А. Новые информационные технологии в процессе преподавания физики. - М., 2018.
3. Дьячук П.П., Ларигов Е.В. Применение компьютерных технологий обучения в средней школе. - Красноярск: КГПУ, 1996. - С. 167-171.
4. Nazirov Sh. Delphi tilida dasturlash asoslari. - T., 2018.
5. Aripov M. va boshq. Informatika va informatsion texnologiyalar: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. - T., 2019.

BIOLOGIK TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Xolmurodova Ozoda Suvonkulovna, TDPU erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada uzluksiz ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri o'quvchi va talabalarda kreativ fikrlashni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari haqidagi ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, biologik ta'lim jarayonida o'qitishni takomillashtirish borasidagi ayrim muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: *uzluksiz ta'lim, kreativ fikrlash, refleksiv, sinergetik va tizimli yondashuv, kasbiy kompetensiya, biologiya, biologik masalalar, ovqat ratsioni, oqsil, yog', uglevod.*

**ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ
БИОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

Xolmurodova Ozoda Suvonkulovna, соискатель ТГПУ

Аннотация. В данной статье представлены сведения по специфическим аспектам формирования креативного мышления у школьников и студентов, одной из важнейших задач, стоящих перед системой непрерывного образования. В нем также изложены проблемы совершенствования преподавания биологии и пути их решения.

Ключевые слова: *непрерывное образование, креативное мышление, рефлексивный, синергетический и системный подход, профессиональная компетентность, биология, биологические задания и задачи, пищевой рацион, белки, жиры, углеводы.*

**WAYS TO INCREASE THE QUALITY AND EFFICIENCY
OF BIOLOGICAL EDUCATION**

Xolmurodova Ozoda Suvonkulovna, applicant of TSPU

Abstract. This paper involves the information on the specific aspects of the formation of creative thinking between students and schoolchildren, one of the most important tasks, facing the system of continuous education. It also outlines the problems of improving the teaching of biology and ways to solve them.

Key words: *continuous education, creative thinking, reflexive, synergistic and systematic approach, professional competence, biology, biological assignments and tasks, diet ration, proteins, fats, carbohydrates.*

Kirish. Uzluksiz ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri o'quvchi va talabalarning kreativ fikrlashlarini shakllantirishdan iborat. Kreativ fikrlash – bu innovatsion (yangi, novator, original, nostandart, noodatiy va h.k.) va samarali (amaliy, natijaviy, tejamli, optimal va h.k.) yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash hamda takomillashtirish jarayonida faol ishtirok etish qobiliyatidir.

Kreativ fikrlash muammolarni hal qilishda noodatiy yechim topishga yordam beradi. Insoniyat sivilizatsiyasidagi barcha kashfiyotlar (oddiydan tortib eng murakkabigacha) kreativ fikrlash natijasi sanaladi. Kreativ fikrlashda ta'limning asosiy vazifasi talabalarning jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda zarur bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir.

Asosiy qism. Ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malaka va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka, ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon

sanaladi. Ta'limni tashkil etishdan asosiy maqsad: mehnat bozorida raqobatbardosh darajaga va ixtisoslikka ega bo'lgan, mas'uliyatli, o'z kasbining ustasi, turdosh kasblarni erkin uddalaydigan, o'z ixtisosligi bo'yicha jahon standartlari darajasida samarali ish bajara oladigan, uzluksiz ravishda o'z ustida ishlaydigan malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Tayyorlanayotgan kadrlarning malakali bo'lishi bevosita ularga dars berayotgan o'qituvchining kasbiy kompetentligini qanday darajada takomillashganligiga bog'liq [1, 7-b.].

Hozirgi axborotlar globallashuvi davrida, ta'lim sohasida ro'y berayotgan o'zgarishlar bevosita pedagoglardan o'z faoliyatini faol tarzda o'zgartirib, mazkur globallashuv jarayoniga moslashgan holda, o'z ustida muntazam ishlashini taqozo etadi. O'qituvchining asosiy vazifasi sifatli ta'lim-tarbiya berish orqali o'quvchi shaxsini kamol topishi va uning kelgusi hayotida qo'llay oladigan kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat [4, 24-b.].

Umumta'lim maktablari biologiya o'qituvchilarini kasbiy kompetentligida ko'zga tashlanadigan muammolarning yuzaga kelishlariga bir qancha omillar sabab bo'lmoqda. Ularga quyidagilarni ta'kidlab o'tish joizdir: bilimlarni izchil ravishda boyitib borilmasligi va yangi axborotlarni o'rganishlarining sustligi; Internet tizimidan yetarlicha foydalana olmasliklari; o'quvchilar uchun mo'ljallangan darslikdagi bilimlar bilan chegaralanib qolishlari; fandagi yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida samarali qo'llay olmasliklari; laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni tizimli tashkil etilmasligi; o'qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanilmasligi; aniq va tabiiy fanlar o'rtasidagi integrativ bilimlarni egallamaganligi; genetik savodxonlikni to'liq shakllanmaganligi; biologiyaga oid masalalar yechish kompetensiyalarni yetarlicha takomillash-maganligi kabilarni jihatlarni ta'kidlash joizdir [1, 34-b.].

Yuqorida sanab o'tilgan sabablar orasida biologiyaga oid masalalar yechish kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish jarayonida muhim sanaladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda biologiyaga oid masalalardan foydalanishning zaruriy sharti quyidagilar hisoblanadi: birinchidan, fan sohasidagi axborot hajmining ko'pligi, kengligi va tezda rivojlanib borayotganligi; ikkinchidan, texnik taraqqiyotning tezligi, zamonaviy laboratoriya jihozlarini tez taraqqiy etayotganligi; uchinchidan, o'qitishning turli texnik vositalari taraqqiy qilib bormoqda; to'rtinchidan, tashqi ta'sirlar, o'quvchilar uchun o'qituvchining qotib qolgan bilimidan qiziq telefon, Internet, ijtimoiy tarmoqlar va h.k.lar mavjud.

Tadqiqot ishlari ko'rsatdiki, biologiyaning turli yo'nalishlaridan keltirilgan masalalar yechimi biologik qonuniyatlarni, tabiat in'omlaridan to'g'ri foydalanish, alohida hayvon va o'simliklar biologiyasini hamda ekologiyasining o'ziga xos tomonlarini chuqur o'rganish imkonini beradi. Biologiyadan masalalar yechish o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, kreativ fikrlashlarini, barcha biologiya kursidan olgan bilimlarini umumlashtirish, tahlil qilish, xulosalash jarayonlarida muhim sanaladi.

Biologiyadan masalalar yechish – umumta'lim maktab o'qituvchilarining amaliy hayotda zarur bo'ladigan eng muhim kompetensiyalaridan biri hisoblanadi. Biologiyaga oid masalalar yechish biologik tushunchalar, nazariyalar, qonun, qoidalarni mohiyatini to'liq anglab yetish jarayonida katta amaliy ahamiyatga ega. Bu masalalar o'qituvchining o'quvchilar nazariy tayyorgarlik darajasini ancha oson bilish, o'simlik va hayvonot olami haqidagi tasavvurlarini chuqurlashtirishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishi, o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, o'quvchilarda biologik tafakkurni shakllantirish uchun asos bo'ladi [3, 76-b.]. Ma'lum tipdagi masalalar yechish usuli va uni bir necha marta takrorlash orqali o'quvchida ko'nikma va malakalar shakllanishi bilan bir qatorda biologik bilimlari orta boradi. O'qituvchilar o'quvchilarga biologiyadan masalalarni ayrim darslarda emas, balki izchillilik asosida butun biologiya kursini o'qitish davomida aniq ma'lum tartibda ishlab borgan taqdirdagina biologiyadan masala yechish kompetensiyalariga atroflicha ega bo'lib boradilar. Dars

jarayonida biologik masalalarni qo'llash natijasida dastlab umumta'lim maktablarining biologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi takomillashib boradi hamda o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashga erishadi.

Olimlarning ta'kidlashicha, o'quvchilarni bilim olishi jarayonida faqatgina darslikdagi nazariy bilimlar bilan chegaralanmasligi lozim. Nazariy bilimlar bilan birga biologiyaga oid masala va mashqlar yechish uyg'un holatda olib borish samarali ekanligi ma'lum. Ta'lim jarayonida bevosita masalalar yechish orqali o'rganilayotgan bilimlarning tub mohiyatiga tushunib yetishga sabab bo'ladi. Biologiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirish kreativ, refleksiv, sinergetik va tizimli yondashuvlarga asoslanishni talab etadi. Kreativ yondashuv bilimlarini oshirib borishni, so'nggi fan yangiliklarni tahlil qilib o'rganishni, dolzarb bo'lgan talablarni ang'lay olishni, fan yangiliklarni izlab topish, ularni tahlil va o'zining pedagogik faoliyatida samarali qo'llay bilishni taqozo etadi.

Tadqiqot natijalari biologiya o'qituvchining kasbiy kompetentligini takomillashtirish tizimini yaratish shart-sharoitlarini zamonaviy yondashuv va maxsus tamoyillarga tayanish zarurligini ko'rsatdi. Biologiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimi ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadni o'zida aks ettirishi kerak. Shu bilan birga bugungi kunda biologiya o'qituvchilarida muhim kasbiy sifat – innovasion fikrlash va matematik savodxonlik kompetentlikni tarkib toptirish zarur [3, 93-b.]. Yuqoridagi berilgan mulohazalarga asoslangan bir nechta biologik masalalarni yechish metodikasi bilan tanishsak bildirilgan fikrlarning amaliy ifodasi sanaladi.

1-masala. O'quvchining ovqat ratsionida oqsil, yog' va uglevodning umumiy miqdori 700 g bo'lib, oqsildan ajralgan energiya 410 kkal ni tashkil etadi. Agar ovqat tarkibidagi yog'dan hosil bo'lgan energiyadan 520 kkal ga ko'p bo'lsa, bir kecha – kunduzda hosil bo'lgan jami energiyaning qanchasi (kkal) kechki ovqatlanishdan hosil bo'lganligini aniqlang? (Ratsional ovqatlanishning yuqori foiziga amal qilingan).

Masalaning yechimi: bu tipdagi masalalarni yechishda o'qituchi yoki o'quvchidan integratsiyon bilimlarga tayangan holda kreativ fikrlashni taqozo etadi. Ma'lumki, darsliklarda 1 g oqsil va uglevodning har biri parchalanishidan 4,1 kkal dan, 1 g yog'ning parchalanishidan esa 9,3 kkal energiya ajralishi ta'kidlangan [2, 104-105-b.]. Masala shartida oqsildan ajralgan energiya 410 kkal ni tashkil etishi berilgan. Shunga ko'ra quyidagi amallar bajariladi: 1) Dastlab oqsilning umumiy massasi aniqlab olinadi, buning uchun: $410:4,1=100$ g oqsil demak, oqsil 100 g tashkil etishi ma'lum bo'ldi. 2) Endi yog'dan ajralgan energiya oqsildan ajralgan energiyadan 520 kkal ko'pligini hisobga olgan holda yog'dan ajralgan energiyaning umumiy qiymati aniqlanadi: $410+520=930$ kkal energiya yog'dan ajralgan. 3) Bu ma'lumotdan asoslanib, yog'ning miqdorini topiladi: $930:9,3=100$ g yog'. 4) Yog' va oqsilning massasini umumiy massadan ayirsak, uglevodning massasi kelib chiqadi: $700-200=500$ g uglevod. Demak, uglevodning massasi 500 g ga teng ekan. 5) Maskur ma'lumotga tayangan holda, uglevodning parchalanishidan hosil bo'lgan energiyani qiymati topiladi: $500\cdot4,1=2050$ kkal. 6) Shundan so'ng esa oqsil, yog' va uglevodning har birini hosil qilgan energiyasini qo'shish orqali organik moddalarning parchalanishidan hosil bo'lgan umumiy energiya aniqlandi: $410+930+2050=3390$ kkal umumiy energiya. 7) Kechki ovqat bir kecha-kunduzgi ovqat kaloriyasining 15-20% ini tashkil etishi va ratsional ovqatlanishning yuqori foiziga amal qilgan holda quyidagicha proporsiya tuziladi: $100\% : 3390 \text{ kkal} = 20\% : X = 678 \text{ kkal}$ ni tashkil etadi. Javob: o'quvchi 678 kkal energiyani kechki ovqatdan olganligi ma'lum bo'ldi.

2-masala. Sportchining tana massasi 70 kg bo'lib, bir kunlik iste'mol qilingan uglevoddan hosil bo'lgan jami energiya 2050 kkalga teng. Ozuqadagi kunlik oqsil va yog' miqdori teng bo'lib, uglevod miqdori ulardan 2,5 marta ko'p. Ovqat hazm qilishga va bir kecha-kunduzda bajarilgan ishga sarflangan energiya miqdorini kkal da hisoblab toping?

Masalaning yechimi: mazkur masala 8-sinf Odam va uning salomatligi darsligidan o'rin olgan «Energiya almashinuvi» mavzusiga tegishli bo'lib, uni ishlash jarayonida pedagog quyidagi

amallarni ketma-ketlikda bajarishi lozim [2, 104-b.]: 1) Dastlab pedagog 2050 kkal uglevod necha g ekanligini aniqlashi zarur. Buning uchun darslikda berilgan ma'lumotlardan $4,1$ kkal energiya 1 g uglevodning oksidlanishidan hosil bo'lishini asos qilib, 2050 kkal energiyani $4,1$ kkal energiya miqdoriga bo'lamiz va uglevod necha g ekanligini aniqlashi kerak: $2050:4,1=500$ g uglevodning miqdori. 2) Endi masala mazmunida noma'lum bo'lgan oqsil va yog' miqdorini topiladi: $500:2,5 = 200$ g bu esa, oqsil va yog'ning umumiy miqdori. 3) Uchinchi amal orqali oqsil va yog'ning alohida massasini topilib, ularning har biri necha kkal energiya hosil qilishi hisoblanadi: a) $200:2 = 100$ g dan oqsil va yog' borligi aniqlanib, ular qancha kkal energiya hosil qilishi hisoblanadi; b) $100:4,1 = 410$ kkal (oqsil), v) $100 : 9,3 = 930$ kkal (yog'). 4) Oqsil, yog' va uglevodning umumiy energiyasini yig'indisi hisoblanadi: $410 + 930 + 2050 = 3390$ kkal umumiy energiya. 5) Darslikdan bizga ma'lumki, energiya almashinuvi uch bosqichda boradi ya'ni: birinchi bosqich: asosiy moddalar almashinuviga sarflanadigan energiya; ikkinchi bosqich: ovqat hazm qilishga sarflanadigan energiya; uchinchi bosqich: bir kecha-kunduzda bajarilgan ishga sarflanadigan energiya. Temurning tana massasi 70 kgligi masala mazmunida berilgan, bu ma'lumotlarga tayanib, asosiy moddalar almashinuviga sarflanadigan energiya miqdorini aniqlab olinadi: (Eslatma: 1 kg tana massasiga 1 soatda 1 kkal energiya sarflanadi): $70 \cdot 24 = 1680$ kkal energiya asosiy moddalar almashinuviga sarflanadigan energiya aniqlangach, umumiy energiyadan ayirsak, ovqat hazm qilishga va bir kecha-kunduzda bajarilgan ishga sarflanadigan energiya miqdori kelib chiqadi: $3390 - 1680 = 1710$ kkal. Javob: Temur bir sutka davomida 1710 kkal energiya ovqat hazm qilishga va bir kecha-kunduzda bajarilgan ishga sarflanadigan [5, 63-p.].

Berilgan masalarni ishlash jarayonida o'qituvchi yoki o'quvchidan avval o'zlashtirgan bilimlaridan yangi vaziyatlarda qo'llash va kreativ fikrlashni taqozo etadi. Chunki, birinchi masalada oqsil, yog' va uglevodning umumiy miqdori 700 g ekanligi bayon etildi, oqsildan ajralgan energiya 410 kkal ni, ikkinchi masalada esa sportchining tana massasi 70 kg ekanligi va bir kunlik iste'mol qilingan uglevoddan hosil bo'lgan jami energiya 2050 kkalga tengligi ma'lumot uchun taqdim etildi. Bu berilgan ma'lumotlardan noodatiy va optimal yechimni chiqarish lozim bo'ladi. Natijada ovqatlanish ratsiyoni va energiya sarfi haqidagi bilim, ko'nikmalar shakllantiriladi.

Xulosa. Biologik ta'lim sifati va samaradorligini oshirish jarayonida innovatsiyon va axborot kommunikatsiyon texnologiyalar bilan bir qatorda, ta'lim amaliyotiga biologik masala va mashqlar yechishni tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Biologik masala va mashqlar yechish natijasida o'qituvchi yoki o'quvchidan avval olgan bilimlarini yangi kutulmagan vaziyatlarda qo'llash kompetensiyalarini takomillashtirishga zamin tayyorlaydi.

Adabiyotlar:

1. Shaxmurova G., Azimov I., Raxmatov U. Biologiyadan masalalar va mashq yechish. - T.: Sano-standart, 2017.
2. Aminov B., Tilavov T., Mavlonov O. Odam va uning salomatligi. - T.: O'qituvchi, 2019.
3. Raxmatov U. Biologiyadan masalalar va mashq yechish (sitologiya genetika asoslari). - T.: Tafakkur avlodi, 2020.
4. Berdikulov R.S. Developmental factor of chemical thinking of future chemistry teachers // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. - 2020. - T. 8. - № 9.
5. Kholmurodova O.S., Rakhmatov U.E. Problems of improving teaching in the process of biological education // Current research journal of pedagogics. - 2022. - № 3(02). - P. 62-67.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA DIDAKTIK TAMOYILLAR ORQALI QATTIQ JISMLAR FIZIKASIGA OID MAVZULARNI O'QITISHNING TAKOMILLASHTIRISH MODELI

Xushvaqto'v O'ral Norqobilovich, TDPU o'qituvchisi

Annotatsiya. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida didaktik tamoyillar orqali qattiq jismlar fizikasiga oid mavzularni o'qitishning takomillashtirish modeli, tarkibiy qismi, tuzilishi bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: qattiq jism, umumiy o'rta ta'lim maktabi, model, baholash darajalari, taloyil, texnologiya, metod, komponent, yondashuv, ta'lim vositalari.

МОДЕЛЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТОВ, СВЯЗАННЫХ С ФИЗИКОЙ ТВЕРДОГО ТЕЛА, С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ДИДАКТИЧЕСКИХ ПРИНЦИПОВ В ШКОЛАХ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Хушвактов Урал Норкобилович, преподаватель ТГПУ

Аннотация. Описана модель, компонент, структура совершенствования преподавания предмета физики твердого тела посредством дидактических принципов в общих средних школах.

Ключевые слова: твердое тело, общая средняя школа, модель, уровни оценивания, принцип, технология, метод, компонент, подход, образовательные средства.

A MODEL FOR IMPROVING THE TEACHING OF SUBJECTS RELATED TO SOLID STATE PHYSICS THROUGH DIDACTIC PRINCIPLES IN GENERAL SECONDARY EDUCATION SCHOOLS

Khushvaktov Ural Norkobilovich, teacher of TSPU

Abstract. The model, component, and structure of improving the teaching of subjects in solid state physics through didactic principles in general secondary schools are formulated.

Key words: solid state, secondary school, model, assessment levels, talents, technology, method, component, approach, educational tools.

Kirish. Hozirgi vaqtda AKT hamda virtual ta'lim vositalaridan foydalangan holda o'quvchilarda fizika fanining «Qattiq jismlar fizikasi» mazmuniga oid bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayonida ularning axborot kommunikatsion texnologiyalarga oid qiziqishlari, intellektuallikka yo'naltirilgan kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan maqsadlar dasturiy ta'lim vositalari uchun muhim maqsadlardan biri hisoblanadi. Bu maqsad o'quvchilar o'z fikrlarini bayon qilish, ularni oqilona mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu qobiliyatlar shaxsga vazifalarni birgalikda bajarish jarayonida hamkorlikni tashkil etish, tabiiy fanlardagi muammolarni muhokama qilishda o'zgalarning fikrini hurmat qilish, taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchligi va ifoda etilgan ma'nolarning haqqoniyligini aniqlash uchun zarur omillardan biri hisoblanib, umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv jarayonini tashkil qilishda, o'quvchilarning fizika faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda didaktik tamoyillar va didaktik

hamda AKT vositalaridan foydalanish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishga mustahkam zamin bo'ladi.

Asosiy qism. AKT vositalaridan foydalanishning muammo va qarama-arshiliklari: a) ijtimoiy-pedagogik; b) ilmiy va pedagogik; c) ilmiy va uslubiy.

Ijtimoiy-pedagogik. Zamonaviy vositalarni ta'lim oluvchilar bilimi barqaror o'sib borishi uchun buyurtmachining talablaridan kelib chiqqan holda o'rta maktabda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish darajasi, shu muammolarni hal qilish uchun zarur shart-sharoitlar mavjudligi

Ilmiy va pedagogik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan fanlar dasturlarining mazmuniga ta'lim yo'nalishlari o'quv materiallari va vositalarini kiritish orqali kuchaytirish.

Ilmiy va uslubiy. O'quvchilar uchun mo'ljallangan o'quv materiallar va vositalari bo'yicha boshlang'ich bilimlar hamda tajribalar fizika fani bo'limlaridagi mavzularda texnik ta'lim mazmunining talab qilinadigan tarkibiy qismi sifatida o'quv-uslubiy ta'minotni shakllantirish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quvchilarga dars va darsdan tashqari o'qitishda didaktik tamoyil, AKT dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishda quyidagi muammolar va qarama-qarshiliklar mavjudligi aniqlandi. O'quvchilarga ta'lim berish mazmuni, birinchi navbatda, jamiyatdagi turli sohalarida qo'llanilayotgan yangi texnika va texnologiyalarni yaratilishi, ishlab chiqarishda tatbiq qilinishining ilmiy asoslarini o'rgatish orqali AKT bilan fizika fanini integratsiyalash asosida mazmunan optimallashtirish bugungi kunning innovatsion talablariga to'g'ri proporsional bo'lgan paradigmatik jarayon hisoblanadi. AKT hozirgi zamon ishlab chiqarishining muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohani amalga oshirish ko'lamining kengligi, soha texnik vositalarining rivojlanib, takomillashib borayotganligi hamda ularning kelajakda jamiyat hayotiga ta'sir doirasi kengligi sababli uni o'rganish alohida ahamiyatga ega. AKTga oid o'quv materiallarni umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga texnik bilimlarni egallashlari uchun zaruriy vositalardan biriga aylanishi lozim.

Biz tadqiqot ishimizning mazkur qismida umumiy o'rta ta'lim maktablarida «Fizika» fanini didaktik tamoyillar orqali takomillashtirish modeli qarab chiqdik.

Tadqiqotchi O.M.Vlasenkoning ta'kidlashicha, model ko'p ma'noli tushancha bo'lib, muallif uchta eng keng tarqalgan talqinni keltirib o'tadi: model muayyan dizaynning bir turi sifatida, nushalarni yaratish va obyektning obrazli ko'rinish sifatida aniqlaydi. Olimning fikricha, pedagogik ilmiy tadqiqotlarda model mazkur obyektga: shaxs, harakat, xulq-atvor va muloqotga o'xshatish vazifasini bajaradi [1, 19-b.].

O.M.Vlasenko ishida modellarning klassifikatsiyasi ko'rib chiqilgan bo'lib, u quyidagi turlarga ajratilgan: aqliy, nutq, belgili, majoziy, asosli va funksional. Muallifning ta'kidlashicha, pedagogik tadqiqotlarda eng ko'p qo'llaniladigan modellar ikkilamchi obrazlar bo'lib, ular obyektning umumlashgan obrazidir. Y.O.Lodatko obyektning tanlash orqali pedagogik tadqiqotlarda fizikaviy hodisa va jarayonlarni modellashtirish algoritmini ochib berdi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, pedagogik ilmiy tadqiqotlarda modellashtirishning eng keng tarqalgan objekti – jamiyatning ta'lim yo'nalishi va qadriyat yo'nalishiga nisbatan konseptual tizimli yondashuvdir. Ta'lim jarayonida fizika o'qitishning konseptual metodik tizimini aniqlash uchun o'quv material mazmunining modelidan foydalaniladi. Keyingi bosqich fizika o'qitish texnologiyasini modellashtirish bo'lib, uning fizika o'qitishning turli bosqichlarida, ya'ni ma'ruza, amaliy, laboratoriya, mustaqil ta'lim va to'garak mashg'ulotlarida qo'llaniladigan metodologiyasi ishlab chiqiladi [2]. Pedagogik va ilmiy adabiyotlarni

tahlil qilish asosida P.V.Yakovlev ko'pchilik modellarni o'rganib chiqishi natijasida modelni moddiy yoki ideal sifatida tavsiflash mumkinligini qayd etadi [3].

Shunday qilib, fizika o'qitish quyidagi keltirilgan yondashuvlar bilan tavsiflanadi: ta'lim texnologiyasi muallifning ma'lum bir uslubiy yondashuviga konseptual asoslanishi kerak; o'qitishda kommunikativ kompetentlikning texnologik zanjiri aniq va maqsadga muvofiq ravishda qurilishi kerak; pedagogik texnologiyaning ishlashi shaxsga yo'naltirilgan va tabaqalashtirilgan tamoyillarni hisobga olgan holda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro birgalikdagi harakatini, muloqot, muomalada foydalanilishini ta'minlashi kerak; pedagogik texnologiyaning asosi amaliy faoliyat natijalarini o'lchash ko'rsatkichlari, kompetentlikning shakllanganlik darajasini baholash mezonlari va vositalarini o'z ichiga olishi kerak [4].

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilariga fizika fanining «Qattiq jismlar fizikasi»ga oid mavzularni o'qitish jarayonida ularning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish modelini ishlab chiqish, ularning fanni o'zlashtirish bosqichlarini, bilimlarni egallash metodikasiga doir yondashuvlarni hamda fanga qiziqirish yo'llari, texnologiyalari, amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish tamoyillari, shuningdek, egallagan bilimlarini baholash imkonini beradi. Quyida mazkur modelni keltiramiz, tadqiqotimiz davomida ushbu model asosida olingan natijalar tahliliga ko'ra, yakuniy xulosalar chiqariladi. Xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika o'qitish metodikasini axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish modeli, axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida fizikadan aralash, masalalar yechish va laboratoriya ishlarini tashkil etish, sinfdan tashqari darslarni tashkil etish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish metodikasi bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi. O'quvchilarga model va modellashdirish ancha tanish terminlar. Ular fizika fanida ideal gaz modeli, atomning planetar modeli, geografiya fanini o'rganganda globus Yer sharining modeli va hakoza. Model – bu biror predmetni, uni o'rganish boshqa obyektini bilish vositasidir. Modellashdirish terminini pedagogika faniga birinchi bo'lib Shtoff kiritgan. Modellashdirish – bu nazariy anglash jarayoni bo'lib, mantiqiy fikrlash asosida amalga oshiriladigan empirik yoki nazariy bilimlar majmuasidir. Modelning ta'rifi turli soha vakillari tomonidan turlicha talqin qilingan. Masalan, tadqiqotchilardan B.A.Glinskiy, Ye.P.Nikitin [5, 116-b.] modelni «O'rganilayotgan obyekt bilan mos keladigan (aynan bir xil emas, katta farq qilmaydi ham) va ba'zi jihatlari bilan obyektning o'rnini bosa oladigan hamda o'rganish jarayonida ma'lum darajada obyekt haqida ma'lumot beradigan mustaqil obyekt» sifatida ta'riflaydilar.

Hozirgi vaqtda umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining AKTga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishda fizika fanining laboratoriya ishlarida dasturiy ta'lim vositalari (PhET)dan foydalanib bajarish jarayonlarini amalga oshirishning modeli takomillashtirildi. Modelda o'quvchilarning fizika fani darslarini davlat ta'lim standarti talablariga amal qilgan holda AKT asosida takomillashtirish mazmuni, ketma-ketligi, uning tarkibiy qismlari quyida batafsil yoritilgan. Ushbu model motivatsion maqsadga yo'naltirilgan komponent, tashkiliy komponent, tuzilmali-mazmunli komponent, mazmunli texnologik komponent va natijaviy baholash komponentlaridan tashkil topgan.

Model maqsadi – umumta'lim maktablarida «Qattiq jismlar fizika»siga oid tushunchalarni o'qitishni didaktik tamoyillar asosida takomillashtirishdan iborat bo'lib, o'quvchilarni o'quv-uslubiy va didaktik ta'minot orqali innovatsion yondashuvlar va tamoyillarga asoslanib, didaktik, tashkiliy-metodik xususiyatlari o'rganildi.

O'quv jarayonini tashkil etish komponentlari: a) motivatsion, b) kognitiv, c) mexnologik, d) kreativ; e) muzulmali-mazmunli.

Yondashuvlar – umumiy oʻrta taʼlim maktablarida fizika fanining qattiq jismlar fizikasiga oid tushunchalarni didaktik tamoyillar va AKT yordamida oʻqitish (tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatli, kasbga yoʻnaltiruvchi va sinergetik) yondashuvlar asosida amalga oshiriladi.

Tamoyillar – taʼlim jarayonini amalga oshirish va uni tashkil etish tizimlarini ikki toifaga boʻlish mumkin boʻlib, ular taʼlim beruvchi va taʼlim oluvchi yoʻnaltirilgan boʻladi. Taʼlim beruvchiga yoʻnaltirilgan taʼlim tizimida taʼlimga, oʻquv dasturlariga, dars jarayonlariga qatʼiy ravishda yondashiladi. Taʼlim jarayonini boshqirish va tashkil etish markazlashlashgan tarzda amalga oshiriladi. Bunda taʼlim beruvchiga bilimning yagona manbai sifatida qaralladi. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida qattiq jismlar fizikasiga oid tushunchalarni takomillashtirish (ilmiylik, uzviylik, uzluksizlik, izchillilik, koʻrgazmalilik) tamoyillar asosida amalga oshirildi. Quyida har bir tamoyil tafsilotlari qisqacha izohlangan. Oʻquvchilarning bilim darajasi oshib borishiga va rivojlanishiga qarab fanni oʻqitishning didaktik tizimi muntazamlilik va izchillik tamoyiliga tobora yaqinlashtirib boraveradi. Qattiq jismlar fizikasiga oid darslarini oʻtkazishda dastur mazmuniga aniq rioya qilish, masalalar yechish, laboratoriya ishi, tajribalar oʻqitishda qoʻllaniladigan AKT vositalarini aniq belgilab, yuqori samara beruvchi metodlardan foydalanib taʼlim sifatini yanada oshirishga erishish mumkin.

Didaktik taʼminot – umumiy oʻrta taʼlim maktablarida fizika fanining qattiq jismlar fizikasiga oid mavzularni oʻqitishda oʻquv dasturi mazmuniga oid boʻlgan darslik, oʻquv qoʻllanma, metodik qoʻllanma va tayyorlangan materiallardan maqsadli va samarali foydalanib oʻqitishga qaratilgan manbalar majmuidir [6].

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida fizika fanining qattiq jismlar fizikasiga oid tushunchalarni didaktik tamoyillar orqali takomillashtirish, darsdan tashqari laboratoriya ishlariga oid mavzularni oʻqitish metodikasini optimallashtirish asosida oʻquvchilarning mustaqil-laboratoriya ishlarini bajarish jarayonlarini rivojlantirish, oʻquv materiallarini gʻoyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, oʻquv axborotlarining izchil bayon etilishi, oʻquvchilarning fizika faniga boʻlgan qiziqishini yanada oshiruvchi metod, shakl, vositalarini izchil qoʻllanilishi shuningdek, pedagogik faoliyatni tashkil etishda AKTning imkoniyatlaridan hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini takomillashtirishni qamrab oladi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida qattiq jismlar fizikasiga oid tushunchalarni didaktik tamoyillar orqali takomillashtirishda quyidagi innovatsion taʼlim metodlaridan foydalanish samarali ekanligini eʼtirof etish mumkin boʻlib, bular «Immutatsion Dinozavr», «Master class», «Idrok xaritasi», «Creative technology» va «Web Quest». Ushbu innovatsion taʼlim metodlari oʻquvchilarda fizik mazmundagi bilim, koʻnikma va malakalarni rivojlantirish hamda olingan bilimlarni hayotda va texnikada qoʻllay olish muhim ahamiyatga egadir.

Anʼanaviy ravishda qoʻllaniladigan taʼlim vositalariga darslik, rasmlar, jadvallar, nutq, laboratoriyalar, oʻquv jarayonini tashkil va boshqarish vositalari hamda oʻquv xonasidagi jihozlar, maket, model, didaktik materiallar va elektron taʼlim resurslari hamda AKT kiradi. Hozirgi kunga kelib zamonaviy axborot texnika vositalari, kompyuter va internetni ham oʻquv jarayonining tashkil etishda bevosita ishtirokini koʻrishimiz mumkin [7].

Umumiy oʻrta taʼlim maktablaridagi oʻquvchilarga dars va darsdan tashqari oʻqitishda didaktik tamoyil, AKT dasturiy taʼlim vositalaridan foydalanish muammolar va qarama-qarshiliklar hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab oʻquvchilarga taʼlim berish mazmuni, birinchi navbatda, jamiyatdagi turli sohalarida qoʻllanilayotgan yangi texnika va texnologiyalarni yaratilganligi, ishlab chiqarishga tatbiq qilinganligi ilmiy asoslarini oʻrgatish orqali AKT bilan fizika fanini integratsiyalash asosida mazmunan optimallashtirish

bugungi kunning innovatsion talablariga mos keladi. AKT hozirgi zamon ishlab chiqarishining muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohani amalga oshirish ko'lamining kengligi, soha texnik vositalarining rivojlanib, takomillashib borayotganligi hamda ularning kelajakda jamiyat hayotiga ta'sir doirasi kengligi sababli uni o'rganish alohida o'rin tutdi. AKTga oid o'quv materiallarni umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga texnik bilimlarni egallashlari uchun zaruriy vositalardan biriga aylandi. Modeldan foydalangan holda biz ko'rsatgan ketma-ketliklardan foydalanib yoritib berishlari mumkin.

Xulosa. Fizika fanining qattiq jismlar fizikasiga oid mavzularga doir masalalar yechish va laboratoriya (video va virtual) ishi darslarida o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini shakllantirishda AKT va dasturiy vositalaridan foydalanish, zamonaviy texnologiyalarning ishlashi to'g'risida yetarli bilimlarga ega bo'lishlarini, modda haqida tushuncha, qattiq jism va ularning turlari, qattiq jismlarning xossalari, Guk qonuni, prujina va uning bikirligi, prujinali va matematik mayatnik yasashda samarali xizmat qiladi. Fizika fanining qattiq jismlar fizikasiga oid tushunchalarni masallar yechish va laboratoriya ishlari darslarini tashkil etish fanning mazmuni barcha mavjud manbalardan, shu jumladan, o'quv adabiyotlaridan olingan ko'p sonli nazariy va amaliy ma'lumotlar, shuningdek, kerakli ma'lumotlarni mustaqil ravishda topa olish, tahlil qilish va qayta ishlash bo'yicha protsessual ko'nikmalardan olingan nazariy bilimlar tizimi hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Власенко О.М. Формирования моральных ценностей у младших учащихся способами моделирования педагогических ситуаций: Дис. ... канд. пед. наук. - Херсон, 2005.
2. Лодатко Є.О. Моделювання в педагогіці: точки відліку // Педагогічна наука: історія, теорія, практика, тенденції розвитку. - 2010.
3. Яковлев П.В., Яковлева М.Ю. Моделирование циклических процессов в образовательных системах // Вестник АГТУ. Серия: Управление, вычислительная техника и информатика. - А., 2012. - № 2. - С. 197-202.
4. Митина Н.А., Нуржанова Т.Т. Современные педагогические технологии в образовательном процессе высшей школы // Молодой ученый. - Ч., 2013. - № 1. - С. 345-349.
5. Stork D.J. Contemporary discipline-based astronomy education research study of K-12 teachers' astronomy knowledge using the test of astronomy standards. - USA, 2014.
6. Ҳамидов Ж.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда ўқитишнинг замонавий дидактик воситаларини яратиш ва қўллаш технологияси: Пед. фанл. д-ри ... Дис. - Т., 2017. - 337 б.
7. Жўраев А.Р. Дастурлаштирилган таълим воситалари асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетенцияларини шакллантириш методикасини такомиллаштириш: Пед. фанл. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... Дис. - Т., 2019. - 144 б.

BIOLOGIYA FANIDA EVRISTIK TA'LIMNING O'RNI

Sharipova Nilufar Qo'ychi qizi, O'zPFITI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Hozirgi kunda zamonaviy o'qituvchilar biologiya darslarini o'qitishda turlicha metodlardan, innovatsion ta'lim turlaridan foydalanishlari mumkin. Bu metodlarni qo'llay olish o'qituvchining mahoratiga, ish ajribasiga bog'liqdir. O'quvchilar mavzuni yaxshi o'zlashtirishida, diqqatini dars jarayoniga qaratishida evristik ta'lim katta ahamiyatga egadir. Ushbu maqolada biologiya fanida evristik ta'limning o'rni va qo'llanilishi haqida ma'lumot berilgan.

Tayanch so'zlar: *evristika, evristik ta'lim, Suqrot, A.V.Xutorskoy, ijodkorlik qobiliyati.*

РОЛЬ ЭВРИСТИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ В БИОЛОГИИ

Шарипова Нилуфар Куйчи кизи, базовый докторант УзНИИПН

Аннотация. Сегодня современные учителя могут использовать различные методы и инновационные виды обучения на уроках биологии. Умение использовать эти методы зависит от навыков учителя и должностных инструкций. Эвристическое обучение очень важно для того, чтобы учащиеся хорошо освоили предмет и сосредоточились на процессе урока. В этой статье представлена информация о роли и применении эвристического обучения в биологии.

Ключевые слова: *эвристика, эвристическое образование, Сократ, А.В.Хутурской, творчество.*

THE ROLE OF HEURISTIC LEARNING IN BIOLOGY

Sharipova Nilufar Quychi qizi, doctoral student of the UzSRIPS

Abstract. Today, modern teachers can use various methods and innovative types of teaching in biology lessons. The ability to use these methods depends on the teacher's skills and job descriptions. Heuristic education is very important for students to master the subject well and focus on the lesson process. This article provides information on the role and application of heuristic learning in biology.

Key words: *heuristics, heuristic education, Socrates, A.V.Khutorskoy, creativity.*

Kirish. Bizni o'rab turgan tabiatning biz hali yecha olmagan, kashf etmagan jumboqlari ko'p. O'simliklarda fotosintez jarayoni qanday kechadi? Tabiatdagi mavjudotlar qanday hayot kechiradi, oziq zanjiridagi hayvonlarning uzviy bog'lanishi nimaga bog'liq? Bu savollarning barchasiga biologiya fani javob beradi.

Asosiy qism. Biologiya fani yer yuzidagi barcha tirik mavjudotlarning tuzilishi, o'sishi va rivojlanishi, hayot kechirishini o'rganuvchi fan hisoblanadi. Biologiya fanida bilimlarni o'quvchilarga yaxshiroq singdirish uchun evristik ta'limni qo'llash yaxshi samaradorlik beradi. Evristik ta'lim metodini qo'llashda o'qituvchi tomonidan turli vositalar yordamida yangi bilimlarni izlab topish, kashf etish talab etiladi. Albatta, bunda, eng avvalo, o'qituvchi bilimlarning bir qismini o'zi o'quvchilarga berishi lozim, qolganini esa, o'quvchilarning o'zi topshiriqlarni yechish asosida mustaqil o'zlashtiradilar. Shu bois evristik ta'lim metodini qisman izlanuvchan metod deb ham atash mumkin. Deylik biologiya fanida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga biror masala beriladi. Bunda o'quvchilarga shu masalani ishlashning bir nechta usullarini topish topshiriq qilib beriladi. Lekin topshiriqni bajarishda ketma-ketlikka amal qilish kerakligi o'qituvchi tomondan nazoratga olinishi kerak. «Evrastika» so'zining ma'nosi ham aslida» izlayman», «kashf qilaman» degan ma'noni bildiradi. Evristik ta'lim texnologiyalari esa, o'qituvchi tomonidan mustaqil topshiriqlar berish orqali o'quvchilar o'zlari shu topshiriqlarga mustaqil yechim izlashi, o'z ustida

ishlashi, o'z imkoniyatlarini oshirishi va notanish vaziyatlarda ham o'z bilimlarini qo'llay olishiga olib keluvchi texnologiyalar hisoblanadi.

Asosiy qism. Evristik ta'lim ya'ni evristik o'qitishning muhim jihati shundaki, bu jarayonda nafaqat o'quvchilar, balki, o'qituvchilarning ham o'z ustida ishlashi natijasida ish – tajribalari oshadi. Chunki ustozlar ham o'quvchilarga vazifa qilib berilgan biologik topshiriq yechimining bir necha xil usullarni izlaydi, xattoki o'zida yangi bilimlarni kashf etadi.

Bizga ma'lumki, Suqrot o'zining shogirdlariga avval umumiy yo'naltiruvchi savol bergan, uning shogirdlari bu savolga javob berishgach, aniqlashtiruvchi savol bergan va haqiqiy javobni eshitmaguncha, shu javobga olib keluvchi savol beravergan. Shuning uchun ham evristik ta'limni asosini Suqrotning savol-javob suhbat metodiga tayanadi desak ham bo'ladi. Misol tariqasida o'quvchilarga zoologiya darsida shunday savol berish mumkin: Boshi tanasining 1/3 qismiga to'g'ri keladigan hayvon nomini ayting. Agarda o'quvchilar bu savolga tezgina javob topishsa juda ajoyib.

Ammo topa olishmasa bosqichma-bosqich to'g'ri javobga yaqinlashtiruvchi quyidagi jummalarni qo'shishi yoki qo'shimcha savollarni berish mumkin: 1. Bu hayvon sutemizuvchilarga kiradi. 2. Ular hech qachon quruqlikka chiqmaydi, suvda bolalaydi. 3. Bu hayvonlarning tishlari faqat oziqni ushlab turishga yordam beradi. 4. Tishli kitlar kenja turkumiga kiradi.

Javob bu hayvon – kashalot hisoblanadi. Xuddi shunday savolni delfinlar bilan bog'lab ham tuzish mumkin: 1) Bu hayvonning og'iz boshlig'ida bir xilda tuzilgan konussimon tishlari mavjud. 2) Boshi tumshuqqa o'xshash cho'ziq. 3) Ular tovush signallari yordamida o'zaro aloqaga kirishadi. 4) Kitsimonlar turkumiga kiradi.

Albatta, bu kabi topshiriqlarni o'quvchilarga turli xil usulda va turlicha ko'rinishda vazifa qilib berish mumkin. Yoki o'quvchilarga biologiyadagi muhim ekologik global va mahalliy muammolarga to'g'ri va foydali yechimlar topishni vazifa qilib berish mumkin. Bu kabi evristik topshiriqlar, albatta, o'quvchini fikrlashga, izlanishga, savollar yordamida muammoning yechimini topishga undaydi, bilimlaridan mustaqil hayotda to'g'ri foydalana olishini taminlaydi. A.V.Xutorskoyning ta'rifi bilan aytganda, evristik ta'lim – bu o'quvchining ta'lim maqsadlari va mazmunining o'ziga xos ma'nosini, shuningdek, diagnostika va xabardorlikni tashkil etish jarayonini shakllantirishga qaratilgan o'rganishdir. Evristik ta'lim – bu o'quvchi tomonidan amalga oshiriladigan kichik kashfiyot hisoblanadi va u jarayonda o'quvchining ijodiy faoliyati ham takomillasha boradi. Chunki bu jarayonda o'quvchilar o'qituvchidan tayyor bilimni olmaydi. Balki o'qituvchi tomonidan berilgan savol va topshiriqlarga o'zining ijodiy salohiyatini ishga solib yondashgan holatda yechim topishga harakat qiladi. To'g'ri bunda o'quvchilarning javoblari to'g'ri, noto'g'ri, mantiqli, mantiqsiz bo'lishi mumkin. O'qituvchi eng oxirida to'g'ri javobni o'zi aytadi. Lekin shuning bilan birga o'quvchilarda ijodiy o'z-o'zini anglashga erishish mumkin bo'ladi.

Aytish mumkinki, evristik ta'lim an'anaviy ta'limni inkor etmaydi. Ammo o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirish maqsadida ikkalasini birgalikda dars mashg'ulotlarida qo'llash maqsadga muvofiq. Evristik ta'limning an'anaviy ta'limdan yana bir farqi o'quvchilarning bu bilimlarni o'zlashtirishi ko'proq vaqtni talab qiladi. Evristik ta'lim shakllariga turli fan olimpiadalari, intellektual marafonlar, ijodiy musobaqalar va rolli o'yinlarni kiritishimiz mumkin. Quyida esa, biz biologiya darslarida foydalanishimiz mumkin bo'lgan evristik topshiriqlar bilan tanishamiz.

Hozirgi kunda fan va texnika rivojlanayotgan bir davrda axborot hajmining misli ko'rilmagan o'sishi, zamonaviy o'qituvchilardan tashabbuskorlik, tez va aniq qaror qabul qilish qobiliyati kabi fazilatlarini talab qiladi va bu ijodiy izlanish va mustaqil ishlash qobiliyatisiz mumkin emas. Har qaysi o'quvchiga ijodiy qobiliyatlarning paydo bo'lishi xosdir. Ulardagi bu qobiliyatlarni kashf eta olish va rivojlantirish mumkin. Evristik ta'limda o'qituvchi oldiga qo'yilgan talab ham shunda aslida.

1. Deylik yong'oq o'simligida barg bandining chap tomonida 10 ta barg joylashgan. Shunda bu yong'oqni necha yaproqli deyish mumkin?

2. Deylik siz kichik bir lampochkasiz. Odamning ovqat hazm qilish organlariga sayohat qilish imkoni tug'ildi. Nimalarni rasmini chizgan bo'lardingiz?

3. Butli o'rgimchak va yashil bronza qo'ng'izining tuzilishidagi farqlarni rasmlarda ifodalashga harakat qiling.

4. Biologiya darsida o'zingiz yaxshi o'zlashtirgan mavzuni qofiyali she'r tarzida ifodalay olasizmi?

Namuna:

Mavzu: Poyaning ichki tuzilishi.

Elaksimon naychalar deb atarlar bizlarni,

Beraylik ma'lumot biz ogoh etib sizlarni.

Erta-yu kech barglardan tashiyimiz oziq modda,

Ildiz, gul, mevalarga vazifamiz ham soda.

Faqat siz mehnatkashmas biz ham bordir bilingiz,

Yog'ochlik naylarimiz quloqqa tez ilingiz.

Ildiz shimigan suvni uzatamiz barchaga,

Agar bizlar bo'lmasak yashillik yo'q archaga.

Tortishish hech yarashmas biz axir bir oila,

O'tkazaylik kunimiz ahil – inoqlik ila.

Epiderma bizlarni asrar issiq-sovuqdan,

Po'stning parenximasini to'playdi borni yo'qdan.

Oziq modda to'plovchi o'zakdir hamxonamiz,

O'simlikning ustuni-poya bizning onamiz!

5. Ixtiro qilish qobiliyatingizni ishga solib, plastilin yoki oddiy qog'ozdan tasavvuringizdagi biror o'simlik va jonzotni yarating. Tuzilishiga ko'ra, uni sistematikaga soling.

Xulosa. Hozirgi kunda turli fanlar doirasida evristik ta'limni qo'llash samarali natija taqdim etishi mumkinligi o'tkazilayotgan qator tadqiqotlarda o'z ifodasini topmoqda. Buning sabablari sifatida biologiya fanida o'zlashtirish qiyinchilik tug'dirgan mavzularni evristik topshiriqlar yordamida o'quvchilarga oson yetkazish mumkinligi, shuning bilan birga dars mashg'ulotlarida evristik texnologiyalardan foydalanish ularda ijodkorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda yordam berayotganini aytib o'tish mumkin

Adabiyotlar:

1. Ведём эксперимент в школе: интернет, компетенции, эвристика: Сборник научных трудов / Под ред. А.В.Хуторского. - М.: Эйдос, 2009. - 314 с.

2. Король А.Д. Метод эвристического диалога как средство активизации учебно-познавательной деятельности школьников: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - М., 2002. - 23 с.

3. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya ta'limi texnologiyalari. - T.: O'qituvchi, 2002.

4. G'ofurov T. va boshq. Biologiyani o'qitishning umumiy metodikasi: O'quv metodik qo'llanma. - T., 2005.

5. Azimov I. va boshq. Biologiya: Metodik qo'llanma. - T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002.

6. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya o'qitish metodikasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - T.: TDPU, 2012.

7. Muradova D. Tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar // Архив научных публикаций JSPI. - J., 2020.

SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT FANLAR TA'LIMI

MUSIQA TA'LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Djalilov Ergash Kendjayevich, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professor v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqa ta'limi o'quv jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan inovatsion texnologiyalar hamda ulardan foydalanishning o'ziga xosliklari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarda musiqiy bilimlarni oson o'zlashtirish hamda taqdim etilgan muayyan bilimlarni tezkorlik bilan idrok etishga ko'maklashadigan o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish, Natijada, o'quvchilarda ijodiy jarayonga ongli munosabatning shakllanishi hamda musiqiy asarlar voqe'liklarini mustaqil idrok eta olish kabi imkoniyatlarning vujudga kelishi haqida bilimlar yoritilgan.

Tayanch so'zlar: *innovatsion pedagogik texnologiya, musiqa ta'limi, voqe'lik, idrok, ta'lim, tarbiya, muloqot, metod, axborot, xulq-atvor, odob, axloq.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Джалилов Эргаш Кенджаевич, и.о. профессора Узбекско-Финляндского педагогического института

Аннотация. В данной статье рассмотрены инновационные технологии, служащие повышению эффективности учебного процесса музыкального образования и особенности их использования. Кроме того, в статье показано использование современных методов обучения в учебном процессе, которые помогают учащимся легко усваивать музыкальные знания и быстро воспринимать определенные знания, что, как следствие, приведёт к формированию у учащихся осознанного отношения к творческому процессу и раскрытию способности самостоятельно воспринимать реалии музыкальных произведений.

Ключевые слова: *инновационные педагогические технологии, музыкальное образование, реальность, восприятие, воспитание, обучение, общение, метод, информация, поведение, манеры, этика.*

USE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN INCREASING THE EFFICIENCY OF MUSIC EDUCATION

Djalilov Ergash Kendjayevich, acting professor of Uzbek-Finnish pedagogical institute

Abstract. This article discusses innovative technologies that serve to increase the efficiency of the educational process of music education and the features of their use. Also in the article, in the educational process, the use of modern teaching methods, which help students easily assimilate musical knowledge and quickly perceive certain knowledge, leads, as a result, to the formation of a conscious attitude towards the creative process in students and reveals the ability to independently perceive the realities of musical works.

Key words: *innovative pedagogical technologies, music education, reality, perception, education, training, communication, method, information, behavior, manners, ethics.*

Kirish. Respublikamizning ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, shu jumladan, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda ta'lim-tarbiya jarayonlarini sifat jihatdan yangi bosqichlarga ko'tarish, zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish hamda axborot tizimi bilan ta'minlash kabi qator vazifalar belgilab berilgan [1]. Shuning bilan bir qatorda fan va ta'limning moddiy, uslubiy bazasi mustahkamlanib, o'quv-uslubiy, ilmiy, innovatsion, zamonaviy vositalar mukammallashib o'quv jarayoniga tadbiiq qilinib, ta'lim-tarbiya jarayonini innovatsion texnologiyalar vositasida tashkil qilish a'lohida dolzarflik kasb etmoqda. Xususan, musiqa ta'limi o'quv jarayonlarida ham innovatsion pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish a'lohida ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Musiqiy faoliyatlarni tashkil etish va boshqarishda o'qituvchining o'quv faoliyatini bir muncha soddalashtirish imkonini beradigan hamda mazmundor bo'lishida ta'lim texnologiyalari a'lohida ahamiyat kasb etadi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida musiqa ta'limi jarayonlarini tashkil etish, birinchi navbatda, o'quvchining dars faoliyatiga befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikr yurita olishiga, o'quvchilarda o'quv faoliyatiga ijodiy yondashuv bildira olishiga yangi bilimlarni o'zlashtirishiga, uni chuqur idrok olishiga ko'maklashadi. Bu kabi o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish o'quvchilarda musiqiy bilimlarni oson o'zlashtirish hamda taqdim etilgan muayyan bilimlarni tezkorlik bilan idrok etish imkonini beradi. Musiqa ta'limida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar vositasida ijobiy natijaga erishishda, o'quvchilar o'quv jarayonida mustaqil fikrlab, ijodiy izlanib, tahlil va xulosa chiqara olsalar, o'qituvchi tomonidan ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yaratib bera olsagina ushbu texnologiyalar o'z samarasini beradi.

Innovatsion pedagogik texnologiya – bu aniq ketma ketlikdagi yaxlit pedagogik jarayon bo'lib, o'quvchining ehtiyojidan va texnik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir [2]. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq. Musiqa ta'limi jarayonlarida o'qituvchi aniq maqsadlarni belgilab olishi hamda muayyan maqsadlarga erishishda bajariladigan vazifalarning amalga oshirilishida usul va metodlarning to'g'ri tanlanishi muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonda o'quvchilarning yosh xususiyati hamda o'zlashtirish imkoniyatiga e'tibor qaratiladi. Masalan, natijaga erishish uchun musiqa darslarida cholg'u asbobida asar ijrosini ko'rsatib berishda, tanlangan mavzuga oid video lavha yoki tarqatma material, notalar chizmasi va plakat, turli adabiyotlardan foydalanish o'quvchilarda muayyan bilimlarni o'zlashtirish imkonini beradi.

O'qituvchi tomonidan o'zi o'qitayotgan fanning har bir mavzusi bo'yicha tuzilgan texnologik xarita unda har bir mashg'ulotni yaxlit holda tasavvur etib yondashishga, tushunishiga, maqsadidan tortib, erishiladigan natijagacha ko'z oldiga keltira olsagina darsni mazmunli tashkil qilishiga imkoniyat yaratadi. Musiqa ta'limi jarayonida qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalar o'quvchilarni erkin fikrlashga, izlanishga har bir masalaga ijodiy yondashishi, mas'uliyatni sezish, o'z ustida mustaqil ishlash, tahlil qilish, ilmi-uslubiy adabiyotlardan, darsliklardan unumli foydalanishga, eng asosiysi tanlangan mavzu bo'yicha musiqiy bilim va ko'nikmalarni egallashda xizmat qilishi lozim.

Har bir fanni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari bo'lgani singari musiqa o'qituvchisining ham o'ziga xos metodi, yondashuvi, tashkilotchilik qobiliyatlari hamda bolalar bilan muloqot qila olish xislatlari bo'ladi. Bular ichida umumiy bo'lgan xususiyatlar

bu musiqa san'atiga, o'z kasbiga muhabbat, darslarga puxta tayyorgarlik ko'rish, o'quvchilarga ko'proq bilim va tushunchalar berish, o'tilgan mavzularni to'liq va mukammal o'zlashtirishga intilib, fidoiylik bilan, o'qituvchilik faoliyati olib borish bilan bir qatorda, musiqa o'qituvchisi o'quv va tarbiya ishlarini ham barobar olib boradi. U faqat o'z mutaxassisligi bo'yicha keng bilimga ega bo'lib qolmay, musiqa fani bilan bog'liq boshqa fanlardan, adabiyot, tasviriy san'at kabi fanlardan ham yaxshi bilimga ega bo'lishi lozim.

Musiqa darsi o'z tabiatiga ko'ra ham san'at ham tarbiya darsidir. Uni rang-barang sermazmun va qiziqarli tashkil qilish har bir o'qituvchidan katta pedagogik va professional mahorat talab qiladi. Bu o'rinda musiqiy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning ijodiy faolligini ta'minlash alohida ahamiyatga ega. Musiqani tushunish, uning hissiy-emotsional ta'siridan bahramand bo'lish bilim, malaka va ko'nikmalar qatori emotsional his-tuyg'ularning ishtirokiga ham bog'liq. Muayyan musiqiy asarni to'liq idrok etishda his-tuyg'ular qanchalik faol va chuqur bo'lsa, ularni tushunish va o'zlashtirish shunchalik samarali bo'ladi [3]. Bunday holatlar esa, o'z o'rnida ijodiy faollik natijasida sodir bo'ladigan jarayondir.

Umumta'lim maktablarining musiqa darslarini quyidagi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali samarali tashkil etish natijasida o'quvchilarni ijodkorlikka yo'naltirish, ularda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga xos tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytirish mumkin:

Boshlang'ich sinflarda: musiqiy didaktik o'yinlardan: «Musiqiy rebus» o'yini, «Musiqiy ohanglar nomini eslash», «Ohangidan top», «Musiqiy crosswordlar» kabilar. Ushbu musiqiy didaktik o'yinli ta'lim texnologiyalari musiqa ta'limi o'quv faoliyatlarini samarali tashkil etishda, o'quvchilarni faollikka undashda, ijodkorlikka yo'naltirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Tayanch o'rta sinf (5-7-sinf) musiqa ta'limi jarayonlarida «3x4 texnologiyasi», «Mantiqiy savol», «Minor-major (tun va kun)» musiqiy didaktik o'yini, «Skarabey» usuli, "Audio musiqiy mashg'ulot", «Multimedia texnologiyasi», «Bahs-munozara», «Musiqiy viktorina darsi», «Musiqiy sayohat» kabi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o'quv jarayonlarini muvaffaqiyatli olib borish yuqori samaradorliklarga erishish imkonini beradi. Shuning bilan bir qatorda bu kabi pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning ta'lim jarayoniga kreativ yondashuvlarini amalga oshirishga hamda mustaqil fikrlashga ko'maklashadi. Musiqiy faoliyatni mazmunli tashkil etish natijasida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari intuitsiya shaklida umumlashadi. Natijada, o'quvchilarda ijodiy jarayonga ongli munosabatda bo'lishga, musiqiy asarlar voqe'liklarini anglash kabi sifatlar shakllanadi. Musiqiy bilimlar insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma'naviy ozuqa beradi. Maktabda musiqa o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish, ularni zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazishdir.

Maktabda musiqa darslarini innovatsion texnologiya asosida o'qitishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: innovation texnologiyalar asosida o'quvchilarni musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishini oshirish; musiqa ta'limi jarayonida innovation texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning musiqiy qobiliyati, musiqiy uquvi, ovoz imkoniyati, diqqat-e'tibori va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish; musiqiy asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarning axloqiy-estetik tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytirish; musiqa darslarida o'quvchilarni interfaol metodlar vositasida kasb-hunarga yo'naltirish, mehnatga, tabiatga, Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat tuyg'ularini shakllantirish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish o'qituvchining kasbiy pedagogik mahoratiga bog'liq. Har qanday san'atkor ham maktabda musiqa madaniyati darslarini olib bora olmaydi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi bolalarni sevadigan, pedagogika, psixologiya, informatika, bolalar fiziologiyasi, musiqa o'qitish metodikasi kompyuter savodxonligi, interfaol metodlarni, innovatsion ta'lim texnologiyalarini hamda o'z musiqiy kasbiy fanlarini puxta o'zlashtirgan inson bo'lishi kerak [4]. Musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli hamda keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lishi lozim. Donishmand xalqimiz azal-azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, uning ruhiyatiga ijobiy tasir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr-oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini anglab yetgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish ota-ona orzusi hisoblangan. Bola musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqadan umrbod ozuqa oladi. Chunki bola ilk yoshidan hali yurishni, so'zlashni bilmay turib, musiqani eshitib, turli qo'l harakatlari bilan musiqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun azaldan har bir oilada musiqa cholg'u asboblardan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo'lib qolgan. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak ma'naviyatli, go'zallikni his eta oladigan inson bo'lishi kerak.

Xulosa. Xalqimizning kelajagi, istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning dunyoqarashiga, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. Ana shu xislatlarni o'zida mujassam eta olgan yetuk pedagog kadrlarni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Buning uchun ta'lim-tarbiya jarayonlarini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish a'lohida ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, o'quvchilarning estetik olamini kengaytirishga xizmat qiladigan, ularning hissiy olamini boyitib boradigan fanlarning biri musiqa ta'limidir. Ushbu musiqa ta'limi jarayonlarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish o'qituvchiga ham o'quvchilarga ham bir muncha ijobiy natijalarni beradi. Musiqa ta'limi o'qituvchisi bilimdon o'z kasbini puxta egallagan va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan mohirona foydalana olgandagina, kelajak avlodni ham shunchalik bilimdon, bilimga chanqoq, har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalay oladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son «Ta'lim to'g'risida» Qonuni.
2. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T., 2001.
3. Shomurodov J.O. O'quvchilarning badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallarini kognitiv qabul qilish layoqatini rivojlantirish mexanizmlari: Ped. fanl. fals. d-ri (PhD) ... Dis. - T., 2023. - 156 b.
4. Заболоцкая И.В. Новые информационные технологии в музыкальном образовании: Дис. ... канд. пед. наук. - СПб., 2000.

РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ КУРСАНТОВ ВОЕНИЗИРОВАННОГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ В БОЕВОЙ ПОДГОТОВКЕ ЧЕРЕЗ ФИЗИКУЛЬТУРНО-ОЗДОРОВИТЕЛЬНУЮ ПОДГОТОВКУ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Мирзахалилов Аброр Хабируллаевич, старший преподаватель кафедры боевой и физической подготовки Академии МВД

Аннотация. Современные военные образовательные учреждения ставят перед собой задачу не только формирования профессиональных навыков у курсантов, но и развития их физической подготовленности и боеготовности. Они анализируют современные методы и подходы, подчеркивают опыт военных образовательных учреждений в этой области. Это позволяет определить основные аспекты эффективной работы по формированию боеготовности курсантов и дать рекомендации по совершенствованию этого процесса.

Ключевые слова: физическое воспитание, тактика, практические занятия, спортивные упражнения, боевая техника, военная подготовка, выносливость, самодисциплина, гибкость, курсанты военного образовательного учреждения, компетентность, развитие.

JISMONIY TARBIIYA MASHG'ULOTLARI ORQALI HARBIYLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASASI KURSANTLARINING JANGOVOR TAYYORGARLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Mirzaxalilov Abror Xabirullaevich, IIV Akademiyasi Jangovar va jismoniy tayyorgarlik kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Zamonaviy harbiylashtirilgan ta'lim muassasalari o'z oldiga nafaqat kursantlar o'rtasida kasbiy mahoratni shakllantirish, balki ularning jismoniy tayyorgarligi va jangovar tayyorgarligini rivojlantirish vazifasini qo'ydi. Ular zamonaviy usullari va yondashuvlarini tahlil qiladilar, harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarining ushbu sohadagi tajribasini ta'kidlaydilar. Kursantlarning jangovar tayyorgarligini shakllantirish bo'yicha samarali ishlarning asosiy jihatlari aniqlashga imkon beradi va ushbu jarayonni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: jismoniy tarbiya, taktikalar, amaliy mashqlari, sport mashqlari, jang texnikasi, harbiy tayyorgarlik, chidamlilik, o'z-o'zini tarbiyalash, moslashuvchanlik, harbiylashtirilgan ta'lim muassasasi kursantlari, kompetentlik, rivojlantirish.

DEVELOPMENT OF COMPETENCE OF CADETS OF A MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTION IN COMBAT TRAINING THROUGH PHYSICAL AND HEALTH TRAINING AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Mirzaxalilov Abror Xabirullayevich, senior lecturer of the Department of combat and physical training of the Academy of the Ministry of Internal Affairs

Abstract. Modern military educational institutions set themselves the task of not only developing professional skills among cadets, but also developing their physical fitness and combat readiness. They analyze modern methods and approaches, highlighting the experience of military educational institutions in this area. This allows us to determine the main aspects of effective work to develop the combat readiness of cadets and give recommendations for improving this process.

Key words: physical education, tactics, practical exercises, sports exercises, military equipment, military training, endurance, self-discipline, flexibility, cadets of a military educational institution, competence, development.

Введение. Актуальность темы заключается в развитии компетентности курсантов военнизированного образовательного учреждения в боевой подготовке посредством физической подготовки, формировании у них чувства высокого уважения к истории и духовным ценностям нашего народа, важности его национальной безопасности для защиты Отечества.

Основная часть. Особое внимание уделяется совершенствованию механизмов развития духовно-нравственных качеств курсантов высших военных образовательных учреждений республики, повышению эффективного использования передовых инновационных технологий на новый качественный уровень при преобразовании системы военного образования в здоровую и конкурентоспособную в спорте духовно-нравственную среду. Об этом сказал Президент, Верховный Главнокомандующий Вооруженными Силами Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев: «в настоящее время, несмотря на принимаемые меры, система подготовки военных кадров не в полной мере отвечает требованиям времени. Мы не создали современных условий в военных учебных заведениях. ...Напротив, необходимо, чтобы наши курсанты и слушатели обладали самыми передовыми, инновационными знаниями и навыками в области образования. Вот наша главная цель» [1].

Закон Республики Узбекистан «Об оборонной доктрине» [2], одобренный Сенатом 20 декабря 2017 года, устанавливает принципы и подходы к обеспечению национальной безопасности Республики Узбекистан в военной сфере. В рамках исполнения постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан № 140 «Об утверждении Концепции военно-патриотического воспитания молодежи» от 23 февраля 2018 года воспитание курсантов военнизированного учебного заведения осуществляется в духе национальной идеи и преданности Родине, развития компетентности курсантов в боевой подготовке. Поэтому в текущий период необходимо развивать компетентность курсантов в боевой подготовке, имеющих физическую подготовку.

Цели и задачи темы развития боевой компетентности курсантов военно-учебного заведения через физическую подготовку направлено на достижение высокого уровня физической и психологической готовности к боевым действиям. Исходя из этого, целью физической подготовки является повышение силы, выносливости и общей подготовленности курсантов, что важно для развития у них способности противостоять физическим нагрузкам в боевых ситуациях и военных действиях. Благодаря физической подготовке курсанты могут развить важные боевые навыки, такие как рукопашный бой, обращение с оружием и тактические действия. Это повышает их боевую готовность и эффективность в боевых ситуациях. Физкультура не только укрепляет организм, но и развивает психологическую выносливость. Курсанты учатся преодолевать физические и умственные трудности, развивая при этом сильное мышление, необходимое для боевых ситуаций. Физическое воспитание часто включает в себя командные упражнения и мероприятия, способствующие командной работе и сплоченности курсантов. Эти навыки необходимы для эффективной координации и сотрудничества в боевых действиях. Военные операции часто требуют быстрого и эффективного принятия решений, а также способности адаптироваться к меняющимся ситуациям. Физкультура способствует развитию у обучающихся ловкости, рефлексов и навыков мышления. В целом цель развития боевой компетентности через физическую подготовку состоит в обеспе-

чении физической и моральной подготовленности курсантов к обязанностям военной службы, их способности эффективно выполнять свои обязанности в различных боевых условиях и обеспечении успеха в других видах боевой деятельности.

Содержание развития компетентности курсантов военизированного учебного заведения по боевой подготовке многогранно и сложно. Включает в себя широкий спектр компонентов, необходимых для подготовки курсантов к боевым ситуациям. Эти тренировки направлены на повышение их физической силы, выносливости, ловкости и общей боевой подготовки. В программе физической подготовки курсантов особое внимание уделяется боевой подготовке. Эти занятия включают силовые тренировки, сердечно-сосудистые упражнения, боевые искусства и техники рукопашного боя, полосы препятствий, тренировки на выносливость и тактические упражнения.

Содержание развития компетентности в боевой подготовке посредством физической подготовки курсантов военизированного учебного заведения направлено на создание прочной и устойчивой основы боевого духа. Он предназначен для подготовки курсантов к физическим и психологическим требованиям военизированной службы, вооружения их навыками, необходимыми для успеха в боевых ситуациях. Сосредоточившись на силе, выносливости, ловкости и тактических навыках, курсанты могут развить боевые навыки, необходимые для успеха в будущих офицерских ролях.

Развитие компетентности курсантов военизированного учебного заведения к боевой подготовке посредством физической подготовки необходимо по нескольким причинам. Во-первых, физическая подготовка имеет решающее значение для развития физической силы, выносливости, которые являются важными качествами для солдат в полевых условиях. Этот вид физической подготовки готовит курсантов к боевым физическим требованиям и обеспечивает их эффективную работу в сложных условиях. Важнейшей составляющей развития боевой подготовительной компетентности курсантов военизированного учебного заведения является физическая подготовка. Это не только помогает развить физическую силу и выносливость, но и повышает умственную деятельность, дисциплину и определенные боевые навыки. Инвестируя в физическую подготовку, военные образовательные учреждения могут обеспечить хорошую подготовку своих курсантов к боевым физическим и психологическим требованиям.

Применение инновационных методов развития компетентности курсантов военизированного учебного заведения в боевой подготовке посредством физической подготовки позволяет значительно повысить их навыки и умения. Традиционные методы физической подготовки давно используются для подготовки курсантов к боевым физическим нагрузкам, но с развитием спортивной науки и техники появились более эффективные и действенные методы повышения боевой квалификации. Один из инновационных методов, который все чаще используется - это интеграция обучения виртуальной реальности в программы физического воспитания. Обучение в виртуальной реальности позволяет курсантам испытать реальные боевые сценарии в контролируемой и безопасной среде, давая им ценный опыт и возможность столкнуться с различными боевыми ситуациями, что поможет не только улучшить их тактические навыки, но и развить способность быстро мыслить и принимать решения в стрессовых ситуациях. Еще один инновационный подход - использование носимых технологий, таких как фитнес-трекеры и биометрические дат-

чики для мониторинга и анализа физической активности курсантов во время обучения. Собирая и анализируя данные о частоте сердечных сокращений, движениях и других физиологических показателях курсантов, инструкторы могут адаптировать свои учебные программы, чтобы определить области, в которых они могут оптимизировать и улучшить свою успеваемость. Такой подход, основанный на данных, позволяет создать более персонализированный и целенаправленный режим обучения, который повысит общую боевую квалификацию. По мере развития технологий возможности развития боевых навыков с помощью физической подготовки становятся все более важными и способствуют развитию компетентности курсантов военизированного учебного заведения в боевой подготовке посредством физической подготовки, а также ее практическому использованию.

Важной задачей в развитии компетентности курсантов в боевой и физической подготовке является сосредоточение внимания на следующих актуальных вопросах: освоение и внедрение инновационных информационных технологий в боевую подготовку; почувствовать военно-патриотический дух; иметь физическую закалку, которая является фактором развития качеств храбрости, ловкости, силы и выносливости; постоянное изучение передового опыта зарубежных стран по военной физической подготовке и внедрение положительных особенностей; иметь практические знания в технических и прикладных видах спорта; формирование чувства гордости за Родину и высокой гражданственности. Поэтому в настоящее время курсантам военизированного учебного заведения необходимо обладать компетентностью в боевой подготовке, а также уровнем военной физической подготовки.

На сегодняшний день существует несколько способов организации возможностей развития компетентности курсантов военного учебного заведения в области боевой подготовки. Эти методы предназначены для того, чтобы дать курсантам навыки и опыт, необходимые для достижения успеха как на тренировках, так и на поле боя в боевых ситуациях. Он может эффективно предоставлять возможности для развития боевых навыков у своих курсантов, внедряя структурированные учебные программы и предоставляя практический боевой опыт, включая обучение физической подготовке.

В целях развития боевой компетентности курсантов военного учебного заведения посредством физической подготовки возможно преподавание нескольких дисциплин в разделе «развитие боевой компетентности курсантов». Эти элементы необходимы для обеспечения комплексной и эффективной программы обучения будущих военнослужащих. Вот несколько рекомендуемых: 1. Тактическая подготовка направлена на повышение специальной физической подготовки курсантов к боевым действиям. 2. Техника рукопашного боя. Обучение курсантов различным методам рукопашного боя, включая боевые искусства, ближний бой и оборонительную тактику, имеет важное значение для их самообороны и участия в ближнем бою. 3. Обращение с оружием и стрельба. Эта тема учит использованию, обслуживанию и эффективному использованию военного оружия. 4. Тактические действия и маневры. Курсанты изучают тактические действия в боевой обстановке, включая индивидуальные приемы действий, командные маневры и тактику городской войны. 5. Навыки оказания первой помощи и спасения жизни. Обучение навыкам оказания первой помощи в бою и спасения жизни важно для оказания неотложной медицинской помощи в боевых ситуациях. 6. Военные учения и формирования.

Курсанты обучаются военной подготовке, войскам и дисциплине. 7. Психологическая устойчивость и управление стрессом. Обучение курсантов управлению стрессом, выносливости и психологической готовности к бою может помочь им справиться с ситуациями высокого стресса, с которыми они могут столкнуться в полевых условиях. Включив эти дисциплины в учебный план в разделе «развитие компетенции курсантов в боевой подготовке», военное учебное заведение может предоставить комплексную учебную программу с учетом физических, тактических и психологических аспектов боевой подготовки.

Результат свидетельствует о том, что развитие компетентности в боевой подготовке курсантов военизированного учебного заведения на физкультурно-оздоровительных занятиях являются основополагающими и эффективно служат формированию физических, психологических и тактических навыков, необходимых для успешного формирования будущих военных специалистов.

Вывод. Курсанты военизированного учебного заведения добились успеха во многих аспектах, основанных на развитии компетентности в боевой подготовке на физкультурных занятиях. Кроме того, курсанты стремятся развить боевые навыки, связанные со среднесрочными боевыми силами, храбрость, а также физическое качество курсантов, профессиональные проверки, боеспособность и компетентность в боевой подготовке.

Литература:

1. Mirziyoyev Sh. Xavfsizlik kengashi majlisidagi «Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir» mavzusidagi nutqi // Xalq so'zi. - T., 2018. - 3-son.
2. Закон Республики Узбекистан «Об оборонной доктрине» от 9 января 2018 года.
3. Постановление Правительства Российской Федерации № ПК-4061 «О дополнительных мерах по патриотическому и физическому воспитанию молодежи и совершенствованию порядка подготовки призывников по военно-техническим специальностям» от 12 декабря 2018 года.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yildagi 118-son qarori.
5. Mirzakulov Sh.A. Belbog'li kurash nazariyasi va uslubiyati: O'quv qo'llanma. - T., 2013. - 149 b.
6. Nurshin J.M., Salomov R.S., Kerimov F.A. O'zbek kurashi. - T.: O'zJTI, 1993. - 231 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - T.: O'zbekiston, 2021. - 464 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-son «Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

DEVELOPMENT OF INTEREST IN PHYSICAL EDUCATION IN 6-7 GRADE STUDENTS IS THE KEY TO A HEALTHY LIFESTYLE

Alimova Nodira Saidakhmedovna, basic doctoral student of the UzRIPS

Abstract. The current research paper discusses the development of interest and motivation of students in grades 6-7 to physical culture alongside with the main issues of forming a valuable attitude towards physical activities and a healthy lifestyle among students. An importance of introducing innovative sport and mental games, interactive methods of physical education of the younger generation is taken into the consideration.

Key words: *physical culture, motivation, interest, teacher, student, healthy lifestyle, gaming and competitive technologies, interactive methods, health promotion.*

6-7 SINIF O'QUVCHILARIDA JISMONIY TARBIIYAGA QIZIQISHINI RIVOJLANTIRISH – SOG'LOM TURMUSH TARZI GAROVI

Alimova Nodira Saidaxmedovna, O'zPFITI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada 6-7-sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiyaga qiziqishi va motivatsiyasini rivojlantirish masalalari, shuningdek, o'quvchilarda jismoniy faoliyat va sog'lom turmush tarziga qadriyat munosabatini shakllantirishning asosiy masalalari ko'rib chiqilgan. Yosh avlod uchun innovatsion sport va aqliy o'yinlar hamda jismoniy tarbiyaning interfaol usullarini joriy etish muhimligi inobatga olingan.

